

23, 11ya
11-15

ARXITEKTURA TARIXI

25. Nya
A-15

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT ARXITEKTURA QURILISH INSTITUTI**

SH. ABDULLAYEV

ARXITEKTURA TARIXI

I QISM

**Umumjahon san'ati:
Ibtido, Qadimgi davr, O'rta asrlar**

*Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2018*

UDK 72.03(075)
BBK 85.11ya
A 15

Taqrizchilar:

*Fatcullayev R.S. — san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent;
Mamatmusayev T.Sh. — arx. f.n., dotsent*

Mas'ul muharrir: *Rahimova Sh.A.*

Abdullayev, Sh.

A 15 Arxitektura tarixi [Matn]: Q. I/o'quv qo'llanma/Sh. Abdullayev/
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — T.: Cho'lpon nomidagi
NMIU, 2018. — 276 b.
ISBN 978-9943-5380-3-0

Arxitektura san'at turi sifatida insonni o'rab turgan borliqni estetik ravishda shakllantiradi, jamiyat g'oyalarini badiiy obraz orqali ifoda etadi. Obrazli ifoda sifatida arxitektura o'zining ko'p asrlik tarixi davomida har doim tasviriy va amaliy-bezak san'ati bilan hamjihatlikda rivojlangan. O'quv qo'llanmaning birinchi qismi umumjahon Ibtido, Qadimgi davr va O'rta asrlar san'atiga bag'ishlangan.

Qo'llanma mashg'ulotlarning qisqacha dasturi, barcha mavzular bo'yicha rejali konspekt, tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati va seminar mashg'ulotlar mavzularidan tashkil topgan. Yigirma yettita mavzuning barchasi rejali konspekt ko'rinishda bo'lib, har bir o'tilgan mavzudan so'ng sahifalari bilan ko'rsatilgan adabiyotlar ro'yxati ilova qilinadi.

Qo'llanma arxitektura yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan bo'lib, undan shu sohaga qiziquvchilar ham foydalanishi mumkin.

UDK 72.03(075)
BBK 85.11ya

ISBN 978-9943-5380-3-0

© Sh. Abdullayev, 2018
© Cho'lpon nomidagi NMIU, 2018

UMUMJAHON SAN'ATI TARIXI. TASVIRIY SAN'AT VA ARXITEKTURA

(Ibtido, Qadimgi davr, O'rta asrlar)

◆ **1-mavzu.**

San'at tur va janrlari. Arxitektura soha va turlari

Tayanch iboralar: san'at ta'rifi, tushunchasi. San'at va uning kelib chiqishi, maqsadi, ifoda vositalari va vazifalari. Tur va janrlari. Arxitektura soha va turlari.

San'atning yuzaga kelishi insonning obyektiv voqelik to'g'ri-sidagi bilimlarining chuqurlashishiga, o'z ajdodi tajribalaridan bahramand bo'lishga olib keldi.

San'atning inson faoliyatidan mustaqil soha sifatida ajrab chiqishi XV asrga — Yevropada Uyg'onish davriga to'g'ri keladi. San'at deb, voqelikni estetik talablar yoki go'zallik qonuniyatlari asosida badiiy aks ettirishga yo'naltirilgan faoliyat tushuniladi.

XX asrdan, ya'ni ilm-fanning tezkor rivojlanish jarayonida insonning san'atga munosabati ham o'zgardi. Endilikda yuqoridagi izohlarga qo'shimcha ravishda «san'at» tushunchasi borliqni anglashning bir shakli sifatida ham namoyon bo'ldi. Real borliqni tushunish, tafakkur etishda san'atning imkoniyatlari ilmiy anglashdan qolishmaydi. Dunyoni tushunishda ilm qat'iy va bir ma'noli tushunchalarga asoslansa, san'at borliqni badiiy obrazlarda ifodalaydi. Avvallari, inson faoliyatining barcha sohalaridagi yuksak mahorat, iste'dod ham «san'at» deb tushunilgan. «San'atingizga qoyilman» so'z birikmasi hozirgi kunda ham a'lo darajada bajarilgan faoliyatga nisbatan qo'llaniladi.

Ilmiy nuqtayi nazardan san'at deb, inson tomonidan real borliqni o'zlashtirib, uni badiiy obraz shaklida ifodalashga aytiladi. San'at asari esa insoniyatning tarixiy-madaniy tajribasi asosida amalga oshirilgan konkret badiiy ijod mahsuli hisoblanadi. Badiiy obraz asarga faqat borliqning tashqi ko'rinishini ko'chirish bilan

emas, balki san'atkorning borliqqa ijodiy munosabati bilan belgilanadi.

San'at turlari. San'at turlari juda keng bo'lib, shartli ravishda – fazoviy san'at turlari va vaqtli san'at turlariga bo'linadi. Fazoviy yoki uch o'lchamli san'at turlariga o'lchami (bo'yi, eni, hajmi) bor rang-tasvir, grafika, haykaltaroshlik, amaliy san'at va arxitektura kiradi. Ma'lum bir vaqt mobaynida rivojlanadigan turlariga esa musiqa, teatr, kino, adabiyot va h.k kiradi. Soha xususiyatlaridan kelib chiqqan holda mazkur kursda bizlar arxitektura san'atiga yaqin bo'lgan tasviriy san'at va amaliy san'at namunalari turlari, janrlari va tarixini o'rganamiz.

Inson his-tuyg'ulari, voqea va hodisalar haqidagi tasavvur va xayollarini chiziqlar, ranglar, oq-qora bo'yoqlarda, hajmli yoki hajmsiz, rangli yoki rangsiz shakllarda biror yuza yoki makonda aks ettirish san'atiga tasviriy san'at yoxud obrazlar tasviriyoti san'ati deyiladi. Mazkur tushuncha rang-tasvir, grafika va haykaltaroshlikning turli ko'rinishlarini birlashtiradi.

Tasviriy san'at asarlari tanlangan materiallar (ashyolar), tasvirlash vositalariga qarab, **grafika, rang-tasvir, haykaltaroshlik** turlariga ajratiladi. Bu san'atning har uch turi o'zaro bir-biri bilan bog'liq, lekin ularning har birining o'ziga xos tomonlari, maxsus xususiyatlari, tarixi bor.

Grafika va uning turlari. Tasviriy san'atning keng tarqalgan va eng ommabop turi grafika san'ati hisoblanadi. Bu san'atga biz har kuni va har qadamda duch kelamiz. Oddiy qora qalamda chizilgan surat, kitobning ichki va tashqi tomoniga ishlangan turli badiiy chizma va bezak rasmlar, yo'l chiptasidan tortib, murakkab rasmiy pul va lotereya qog'ozlari, plakat, etiketka, o'rama (upakovka), markalar shu san'atning turli ko'rinishlari hisoblanadi. «Grafika» iborasi yunoncha «graphike», «grapho» so'zlaridan olingan bo'lib, yozaman, chizaman, rasm ishlayman mazmunini anglatadi. Bu ibora dastlab yozuv va husnixatga nisbatan ishlatilgan, XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib uning mazmuni kengayib, o'z ichiga rasm san'atiga asoslangan qalamtasvir va bosma tasvir (gravvura san'atining turli ko'rinishlari)ni olib o'zining maxsus xususiyatlarini va chegarasini belgiladi.

Grafika san'ati o'zining mazmuni va bajaradigan vazifasiga ko'ra qator turlarga ajraladi.

Bular: 1) kitob-gazeta va jurnal grafikasi; 2) amaliy (yoki sanoat) grafika; 3) plakat; 4) dastgohli grafika hisoblanadi.

Kitob, gazeta-jurnal grafikasi. Bosmadan chiqayotgan jami kitoblar, gazeta-jurnallarning bezaklari, ularga tanlangan harflardan tortib, muqova rangigacha, ichki qismidagi chizma va rasmlar grafikaning shu turiga kiradi. Kitob, gazeta-jurnallarga ishlangan rasm, chizma va bezaklarning vazifasi shu kitob yoki gazeta-jurnalning mazmunini o'quvchiga yetkazib berish hisoblanadi va ularning mohiyati bilan bog'liq bo'ladi.

Amaliy (yoki sanoat) grafikasi. Amaliy (yoki sanoat) grafika ham kundalik turmushda ko'p ishlatilgan turli yo'l chiptalari, lotereya va pul qog'ozlari, sanoat buyumlari qutilari yuzasiga yopishtirilgan turli yozuv va rasmlar, har xil etiketkalarni o'z ichiga oladi. Ular buyum yoki mahsulotning mazmunini, mohiyatini tezroq tushunib olishga ko'maklashadi. Turli taklif qog'ozlari, yorliqlar ham shu san'at turiga mansub bo'lib, ularning hammasi rassom tomonidan ishlanadi va muomalaga kiritiladi.

Plakat. Plakat (nem. «plakat», frans. «placard» — so'zidan olingan bo'lib, e'lon, afisha, yopishtirish, ilib qo'yish ma'nosini anglatadi). Plakat deyilganda ko'proq rassom ishlagan asl nusxa asosida poligrafiya uslubida ko'p nusxada bosib chiqarilgan nusxalar nazarda tutiladi. Unda tasvir va yozuv (matn)lar orqali davrning muhim voqealari o'z ifodasini topadi. Plakat mavzusi keng bo'lib, kundalik turmush yangiliklarini, uning yutuq va kamchiliklari, xalqaro hayotda sodir bo'layotgan muhim voqea va hodisalarini aks ettiradi. Ular maishiy, siyosiy yo'nalishda realistlik yoki satirik uslubda ishlanishi mumkin. Plakat o'z mazmuni va maqsad-vazifalariga qarab siyosiy, maishiy, hajviy, shuningdek, instruktiv plakatlarga ajraladi.

Dastgoh grafika. Dastgohli grafika san'atning biror turi bilan bog'liq bo'lmay, o'zida mustaqil g'oya va fikrlarni bayon qiladi. Turli manzaralar, odamlar qiyofasi, voqea-hodisalar grafikaning tasvir va ifoda vositalari orqali ochib beriladi. Grafika asarlari o'zining ishlanish uslubiga qarab qalamtasvir (risunok), gravyura,

(ksilografiya, litografiya va ofort) deb yuritiladi. *Qalamtasvirga* qoʻlda ishlangan barcha rasmlar (tasvirlar) kiradi. Bu rasmlar oddiy qora qalam, pero, ruchka, moʻyqalamda ishlanishi mumkin. Grafikaning biror moslama orqali qogʻozga tushirilgan nusxalarini *gravyyura* deb atashadi.

Bunda, odatda, biror yuzaga, masalan, yogʻoch yuzasiga rasm oʻyib ishlab olinadi, soʻngra shu yuzaga boʻyoq surilib, u qogʻoz sathiga tushiriladi. Shunda oʻyilgan joylar, chiziqlar oq qolib, oʻyilmagan joylari esa berilgan boʻyoq (masalan, qora) rangida qoladi. Shu hosil boʻlgan tasvirni gravyyura deyiladi. Gravyyura fransuzcha soʻz boʻlib, «oʻymoq» mazmunini bildiradi. Agar gravyyura yogʻochdan tushirilgan boʻlsa, bu grafika asarini ksilografiya yoki yogʻoch gravyyurasi deb ham ataladi (ksilos — yogʻoch). Tasvir tosh yuzasiga oʻyib ishlansa — *litografiya* (*litos* — tosh) deyiladi. Agar tasvir linoliium yuzasiga chizilgan tasvirdan tushirilgan boʻlsa, u holda bu gravyyurani *linogravyyura* deb nomlanadi, agar rasm temir (alumin, mis) kabi materiallar yuzasidan tushirilgan boʻlsa, uni *ofort* deb yuritiladi.

Rang-tasvir va uning turlari. Rang-tasvir deb rangli ashyo-materialda (boʻyoqlar — akvarel, moyboʻyoq, tempera, guash, yelim boʻyoq va b., rangli tosh, shisha va va h.k.) biror yuzaga (qogʻoz, mato, taxta, devor va b.) ishlangan rassom asariga aytiladi. Rang-tasvir asarlari bajaradigan vazifasi, uslubi va koʻrinishiga qarab *monumental rang-tasvir*, *dastgoh rang-tasvir*, *dekorativ (bezak) rang-tasvir*, *ikona*, *miniatura*, *diorama*, *panorama* turlariga ajratiladi.

Monumental (mahobatli) rang-tasvir. Meʼmorchilik sanʼati bilan bogʻliq boʻlgan rang-tasvir asarlarini monumental (mahobatli) rang-tasvir deb ham yuritiladi. Monumental rang-tasvir meʼmorchilik majmuyida maʼlum miqdorda bezak vazifasini oʻtaydi, shuning uchun ham u monumental-dekorativ rang-tasvir deb ham yuritiladi.

Dekorativ rang-tasvir. Dekorativ rang-tasvir meʼmorchilik va amaliy sanʼat bilan bogʻliq boʻlib, asosan, bezash vazifasini oʻtaydi (dekorativ soʻzining maʼnosi ham lotincha bezash demakdir). Ishlatiladigan buyumlarning goʻzal boʻlishi uchun bu sanʼatdan

foydalaniladi. Teatr, kino dekoratsiyalari ham shu san'at ko'rinishlaridan.

Dastgohli rang-tasvir. Dastgohli rang-tasvir deyilganda maxsus yasalgan ramkaga tortilgan mato ustiga ishlangan rassom asari nazarda tutiladi. U molbert deb ataladigan alohida dastgohda ishlangani va shu holda namoyish etilgani uchun ham shunday nomlanadi. Dastgohli rang-tasvir monumental va dekorativ rang-tasvirdan farqlanib, biror san'atga bog'liq bo'lmaydi va mustaqil idrok etiladi.

Miniatura. Bugungi kunda miniatura deyilganida kichik hajmda nafis ishlangan tasviriy san'at asarlari nazarda tutiladi. Qutichalar, katta bo'lmagan yuzalarga lok, moybo'yoq, temperada ishlangan kichik hajmli rasmlar rang-tasvirning shu turiga kiradi va lok miniaturasi deyiladi. Kitob bezagi unsurlari-illustratsiyalar, insiallar, zastavka, xotima miniaturaning keng tarqalgan turlaridan hisoblanadi, ularni ko'pincha *kitob miniaturasi* tarkibiga kiritiladi.

Miniatura bir tomondan kitob bilan bog'liq holda uning ajralmas qismi sifatida ishtirok etsa, ikkinchi tomondan u amaliy san'at buyumlarining bezagi sifatida qo'llanilishi hamda mustaqil rang-tasvir turi sifatida ishlatilishi mumkin. Miniatura rang-tasvirning dastgoh turi sifatida o'zida mustaqil g'oya va mazmuni ifodalaydi. Bunga lok miniaturasi, kichik hajmdagi yuzaga (qog'oz, teri, yog'och va h.k.) ishlangan va mustaqil g'oyani ifodalovchi tasvirlar, rasm kompozitsiyalari, medalonlarga ishlangan portretlar kiradi.

Diorama (grek. *dia* — orasidan, orqali va *horama* — ko'rinish, tomosha), xona ichida devori bilan yarim aylana ichiga ishlangan old tomoni turli buyum va ularning mulyajlari bilan to'ldirilgan rang-tasvir asari.

Panorama (grek. *Pan* — hammasi va *horoma* — ko'rinish, tomosha), butun xona ichida aylana ichiga tortilgan lentasimon yuzaga ishlangan va old tomonlari butafor va real buyumlar bilan to'ldirilgan hamda markazdan turib aylanib ko'rishga mo'ljallangan tasviriy san'at — rang-tasvir asari. Odatda, bunday asarlar dumaloq zal ichiga ishlangan bo'lib, zal o'rtasiga ishlangan ko'rish maydonchasidan kuzatish, idrok etishga mo'ljallangan. Panoramaning birinchi namunasi XVIII asrda irland rassomi R. Barker tomo-

nidan Edinburgda ishlangan. XIX asrga kelib, bu san'at Yevropa mamlakatlarida keng yoyildi. Uning mashhur namunalaridan biri rus rassomi Frans Ruboning 1912-yili ochilgan «Borodino jangi» panoramasidir.

Mahobatli rang-tasvir turlari. Mahobatli rang-tasvir asarlari ishlatilgan ashyolar va uslubiga qarab devoriy rasm, *freska* (*al-freska*), *mozaika*, *vitraj*, *panno*, *plafon*, *sgraffito* deb ataladi.

Devoriy rasm — *freska* (ital. *fresco* — yangi) to'g'ridan-to'g'ri devor sathidagi ohak bilan ishlov berilgan ho'l suvoq ustidan suv bo'yoqda yoki maxsus ishlov berilgan devor yuzasiga moybo'yoqda ishlanadi. Me'morchilik bilan bog'liq holda monumental kompozitsiyalar yaratish imkonini beruvchi *freska* devoriy rassomlikning asosiy usullaridan hisoblanadi. Odatda, ohak suvoqli yuza tez qurish xususiyatiga ega bo'lgani uchun rassomdan tezkor ishlashni talab qiladi. Agar rassomning mahobatli rang-tasviri yuzaga (devor yuzasi, pol yuzasi va h.k.) rangli toshlardan ishlangan bo'lsa, u *mozaika* deb yuritiladi. Bunday rang-tasvir rangli tosh, shisha, koshin (sirli sopol) parchalaridan biror qattiq yuzaga (devor, pol, taxta va h.k.) yelim, sement yoki shunga o'xshash bog'lovchi yordamida yuzaga terib yopishtiriladi.

Monumental rang-tasvir vitraj sifatida ham bajarilishi mumkin.

Vitraj (frans. *vitrage*, lot. *vitrum* — shisha, oyna). Rom yoki eshik ko'zlariga oyna yoki shunga o'xshash o'zidan nur o'tkazadigan materialda ishlangan naqsh yoki mavzuli kompozitsiya vitraj deyiladi. Qurilish amaliyotida bino old tomonining to'liq yoki qisman oynali ishlanishi ham vitraj deb yuritiladi.

Panno (frans. mato parchasi) — atrofi xoshiya bilan chegaralanib (ramkaga olinib), ichiga rassomlik (haykaltaroshlik — bo'rtma tasvir — barelyef, gorelyef, yoki naqsh) kompozitsiyasi ishlangan devorning qismi yoki maxsus joyga (o'rindiqqa) mo'ljallab ishlangan rang-tasvir (haykaltaroshlik — bo'rtma tasvir, naqqoshlik, o'ymakorlik) kompozitsiyasi *panno* deyiladi.

Plafon fransuzcha so'z bo'lib, keng ma'noda xonaning teppa qismi, shiftiga ishlangan tasvir ma'nosini anglatadi.

Sgraffito (ital. *sgraffito* — tirnab o'yilgan) mahobatli rang-tasvirning yangi turlaridan hisoblanadi. U rang qo'shilgan ohakli

qum-suvoq yoki ohakli sement-suvoq bilan suvalgan yuza qatlamlarini kerakli rang qatlamigacha pichoqchalar yordamida kesib olish natijasida hosil boʻladigan devoriy rasm turidir.

Haykaltaroshlik. Haykaltaroshlik tasviriy sanʼatning boshqa turlari (grafika, rang-tasvir)dan oʻzining *hajmi* bilan ajralib turadi. Hajm oʻlchami — bu sanʼatning qaysidir bir maʼnoda yutugʻi ham hisoblanadi.

Stol ustiga qoʻyiladigan haykalchalar, park va xiyobonlarga oʻrnatilgan haykal va yodgorliklar, binolarning devorlari, tanga, nishon, medallarning yuzasidagi boʻrtma tasvirlar haykaltaroshlik sanʼatining turli koʻrinishiga kiradi.

Haykaltaroshlikning ikkinchi koʻrinishi qavariq yoki boʻrtma haykallar, odatda, biror yuzaga boʻrttirib ishlangan boʻladi. Bunday haykallar *relyef* deb ataladi. Relyef fransuzcha yuza maʼnosini anglatib, odatda, bunday haykallar faqat bir tomondan koʻrishga moʻljallangan boʻladi. Mazkur haykaltaroshlik asarlarining dumaloq haykaltaroshlikdan farqi, unda kenglik, tabiat manzaralarining koʻrinishi ham aks etadi, hayotda sodir boʻladigan voqealar maʼlum muhitda koʻrsatiladi. Shuning uchun bunday relyeflar baʼzan sanʼat tarixida perspektivali relyef deb ham yuritiladi. Relyef sanʼati tasvirlanishi jihatdan biror-bir yuzadan boshlansa ham, ozmi-koʻpmi, albatta, hajmga ega boʻladi. Tasvir hajmining baland-pastligiga qarab, relyef, oʻz navbatida, *barelyef* (past boʻrtma), *gorelyef* (baland, doʻng boʻrtma) kabi turlarga ham boʻlinadi.

Koʻp hollarda haykaltaroshlikni plastik sanʼat ham deb atashadi. Mazkur atama qadimgi yunonlardan olingan boʻlib, dastavval ular haykaltaroshlikni *plastos* (yunoncha yasalgan; yasilib yaratilgan) deb atashgan.

Haykaltaroshlik turlari. Haykaltaroshlik asarlari ham tasviriy sanʼatning boshqa turlari kabi oʻzining bajaradigan vazifasi, mazmuniga qarab, qator turlarga boʻlinadi. Bular:

- mahobatli (monumental) haykaltaroshlik;
- dastgoh haykaltaroshlik;
- dekorativ haykaltaroshlik;
- mayda plastika yoki terrakota.

Mahobatli (monumental) haykaltaroshlik. Mahobatli haykaltaroshlikka me'morchilik san'ati bilan bog'liq bo'lgan haykaltaroshlik asarlari kiradi. Muhim tarixiy voqealar, atoqli shaxslar xotirasini abadiylashtirish maqsadida ko'cha va xiyobonlarda o'rnatilgan monument, turli xildagi yodgorliklar, haykaltaroshlikning shu turiga mansub. Mahobatli haykaltaroshlik asarlari ko'p hollarda qahramonlarni ko'tarinki ruhda tasvirlaydi. Mahobatli haykaltaroshlik asarlari uzoqdan ko'rishga mo'ljallanganligi sababli, katta-katta, yaxlit shakllardan keng foydalaniladi.

Dastgoh haykaltaroshlik. Dastgoh haykaltaroshligiga mustaqil mazmunga ega bo'lgan, san'atning boshqa turlariga tobe bo'lmagan asarlar kiradi. Bunday asarlar ko'rgazmalar, uylarga qo'yish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Haykaltaroshlikning bu turida voqelik butun borlig'i bilan aks ettiriladi hamda inson psixologiyasidagi nozik o'zgarishlar, uning ichki ruhiy kechinmalari, kayfiyatini ochib berish imkoniyati katta bo'ladi.

Dekorativ haykaltaroshlik. Istirohat bog'lari, xiyobonlar, ko'cha va parklar, shuningdek, me'morchilik binolarining devorlarini bezash uchun ishlatiladigan haykallarning hamma turlari dekorativ haykaltaroshlik san'atiga mansub. Agar monumental haykaltaroshlik asarlarida mavzu aniq, obrazlar ko'tarinki ruhda ishlansa, dekorativ haykaltaroshlik asarlarida mavzu aniq ko'zga tashlanmasligi, obrazlar biroz erkin, shartli bo'rttirishlardan foydalanish orqali talqin etilishi mumkin. Haykaltaroshlikning bu turida turli hayvonlar shakli ham keng ishlatiladi. Binolarning devorlariga ishlanadigan turli bo'rtma tasvirlar, amaliy san'at buyumlarining yuzasiga ishlangan tasvirlar, turli fontanlar, panjaralar, badiiy darvozalar ham shu haykaltaroshlikning ko'rinishi hisoblanadi.

Tasviriy san'at janrlari. *Janr* fransuz tilidan olingan bo'lib, «genre» — tur, ko'rinish ma'nosini anglatadi. Tasviriy san'at turlarining muayyan mavzular bilan cheklangan ko'rinishi. Janr nomini tasvirlangan obyekt va uning mazmuni belgilaydi. Janr tushunchasi XV—XVI asrda Yevropada shakllanib, tezkor ravishda rivojlanayotgan san'atni chuquroq tushunish uchun qo'llanila boshlangan. Masalan, tabiat manzaralarini aks ettiruvchi rasmlar manzara janriga mansub bo'lsa, odam qiyofasini aks ettiruvchi

rasmlarni portret janriga kiritiladi va h.k. Tasviriy san'atning asosiy janrlari: *portret, manzara, naturmort, maishiy, tarixiy, batal, animal* va *marina* hisoblanadi. San'at ham tarixiy kategoriya. Shakllangan janrlar san'atning tarixiy rivojlanish jarayonida jiddiy o'zgarishga moyil va sintetik xarakterli yangi janrlarning paydo bo'lishi ehtimoli bor.

Portret janri (frans. *portrait, portraire* – tasvirlash) – Odam yoki odamlar guruhini aks ettiruvchi tasviriy san'at janri. Mazkur janrda mavjud bo'lgan yoki o'tib ketgan biror-bir shaxs yoki shaxslar guruhi, rassom (ijodkor) tasavvurida paydo bo'lgan xayoliy qiyofalar aks etishi mumkin.

Mazmuniga qarab, portret janri shartli ravishda *intim, tantanavor, tarixiy, ijtimoiy, psixologik, kostumli* va *avtoportret*larga bo'linadi. Portret san'atida tasvirlovchi sof holda atrofdagi muhitni ko'rsatmasdan yoki uning biror faoliyati bilan bog'liq muhitda tinch holatda, o'zining o'ylari, tashvishlarini tasvirlasa, intim portret deyiladi. *Tantanovor portret*da rassom tasvirlanuvchining jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatishga harakat qiladi. Shuning uchun bu yerda rassom turli xil atributlardan keng foydalanadi: ordenlar, qimmatbaho buyumlardan, interyer va kiyimlarning boyligini salobatli va ma'nodor ishora bilan ko'rsatadi. *Tarixiy portret*da tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxslar tasvirlansa, *ijtimoiy portret* xalqning hayoti, o'rni va kerak bo'lsa jamiyatning rivojlanish istiqboli haqida gapiradi. *Psixologik portret* faqat inson xarakterini ochadi, emotsional holatini payqashga yordam beradi. *Kostumli portret*da tasvirlanuvchi allegorik, mifologik, adabiy personaj timsolida namoyon bo'ladi. Portretning yana bir turi *avtoportret* bo'lib, unda rassomning o'zini-o'zi tasvirlagan portretlar nazarda tutiladi.

Maishiy janr – realistik san'atning so'zsiz keng tarqalgan janri hisoblanadi. Insonning jamiyatdagi faoliyati va shaxsiy hayotdagi kundalik turmush tarzini o'zida aks ettiruvchi tasviriy san'at janri. Bu janrda rassom (haykaltarosh) o'z zamonasidagi kundalik turmushda bo'layotgan voqea va hodisalarni, odamlarning yashash tarzi, dam olishi, mehnati va sport bilan shug'ullanishi, xullas, ularning kundalik faoliyatining barcha tamonlarini ifo-

dalaydi. Ko'p hollarda «janrli asar» yoki «janrli kartina» degan atama qo'llanilishi ham mazkur janr bilan bog'liq.

Tarixiy janr — ijtimoiy hayotda sodir bo'lgan va jamiyat rivojida burilish nuqtalarini belgilagan voqea va hodisalar, tarixiy shaxslar tasviriyoti tarixiy janr deb yuritiladi. Janr ijodkorning dastgoh va mahobatli asarlarida, bo'rtma tasvirlarda, haykal va yodgorliklarda, kichik hajmdagi miniatyuralar, dastgoh grafika asarlarida o'z ifodasini topishi mumkin. Tarixiy manzillar, qadamjolar ham shu janrning sujeti hisoblanadi. Tarixiy janr batal janri bilan yaqinligi bor, lekin jang voqealarining hal qiluvchi damlarini aks ettiruvchi kompozitsiyalar ham shunday asarlar qatoriga kiradi.

Batal janri (frans. *bataille* — jang) — jang va harbiy hayotga bag'ishlangan mavzudagi tasviriy san'at janri. O'tmish va bugungi kunda bo'layotgan jang voqealari (shuningdek, dengizdagi jang voqealari), harbiy yurishlar, jangchilar hayotidan olingan sujetlar janr mazmunini belgilaydi. Bo'layotgan jangning muhim paytlari, uning mohiyatini, tarixiy damlarini tasvirlashga intilish bu janrni tarixiy janrga yaqinlashtiradi, harbiy jangchilar hayotiga bag'ishlangan asarlar esa maishiy janrga yaqinlashtiradi.

Animal janr — tasviriy san'at janrlari ichidagi «keksa» janrlardan biri animal janri bo'lib, unda hayvonlar hayoti, ularning xususiyatlari, fe'l-atvori o'z ifodasini topadi. Animal so'zining ma'nosi ham lotincha bo'lib, hayvon ma'nosini anglatadi.

Manzara janri — badiiy asarda tasvirlangan tabiat manzarasi. Tasviriy san'atning lirik janrlaridan biri, unda real yoki xayoliy tabiat ko'rinishlari orqali rassomning his-tuyg'ulari, o'y-xayollari, orzu-istaklari o'z ifodasini topadi. Bu janrda inson faoliyati bilan o'zgarib borayotgan tabiat manzaralari, me'moriy qurilmalar, tog' manzaralari, dengiz to'lqinlari tasvirlanadi.

Marina (ital. *dengizniki, dengizdan*) janri — dengiz ko'rinishlari, undagi hayot, inson va dengiz munosabatlari, insonning dengiz ichidagi kurashlarini aks ettiruvchi san'at turi. XVII asrda Gollandiyada mustaqil janr sifatida shakllangan.

Naturmort (frans. *nature morte*, ital. *natura morta*, o'lik tabiat) — insonni o'rab turgan borliq — turli buyumlar, ovda otilgan qush va hayvonlarning jonsiz tanalari, ov, mehnat va jang

qurullari, gul-u mevalar va boshqa shunga o'xshash buyum-
larni o'zida aks ettiradigan tasviriy san'at janri. Bu janr,
asosan, XVII asrda shakllangan va rivojlangan. Bunga qadar u
mavzuli kompozitsiyalarni to'ldiruvchi, mazmunini chuqurroq
tushunishga xizmat qiluvchi vosita sifatida qo'llanilib, ramziy
mazmunda ishlatilgan.

Arxitektura sohasi va uning turlari

Inson hayoti va faoliyati uchun zarur bo'lgan makonning
loyihasini yaratish va uni qurish me'morchilik san'atining maz-
munini tashkil etadi. Turar joylar, yo'llar, xiyobon-u maydonlar,
yirik suv inshooti va madaniy xordiq uchun mo'ljallangan
me'moriy majmualar hammasi shu san'atning turli ko'rinishlaridir.
Bular uning bosh quruvchisi — arxitektori (me'mori) tomonidan
loyihalashtiriladi va uning rahbarligida amalga oshiriladi. Bino va
inshootlarning nima maqsadga xizmat qilishi, ya'ni ularning
bajaradigan vazifasi aniqlanadi, uni to'g'ri hal qilish esa me'mor-
chilik asarini yaratishdagi asosiy omillardan hisoblanadi. Shular
asosida me'morchilik quyidagi soha va turlarga bo'linadi:

◆ 1. Turar-joy binolari va ma'muriy madaniy inshootlar sohasi

Turar-joy binolari qayerda va qanday qurilishiga qarab, past
qavatli (4–5 qavatgacha) va ko'p qavatli (5 qavatli dan yuqorisi)
kabi turlarga bo'linadi. Bu binolar, asosan, mahalliy iqlim
sharoitlari, milliy an'analari va oila a'zolari soni kabilarga mos-
lashgan bo'lishi kerak.

Jamoat va ma'muriyat binolari sohasi hozirgi davrdagi eng
katta soha hisoblanib, o'z ichiga juda ko'p va xilma-xil turlarni
biriktiradi. Bu turlar bir-biridan bajaradigan xizmati va funksiyasi,
xarakteri va individualligi asosida farqlanadi. Masalan:

umumiy ta'lim-tarbiya binolari (yasli, bog'cha, maktab,
internat va h.k.);

o'rta va oliy ta'lim-tarbiya binolari (kollej, institut, universitet
va h.k.);

sog'liqni saqlash va dam olish binolari (poliklinika, kasalxona,
dispanser, sanatoriya, kurort, dam olish uylari va h.k.);

madaniy tadbirlar o'tkaziladigan binolar (teatr, kinoteatr, sirk, konsert zallari, muzey, kutubxona, ko'rgazma pavilonlari va h.k.);

savdo-sotiq binolari (do'kon, univermag, savdo markazlari, bozor va h.k.);

umumiy ovqatlanish binolari (oshxona, choyxona, qahvaxona, restoran, va h.k.);

sport bino va inshootlari (stadion, manej, basseyn va h.k.);

maishiy xizmat ko'rsatish binolari (hammom, atelye, maishiy xizmat ko'rsatish kombinatlari va h.k.);

aloqa va transport bino va inshootlari (pochta, telegraf, aeroport, vokzal, avtovokzal, metropoletin va h.k.);

ma'muriy xizmat binolari (har xil vazirlik, davlat muassasalari va h.k.).

◆ 2. Sanoat korxonasi va suv inshootlari me'morchiligi

Sanoat korxonasi va suv inshootlari sohasi, asosan, XIX asrda zavod va fabrikalarning rivojlanishi va qishloq xo'jaligining texnikaviy taraqqiyoti asosida yuzaga kelgan. Bu binolar arxitekturasida ularning bajaradigan funksiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ular qatoriga zavod, fabrikalar, xo'jalik inshootlari (omborxonalar), qishloq xo'jalik inshootlari (issiqxona, fermalar), suv inshootlari (elektrostansiyalar) va h.k. kiradi.

◆ 3. Landshaft me'morchiligi yoki bog'-park san'ati

Landshaft me'morchiligi yoki bog'-park san'ati shahar xiyobonlari, kichik me'moriy hajmli qurilmalari bo'lgan favvoralar, ko'prik va yo'lakchalari bo'lgan dam olish hududi me'morchiligida o'z aksini topadi.

◆ 4. Shaharsozlik

Shaharsozlik, me'morchilikning katta va alohida sohasi hisoblanadi. Turar joylar, mavze (kvartal), kichik noxiya (mikrorayon), (mahalla)lar, maydonlar va bog'lar, ko'cha va xiyobonlar, sanoat va ijtimoiy binolar hamda transport magistrallari, turli kommunikatsiya ishlari hisobga olinib, kelajakda rivojlantirilishi ko'zda tutilgan shahar loyihasi yaratiladi. Mana shu loyiha asosida shaharlar barpo etiladi yoki qayta tiklanadi, ta'mirlanadi.

◆ 5. Ibadat inshootlari. Ibadat bilan bog‘liq inshootlar

Me‘morchilik ham san‘atning boshqa turlari singari davlat tarixi, madaniy-ma‘naviy mavqeni o‘zida aks ettiradi, xalqning turmush tarzi, estetik qarashlarini namoyon etadi. Shuning uchun bu san‘at haqiqiy ravishda tarixiy voqealar solnomasi, davr oynasi sifatida e‘tirof etiladi.

Inson paydo bo‘lgandan boshlab, u o‘zi uchun yashaydigan, yog‘in-sochinlardan, sovuq va issiqlikdan muhofaza etadigan joylar qurgan. Ular dastlab oddiy ko‘rinishda: toshlardan, yog‘och va loylardan ishlangan. Davr o‘tishi bilan jamiyatning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida me‘morchilik san‘ati ham rivojlandi va texnikaviy tomondan o‘ydi: uylar, saroylar, ibodatxonalar, harbiy istehkomlar, shaharlar, zavod va fabrikalar, ko‘prik va suv inshootlari barpo etila boshlandi.

Hukmron sinf g‘oyasi, qurilish texnikasi rivojining saviyasi me‘morchilikda o‘z aksini topadi, shu tufayli har xil davrda qurilgan binolar bir-biridan farq qiladi. Biror me‘morchilik inshootini barpo etish uchun jamoat mehnati, vaqti, qurilish materiallari va konstruksiyalari sarflanadi. Me‘morchilikda qulaylik, go‘zallik va boshqa estetik talablar bilan birga, uning maqsadga muvofiqligi va tejamkorlik talablari ham ko‘zda tutiladi. «Qulay, arzon, mustahkam va go‘zal» shiori qadim zamonlardan mavjud bo‘lgan. Shu shior me‘morchilikdagi moddiy va badiiy asosiy qonunni o‘zida mustahkam birlashtirgan.

Ularning mazmuni quyidagi qoida ko‘rinishida uchraydi: qulaylik – binoning qanday vazifani bajarishiga bog‘liq tarzda muvofiqlashgan me‘morchilik inshootlariga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri bo‘lib, aniq funksional jarayonni o‘zida aks ettiradi. Biror me‘morchilik inshootini qurishdan avval binoning me‘moriy loyihasi ishlangan va unda fazoviy hajm tuzilishi to‘g‘ri hal qilingan bo‘lishi kerak.

Masalan, turar joylarda, asosan, mahalliy iqlim sharoitlari, ya‘ni yozda issiq quyosh nuridan, qishda sovuq va yog‘in-sochindan saqlanish masalalari ko‘zda tutiladi. Xonalar soni va o‘lchami unda yashaydigan oila a‘zolari soniga qarab belgilanadi va hokazo. Teatr va klublarda sahnadagi yoki ekrandagi hodisalar zalning

hamma joyidan yaxshi ko‘rinishi va ovozning bir xil eshinishi, odamlarning zalga tez kirishi va chiqishi kabi masalalar asosiy o‘rinda turadi.

Oshxonalarda asosiy funktsiya ovqatlanish, maktablarda o‘qish, sport zallarda har xil mashqlar o‘tkazish kabilar bo‘ladi va hokazo. Me‘morchilikda texnika mukammalligi katta o‘ringa ega. U o‘z ichiga qurilish texnikasi (qurilish materiali, konstruksiyasi, mashinasi, texnologiyasi va asbob-anjomlari) va fani (konstruksiya, texnologiyasi, materiallar xususiyati kabilarni hisoblash va h.k.)ni oladi. Qurilish texnikasining qanday rivojlanganligi arxitektura rivojini belgilab beradi. Shu qatorda arxitekturaning o‘zi texnikaga har xil talablar qo‘yib, uni rivojlantiradi. Umuman olganda, arxitektura va qurilish texnikasi o‘zaro moslashgan holda rivojlanadi. Ammo, ba‘zan mana shu moslashish buziladi, ana shu paytda arxitektura inqirozga yuz tutadi.

Me‘morchilikda biror bino yoki majmuani barpo etishda uning iqtisodiy tomonlari ham katta ahamiyatga ega. Ya‘ni, arzon qurilish usullarini qo‘llash natijasida binoga minimal xarajat sarflash ko‘zda tutiladi. Shu bilan birga, binoga bo‘lgan talablar (chiroy, qulaylik va mustahkamlik) qondirilib, uning saviyasi kamaymasligi kerak.

Me‘morchilikdagi go‘zallik va nafosat tasviriy va amaliy san‘atdagi shu tushunchadan ancha murakkab. Chunki me‘morchilik bir vaqtning o‘zida ham moddiy, ham ma‘naviy tomoni bilan mavjuddir. Ba‘zi me‘moriy qurilmalarda, masalan, me‘morial muzey, maqbara, ko‘rgazma zallari kabilarda binoning g‘oya va mazmuni birinchi o‘rinda bo‘ladi. Ya‘ni, g‘oya va mazmun bino arxitekturasida shakllanib, badiiy obrazga aylanadi. Arxitekturadagi bu obraz davlatning siyosiy va iqtisodiy kuch-quvvatini, jamiyat xarakterini, mafkurasini o‘zida aks ettiradi.

Me‘morchilikning asosiy maqsadi – insonlarning yashashi va ishlashi uchun kerak bo‘lgan muhit, joy yaratish. Ammo bu masalani yechishda to‘rt tomondan o‘ralgan bino tushunilmaydi. Akshincha, qanday qilib mana shu muhit yoki joyning tashkil etilishi, uning moddiy va ma‘naviy tomonini to‘g‘ri hal qilish ko‘zda tutiladi. Shu tufayli me‘morchilik mazmuni uning ko‘p qirrali

xarakterining jamiyat talabi bilan aniqlanishidadir. Bu mazmun ijtimoiy tartib jarayonlariga javob beruvchi, jamiyatning moddiy-texnika sharoiti va estetik ideallari bilan moslashgan holda me'morchilik shakllarini tashkil etadi.

Bu shakllarni yaratishda me'morchilik san'atida kompozitsiya tushunchasi hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Me'morchilik kompozitsiyasi aniq qonun-qoida asosida joylashilgan yoki tashkil topgan, tashqi va ichki elementlari o'zaro mutanosib va hamohang bo'lib, bir butunlikni, yaxlitlikni mujassamlashtirgan bo'ladi.

Buni biror bino, inshoot, binolar ansambli (majmuasi), umumiy shahar arxitektura qurilishi kabilarda yaqqol ko'rish mumkin. Kompozitsiyaning uslub va usullari juda ko'p, shulardan ba'zilari: tektonika, o'lcham, mutanosiblik, muvofiqlik, nisbat (proporsiya) va birohanglik (ritm), simmetriya va assimetriya, keskinlik, yorug'lik va rang, qurilish materiallarining xususiyati va h.k.

Mana shu kompozitsiyaning usul va uslublari har tomonlama yaxshi o'zlashtirilgan va qo'llanilgan taqdirdagina nafosat va foydalik, estetik va amaliy talablariga javob beradigan me'morchilik asari yaratilishi mumkin.

Shu asarlar bir-biridan, me'morning ijodiy uslubi va usuli bilan ham farqlanadi. Me'morchilikda badiiy obraz yaratish o'zining vositalariga ega. Shulardan asosiysi fazoviylikni tashkil etish va tektonikadir. Bu ikki tushuncha me'morchilik san'atida muhim ahamiyatga ega: mana shular yordamida bino yoki inshootning shakli, qiyofasi, past-balandligi, konstruksiyasi, ya'ni, bino obrazi hosil qilinadi. Oddiy qilib aytganda, tektonika bino o'zagi, suyagidir. Bu tizimni plastik hal etish, uyg'unlashtirish hamda me'morchilik shakllarini keltirib chiqarish tektonik tizim deyiladi. Jumladan, tektonika konstruksiya va badiiylikni birlashtiradi. Mana shu birlik yordamida me'mor bino yoki inshoot arxitekturasiga aniqlik, nafosat va hamoxanglik bera oladi. Masalan, buni qadimgi Misr ehromlarida, Italiya me'morchiligida, gotika davri ibodatxonalarida ko'rish mumkin.

Kompozitsiya kategoriyalaridan yana biri simmetriya va assimetriyadir. Bu kategoriya kompozitsiyaning oddiy va aniq usulidir.

Bu usul bino arxitekturasi tuzilishini, fazoviy hajmini, bino bo'laklarining o'zaro joylashishini aniqlaydi. Yana bu usul asosida me'morchilik majmualari va majmua loyihalari yaratiladi. Masalan, O'rta Osiyo shaharlaridagi me'morchilik yodgorliklari: madrasa va masjidlar, karvonsaroy va xonaqohlar simmetriya, nisbat va mutanosiblik yordamida me'morchilikning yorqin badiiy obrazini yaratgan.

Natijada, tantanavor hamda salobatli yoki oddiy va sodda ko'rinishdagi me'morchilik inshootiga ega bo'lingan: demak, bu usullar orqali loyihalash jarayonidagi hal qilinishi kerak bo'lgan masalalar aniqlanadi hamda yaxlit me'morchilik asari yaratiladi. Me'morchilik inson hayoti va faoliyati bilan birga bo'lganligi tufayli xilma-xil me'morchilik yodgorliklari o'z davrining hayotini, tarixini va madaniyatini aks ettirgan. Chunki har bir tarixiy, ijtimoiy davrdagi me'morchilik asari o'zining iqtisodiy, texnikaviy g'oyaviy xarakteriga, badiiy siyosi va uslubiga ega. Uslub muhim estetik kategoriya bo'lib, me'morchilik tarixini, rivojini o'rganishda hamda uni har tomonlama va to'la tushunishda alohida rol o'ynaydi. Bu tushuncha me'morchilik rivojidadagi davr va pog'onalarini aniqlashda muhim ahamiyatga kasb etadi.

Me'morchilik ham san'atning boshqa turlari singari qadim-qadimda kishilarning mehnati jarayonida yuzaga keldi va rivojlandi. Odamlar mehnat jarayonida shakl tuyg'usini his etib, ritm, simmetriya tushunchalarini o'zlashtira boshladilar. Ular mehnat jarayonida tabiat kuchlarini o'zlariga bo'ysundira boshladilar. Qulaylik va maqsadga muvofiqlik tushunchasi ularning ongli ijodiy faoliyatining bosh tamoyiliga aylana bordi. Arxeologlar ma'lumotiga ko'ra, dastlab odamlar katta-katta toshlarning panasida, g'or va yerto'lalarda to'da-to'da bo'lib yashaganlar. Bu g'or va yerto'lalar ibtidoiy jamoa kishisining «uyi» hisoblangan. Shu uylarning devor va shiftlariga suratlar chizganlar, bo'rtma tasvirlar ishlashga harakat qilganlar.

Mezolit asrida odamlar yog'och, qamishdan foydalanib, o'zlariga kerakli turar joylarni yarata boshladilar. Diniy tushunchalar keng yoyildi. «Narigi dunyo» tushunchasi, u bilan bog'liq ko'mish marosimlari hamda o'lgan odamlarning narigi dunyo

oylari haqidagi tasavvur paydo bo'ldi. Qabila boshlig'i, oqsoqollarga e'tiqod bilan qarash, ularning vafotidan keyin jasadini yaxshi saqlashga harakat qilish bilan bog'liq bo'lgan odatlar — qabrlarini boshqalar qabridan ajratib ishlashga intilish, muhtasham yer usti tuproq qo'rg'onlarining, maqbaralarning yuzaga kelishiga olib keldi. Qabrlarning ichki qismini ham alohida e'tiqod bilan bezadilar.

Neolitning so'nggi davri va bronza asrida yuzaga kelgan odamlarning diniy tushunchalari bilan bog'liq holda yuzaga kelgan megalitik qurilmalar paydo bo'ldi.

Yer yuzida davlatlarning yuzaga kelishi bilan shaharlar qurilishi rivojlana boshladi, me'morchilik san'atining turlari ko'paydi, nazariy asoslari ishlanib, keng jamoatchilikka mo'ljallangan me'morchilik qurilma va majmualari yaratildi.

Davrning muhim yutug'i — bu san'at sintezi masalasining hal etilishi bo'ldi. Ayni shu davrdan me'mor va quruvchilar, ijodkor va ishchilar paydo bo'ldi. Me'morchilik san'ati ham mafkuraning asosiy quroliga aylandi. Qurilgan binolarning ommaga ta'sir kuchi mobatga olina boshlandi. Me'morchilikda aniq maktab va uslublar paydo bo'la boshladi.

Seminar savollari:

- 1. San'at nima? Uning turlari va xarakterli tomonlari.*
- 2. Tasvriy san'at. Uning tur va janralarini ajratib bering.*
- 3. Arxitektura soha va turlari. Ularning badiiy va konstruktiv jihatlari.*
- 4. Arxitekturada kompozitsiya va uning ifoda vositalari haqida tushuntirib bering.*

I qism
**IBTIDOIY JAMOA DAVRI BADIY
MADANIYATI**

◆ *2-mavzu.*

**Ibtido davri. Taraqqiyot bosqichlari,
san'atdagi xususiyatlar**

Ma'ruza mazmuni:

- 1) *ibtidoiy jamoa davri san'ati, uning geografik va davriy chegarasi;*
- 2) *ibtidoiy jamoa davri san'atini o'rganish manbalari;*
- 3) *ibtidoiy jamoa tuzumi taraqqiyoti bosqichlari;*
- 4) *ibtido davri san'at va me'morchiligining dastlabki namunalari;*
- 5) *paleolit davri tasviriy san'ati. Uning tur va janrlari. Mavzusi, sujeti.*

Ibtidoiy jamoa davri san'ati, uning geografik va davriy chegarasi. Ibtidoiy jamoa tuzumi insoniyat taraqqiyoti tarixidagi eng birinchi va uzoq davom etgan bosqichlardan hisoblanadi. Bu bosqichni hamma xalq va elatlar o'z boshidan kechirdilar. Bundan taxminan 1,5 million yil avval shu taraqqiyot jarayonida hozirgi zamon odami tipi paydo bo'ldi, odamlar jamoasi yuzaga keldi. 1 million yil avval esa Afrikaning sharqiy qismlarida, biroq keyinroq Yevrosiyoda birinchi tosh qurollar paydo bo'la boshladi, olimlar miloddan 30 ming yillar avval birinchi san'at asarlari yaratila boshlanganligini e'tirof etadilar. Ishlab chiqarish kuchlarining zaifligi odamlarni jamoa bo'lib yashash va mehnat qilishga o'rgatdi. Ular qudrat birlikda ekanligini hayotning ilk bosqichidayoq sezidilar. Bu qudrat ularni tabiat sirlarini o'rganishga boshladi. Madaniyat va san'at ravnaqiga zamin yaratdi. Ibtidoiy jamoa tuzumi san'ati tarixi, odamzod tafakkuri, his-tuyg'ularining paydo bo'lishi va rivojlanishidan boshlab, yer yuzida birinchi davlatlarning yuzaga kelishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, o'rganadi va tahlil etadi.

Ibtidoiy jamoa davri san'ati o'rganish manbalari. Ibtidoiy jamoa tuzumidan bizgacha ashyoviy dalillar — mehnat va ov qurollari,

uy-anjom hamda bezak buyumlari, odamlar yashagan manzil qoldiqlari yetib kelgan. Shular ibtidoiy jamoa kishisining estetik va diniy qarashlarini bilishga, ibtidoiy jamoaning madaniyati haqida talavvur hosil qilishga yordam beradi. Tuproq ostida qolib ketgan moddiy yodgorliklar, odam va hayvonlar jasadining qoldiqlari, g'or va yerto'la devorlariga chizilgan surat va bo'rtma tasvirlar ibtidoiy jamoa davri tarixini o'rganishning muhim manbai hisoblanadi. Bulardan tashqari, **etnografiya**, tarix, **antropologiya**, **lingvistika**, **geologiya**, xalq og'zaki ijodi, saqlanib qolgan turli afsonalar, fizika, kimyo fanlarining yutuqlari ham shu davr tarixi va san'ati haqidagi tushunchalarning oydinlashishiga xizmat qiladi. Olimlar ibtidoiy jamoa davriga oid juda ko'p faktik materiallarni o'rganish, tabiiy fanlar tarixi va hozirgi zamon fanining yutuqlarini umumlashtirish hamda taqqoslash asosida uning ilmiy ta'rifini berdilar. San'at qadim-qadimda kishilarning mehnati jarayonida yuzaga keldi va rivojlandi. Odamlar mehnat jarayonida shakl tuyg'usini his etib, ritm, simmetriya tushunchalarini o'zlashtira boshladilar. Ular mehnat jarayonida tabiat kuchlarini o'zlariga bo'ysundira boshladilar. Ishlatilayotgan buyumlarning shakli bajarayotgan mehnatlarini osonlashtirishi yoki qiyinlashtirishi mumkinligini tushundilar. Qulay mehnat quollarining unumi ularda o'z quollariga nisbatan mehr tuyg'ularini uyg'ota bordi. Ular o'z quollariga bezak berish orqali shu mehrlarini izhor etishga harakat qila boshladilar. Odamlarda qulaylik va foydalilik tushunchalarining yuzaga kelishi voqelikdagi, hayotdagi go'zallik va xunukliklarni his etish imkoniyatini rivojlantira boshladi. Inson madaniyati taraqqiyot olamiga qadam qo'ydi. San'atning yuzaga kelishi insonning obyektiv voqelik to'g'risidagi bilimlarining chuqurlashishiga, o'z ajdodi tajribalaridan bahramand bo'lishga olib keldi. Bu uni tabiat kuchlariga qarshi kurashishga da'vat etdi, uning aqliy kamoloti, estetik qarashlari rivojini jadallashtirdi.

Ibtidoiy jamoa davri taraqqiyoti bosqichlari. Ibtidoiy jamoa tuzumi taraqqiyoti bosqichlarini tarix fani ijtimoiy-sotsial tuzilishiga ko'ra quyidagilarga bo'ladi: 1) ibtidoiy to'da bo'lib yashash davri; 2) urug' jamoasi davri (bu davr ikkiga — matriarxat va patriarxat davriga ajraladi); 3) harbiy demokratiya davri.

Arxeologiya ibtidoiy jamoa tuzumi tarixini qurol yasash uchun ishlatiladigan materiallarga qarab, uch asosiy bosqichga bo'ladı:

I. Tosh asri – eramizdan avvalgi 3 ming yillikkacha bo'lgan davr. (Tosh asri, o'z navbatida, uchga bo'linadi: 1. Qadimgi tosh asri—paleolit—eramizdan avvalgi 10 ming yillikkacha bo'lgan davr. 2. O'rta tosh asri—mezolit—eramizdan avvalgi 10–6 ming yillik. 3. Yangi tosh asri – neolit – eramizdan avvalgi 6–3 ming yillikni o'z ichiga oladi).

II. Mis va bronza asri – eramizdan avvalgi 3–2 ming yillik.

III. Temir asri – eramizdan avvalgi 1 ming yillik.

Paleolit davri (qadimgi tosh asri). Paleolit yoki eng qadimgi tosh asri (ralaios qadimgi, Litos – tosh) insoniyat taraqqiyotining eng uzoq davom etgan bosqichi hisoblanadi. Bu taraqqiyotni bir qator davrlarga ajratish mumkin: eng qadimiy yoki quyi paleolit (er. av. 150 ming yilliklar), o'rta paleolit (er. av. 150–35 ming yillik), yuqori yoki so'nggi paleolit (er. av. 55–10 ming yillik).

Arxeologlar ma'lumotiga ko'ra, paleolit asrida, ayniqsa, uning so'nggi bosqichlarida tasviriy san'atning hamma turlari paydo bo'ldi, diniy tushunchalar shakllana bordi. Paleolit asriga oid faktik materiallar Yevropa, Osiyo va Afrika qit'alaridan topilgan. Bu davrda odamlar katta-katta toshlarning panasida, g'or va yerto'lalarda to'da-to'da bo'lib yashaganlar. Bu g'or va yerto'lalar ibtidoiy jamoa kishisining «uyi» hisoblangan. Shu uylarning devor va shiftlariga suratlar chizganlar, bo'rtma tasvirlar ishlashga harakat qilganlar. Ana shu odamlar yashagan manzillardan topilgan mehnat, ov qurollari, turli haykal va ramziy mazmunga ega bo'lgan shakllar ibtidoiy jamoa kishilarining estetik va falsafiy qarashlarini tushunishga yordam beradi. Dastlabki rasmlar primitiv va asosan, hayvonlar ko'rinishini tasvirlaydi. Mamont, yirik qo'tos, kiyik, ot va boshqa hayvonlar rasmi tabiiy bo'yoqlarda g'or devor va shiftlariga ishlangan. Paleolit san'atining eng gullagan davri **madlen** asriga (er. av. 15–10 ming yillar) to'g'ri keladi. Bu davrda ishlangan hayvonlar tasviri aniq, shakli haqqoniy, nisbatlari to'g'ri olingan. Ularning o'ziga xos xususiyatlari (kuchli hamda og'ir, yengil-u ziyrak va h.k.) ko'rsatiladi. Ular turli holatda va ko'rinishda tasvirlanadi. Fransiyaning Fon de Gom, Lyasko, Nio va Shimoliy Ispaniyaning Altamir g'orlari

devorlariga ishlangan suratlarda hayvonlar natural kattalikda, nihoyatda jonli va ta'sirchan ishlangan (*1-rasm*).




1-rasm. Bizon. Altamira g'ori tasvirlari. Ispaniya. Yuqori paleolit

Madlen davrining so'nggi bosqichlarida murakkab kompozitsiyalar yaratishga intilish ortdi, tabiat manzaralari, hayvonlar to'dasi rasmini ishlash, ular harakatini biror sujetga bo'ysundirishga intilish seziladi. Shu xususda Fransiyaning Limeyl g'oridan topilgan tosh yuzasiga ishlangan «Kiyiklar podasi» surati va Teyja yaqinidagi g'ordan topilgan suyakka ishlangan hayvonlar podasini aks ettiruvchi suratlar xarakterli.

Yuqori paleolit davrida odamlar yashagan manzillarda tosh, suyak, shox, loydan yasalgan har xil haykalchalar ham uchraydi. Relyef (ko'proq uning barelyefi) tabiiy tosh yuzasi yoki devor sathidagi notekisliklarga ishlov berish hisobiga yaratilgan.

Haykaltaroshlikda ham hayvonlar tasvirini yasash keng o'rinni egallaydi. Odam tasviri, ayniqsa, ayollar haykali paleolit davrida keng uchraydi. «Villendorf Venerasi» (Avstriya) deb nomlangan haykal mashhur haykallar sirasiga kiradi. Haykal hajmi jihatidan katta emas (balandligi 0,06 m), lekin ko'rinishi jihatidan monumental (*2-rasm*).

Haykalda ortiqcha detallar yo'q. Unda bosh qism biroz belgilangan, yuz deyarli ishlanmagan, past tomonida tugallik yo'q. Lekin shunga qaramasdan, haykal o'zining to'laqonliligi, ichki kuchga to'laligi bilan esda qoladi.




2-rasm. Villendorf venerasi. Yuqori paleolit

Lespug Venerasi (Fransiya) ham mashhur (balandligi 14,7 sm). Unda ayol haykali aniq dumaloq, oval, ellips geometrik shakllardan tashkil topgan. Sharqiy Yevropa, Sibir, O'rta Osiyo yerlaridan bunday ayollar haykali ko'plab topilgan. Paleolit davrida amaliy-dekorativ san'at namunalari ham keng tarqala boshladi. Buyumlarni naqsh bilan bezashga, turli taqinchoqlarga, tumorlarga ehtiyoj paydo bo'lganligi arxeologlar topgan va topayotgan ashyoviy buyumlarda namoyon bo'lmoqda.

Mezolit va Neolit (o'rta tosh va yangi tosh asri). Mezolit yoki o'rta tosh asrida (grekcha «mesos» — o'rta) odamlar katta bo'lmagan to'daga ajralgan holda yashay boshlashlari ularga bir joydan ikkinchi joyga erkin ko'chib o'tish, katta yer maydonlaridan foydalanish imkoniyatini berdi. Qurollarning (mehnat va ov qurollari) ixcham, qulay bo'lishiga e'tibor kuchaydi. O'q, kamon-yoy, qayiq'larning ixtiro qilinishi ibtidoiy jamoa kishisining hayoti yanada yaxshilanishini ta'minladi. Odamlar yog'och, qamishdan foydalanib, o'zlariga kerakli buyumlar yarata boshladilar. Diniy tushunchalar keng yoyildi. «Narigi dunyo» tushunchasi paydo bo'ldi, ko'mish marosimi bilan bog'liq bo'lgan turli urf-odatlar yuzaga kela boshladi. Bular kishilarda murakkab tasavvur va

fikrlashning paydo bo'lganligidan dalolat beradi. Odamlar ta'ayyurining kengayishi abstrakt tushunchalarning yuzaga kelishi, san'atning shakl va mazmun yo'nalishida ham sezila boshlandi. San'at mavzusi kengaydi, janrlari ortdi. Jang voqealari, ovchilikni aks ettiruvchi murakkab kompozitsiyalar yaratildi. Ishlangan suratlarda voqealarni keng, atroflicha bayon etishga intilish ortdi. Rassom o'z fikrini bayon etish uchun obrazlarni sxematik va shartli belgilar tarzida tasvirlagani holda bo'layotgan voqeaning mohiyatini ochishga harakat qildi. Sharqiy Ispaniya, Kavkaz, O'rta Osiyodan topilgan suratlar diqqatga loyiq.

Obrazlar shartli (kamon otayotgan ovchilarda bu shartlilik yaqqol seziladi), sxematik, o'ta soddalashtirilgan holda tasvirlangan. Lekin bu shartlilik rassom aytmoqchi bo'lgan fikrni tushunishga xalaqit bermaydi. Ov manzarasidagi holat – kiyiklarning jon holatda qochishi, ovchilarning epchillik bilan olib borayotgan hujumlari, ov paytidagi shijoat, hayajon ibtidoiy jamoa rassomi tomonidan ifodali talqin etilgan. To'ng'iz ovi kompozitsiyasi ham jonli, unda to'ng'izlarning epchil harakati va unga tashlanayotgan ovchilarning shijoati sodda, lekin ifodali chiziq va shakllarda aks ettirilgan.



3-rasm. Kiyiklar ovi. Neolit

Seminar savollari:

1. *Ibtidoiy jamoa davri san'ati, uning geografik va davriy chegarasi.*
2. *Ibtidoiy jamoa davri bosqichlari va ularning san'atdagi xususiyati.*
3. *Paleolit davrida haykaltaroshlik. Uning tur va janrlari, ishlatiladigan materiallar mavzusi, sujeti.*
4. *Paleolit rang-tasvir san'ati. Ispaniya, Fransiya g'orlaridan topilgan rang-tasvir san'ati asarlari. Uning tur va janrlari.*

◆ **3-mavzu.**

DASTLABKI ISHLAB CHIQRISH DAVRI, UNING SAN'ATDAGI IFODASI

(Mezolit, Neolit, mis, bronza, temir asrlari)

Ma'ruza mazmuni:

Mezolit va Neolit. O'rta tosh va yangi tosh asri (miloddan avvalgi 25 minginchi yillar). Inson hayotida sodir bo'lgan o'zgarishlar natijasida san'atda bo'lgan yangiliklar (kompozitsiya, ritm, simmetriya, fantaziya). San'atning inson ongi rivojlanishiga qo'shgan hissasi. Bu davrda ishlangan tasvirlarning mavzusi, sujeti. Mayda haykaltaroshlik. Kulolchilikning paydo bo'lishi.

Ibtidoiy jamoa tuzumining so'nggi davrlari (mis, bronza, temir asrlari) san'ati. Bronza asri – uning ijtimoiy hayotdagi o'rni. Dastlabki diniy tushunchalar shakllanish davri, san'atdagi xususiyati. Megalitik qurilmalar – eng qadimgi davr arxitektura yodgoligi sifatida. Bronza asri tasviriy va amaliy san'ati. Temir asri ibtidoiy jamoa tuzumining so'nggi bosqichi sifatida.

Neolit yoki yangi tosh asri. Neolit yoki yangi tosh asrida (grekcha «peos» – yangi) odamlar faqat tabiat in'om etgan mahsulotlarni iste'mol qilish bilan chegaralanmay, balki o'zlari ham uni yaratishga, ko'paytirishga harakat qila boshlaydilar. Endilikda ovchilikdan tashqari, chorvachilik va dehqonchilik bilan ham shug'ullana boshladilar. Odamlar chayla, suv ustiga qoziqlar (savoy) yordamida uylar qurishi kengaydi. Ishlab chiqarish jarayoni kuchaya bordi, shu bilan birga, kishilarning ma'naviy olami, dunyoqarashi ham murakkablasha bordi. Tasviriy san'atda naturalizmdan abstrakt fikrlashga o'tish jarayoni rivojlanib bordi. Bu asrda ham toshlardan qurol yasash muhim rol o'ynadi. Lekin

endilikda toshni qayta ishlash, uni pardoqlash, shu asosda juda nozik buyumlar yaratishga ko'proq e'tibor berila boshlandi. Kulolchilik (keramika)ning paydo bo'lishi ham yangi tosh asrining muhim belgilaridan hisoblanadi. Yangi tosh asrining keramika asri deb atalishi ham shundandir.

Bu asrda to'qimachilik, terini qayta ishlash ham murakkablashdi. Ijtimoiy hayotda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi, so'zsiz, odamlar orasidagi munosabatlarning taraqqiy etishiga yordam berdi. Qabilalar orasidagi munosabatlarni kuchaytirdi. Asta-sekin patriarxat asri matriarxatni siqib chiqarib, jamoani oqsoqollar boshqara boshladi. Yangi tosh asri oxirlarida esa ayrim yerlarda (Old Osiyo, Misr, Hindiston) dastlabki sinfiy notengsizlik kurtak ota boshladi. Odamlarning o'troq holga o'tishlari, tabiat qonun-qoidalarini kuzatish simmetriya, ritm, shakl tuyg'ularini o'stirdi. Bir xil elementlarning tekis qaytarilishi yoki oralab kelishi asosida vujudga keladigan o'ziga xos naqsh san'atini maydonga keltirdi. Naqsh yangi tosh asrida keng yoyildi, amaliy-dekorativ san'atning taraqqiy etishiga ta'sir ko'rsatdi. Kulolchilik va boshqa buyumlarni naqsh bilan bezash keng tus oldi. Parallel, spiralsimon va to'liqsimon chiziqlar, konsentrik aylanalar shu davrdagi ko'pgina naqshlarning asosini tashkil etadi. Geometrik naqshlar asta-sekin sxematik odam, hayvon va o'simliklar dunyosidan olingan shakllar bilan boyitilib, mazmunan kengayib bordi. Uning elementlari koinot kuchlarining ramziy belgilarini aks ettira bordi. Masalan, rozetka quyosh ramzi, to'liqsimon chiziq harakat, suv ramzi va h. k. Naqsh san'ati endilikda dekorativ funksiyani bajaribgina qolmay, balki kishilarning g'oyaviy va falsafiy tushunchalarini ham ifodalay boshladi. Yangi tosh asrida mayda plastika ham keng yoyildi. Loy, yog'och, shox va suyaklardan hamda qisman toshdan haykallar ishlandi. Mavzusi, asosan, hayvonlarni aks ettirish bo'ldi. Ko'p hollarda haykaltarosh hayvonning bosh qismini aniq tasvirlash va tana qismining umumlashma ko'rinishini ishlash orqali shunga erishadi. Bu davr san'atida ayollar haykali, ayniqsa, keng uchraydi. Lekin bu haykallar birmuncha sxematik va shartli yechimga ega. Ba'zan ayollar obrazi shartli belgilar darajasiga tushiriladi, ayollik belgilari bo'rttirib ko'rsatiladi. Bu xususda Janubiy

Turkmanistondan, Ukraina (Tripole)dan topilgan ayol haykallarini ko'rish mumkin.

Yangi tosh asri haqida gapirilganda shuni ta'kidlash lozimki, bu davrdan boshlab, san'atning lokal belgilari sezila boshladi. Misr va Ikki daryo oralig'i (Mesopotamiya), Yevropa va Sibir neolit davri san'atining o'ziga xos xususiyatlari borligi shundan dalolat beradi. Ishlab chiqarish xususiyati, odamlar yashagan manzillar iqlimi, xarakteri san'atning uziga xos lokal tomonlarini belgilashda muhim rol o'ynadi. Yangi tosh asrida paleolit san'ati an'analari rivoj topgan bo'lsa ham, lekin unda inson obraziga qiziqish orta bordi, abstrakt fikr yuritishning rivoj topishi yaratilgan asarlarda shartli belgi va shakllarning ortib borishini ta'minladi.



4-rasm. Naqshli sopol idish.
Neolit davri


Bronza asri – uning ijtimoiy hayotdagi o'rni. Eramizdan avvalgi III ming yillik o'rtalariga kelib, odamlar misni qalay, qo'rg'oshin, ruh yoki surma bilan eritib, bronza tayyorlashni o'rganib oldilar. Bronza qurol, yarog'-aslaha, zeb-u ziynat yasash uchun asosiy material bo'lib qoldi. Yer yuzida bronza asri boshlandi. Bronza asrini deyarli hamma

xalq va elatlar boshidan kechirdi. Lekin bu asr ba'zi xalqlar (masalan, Eron, Mesopotamiya, Kavkaz, O'rta Osiyo)da birmuncha erta, eramizdan avvalgi III minginchi yillar o'rtalarida boshlangan bo'lsa, boshqa yerlarda (masalan, Kichik Osiyo, Suriya, Falastin, Kipr va Kritda) eramizdan avvalgi III va II minginchi yillar chegarasida, Misr, Xitoy, Hindiston, Yevropada eramizdan avvalgi II minginchi yillarda sodir bo'ldi. Bronzaning ixtiro etilishi inson tafakkurining muhim g'alabasi edi. Bu ixtiro ijtimoiy hayot taraqqiyotini yanada tezlashtirdi, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirdi, mehnat unumdorligini oshirib, qo'shimcha mahsulot to'planishini ta'minladiki, bu o'z navbatida, inson ma'naviy olamining o'zgarishi va boyishiga olib keldi. Albatta, metall tabiatda bir xil tarqalmagan. Shu boisdan metallning ijtimoiy hayot taraqqiyotidagi rolining ortishi qabilalar orasida, bir tomondan, mol


Yiriboshlashning intensivlashishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan, ular orasidagi nizoning kuchayishiga ham sabab bo'ldi. Urug'lar yagona qabila atrofida birlasha boshladi. Chorvachilik, ovchilik bilan shug'ullanadigan qabilalar yuzaga keldi. Chorvachilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi, birinchi yirik ijtimoiy mehnat taqsimoti edi. Qabilaning yagona boshliqqa bo'ysunishi esa mehnatni tashkil etishni yaxshiladi, qo'shimcha mehnat mahsulotining to'planishini ta'minladi. Yer yuzining ko'pgina yerlarida matriarxat davri inqirozi kuchaydi. Patriarxat davriga o'tish ayrim yerlarda tugallanadi. Nil vohasi, Ikki daryo oralig'i (Mesopotamiya), Xitoyda quldorlik tuzumi boshlandi, sinfiy davlatlar yuzaga keldi. Ijtimoiy hayotdagi bu rivojlanish tasviriy va amaliy san'at, me'morchilik, folklor, epos, qo'shiq va musiqaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Diniy tushunchalarning murakkablashib borishi, u bilan bog'liq bo'lgan yangi urf-odatlarining yuzaga kelishi. Diniy tushunchalarning murakkablashib borishi u bilan bog'liq bo'lgan yangi urf-odatlarini yuzaga keltirdi. Qabila boshlig'i, oqsoqollarga e'tiqod bilan qarash, ularning vafotidan keyin jasadini yaxshi saqlashga harakat qilish bilan bog'liq bo'lgan odatlar rivojlandi. Ularning qabrlarini boshqalar qabridan ajratib ishlashga intilish, muhtasham yer usti tuproq qo'rg'onlarini, maqbaralarni yuzaga keltirdi. Qabrlarning ichki qismini ham alohida e'tiqod bilan bezadilar. U yerga qabila boshlig'i tirik paytida sevib ishlatgan buyumlarini qo'ydilar, surat va haykallarini ishlab, birga ko'mdilar. Bu qablardan topilgan sopol, metall, yog'och, suyak, tosh kabi materiallardan ishlangan turli qurol-aslaha, uy-ro'zror va bezak buyumlari, qabr devori, buyumlarning yuzasiga ishlangan bo'rtma va rangli tasvirlar ibtidoiy jamoa davri madaniyati va san'atini bilishda, kishilarning falsafiy-estetik qarashlarini tushunishda bebaho manbadir.

Megalitik qurilmalar (dolmenlar, mengirlar, kromlexlar). Ijtimoiy hayotda sodir bo'lgan o'zgarishlar neolitning so'nggi va bronza asrida yuzaga kelgan megalitik qurilmalarida yaqqol seziladi. Odamlarning diniy tushunchalari ota-bobolar ruhi (arvohi) bilan bog'liq holda yuzaga kelgan bu qurilmalar katta toshlardan ko'p-



5-rasm. Mengir



6-rasm. Dolmen

chilik kuchi bilan barpo etilgan. Bu qurilmalar uch – mengir, dolmen, kromlex tiplarida barpo bo‘lgan. Mengirlar o‘z xarakteri jihatidan tik o‘rnatilgan katta toshlar bo‘lib, ularning balandligi 20 metrgacha yetgan. Ba‘zan mengirlar baliq, odam, hayvon shakllariga o‘xshatib ishlangan, ko‘p hollarda mengirlar yuzasiga bo‘rtma tasvirlar ishlangan. Bunday yodgorliklar Yevroosiyo hududida (Armaniston, Qozog‘iston, Sibir)da ham ko‘plab uchraydi.

Dolmenlar tik o‘rnatilgan ikki yoki to‘rt tosh ustundan tashkil topgan bo‘lib, ularning ustki qismlari ham shunday yaxlit yassi toshlar bilan berkitilgan. Tosh ustunlar yuzasi pardozlangan, ba‘zan ramziy belgilar chizilgan. Bu yodgorliklar qabrtosh vazifasini bajargan bo‘lishi mumkin. Qisman turar joy vazifasini ham o‘tagan. Dolmenlar o‘z ko‘rinishi va qurilishi, prinsipi jihatidan dastlabki monumental me‘morchilik namunasi hisoblanadi.

Kromlex aylana bo‘ylab tik o‘rnatilgan toshlardan qurilgan bo‘lib, ular tosh to‘sinlar bilan birlashtirilgan. Angliyada Stounxendj yaqinidagi kromlex shu tipdagi qurilmaning klassik namunasi. Dolmen va kromlex yodgorliklari G‘arbiy Yevropa, Shimoliy Afrika, Kavkaz, Sibir va Qozog‘iston yerlarida uchraydi.



7-rasm. Kromlex. Rekonstruksiya. Stounxendj. Angliya

Bronza asri yodgorliklaridan yana bir ko‘rinishi qabr ustiga ishlangan tuproq qo‘rg‘onlar bo‘lib, bu qo‘rg‘onlarning diametri 10 m ga yetgan, atrofi esa tosh plitalar bilan aylantirib chiqilgan. Tripoledan (Kiyev yaqinidagi qishloq nomi) topilgan devor qoldiqlari bu yerlarda uylar ko‘proq daryo yoqalariga yaqin yerlarda qurilganligi haqida ma‘lumot beradi. Bu uylar loy va yog‘ochdan ishlangan bo‘lib, devorlari esa rangli naqshlar bilan bezatilgan.

Bronza asri tasviriy va amaliy san‘ati. Bronza asrida amaliy-dekorativ san‘at yanada rivojlandi. Endilikda sopol buyumlardan tashqari, mis, oltin va bronzadan ishlangan predmetlar ibtidoiy jamoa kishisi hayotida muhim o‘rin egallay boshladi. Turli taqinchoqlarni o‘yma chiziqli naqshlar bilan bezash odat tusiga kirdi. Ayrim yerlarda kulolchilik dastgohlarining vujudga kelishi sopol buyumlar shaklining tekis va ko‘rimli bo‘lishini ta‘minladi.


Haykaltaroshlar loydan tashqari, metall, yog‘ochdan ham keng foydalana boshladilar. Endilikda erkaklar haykali asta-sekin ayollar haykaliga nisbatan ko‘proq yaratildi. Geometrik xarakterdagi naqshlar ko‘plab ishlandi. Ibtidoiy jamoa rassomi tasviriy san‘atda murakkab his-tuyg‘ularni ham tasvirlashga intila boshladi. Sharqiy



8-rasm. Bronza davri sopol idishlari

Yevropa va Osiyo yerlarida bronza asri madaniyati ravnaqi, eng avvalo, metall serob bo'lgan yerlar bilan bog'liq. Kavkazda bronza asrida yaratilgan yodgorliklar ichida Maykopdan (Kuban, Maykop shahri) topilgan bronza, kumush va oltin buyumlar diqqatga sazovor. Eramizdan avvalgi III minginchi yillarning o'rtalarida yaratilgan buyumlar ishlanishidagi yuksak mahorat, badiiy yechimining tugalligi va nafisligi bilan xarakterlanadi. Buyumlar bezagi uchun ishlatilgan hayvonlarning hajmli tasviri o'zining realistik xarakteri bilan esda qoladi.

Kavkaz orti mamlakatlarida bronza asrining gullagan davri eramizdan avvalgi II minginchi yillarga to'g'ri keladi. Bu yerlarda metallni quyish va qayta ishlash nihoyatda rivojlandi. Qo'rg'on osti qabrlaridan topilgan kumush, oltin va bronzadan ishlangan bezak-buyumlar, uy-anjomlari, qurol-aslahalar o'zining tuzilishi va badiiy bezatilishi bilan xarakterlidir. Idishlar yuzasi bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan. Bu tasvirlarda ov manzarasi, ko'p figurali kompozitsiyalar uchraydi. Kavkaz ustalari yaratgan metalldan ishlangan kamarlar ham xarakterli. Ularning yuzasi o'yma naqshlar bilan bezatilgan, hayvonlar tasviri ham uchraydi. Bronza asrining so'nggi bosqichida (er. av. II—I minginchi yillar) Kavkazda Koban (Shimoliy Kavkaz, Osetiya) madaniyati rivojlandi. Bu yerdan metalldan ishlangan turli buyumlar topilgan, ularning yuzasi chiziqli naqsh va tasvirlar bilan bezatilgan. Ayniqsa, bronzadan



9-rasm. Bronza davri haykalchalari. Oltin, bronza

ishlanib, yuzasiga o'yma tasvir va naqshlar tushirilgan, uncha katta bo'lmagan boltachalar mashhurdir.

Koban madaniyatida mayda plastika ham o'ziga xos o'rin egallaydi. Turli qo'y-qo'zilar, kiyik, it haykalchalari, shuningdek, hayvon va odam boshining tasvirlari bunga misoldir. Ular tinch va harakat paytida tasvirlangan. Metall eritish va undan buyumlar yasash Janubiy Sibir yerlarida eramizdan avvalgi II ming yillikda boshlandi. Bu yerlardan topilgan metall buyumlar yuzasi chiziqli va bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan, ularning yuqori qismida hayvonlar haykali yoki bosh qismining tasviri bo'lgan. O'rta Osiyo yerlarida bronza asri eramizdan avvalgi III ming yillik o'rtalariga to'g'ri keladi. Bu yerlarda metallardan buyumlar ishlash keng tarqaldi. Jumladan, Farg'onadan topilgan bilaguzuklarda qo'y va sher tasviri, ayniqsa, ta'sirli chiqqan. Sopollitepa yodgorliklari (Surxandaryo vil.) ular ichida bronzadan ishlangan turli buyumlar, nafis sopol buyumlar shu davrda markaziy Osiyodagi muhim jonlanishdan dalolat beradi. Bronza asrida O'rta Osiyoda kulolchilik yanada rivojlandi.

Kulolchilik dastgohlarining yuzaga kelishi esa, so'zsiz, yaratilgan buyumlarning yanada nafis va go'zal bo'lishini ta'minladi. Chustdan topilgan qizil fonga qora bo'yoqlar bilan rasm va naqshlar ishlangan sopol buyumlar diqqatga sazovordir.

Kobiston (Ozarbayjon)dan topilgan tosh yuzalariga ishlangan suratlar ham bronza asri yodgorligidir. Bu suratlar kontur chiziqlar yordamida bajarilgan bo'lib, ovchilik tasvirlanadi. Ovchilarning sher, tog' echkilarini ovlashlari ko'rsatilgan. Bronza asri insoniyat taraqqiyotining muhim bosqichi bo'ldi. Inson tafakkurining rivojlanishi natijasida mehnat unumdorligining ortishi, ishlatilgan mehnat qurollari ish samaradorligining ko'tarilishiga imkoniyat berdi. Bu, o'z navbatida, san'at va madaniyat taraqqiyotiga katta ta'sir qildi, uning keyingi bosqichga ko'tarilishiga zamin yaratdi.

Temir asri ibtidoiy jamoa tuzumining so'nggi bosqichi sifatida. Ibtidoiy jamoa tuzumining so'nggi bosqichi bo'lgan temir asri, insoniyat ma'naviy dunyosining murakkablashishi, ijtimoiy hayotda urush, talon-torojlikning kuchayishi va jamoada harbiy rahbarlarning roli ortishi bilan xarakterlanadi. Ijtimoiy hayotga

lib kelgan temir, tosh va qisman, bronza buyumlarni hayotdan ajib chiqardi. O'z xususiyati jihatidan mustahkam bo'lgan bu metall ishlab chiqarish kuchlarining ortishi va mehnat unumdorligining kuchayishiga samarali ta'sir qildi, ayniqsa, dehqonchilik madaniyatini kengaytirdi, qo'shimcha mahsulotning to'planishi esa sinfiy notenglikni yanada kuchaytirdi, patriarxal qulchilik paydo bo'ldi, qabilalar orasidagi munosabatlar murakkablashdi. Bular, mudofaa masalalariga e'tiborning kuchayishi, u bilan bog'liq qurollar va texnikani rivojlantirishga ta'sir qildi, rahbarlik xarakterini o'zgartirdi. Dinning mavqeyi orta bordi, ommaga psixologik ta'sir etish formalariga e'tibor kuchaydi. Ibtidoiy jamoa tuzumi ko'nggi bosqichining xarakteri shu davrda yaratilgan mudofaa xarakteriga ega bo'lgan mustahkam qal'a va qo'rg'onlariga, bezakka boy uy-anjomlari, jang qurollariga, shuningdek, ko'mish marosimiga bog'liq bo'lgan urf-odat buyumlarida ko'rinadi. Temir asrida ham amaliy dekorativ san'at yetakchi o'rinni egalladi. Kulolchilik texnikasining murakkablashishi, kulolchilik uchun dastgohlarning keng ko'lamda ishlatilishi uning sifatini o'zgartirdi, yangi tur va formalarni yuzaga keltirdi. Bezash ishlarida geometrik naqshlardan tashqari, sujetli kompozitsiyalardan foydalanish tamoyillari rivojlandi. Mayda plastikada metallardan ishlangan haykalchalar, janrli kompozitsiyalar paydo bo'ldi.

Ibtidoiy jamoa tuzumining so'nggi bosqichi temir asri san'ati va madaniyatini Yevropada «Galshtat madaniyati», Sharqiy Yevropa va Osiyo yerlarida esa «Skif madaniyati» tasavvur etish imkoniyatini beradi.

Galshtat madaniyati. Galshtat san'ati va madaniyati (yodgorlik topilgan manzil Galshtat, Xalshtat, (Avstriya) nomi bilan ataladi. O'rta Yevropaning janubida yashagan bir qator qabilalar tomonidan ilk temir asrida (er. av. 1000–400-yillar) yaratilgan. Galshtat madaniyatining eng gullagan davri eramizdan avvalgi V–IV asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda amaliy san'at va hunarmandchilik, ayniqsa, rivojlandi.



10-rasm. Ko'za. Mis. Galshtat madaniyati

Galshtat madaniyatining asosiy qismi qablardan topilgan yodgorliklar bo'lib, bular ichida bronzadan, qisman oltin va shishadan ishlangan buyumlar uchraydi.

Kulolchilik buyumlari qo'lda hamda dastgohda yaratilgan bo'lib, ularning yuzasini bezashda o'yma va bo'rtma naqshlar, band va tepa qismlari uchun haykalchalar ishlatilgan. Shu xususta bronza va kumushdan yasalgan chelaklar – situlalar xarakterlidir. Galshtat madaniyatida rassomlik va haykaltaroshlik salmoqli o'rinni egallaganligini Shimoliy Italiya qabrlaridan topilgan buyum va suratlarda, qabrtosh yodgorliklarida ko'rish mumkin. Rasm va bo'rtma tasvirlarda jang va bazm manzaralari, bayramlar, qo'shiq aytish, musiqa asbobi chalish paytlari aks ettirilgan. Galshtat san'atida aravada ketayotgan odamlar (jangchilar) tasviri ko'p uchraydi. Shuni alohida qayd etish lozimki, galshtat san'atida odam tasviridan keng foydalanilgan. Tasvirlashda primitivlik bor, anatomik aniqlik yetishmaydi, lekin ibtidoiy jamoa rassomining inson qiyofasiga tez-tez murojaat qilishi, uning dunyo, odamlar, hayot to'g'risidagi tasavvur, o'y-xayollarini tasviriy vositalar orqali bayon etishga harakat qilganligini ko'rsatadi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi insoniyat taraqqiyotining uzoq davom etgan bosqichidir. Shu davr ichida inson tafakkuri kamol topdi, his-tuyg'ulari rivojlandi. Inson dastlab tabiat yaratgan in'omlar iste'molidan o'zi mahsulot yaratishga o'ta bordi. U mehnat jarayonida san'atni yaratdi. San'at esa voqelikni obrazli bo'lishga yordam berish bilan birga, insonning o'z kuchiga ishonch hosil qilishida, tevarak-atrof qoidalarini o'zlashtirib, uni go'zallik qonunlari asosida qayta qurishiga imkon berdi. Ibtidoiy jamoa davri san'ati Qadimgi Sharq, antik dunyo va o'rta asr Yevropa san'ati hamda ilk sinfiy jamiyat san'atining asosini tashkil etdi.

Seminar savollari:

- 1. Neolit keramika davri. Markazlar, manzillar.*
- 2. Ibtidoiy jamoa davri bronza, temir davri san'ati xususiyatlari.*
- 3. Dastlabki diniy tushunchalar, urf-odatlar, ularning san'atdagi ifodasi.*
- 4. Megalitik qurilmalar (dolmenlar, mengirlar, kromlexlar).*
- 5. Tripole, Galshtat madaniyati yodgorliklari.*

II qism QADIMGI DAVR

♦ 4-mavzu.

QADIMGI SHARQ SAN'ATI. UMUMIY TA'RIF

Ma'ruza mazmuni:

Kirish. Qadimgi Sharq tushunchasi, uning geografik va davriy chegarasi. Qadimgi Sharq xalqlari va davlatlari san'atining o'ziga xos xususiyatlari va o'xshash tomonlari. Qadimgi Sharqda dastlabki quldorlik davlatlarining vujudga kelishi. Qadimgi Sharq xalqlarining jahon san'atiga qo'shgan hissasi.

Qadimgi dunyo san'ati tarixi yer yuzida quldorlik davlatlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi va inqirozga yuz tutishi davridagi san'atni o'rganadi va tahlil qiladi. Ibtidoiy jamoa tuzumining dastlabki inqirozi eramizdan avvalgi 5000–4000-yillarda boshlanib (Qadimgi Misr, Old Osiyo, Xitoy, Hindistonda), yer yuzida quldorlik davlatlari rivojlanish davri boshlandi. Qadimgi davlatlar dastlab Frot, Dajla, Nil, Hind, Gang, Xuanxe, Yanszi, Qizil irmoq daryolari yoqalarida, keyinroq, Yevropaning janubiy tomonlarida, Bolqon va Apennin yarimorollarida paydo bo'ldi.

Quldorlik davlatlarining maydonga kelishi tarixiy zaruriyat bo'lib, u ishlab chiqarish kuch va madaniyatining keyingi taraqqiyotini belgiladi. Bu davrga kelib aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajraldi. Dehqonchilik, chorvachilik, savdo-sotiq, hunarmandchilik, san'at rivojlandi. Bu esa, o'z navbatida, inson ma'naviy dunyosining rivojlanishiga, jumladan, san'atning ravnaqiga zamin yaratdi. Agar ibtidoiy jamoa davrida san'at insonning kundalik hayoti, ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, endilikda u ijtimoiy ongning ajralmas qismiga aylandi va ijtimoiy hayotda muhim o'rin tuta boshladi. Bu davrda san'at taraqqiyoti bevosita din, mifologik tushunchalar zaminida rivojlanishini davom ettirgan bo'lsa ham, lekin birmuncha tantanali ruh ola boshladi. Ko'mish marosimlari bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlar muhim tantanalarga aylandi. Yirik maqbara, saroylar qurish, ularni bezashga katta ahamiyat berila

boshlandi. Devoriy suratlar, monumental relyef va haykallarda hukmdorlar, afsonaviy qahramonlar faoliyati ulug'landi. Qadimgi dunyo san'atkori o'ziga xos shakllarda kundalik turmush voqealarini aks ettira boshladi. Bu davrga kelib, odamlarning diniy tushunchalari ham o'zgara bordi. Odamlar tabiat kuchlariga sig'inishdan asta-sekin ilohiy kuchlarga – xudolarga sajda qilishga o'ta boshladilar. Bu xudolar timsolida odamlar aqliy barkamol, mo'tabar, har narsaga qodir bo'lgan, o'z xarakteri va ko'rinishi jihatdan odamlarga o'xshaydigan obrazlarni tasavvur eta boshladilar. Ularga atab hashamatli ibodatxonalar, monumental haykallar yaratdilar. Shu bilan birga, inson obrazi san'atning bosh qahramoniga aylana boshladi. Uning jasorati, olijanoblighi, iroda va aql-zakovatining qudrati san'atkorlar tomonidan madh etildi.

San'atda voqelikni obrazli bilish tomonlari kuchaydi. Uning tur va janrlari kengaydi. Bu davrda san'atda sintez masalasining hal etilishi esa insoniyatning qo'lga kiritgan buyuk yutuqlaridan bo'ldi. Qadimgi dunyo san'atining yana bir muhim tomoni shu bo'ldiki, unda milliy o'ziga xos tomonlar yaqqol ko'zga tashlana bordi. Katta-katta madaniyat markazlari vujudga keldi. Ularning san'atlari bir-biridan ko'rinishi, xarakteri, voqelikni obrazli ifoda etishi bilan ajralib turadi.

Odatda, Qadimgi dunyo san'ati ikkiga ajratilib o'rganiladi. Birinchi qism Qadimgi Sharq mamlakatlari san'ati va ikkinchi qism Yevropa mamlakatlari, aniqrog'i, uning janubiy tomonlarida shakllangan quldorlik davlatlari san'ati va madaniyati tarixini o'rganishni nazarda tutadi. Bu davlatlar Antik madaniyat va san'at bo'limiga kiritilgan.

Qadimgi Sharq iborasi shartli bo'lib, odatda, Qadimgi Yunon-Rim davlatlaridan sharqda va janubda joylashgan jo'g'rofiy hudud nazarda tutiladi. Shimoli-sharqiy Afrikada Tunisdan (bu yerda Qadimgi Karfagen davlati mavjud bo'lgan) to Yaponiyagacha cho'zilgan, Habashistondan (Efiopiya) Kavkaz tog'lari, Hindiston, Xitoy, Indoneziya, Koreya yerlarigacha o'z ichiga qamrab olgan katta maydonda qadim paytlarda bir qancha yirik quldorlik davlatlari mavjud bo'lgan. Ular jahon san'ati taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar. Qadimgi Misr podsholighi, Old Osiyodagi Shumer,

Akkad, Bobil (Vaviloniya), Ossuriya, Urartu, Xett davlatlari, Eron imperiyasi, O'рта Osiyo, Hindiston, Xitoy va Janubi-Sharqiy Osiyodagi davlat va podsholiklar jahon madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirdilar. Qadimgi Sharq xalqlari san'ati va madaniyati tarixi katta davrni o'z ichiga oladi. Eramizdan avvalgi 5000—4000-yillarda bu yerlarda shakllana boshlagan quldorlik jamiyati yangi eraning V asrgacha davom etadi.

Seminar savollari:

1. *Qadimgi Sharq tushunchasi, uning geografik va davriy chegarasi. Qadimgi davr Sharq xalqlariga kirgan davlatlar.*
2. *Qadimgi Sharqda san'atning o'rni, g'oyaviy-estetik tomonlari.*
3. *Qadimgi Sharq xalqlari va davlatlari san'atida o'ziga xoslik.*

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR

1. История Востока. В 6 т. Т. 1. Восток в древности / Гл. редкол. Р.Б. Рыбаков (пред.) и др.
2. *Xumtu Ф.* Краткая история Ближнего Востока. Мост трёх континентов. /Пер. с англ. А.В. Бушева. — М.: 2012. — 286 с.

QADIMGI MISR TASVIRIY SAN'AT VA ARXITEKTURASI: DAVRLARI, YODGORLIKLAR TIPOLOGIYASI, FUNKSIONAL VA BADIY JIHATLARI

◆ 5-mavzu.

Qadimgi Misrning sulolalargacha bo'lgan davrdagi tasviriy san'at va arxitekturasini

Ma'ruza mazmuni:

Kirish. Qadimgi Misr geografik o'rni. Uning davriy chegarasi.

Qadimgi Misr taraqqiyotining asosiy bosqichlari.

Sulolalargacha bo'lgan davrda Misr arxitektura va tasviriy san'ati.

Arxitektura — san'atning yetakchi turi sifatida.

Tasviriy va amaliy san'at. Uning g'oyaviy-badiiy tomoni.

Qadimgi podsholik davri Misr arxitekturasini va tasviriy san'ati.

Arxitektura. Monumental inshootlar qurilishining yetakchilik roli. San'atning boshqa turlari — haykaltaroshlik, rang-tasvir, amaliy san'atlarning unga tobe holda rivojlanishi. Joser piramidasi. Gizadagi piramidalar (Xefren, Xeops, Mikerin), ularning konstruktiv tuzilishi.

Tasviriy san'at. Ko'mish marosimi bilan bog'liq bo'lgan portretlarning rivojlanishi. Kanonlarning ahamiyati.

Afrikaning shimoli-sharqida, Nil daryosining quyi vohasida bugungi Misr Arab Respublikasi yerlarida juda qadim paytlarda (er. av. VI ming yillik) bir qancha qabilalar yashagan. Eramizdan avvalgi IV ming yillikda shu yerda yer yuzida birinchi sinfii jamiyat kurtaklari nish urdi, quldorlik davlatlari yuzaga keldi, rivojlandi. Eramizdan avvalgi IV ming yillik oxiri III ming yillik boshlariga kelib esa ular yagona yirik despotik davlatga aylandi. Qadimgi Misr san'ati tarixi ana shu davlatlarning yuzaga kelishi, rivojlanishi va inqirozidan tortib, to makedoniyalik Iskandar (Aleksandr Make-donskiy)ning yurishi bilan uning ellinistik dunyoga qo'shilib ketishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, o'rganadi, tahlil etadi. Qadimgi Misr uzoq yo'lni bosib o'tdi. Deyarli 4000 yildan ortiq vaqtni o'z ichiga olgan bu davr mobaynida tasviriy va amaliy

san'at, me'morchilikning nodir durdonalari yuzaga keldi, ular bugungi kunda ham o'zining ulug'vorligi, mahobati va yuksak badiiyligi bilan kishilarni hayajonlantiradi.

Bu yerda birinchi marta inson va uning mehnati san'atkor asarida o'z ifodasini topdi. Inson qudrati, nafosati va aql-zakovatining imkoniyati kuylandi. Shu yerda birinchi bor me'morchilikning mumtoz shakllari, masalan, obelisk, piramida, ustunlar yaratildi. Lekin bu san'at va madaniyat birinchi bor sinfiy tengsizlik sharoitida, hali tugamagan ibtidoiy tuzum va sharq mustabidligi davrida mavjud bo'ldi.

Bu davr fir'avnlarning cheksiz hukmronligi va faqat quillarininggina emas, balki erkin dehqonlarning ham to'la huquqsizligi bilan xarakterlanadi. Qadimgi Misr san'atining yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, u din bilan aloqada va unga tobe bo'lgan. Fir'avn va zodagonlar bilan bir qatorda, kohin va din vakillari ham juda ko'plab ibodatxonalar qurilishi va xudolar obrazining ishlanishiga sabab bo'ldilar.

Gap shundaki, qadimgi misrliklarning diniy tushunchasi o'ziga xos xususiyatga egadir. San'at uchun Qadimgi Misr dinidagi o'lganlarga sig'inish alohida ahamiyatga ega. Qadimgi misrliklar agar odamning jasadi yaxshi saqlansa, narigi dunyoda uning ruhi abadiy yashaydi deb tushunganlar.

Shu boisdan o'lganlarni mo'miyolashga, agar jasad buzilsa yoki chirib ketsa, yo'qolsa, shu odamning narigi dunyoda tinch yashashi uchun uning jasadi o'rniga haykal qo'yishga odat qilganlar. Qabrga, jasad yoniga esa uning tirikligida foydalangan uy-anjomlari, qurol-aslahalari, suv, oziq-ovqat qo'yish yoki shularning tasvirini ishlash kabi odatlar mavjud bo'lgan.

Bu, albatta, ko'mish bilan bog'liq bo'lgan me'morchilik san'ati, qabrlarga qo'yish uchun ishlangan haykal, rang-tasvir san'atining rivojlanishiga sabab bo'lgan.

Albatta, bunday boy, tantanali ko'mish marosimi, monumental maqbaraning ichini san'atning hamma turlari bilan bezatishni faqat fir'avn va Misr boylari amalga oshirishi mumkin edi. Sharq despotizmi ta'sirida Qadimgi Misr jamiyati sekinlik bilan rivojlandi va ayniqsa, kohinlar tomonidan qattiq muhofaza qilingan diniy

kanonlar Misr san'atining sekin rivojiga sabab bo'ldi. Shuning uchun ham juda qadim paytlarda Misr san'atida paydo bo'lgan badiiy uslublar (ayrim davrlarda bu kanonlardan chiqishga intilish bo'lgan, masalan, Exnaton asri realistik san'ati) uzoq vaqt Misr san'atida yetakchi o'rinni egallab, uning xarakterli tomonini belgilab kelgan.

Qadimgi Misr san'atkorlari ana shu kanonlardan chiqmagan holda, inson jismoniy va estetik dunyosining murakkab, serqirra va nozik tomonlarini aks ettirishga muyassar bo'ldilar va jahon san'ati tarixida qaytarilmas, o'ziga xos, nafis, jozibador, ulug'vor va sirli san'at durdonalarini meros qilib qoldirdilar.

Qadimgi Misr tarixi bosqichlari. Qadimgi Misr tarixi uzoq davrni o'z ichiga oladi. Bu davr mobaynida Misr tarixda goh ko'tarilish, goh so'nish yillarini boshidan kechirdi. Bu bosqichlar quyidagilardan iborat:

1. Sulolagacha (sulolalar paydo bo'lishiga qadar) bo'lgan davr. Bu ibtidoiy jamoa tuzumining inqirozi va dastlabki ilk podshohliklar (I–II sulolalar)ning yuzaga kelishi davriga to'g'ri keladi va mil. av. 4000-yillarni o'z ichiga oladi.

2. Qadimgi podshohlik III–VI sulolalar (mil. av. 3000–2300-yillar).

3. O'rta podshohlik XI–XII sulolalar (mil. av. 2100–1800-yillar).

4. Yangi podshohlik XVIII–XX sulolalar (mil. av. 1600–1100-yillar).

5. So'nggi podshohlik XXI–XXXII sulolalar (mil. av. 1100–332-yillar).

Bu bosqichlar o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lsa ham, lekin ularning har biri o'ziga xos xususiyatga egadir. Bu xususiyat bevosita ijtimoiy tuzumning xarakteri, moddiy va madaniy taraqqiyoti bilan aloqadordir.


VII–X, XIII–XVII sulolalar hukmronlik qilgan yillar Misr davlati inqirozga yuz tutgan, chet el bosqinchilari (geksoslar) tomonidan bosib olingan va unga qarshi kurash yillari bo'ldi, san'at tarixida muhim va xarakterli yodgorliklar yaratilmadi.

Sulolalargacha bo'lgan davrda Misr arxitektura va tasviriy san'ati.

(Miloddan avvalgi IV ming yilliklar)

Arxitektura. Ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi va ilk podsholiklarning shakllanish davrida san'atning hamma turlari va janrlari yuzaga keldi, insoniyat yozuvning dastlabki shakllaridan hisoblangan piktografik (rasmli) yozuv paydo bo'ldi. Qadimgi Misr san'ati o'zining butun taraqqiyoti mobaynida din va uning turli marosimlari bilan uzviy bog'liq holda rivoj topdi. Me'morchilik esa san'atlar ichida yetakchi o'rinni egallab, ularning xarakter va uslubiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Sulolagacha bo'lgan davrda, ayniqsa, uning so'nggi bosqichida qadimgi misrliklarning «narigi dunyo» haqidagi tushunchalari maqbaralar — marhumlarning yer osti uylari va ularning ustiga tortilgan tuproq uyumi va qurilmalarida namoyon bo'ldi. Qazilgan qabrlar to'rtburchak shaklda bo'lib, chuqur devorlari shu paytda ixtiro qilingan xom g'ishtlar bilan mustahkamlanib terib chiqilgan, tepa qismi esa xom g'isht yordamida egri ravoq tarzida yopilgan. Ayniqsa, oqsoqollar qabriga alohida e'tibor berilgan, ko'p mehnat sarf qilib, uning hashamatli bo'lishiga erishilgan, devorlariga pardozi berilgan, sujetli suratlar ishlangan. Qabr tepasiga ham alohida e'tibor berila boshlangan. Bu qurilmalar tepaga tomon kichrayib boruvchi to'rtburchaklar shaklida bo'lib, qabr ichida marhum va xudolar haykalini qo'yish uchun xona bo'lgan. Maqbaraning tepa tomonidagi qurilma devorida esa marhumning «narigi dunyo»dagi «uyi»ga o'tgan yolg'on-dakam eshigi bo'lgan.

Mastaba deb nom olgan bu qurilmalar Sakkara, Abidos, Nigada qabristonlarida ko'plab saqlanib qolgan. Bu mastabalar hajmi va bezagi, qabr ichiga qo'yilgan buyumlar xarakteri marhumning jamoada tutgan o'rniga qarab belgilangan. Ko'milgan odamning jamoadagi o'rni qanchalik yuqori bo'lsa, maqbara ham shunchalik mahobatli va serhasham bo'lgan. Asta-sekin shu maqbaralar yonida marhumga bag'ishlab o'tkaziladigan marosimlar uchun ibodatxonalar qurila boshlandi. Mastabalar keyingi Misr klassik piramidalarining yaratilishiga asos bo'lgan.



11-rasm. Mastaba

Tasviriy san'at. Sulolagacha bo'lgan Misr san'atida odam tasviri juda erta paydo bo'lgan. Qadim paytlardan saqlanib qolgan maqbaralardan haykalchalar topilgan. Ular hajm jihatidan katta emas, uzunligi 3 sm. Ular loydan, fil suyagidan, turli xildagi toshlardan ishlangan va bu haykalchalar diniy mazmunda bo'lganligi ehtimoli bor. Bu haykalchalarda erkak va ayollar, turli xil hayvonlar ishlangan. Haykaltarosh har bir haykalni iloji boricha yaxlit tarzda va tasvirlanuvchining eng muhim va xarakterli tomonlarini ko'rsatib ishlashga harakat qilgan.

Qadimgi Misr tasviriy san'ati me'morchilik bilan bog'liq holda rivoj topdi. Ijtimoiy hayotning murakkablashib borishi va sinfiy jamiyatning yuzaga kelishi bilan u boshqaruvchi sinfning kuchli mafkuraviy quroliga aylandi. Sulolagacha bo'lgan davrdan bizgacha ko'pgina haykaltaroshlik, rassomlik va amaliy san'at namunalari yetib kelgan. Shular ichida turli diniy-magik marosimlar o'tkazishda bo'yoqlar qorishtirish uchun foydalanilgan yassi, yupqa shifer plitalar alohida o'rinni egallaydi. Ularning dastlabkilari oval, romb, to'rtburchak, ba'zida jonivorlar shaklida (masalan, toshbaqa, baliq va boshqalar) bo'lgan.

Asta-sekin shu plitalar yuzasiga relyeflar ishlana boshlangan, ularda tarixiy voqealar ham o'z ifodasini topa borgan. Fir'avn Narmerga bag'ishlangan plita (taxminan er. av. III minginchi yillar) shunday yodgorliklardan biridir (12-rasm). Bu plitada

tarixiy voqea — yuqori (janubiy) Misr fir'avni Narmer tomonidan Quyi (Shimoliy) Misr yerlarining bosib olinishi va yagona davlat tashkil etilishi hikoya qilinadi. Plitaning bir tomonida fir'avn Narmerning dushman podshosi sochidan ushlab, o'z cho'qmori bilan urayotgan payti tasvirlangan. Yuqorida fir'avn homiysi lochin qiyofasidagi xudo Gor Quyi Misr ramzi bo'lgan nilufar o'simligi ustida dushman podshosini arqon bilan tortib turibdi. Olti nilufar o'simligi mag'lubiyatga uchragan 6000 dushman ramzini bildiradi. Past tomonda qochib borayotgan dushman jangchilari ko'rsatilgan. Plitaning orqa tomonida Narmerning Misr tojiga bog'langan va boshi tanasidan judo qilingan dushman jangchilari tomon g'olibona borayotgani tasvirlanadi. Plitaning pastki tomonida esa kuchli, shoxdor buqa to'siqlarni buzib, dushmanni yanchib borayotgani aks etgan. Bu yerda buqa qudrat ramzi bo'lib, u fir'avning allegorik obrazi hisoblanadi. Plitaning markazida ikki afsosnaviy hayvon — gepardlarning uzun bo'yinlari bir-biri bilan chatishib ketishi natijasida o'rtada dumaloq chuqurcha hosil bo'lgan. Bu chuqurcha, bir tomondan, marosimlar uchun bo'yoq qorishtirishda ishlatilsa, ikkinchi tomondan, bu doira kompozitsiya g'oyasini Misr yerlarining yagona davlat bo'lib birlashganini bildiruvchi muhim detalldir.

Narmer plitasi hajm jihatdan katta emas — balandligi 64 sru, lekin ko'rinishi jihatdan monumentaldir: Narmer plitasi ijtimoiy hayotda tengsizlik rivojlanayotgan bir paytda yaratildi. Bu xususiyat uning yaqinlari va oddiy xalq tasviri o'lchamlarining xarakterida ham ko'rinadi. Fir'avn boshqalarga nisbatan katta tasvirlanadi. Plitaning muhim tomoni, yuzada hajmli tasvirlarni ko'rsatish va joylashtirish uslubining ishlab chiqilganligidir. Tasvirda odam boshi yon tomondan ko'rsatilgan holda, ko'z old tomondan tasvirlanadi, yelkalar to'liq old tomondan ko'rsatilgan holda tananing pastki qismi yon tomondan, biroz burilgan holda ishlanadi. Voqealar esa yuzada ustma-ust joylash-



12-rasm. Narmer plitasi

tiriladi. Bu kompozitsiyaga hikoyanavislik baxsh etadi. Qadim paytlarda paydo bo'lgan bu uslub, aniqrog'i, «Misr uslubi» keyingi davr san'atida ham davom etdi. Sulolargacha bo'lgan davridayoq maqbara devorlariga surat ishlash va haykallar quyish odat bo'lgan.

Qadimgi podsholik davri Misr arxitekturasi va tasviriy san'ati

(mil. av. 3000–2300-yillar).

Arxitektura. Sakkaradagi Qadimgi podsholik davrida qurilgan III sulola fir'avni Joser maqbarasi (taxminan, eramizdan avvalgi 2800-yillar, me'mor Imxotep) birinchi klassik piramidalardandir.

Tepaga ko'tarilib va kichrayib boruvchi supachalardan tashkil topgan bu piramidaning balandligi 60 metrdan ortiq. Uning atrofida turli marosimlar uchun mo'ljallangan qurilmalar mavjud, ular piramida bilan uzviy bog'liq holda yagona majmuani tashkil etadi. 1500 m² maydonni egallagan bu majmua pardoqlangan devor bilan o'rab chiqilgan. Undagi xona, yo'lak, dahlizlar bezagiga ham



13-rasm. Joser piramidasi


alohida e'tibor berilgan. Bu yerda birinchi bor, devorlarga yopishtirib ishlangan kapitelli yarim ustunlar uchraydi. Ularning ko'rinishi tabiat shakllari (masalan, papirus)ga o'xshatib ishlangan, ko'proq dekorativ vazifani bajaradi.

Joser piramidasi ansamblida birinchi bor san'atning sinfiy xarakteri yaqqol namoyon bo'la boshladi. Davr mafkurasini targ'ib etish, fir'avnlarni ulug'lash va ilohiylashtirishga, fuqarolarda podsho hokimiyatining mustahkam ekanligiga ishonch tug'dirish, shu bilan birga, ularni doim qo'rquvda saqlash va itoatkor bo'lishini ifodalashga qaratilgan.

Bu piramida davrning siyosiy xarakterini tushunishga yordam beradi, despotik tuzum ilohiyot darajasiga ko'tarilgan podsholarning hukmdorligi naqadar kuchli ekanligini namoyon etadi. Bu majmua markazi — Joser piramidasininig katta hajmi va kompozitsion yechimi orqali ochiladi. Joser piramidasiidagi bu g'oya keyingi fir'avnlr davrida yanada rivojlantirildi.

Milodan avvalgi XXVII asrlarda Misr tarixida eng katta piramidalar qurildi.

IV sulola fir'avnlari Xufu, Xafra va Minkaura (yunonlar ularni Xeops, Xefren, Mikerin deb atashgan, tarixda ham shu nomlar ko'proq ishlatiladi) piramidalari bizgacha yaxshi saqlangan.



14-rasm. Giza piramidalar majmuasi

Giza yaqinida joylashgan bu piramidalar majmuasining ajralmas qismi bo'lgan sfinks haykali (odam boshli, sher tanali haykal), Xefren piramidasiga boradigan yo'l boshiga qo'yilgan. 60 metr uzunlikka ega bo'lgan katta sfinks haykali boshi Xefrenning fir'avnlilik bosh kiyimidagi ko'rinishini aks ettiradi.

Shu sfinkslar kichraytirilgan nusxalari esa Xefren ibodatxonasiga kiraverishda ikki tomonga o'rnatilgan. Piramidalar ansambli ichida eng kattasi Xeops piramidasidir. Balandligi 146,6 metr, asosi esa 233 m.

Tarixchi Gerodotning ta'rifiga ko'ra, Xeops piramidasi 20 yil mobaynida qurilgan. Piramidaga toshlar olib kelish uchun kerak bo'lgan yo'lni qurish uchun esa 10 yil kerak bo'lgan. Odamlar (qullar, erkin dehqon va hunarmandlar) shu piramidani qurish uchun haydab kelingan. Bu esa davlat iqtisodiga ta'sir etmay qolmadi, xalq g'alayonlariga sabab bo'ldi.

Shuning uchun V sulola fir'avnlari hajmi katta bo'lmagan piramidalar qurdira boshladilar. Lekin piramida majmuyida ibodatxonaga alohida e'tibor berdilar, uning hajmi kengaydi, badiiy bezagida monumental relyef va rassomlik keng qo'llanila boshlandi. Bu tasvirlar marhumni ulug'lash va ilohiylashtirishga qaratilgan. Qurilishda ustunlarning konstruktiv funksiyalari ortdi. Ko'rinishi palma daraxti, bog'langan nilufarlarni eslatuvchi ustunlar qo'llanila boshlandi. Bu xususiyat keyingi Misr me'morchiligining xarakterli tomonini belgiladi.

Tasviriy san'at. Maqbaraga haykallar qo'yish odati qadimgi podsholikda ham rivojlanib, maqbara va ibodatxonalarning ajralmas qismiga aylandi. Bu haykallar qat'iy kanonlarda ishlangan. Haykallarda o'tirgan yoki tik turgan tasvirlar uchun qat'iy qonun mavjud bo'lib, u deyarli hamma haykalda qaytariladi. Kompozitsiya frontal yechiladi, haykalning hamma qismlari simmetrik joylashadi va ba'zi hollarda qotib qolgan, harakatsiz holda tasvirlanadi, hatto haykaltarosh odamni harakatda tasvirlashga intilgan paytda ham shu hol seziladi. Shu bilan birga, har bir ijodkor ishlagan haykal konkret ko'rinishga ega bo'lgan individual shaxsning o'ziga o'xshaydi. Bu, albatta, ko'mish marosimi bilan bog'liq bo'lgan haykallarning xarakteridan kelib chiqqan. Ushbu haykallarga konkret

shaxsning ruhi joylanishi lozim, shuning uchun u o'ziga o'xshagan bo'lishi shart. Shu bilan birga, o'lgan kishining ruhi yerdagi hayot mashmashalariga emas, balki abadiy sukunatga boqishi, yerdagi jamiyki g'avg'olardan xoli bo'lishi, demak, u xotirjam, tinch, harakatsiz va yerdan butunlay ajralgan holda tasvirlanishi lozim. Fir'avn va zodagonlar haykalida jismoniy kuch bo'rttirilib ko'rsatiladi. Haykaltarosh iloji boricha, mayda detallarni umumlashtirishga harakat qiladi.


Haykallarning bo'yalishi ham Misr san'ati uchun xarakterli. Odatda, erkaklar haykali qizg'ish-jigarrang bilan, ayollar haykali esa och sarg'ish oxra bilan, kiyimlar oq, soch qora qilib bo'yab chiqiladi. Haykal ko'zlarining oq va qora toshlardan inkrustatsiya qilinishi ham haykallarning ta'sirli bo'lishini ta'minlaydi. Maqbaralarda oilaviy haykallar ham keng uchraydi. Raxotep va uning qaylig'i Nofret haykali shunday yodgorliklardandir. Misr haykaltaroshligi tamoyillarida ishlangan bu kompozitsiya ham to'laqonligi va hayotiyligi bilan ajralib turadi.



**15-rasm. Raxotep va uning ayoli Nofret haykali.
Qohira. Misr muzeyi**

Shu davrda ishlangan haykallardan yana biri «Qishloq oqsoqoli» deb nom olgan zodagon Kaaper haykalidir. Haykal yog'ochdan ishlangan, ko'zlari qora toshlardan inskrustatsiya qilingan. Og'ir jussali, vazmin bu zodagonning hassaga tayanib, oldinga borishi ham nihoyatda jonli chiqqan.

Lekin qadimgi podsholik davrida haykaltaroshlik kanonlarga qanchalik bo'ysungan bo'lsa ham, ular o'zining o'tkir realizmi va to'laqonliligi bilan ajralib turadi. Chordona qurib o'tirgan Mirzo Kai haykalida farmon kutib, yozishga shay turgan kotib obrazi uning katta ochilgan ko'z, biroz old tomonga engashgan gavda va qo'llar tasvirida namoyon bo'ladi. Bu haykallardan tashqari, taniqli kishilarning maqbaralarida kichik hajmdagi xizmatkorlarning haykalchalari ham qo'yilgan bo'lib, ular biror-bir ish bilan mashg'ul bo'lgan paytlari ko'rsatilgan. Fir'avn va zodagonlar qabrlariga xizmatkorlar haykallari ham ko'plab qo'yilgan. Bu haykallar hajm jihatdan katta emas, ishlanish jihatdan esa erkin. Ular mehnat paytida tasvirlangan. Bunday haykallar o'zining hayotiyligi bilan rasmiy haykallardan ajralib turadi.



16-rasm. Mirzo Kai haykali (er. av. 3000-yil o'rtalari). Parij. Luvr

Qadimgi podsholik davrida maqbara va ibodatxonalarning devorlariga rasm va boʻrtma tasvirlar ishlash odati keng yoyilgan. Boʻrtma tasvirlar – relyeflar, asosan, barelyef koʻrinishida ishlanib, ular ikki xil uslubda bajarilgan. Relyeflar dastlab ishlanib olinib, keyin mineral boʻyoqlar bilan boʻyab chiqilgan. Ikkinchi uslubda yuzga rangli xamirsimon qorishmadan ishlanib olingan, keyin ularni oʻyish bajarilgan. Boʻrtma tasvir va devoriy rasmlarning mavzusi bir xil boʻlib, unda maqbara egasining hayoti va uning xoʻjaligidagi odamlar faoliyati aks ettirilgan. Tasvirlar yarusli lentasimon uslubda bajarilgan. Obrazlar yechimida «Misr uslubi» ishlatilgan. V sulola davrida boʻrtma tasvir sanʼati oʻzining haqiqiy gullash davrini boshidan kechirdi. Sakkaradagi Ptaxxotep, Axxotep va Nenxetikai maqbaralariga ishlangan boʻrtma tasvirlar shundan dalolat beradi.

Qadimgi Misr devoriy rasmlari kam saqlanib qolgan. Shunday noyob rasmlardan biri Qohira muzeyidagi «Koʻkat ustida yurgan gʻozlar» rasmi boʻlib, bu rasm ham davr uslubidan chiqmagan, yassi dekorativ yechimda ishlangan.

Seminar savollari:

Qadimgi Misr sanʼati. Kirish

- 1. Qadimgi Misr: geografik oʻrni, davriy chegarasi.*
- 2. Qadimgi Misr sanʼatida «kanon» (qonuniylik) masalasi deganda nimani tushunasiz? Kanon sanʼatning qaysi turlarida yaqqol sezilgan?*
- 3. Qadimgi Misr taraqqiyoti bosqichlari, sanʼatdagi xususiyatlari.*

Sulolagacha boʻlgan davr

- 1. Mastaba Qadimgi Misr meʼmorchiligining dastlabki koʻrinishi sifatida. Kelib chiqish tarixi va tarhi.*
- 2. Narmer plitasiga taʼrif bering. Uning keyingi Misr tasviriy sanʼatidagi oʻrni.*

Qadimgi podsholik

- 1. Joser piramidasi ansambli: kim tomonidan qurilgan, konstruktiv yechimi, gʻoyaviy tomoni.*
- 2. Giza yaqinidagi piramidalar majmuasi: nomlari, umumiy tarhi, qurilishi haqida ilmiy va boshqa maʼlumotlar.*
- 3. Qadimgi podsholik davri Misr tasviriy sanʼati. Uning meʼmorchilik bilan bogʻliqligi.*

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR

Qadimgi Misr san'ati. Kirish

1. Всеобщая история архитектуры в 12 томах./ Т. 2. Архитектура Древнего Востока. — М.: 1973.
2. Всеобщая история искусств в 6 томах. / Том 1. Искусство Древнего мира. //Искусство Древнего Египта. Введение. — М.: «Искусство», 1956.
3. История искусства зарубежных стран. /Под ред. М.В. Доброклонского, А.П. Чубовой. — М.: 1979. //Раздел II. Искусство Древнего Востока. Глава I. Искусство Древнего Египта. Введение. С. 32–33.
4. *Афанасьева В.К., Луконин В., Померанцева Н.* Искусство Древнего Востока. — М.: 1976. (серия: «Малая история искусств» под общ. ред. И.С. Кацнельсона). С. 201–202.
5. *Матве М.Э.* Искусство Древнего Египта. — Л.: 2001. С. 3–11.
6. *Матве М.Э.* Искусство Древнего Египта. — М.: 1970. Серия: «Очерки истории и теории изобразительных искусств». С. 5–10.
7. *Пунин А.Л.* Искусство Древнего Египта. Раннее царство. Древнее царство. — СПб.: 2008. Серия: «Новая история искусства». С. 123–146.

Sulolagacha bo'lgan davrda Misr arxitektura va tasviriy san'ati

1. Всеобщая история архитектуры в 12 томах. Том 1. — Первобытно-общинная архитектура. Архитектура рабовладельческого общества. — М.: 1970.
2. Всеобщая история искусств в 6 томах. / Том 1. — Искусство Древнего мира. //— М.: «Искусство», 1956.
3. История искусства зарубежных стран. — М.: 1979. /Под ред. М.В. Доброклонского, А.П. Чубовой. //Раздел II. Искусство Древнего Востока. Глава I. Искусство Древнего Египта. Введение. С. 33–37.
4. *Афанасьева В.К., Луконин В., Померанцева Н.* Искусство Древнего Востока. — М.: 1976. (серия: «Малая история искусств» под общ. ред. И.С. Кацнельсона). С. 203–213.
5. *Матве М.Э.* Искусство Древнего Египта. — Л.: 2001. С. 12–32.
6. *Матве М.Э.* Искусство Древнего Египта. Серия: «Очерки истории и теории изобразительных искусств». — М.: 1970. С. 11–22.
7. *Пунин А.Л.* Искусство Древнего Египта. Раннее царство. Древнее царство. — СПб.: 2008. Серия: «Новая история искусства». С. 147–159.
8. *Эмери У.* Архаический Египет. — СПб.: 2001. (пер. с англ. 1962).

Qadimgi podshohlik davri Misr arxitekturasi va tasviriy san'ati.

Qadimgi podshohlik davri arxitekturasi

1. Всеобщая история архитектуры в 12 томах. Том 1. — Первобытно-общинная архитектура. Архитектура рабовладельческого общества. — М.: 1970.

2. Всеобщая история искусств в 6 томах. / Том 1. – Искусство Древнего мира. // – М.: «Искусство», 1956.

3. История искусства зарубежных стран. – М.: 1979. /Под ред. М.В. Доброклонского, А.П. Чубовой. //Раздел II. Искусство Древнего Востока. Глава I. Искусство Древнего Египта. С. 37–41.

4. *Афанасьева В.К., Луконин В., Померанцева Н.* Искусство Древнего Востока. (серия: «Малая история искусств» под общ. ред. И.С. Кацнельсона) – М.: 1976. С. 213–231.

5. *Матъе М.Э.* Искусство Древнего Египта. – Л.: 2001. С. 33–112.

6. *Пунин А.Л.* Искусство Древнего Египта. Раннее царство. Древнее царство. – СПб.: 2008. Серия: «Новая история искусства». С. 190 –350.

7. *Эмери У.* Архаический Египет. – СПб.: 2001. (пер. с англ. 1962).

Qadimgi podsholik davri tasviriy san'ati

1. История искусства зарубежных стран. – М.: 1979./Под ред. М.В. Доброклонского, А.П. Чубовой. //Раздел II. Искусство Древнего Востока. Глава I. Искусство Древнего Египта. С. 41–44.

2. *Афанасьева В.К., Луконин В., Померанцева Н.* Искусство Древнего Востока. (серия: «Малая история искусств» под общ. ред. И.С. Кацнельсона) – М.: 1976. С. 231–252.

3. *Матъе М.Э.* Искусство Древнего Египта. – Л.: 2001. – С. 113–179.

4. *Пунин А.Л.* Искусство Древнего Египта. Раннее царство. Древнее царство. – СПб.: 2008. Серия: «Новая история искусства». С. 351–394.

♦ 6-mavzu.

O'RTA PODSHOLIK DAVRI ARXITEKTURA VA TASVIRIY SAN'ATI

XI–XII sulolalar davri (miloddan avvalgi XXI–XVIII asrlar)

Ma'ruza mazmuni:

Arxitektura. Me'morchilikda yangi tendensiyalarning shakllanishi. Mentuxotep ibodatxonasi. Kahun shahri.

Tasviriy san'at. Realistik portret san'atining rivojlanishi. Portretlarda psixologik xususiyatni yoritishga intilish. Relyef va devoriy suratlar. Beni Hasandagi devoriy suratlar, ularning realistik tomonlari.

O'rta podsholik – XI–XII sulola davri (eramizdan avvalgi 2050–1700-yillar)da siyosiy va madaniy hayotda aholining o'rta tabaqasining roli ortishi davr xususiyatiga aylandi. «Narigi dunyo»

tushunchasiga e'tiborning susayishi va dunyoviy hayot masalalarining paydo bo'lishiga sababchi bo'ldi. O'rta tabaqadagi quldorlarning maishiy hayotga qiziqishlarining ortishi, ularning o'zlari uchun maqbara va saroylar qurishga intilishlarida sezila boshlaydi. Bu o'zgarishlar o'z navbatida san'at va madaniyatda, dinga bo'lgan munosabatda ko'rina boshladi.



17-rasm. Deyr-el-Baxridagi Mentuxotep I maqbarasi



18-rasm. Fir'avn Senusert III ning boshi haykali. XII sulola. Mil. av. XIX asr. Nyu-York Metropolitan muzeyi

Arxitektura. O'rta podsholik davrida maqbaraning yangicha turi shakllandi. Deyr-el-Baxri vohasida qurilgan fir'avn Mentuxotep I maqbarasi ansambli Misr me'morchiligining yangi qirralarini namoyon etadi. O'rta podsholik davrida qurilgan bu majmuada to'rtburchakli ustunlar qo'llanilgan, yuzasiga esa Mentuxotep I nomi o'yib yozilgan.

Me'morchilik kompleksi Liviya yassi tog'lari etaklaridagi qoya ichiga o'yib ishlangan xonalar bilan uzviy bog'liq. O'rta podsholikda ibodatxonalar oldiga pilonlar orasidan o'tish uchun tor yo'lak qoldirilib qurilgan ikki katta minora ishlash, ayvon va hovli atrofini ustunlar qatori bilan o'rab chiqish keng o'rin egalladi va keyingi Misr ibodatxonalarining qurilishida zaruriy va xarakterli element bo'lib qoldi. O'rta podsholik keyingi davr uchun katta ibodatxonalar kompleksini qurish san'atini boshlab berdi.

O'rta podsholik davrida nomarxlar (nomlarning mashhur kishilari) ham o'zlari uchun hashamatli maqbaralar qurishga kirishdilar. Ularning maqbaralari ko'proq qoya ichiga o'yib ishlangan bo'lib, old tomoni ikki,

to'rt, olti ustunli peshtoq bilan boshlangan. Bunga Beni Hasandagi Sarenput maqbarasi misol bo'la oladi.


Tasviriy san'at. O'rta podsholik davri tasviriy san'ati uslubiy jihatidan rang-barang. Rasmiy san'atda avvalgi davr uslubi yetakchi o'rinni egallaydi. Bu davrda ishlangan fir'avnlarni haykali avvalgidek mahobatli, statik va yaxlit shakllarda yer tashvishlaridan yiroq va cheksizlikka qaratigan holda ishlangan. Shu o'rinda Deyr-el-Baxri maqbara hovlisidan olingan Mentuxotep I haykali e'tiborli. Bu asarda avvalgi davr kompozitsiyalariga xos frontallik, shakllarning monumentalligi seziladi.

O'rta podsholik davrida fir'avn haykallarini ibodatxonalariga xudolar haykallari bilan birga qo'yish odat tusiga kira boshladi. Ishlangan haykallarda odamning yoshi, ichki ruhiy dunyosini ochishga intilish paydo bo'ldi. Shu o'rinda fir'avn Senusert III ning boshi haykali xarakterli. Yoshi o'ta boshlagan, hayot mashaqqatlaridan charchagan, lekin qattiqqo'l fir'avn xarakteri yaqqol ko'rsatilgan.

O'rta podsholik davrida relyef va devoriy suratlar mavzusi kengaydi, xalq hayotiga bag'ishlangan sujetlar keng o'rin egallay boshladi. Ishlash texnikasida ham birmuncha erkinlik ortdi. San'at realizmi kuchaydi. Devoriy suratlar maqbara va ibodatxonalar devorida relyef bilan bir qatorda muhim o'rinni egalladi. Unda ifoda vositalarining emotsional kuchi ortdi. Shu o'rinda Fivadagi Antefoker maqbarasiga ishlangan «Musiqachilar», «Yer haydash» devoriy suratlari diqqatga sazovordir.

Beni Hasandagi Xnumxotep II maqbarasiga ishlangan ov manzarasini aks ettiruvchi devoriy surat o'zining yuksak mahorat bilan ishlanishi, nozik rangda tovlanishi, ifodali kompozitsiyasi bilan O'rta podsholik rassomligining eng yaxshi asarlaridan biridir. Kompozitsiyadagi sakrashga tayyor turgan yovvoyi mushuk, daraxtdagi turli sayroqi qushlar tasviri juda jonli chiqqan. Beni Hasandagi bu maqbara devoriy suratlarida rassomning voqelikni tasvirlashda buyumlarning hajmiga, fakturasini ko'rsatishga harakat qilish hollari seziladi. To'qdan och rangga o'tib borayotgan tuslanishlar ko'rsatiladi. Bu xususiyat keyingi podsholiklar davrida yanada rivojlandi. Rassomlikda yangi mavzular ham keng o'rinni

egallay boshladi. Rassomlar har bir obraz xatti-harakatining tabiiy va go'zal bo'lishiga e'tibor bera boshladilar. Mayda plastikada janrli kompozitsiyalar yaratish, odamlarni harakatda ko'rsatish hollari, oddiy kishilar mehnatini tasvirlash bu davrda keng rivojlandi.



19-rasm. Beni Hasandagi Xnumxotepa II maqbarasidagi freska bo'lagi

Seminar savollari:

- 1. Deyr-el-Baxridagi Mentuxotep I maqbarasini arxitekturaviy tahlil qiling.*
- 2. Deyr-el-Baxridagi Mentuxotep I majmuasida Qadimgi podsholik davridan farqli ravishda arxitekturaga yangi kirib kelgan konstruksiya va elementlarni topib farqini ayting.*
- 3. Qadimgi va O'rtta podsholik davri piramidalarining o'zaro farqi (o'lcham, xomashyo, konstruksiya).*
- 4. Qadimgi va O'rtta podsholik davri fir'avn haykallaridagi farqlar.*
- 5. O'rtta podsholik davri tasviriy san'atida fir'avn obrazi.*

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR

1. Всеобщая история архитектуры в 12 томах. Том 1. — Первобытнообщинная архитектура. Архитектура рабовладельческого общества. — М.: 1970.

2. Всеобщая история искусств в 6 томах. / Том 1. — Искусство Древнего мира. //— М.: «Искусство», 1956.

3. История искусства зарубежных стран. — М.: 1979. /Под ред. М.В. Доброклонского, А.П. Чубовой. //Раздел II. Искусство Древнего Востока. Глава I. Искусство Древнего Египта. С. 45—49.

4. *Афанасьева В.К., Луконин В., Померанцева Н.* Искусство Древнего Востока. (серия: «Малая история искусств» под общ. ред. И.С. Кацнельсона). — М.: 1976. С. 253—270.

5. *Матве М.Э.* Искусство Древнего Египта. — Л.: 2001. С. 180—261.

6. *Силиотти А.* Египет. Долина царей. (Атлас чудес света). — М.: 2001.

7. *Силиотти А.* Египет. Пирамиды. (Атлас чудес света). — М.: 2001.

◆ 7-mavzu.

YANGI PODSHOLIK DAVRI QADIMGI MISR TASVIRIY SAN'AT VA ARXITEKTURASI

Yangi podsholikning I yarmi san'ati XVIII sulola davri (Amenxotep IV davrigacha). Miloddan avvalgi XVI—XV asrlar

Ma'ruza mazmuni:

Yangi podsholik davrida Misr qadimgi Sharq mamlakatlari ichida yetakchiligi. Arxitektura. Ibodatxonalarining maqbaralardan ajralishi. Deyr-el-Baxridagi Xatshepsut ibodatxonasi. Karnak va Luksordagi Amon Ra ma'budiga bag'ishlangan ibodatxonalar majmuasi (me'mor Amenxotep) tarhi.

Haykaltaroshlik. Karnak ibodatxonasi oldiga o'rnatilgan sfinkslar alleyasi. Haykaltaroshlikda portret.

Badiiy hunar va amaliy san'at.

Amarna davri.

Ehnaton va uning sulolalari davri san'ati (eramizdan avvalgi XIV asrning I yarmi). Exnatonning diniy islohatlari. Islohatlarning san'atda aks ettirilishi.

Amarna davri. Exnaton, Nefertiti, Exnaton qizlarining portretlari.

Yangi podsholik davrida (mil. av. 1580—1070-yillar) aniq to'rt-burchak shaklida qurilgan ibodatxonalar turi keng tarqaldi. Bu ibodatxonalar uch qismdan, ustunlar bilan o'ralgan ochiq hovli, ustunli zal va sig'inadigan xonadan tashkil topgan. Ibodatxona oldida sfinkslar (yoki ovinlar) alleyasi bo'lib, u toshpardalarga o'xshash trapetsiyasimon pilonlar tomon yo'llaydi.

Pilonlar oldiga esa obelisk va fir'avnlarning nihoyatda katta haykallari o'rnatilgan.

Bu haykallar orasidan ichkariga kirish uchun tor eshiklar qoldirilgan. Ichkari esa asta qorong'ilashib boruvchi baland ustunli ochiq hovli, zallar va qorong'ilashgan xona — muqaddas xona bilan tugallanadi. Bu me'morchilik majmuasi yagona g'oyaga — ilohiyotga boradigan yo'lning to'g'ri va mashaqqatli ekanligini his etishga qaratilgan. Ilohiyotga yaqinlashgan sayin inson o'zida tushkunlik hislarini sezishi va ilohiy kuch — xudo oldida, diniy sirlar oldida o'zining bir zarracha ekanini his etishi kerak edi. Bu hissiyotning paydo bo'lishida ibodatxonada asta-sekin yorug'likning yo'qolishi va eng so'ngida butunlay yo'q bo'lishi hisobiga erishiladi. Fivadagi Karnak va Luksor ibodatxonalari juda katta me'morchilik majmualaridandir.


Karnak (mil. av. XVI asr, me'mor Ineni) va Luksor ibodatxonalari (er. av. XV asr, me'mor kichik Amenxotep)da me'morlar birinchi bor ochiq hovli atrofini kolonali yechib, yangi podsholik me'morchiligining o'ziga xos tomonlarining shakllanishiga asos soldilar.

Bu komplekslarda qadimgi Misr me'morchilik an'analarning muhim tomonlari o'z ifodasini topdi, shu bilan birga, tantanali va hashamatli bo'lib borayotgan marosimlar bilan aloqador me'morchilikning yangi ko'rinishlari namoyon etildi. Ibodatxonalar uchun ishlatilgan ustun yuzalari, devorlar rangli relyeflar bilan bezab chiqilgan. Ibodatxonalar uchun ishlatilgan ustun kapitellari ham xarakterli. Ular papirus va nilufar gul g'unchalarini eslatib, binoga afsonaviy ko'rinish baxsh etadi.


Me'morchilikning qirralari podsho ayol Xatshepsutning¹ maqbara va ibodatxonasida ham seziladi.

Yangi podsholikning ilk bosqichida barpo etilgan bu me'morchilik kompleksi (me'mor Senmut) o'z hajmi va dekorativ bezaklari bilan ajralib turadi. Mentuxotep I ibodatxonasi yonida qurilgan

¹ Xatshepsut (mil. avvalgi XV asr, XVIII sulola vakili) — Qadimgi Misr Yangi podsholik davri ayol fir'avni. Xatshepsut giksoslar bosqinidan so'ng Misrni qayta tiklashni tugatgan. Bundan tashqari, Misrda ko'pgina yodgorliklar qurgan. Xatshepsut jahonda tanilgan birinchi ayol fir'avn hisoblanadi.



20-rasm. Malika Xatshesput maqbarasi aksonometriyasi. Deyr-el-Baxri Miloddan avvalgi 1550-y. Me'mor Semut. Tutaxamon maqbarasini ochgan Govard Karter tamonidan rekonstruksiya qilingan



21-rasm. Xatshesput maqbarasi tarhi va qirgimi

bu majmua tabiat ko‘rinishi bilan nihoyatda uyg‘unlashib ketgan. Ibadatxonaga boradigan yo‘lning ikki tomoni bo‘ylab sfinkslar bu manzaraga o‘ziga xos tantanavorlik baxsh etgan. Me‘morchilik ansamblining ayvon va supachalarida ham yaxshi pardoatlanib ishlangan podsho haykallaridan tashqari, iloh haykali qo‘yilgan, hovuzlar, ekilgan maysa va daraxtlar majmua jozibasini yanada oshirgan. Ibadatxona devor va pollariga ham alohida e‘tibor berilgan. Devoriy surat va relyeflarda esa Xatshesputning faoliyatiga bag‘ishlangan tasvirlar bo‘lgan.

Tasviriy va amaliy san‘at. Misr san‘atida turli hayvonlarning haykali ham jonli ishlangan. Ayniqsa, muqaddas hisoblangan mushuk, lochin, buqa haykallari jonli chiqqan. Qadimgi Misr san‘atida maqbara va ibodatxonalarning ajralmas qismi bo‘lgan relyef va devoriy suratlar ko‘p hollarda yozuv singari yuzaga lentasimon friz sifatida joylashtiriladi va iyeroglif yozuvlarga o‘xshab ketadi. Ularda bir xil shakllar ko‘p holda qaytarilib, uning ritmiklik xususiyatini orttiradi. Relyef va devoriy suratlarining yana bir xususiyati — bu fir‘avn va oddiy kishilarni tasvirlashda turli masshtabning olinishidir. Odatda, fir‘avnlr boshqalarga nisbatan katta, uning yaqin odamlari kichikroq, qolganlar yana ham kichik qilib tasvirlanadi. Odam tasvirini ishlashda bosh yon tomondan, ko‘z esa oldinga qaragan, gavda, yelka old tomondan, oyoqlar esa yon tomondan tasvirlanadi.

Ilk podsholik davrida rivojlanib, Narmer plitasida o‘z ifodasini topgan bu xususiyat keyingi davr san‘ati uslubining xarakterli tomonini belgiladi. Relyef va devoriy rassomlik uchun tabiiy mineral bo‘yoqlar ishlatilgan. Bu yaratilgan asarlarning dekorativ tomonini belgilashda muhim o‘rinni egallagan. Odamlarning qizg‘ish-jigarrang va och-sarg‘ish oxradagi gavdalari, qora soch, oq kiyimlari ko‘pincha moviy osmon rangidagi fonda alohida ko‘rinish kashf etgan.

Amarna davri

(mil. avvalgi XV asr — XIV asr boshlari)

XVIII sulolaning so‘nggi davri Misr san‘ati tarixida g‘oyatda ahamiyatli davr.

XVIII sulola harbiy yurishidagi muvaffaqiyatlar, qo‘shib olingan yangi hududlar va orttirilgan boyliklar fir‘avning kohinlari va saroy ahli o‘zaro munosabatlarida jiddiy ziddiyatlarga olib keladi. Oqibatda, fir‘avn Amenxotep IV kohin va zadogonlar bilan aloqani butunlay uzib, mahalliy aholiga tayanib qoladi. Davlat poytaxti Fivadagi markaziy Amon Ra ibodatxonasidagi ma‘budlar haykal va tasvirlarini olib tashlaydi, maqbara boyliklarini musodara qiladi. Qat‘iy ravishda diniy va ijtimoiy islohatlar o‘tkazdi. Kohinlar nufuzini tushirish maqsadida yangi diniy ta‘limot g‘oyasini ilgari suradi. Endilikda davlatning yagona ma‘budi bo‘lib – porlab turgan quyosh tasvirida aks etgan Aton ma‘budi timsoli ko‘riladi. Fir‘avn Fiva shahrini tashlab, o‘ziga o‘rta Misrda joylashgan Amarna hududi atrofida «Axetaton» – Aton ufqi nomi bilan yangi shahar qurdiradi. Shuning uchun bu davr manbaalarda «Amarna davri» ham deb yuritiladi. O‘zi esa Exnaton – «Aton Ruhi» – nomini oladi.


Yangi podsholikning ikkinchi yarmida (er. av. XIV–XI asrlar) qurilish ishlari faqat Misrdagina emas, balki uning tashqarisida, Misrga tobe bo‘lgan Nubiyada ham avj oldirilib yuborildi. **Abu Simbeldagi qoyaga o‘yib ishlangan Ramses II ibodatxonasi yangi podsholikning ikkinchi yarmidagi yirik qurilishlardandir.**

Uning kiraverish tomoniga qoyadan katta trapetsiyasimon pilon ko‘rinishi yo‘nib tushirilgan. Pilon oldidagi o‘tirgan holda tasvirlangan 4 ta 20 metrli Ramses II haykali ham qoyatoshni yo‘nish hisobiga yaratilgan. Ibodatxonaning ichki qismi yangi podsholik davri me‘morchiligi tamoyillari asosida bajarilgan. Ichki qismi ustunli xona bilan boshlanib, u yerga podsho haykallari o‘rnatilgan, so‘ng uch nefli ustunli zal va nihoyat, ibodatxonaga o‘tiladi. Bu so‘nggi xonada ham xudolar haykali bilan bir qatorda, Ramses II haykali qo‘yilgan.

Tasviriy san‘at. Exnaton islohatlari din bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan san‘atda ham o‘z ifodasini topdi. Asrlar davomida saqlab kelingan tasvir qoidalarini rad etish Exnaton hukmronligining dastlabki yillaridan sezila boshlaydi. Davlat poytaxti Axetatonga ko‘chmasdan oldin qurilgan Fivadagi Aton maqbarasida ishlangan bo‘rtma va haykaltaroshlik namunalari hamda yangi poytaxtni



*22-rasm. Abu Simbeldagi (Misr)
Ramses maqbarasiga kirish qismi*



*23-rasm. Abu Simbeldagi qoyaga o'yib ishlangan
Ramses II maqbarasi. Tarz, tarh*

chegaralovchi devor tasvirlarida va shu davr haykallarda o'zgarishlar yaqqol seziladi. Fir'avn-shoh obrazlarini ideallashtirish qat'iy rad etiladi. Islohatlar bilan birga, Misr san'atiga yangicha estetik qarashlar shakllandi. Oldingi shartli, balandparvoz tasvirlar o'rnini «realizm» yoki qandoq ko'rinsa shunday tasvirlash egalladi. Masalan, Exnaton, uning ayoli tasvirida obrazlar butunlay yon tamondan erkin tasvirlangan, ilgari dek bosh qismi yon tamondan, yelka esa tomoshabinga butunlay burib statik ko'rsatilishi umuman inobatga olinmagan. Amarna davri san'ati Misr san'atining ajoyib namunalari yaratilgan davr. Saroy haykaltaroshi Tutmos ustaxonasida ishlangan Exnaton, uning ayoli Nefertiti, ularning farzandlari obrazlari, shoh maqbarasi bo'rtma tasvirlarida realizm gohida naturalizm bilan almashinadi.

Qadimgi Misr realistik san'atining eng rivojlangan davri yangi podshohlik davriga to'g'ri keladi. Rassom va haykaltaroshlar zodagonlar hayotiga bag'ishlangan serjilo devoriy suratlar, nafis relyef va haykaltaroshlik asarlari yaratdilar. Ular asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan kanonlardan chetga chiqib, hayotiy kompozitsiyalar yaratdilar, asarlarning plastik, emotsional tomonlariga e'tiborni qaratdilar, rang palitralarini kengaytirdilar. Yangi podshohlik davri san'atidagi bu xislatlar islohotchi fir'avn – Exnaton davrida o'zining eng rivojlangan davrini boshidan kechirdi.

Amarna san'ati deb nom olgan Exnaton asri (er. av. XV–XIV asrlar) Misr madaniyati tarixida qisqa bo'lsa ham, lekin u avvalgi san'atning yaxshi tomonlarini o'ziga singdirib, o'z navbatida, uni yangi pog'anaga ko'tardi. Misr san'atining keyingi taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatdi. Shu davrda yaratilgan fir'avn Exnaton va uning oilasiga bag'ishlangan haykal va relyeflar,



24-rasm. Misr malikasi Nefertiti portreti. Amarna davri. Miloddan avvalgi XIV asr. Berlin muzeyi

ayniqsa, jonli chiqqan. Misr san'atida realistik asarlar yaratishga intilgan haykaltarosh Tutmes Nefertiti, Exnaton va uning qizlari, Meritaton va boshqa haykallarni yuksak mahorat bilan ishlagan.

Amaliy-dekorativ san'at borasida ham misrliklar ajoyib namunalari yaratib qoldirdilar. Alebastr va toshlardan yasalgan ajoyib ko'zalar, inkrustatsiya uslubida oltin va qimmatbaho toshlardan ishlangan bezak buyumlar, nodir daraxt yog'ochlaridan yasaliib, oltin va fil suyagi bilan bezatilgan mebellar qadimgi podsholik davridayoq yuksaklikka erishdi. O'rta va yangi podsholik davrida esa u yanada nafislanib bordi. Pardoziy buyumlari, turli qutichalar nozik did bilan inkrustatsiya qilingan. Ular fil suyagi, qimmatbaho yog'och bo'laklaridan qadab inkrustatsiya qilib ishlangan (masalan, qutichani ishlash uchun 20 mingdan ortiq shunday fil suyagi va qimmatbaho yog'och bo'lagi ishlatilgan). Tutanaxamon taxti relyefi ham o'z jozibasi bilan xotirada qoladi.

So'nggi podsholik davri

XXI–XXXII sulolalar (mil. av. 1100–332-yillar)

Eramizning I minginchi yillaridan boshlab, Misr yerlarining parchalanishi san'at taraqqiyotini birmuncha susaytirdi. Misr ijtimoiy hayotidagi jonlanish eramizdan avvalgi VII asrlarda boshlandi. Lekin bu uzoqqa cho'zilmadi. Eramizdan avvalgi VI asrlarda eronliklar, so'ngra eramizdan avvalgi IV asrda Aleksandr Makedonskiy tomonidan Misr yerlarining bosib olinishi uning o'ziga xos san'atida asta-sekin so'nish va Ellin dunyosi san'ati bilan qo'shilib ketishga sabab bo'ldi.

Misr san'ati umumjahon san'ati taraqqiyoti fonida alohida o'ziga xos qaytarilmas o'rinni egallaydi. Qadimgi Misrning yuksak did va aql-zakovat bilan bajarilgan nodir san'at namunalari esa insoniyat badiiy maktabining ajoyib durdonasi hisoblanadi.

Bu namunalari o'zidan keyingi jahon san'ati taraqqiyoti uchun taqlid maktabini o'tadi. Finikiya, Gretsiya, Rim xalqlari bu san'atdan bahramand bo'lib, uni har tomonlama o'rgan-

dilar, davrga mos asarlar yaratish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Misr san'ati ta'sirida fayum portretlari, keyinroq esa kopt san'ati shakllandi.

Seminar savollari:

1. Yangi davr podsholigining 3 davrga bo'linish sabablari, san'atdagi xususiyatlari.
2. Luksor va Karnakdagi arxitektura majmualari, tahlil qiling, taqqoslang.
3. Xatshepsut maqbarasi ko'rinishi, XVIII sulola davridagi boshqa maqbaralardan farqi.
4. Yangi podsholik davri arxitektura yodgorliklari. Ana'na va yangiliklar.
5. Xatshepsut davri saroy haykaltaroshlik san'ati o'ziga xosligi.
6. Amarna davri tasviriy san'ati. Islohotlarning tasviriy san'atda ko'rinishi.
7. Yangi podsholik davri amaliy san'atning xarakterli tomonlari.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR

1. Янги подшолик I ярми даври санъати.
 2. Всеобщая история архитектуры в 12 томах. 1 том. — Первобытно-общинная архитектура.
 3. Архитектура рабовладельческого общества. — М.: 1970.
 4. Всеобщая история искусств в 6 томах. / Том 1. — Искусство Древнего мира. //— М.: «Искусство», 1956.
 5. История искусства зарубежных стран. Первобытное общество, Древний Восток, Античность. Под ред. М.В. Доброклонского, А.П. Чубовой. — М.: 1980. С. 50—55.
 6. Афанасьева В.К., Луконин В., Померанцева Н. Искусство Древнего Востока. (серия: «Малая история искусств» под общ. ред. И.С. Кацнельсона). — М.: 1976. С. 271—298.
 7. Матъе М.Э. Искусство Древнего Египта. — М.: 1970. Серия: «Очерки истории и теории изобразительных искусств». С. 92—122.
 8. Матъе М.Э. Искусство Древнего Египта. — Л.: 2001. С. 262—409.
- Amarna davri.**
1. Всеобщая история архитектуры в 12 томах. 1 том — Первобытно-общинная архитектура.
 2. Архитектура рабовладельческого общества. — М.: 1970.
 3. Всеобщая история искусств в 6 томах. / Том 1. — Искусство Древнего мира. //— М.: «Искусство», 1956.

4. История искусства зарубежных стран. Первобытное общество, Древний Восток, Античность. Под ред. М.В. Доброклонского, А.П. Чубовой. — М.: 1980. С. 55–58.

5. *Афанасьева В.К., Луконин В., Померанцева Н.* Искусство Древнего Востока. (серия: «Малая история искусств» под общ. ред. И.С. Кацнельсона). — М.: 1976. С. 298–307.

6. *Матъе М.Э.* Искусство Древнего Египта. — М.: 1970. Серия: «Очерки истории и теории изобразительных искусств». С. 122–143.

7. *Матъе М.Э.* Искусство Древнего Египта. — Л.: 2001. С. 410–521.

So'nggi podsholik davri san'ati.

1. Всеобщая история архитектуры в 12 томах. 1 том — Первобытно-общинная архитектура.

2. Архитектура рабовладельческого общества. — М.: 1970.

3. Всеобщая история искусств в 6 томах. / Том 1. — Искусство Древнего мира. //— М.: «Искусство», 1956.

4. История искусства зарубежных стран. Первобытное общество, Древний Восток, Античность. Под ред. М.В. Доброклонского, А.П. Чубовой. — М.: 1980. С. 62–63.

5. *Афанасьева В.К., Луконин В., Померанцева Н.* Искусство Древнего Востока. (серия: «Малая история искусств» под общ. ред. И.С. Кацнельсона). — М.: 1976. С. 329–342.

6. *Матъе М.Э.* Искусство Древнего Египта. — М.: 1970. Серия: «Очерки истории и теории изобразительных искусств». С. 171–188.

7. *Матъе М.Э.* Искусство Древнего Египта. — Л.: 2001. С. 641–666.

8. *Стрелков А.* Фаюмский портрет. М. — Л.: 1936.

9. *Павлов В.В.* Египетский портрет I–IV веков. — М.: 1967.

◆ 8-mavzu.

MESOPOTAMIYA /OLD OSIYO/ SAN'ATI

Ma'ruza mazmuni:

Kirish. Old Osiyodagi qadimiy davrlardagi xalqlar va davlatlar. Ularning geografik o'rni va davriy chegarasi. Bu xalqlar va davlatlar san'atidagi o'xshashlik va o'ziga xos tomonlar.

Hammurappi davrida Mesopotamiya san'ati. Hammurappi stelasidagi relyef. *Shumer va Akkad san'ati.* Me'morchilik. Zikkuratlar. Haykaltaroshlik. Gliptika. Ur shahrida «Shohlar magbarasi» dan topilgan buyumlar. *Akkada san'ati.* Naramsin stellasi va uning san'at tarixidagi o'rni.

Osuriya san'ati. Osuriya davlati va uning madaniyatining xarakteri. Ossuriya saroy me'morchiligi (Dur-Sharrukin). Relyef, devoriy suratlar. Ossuriya amaliy-bezak san'ati.

Urartu davlati san'ati. Yangi-Bobil podsholigi san'ati. Urartu davlati san'ati (Van podsholigi davri). Me'morchilik, haykaltaroshlik, rang-tasvir va amaliy-dekorativ san'at.

Yangi-Bobil podsholigi san'ati. Ishtar darvozasi. Bobil minorasi, Navuxodonosor saroyi.

Dajla va Frot (Tigr va Evfrat) daryolari vohasida, O'rta Yer dengizi havzasining sharqiy qismi sohillari hamda Kichik Osiyoning markaziy tog'li hududlarida eramizdan avvalgi 5000–4000-yillardan – mil. av. 539-yilgacha Shumer, Akkad, Ossuriya, Urartu, Bobil kabi qator davlatlar mavjud bo'lib, ular jahon san'ati tarixiga o'z hissalarini qo'shishgan.

Bu davlatlarning so'nggisi Bobil (Vaviloniya) eramizdan avvalgi 539-yili Eron tomonidan tobe qilib olinadi va shu bilan Old Osiyoning qadimiy tarixi tugallanadi.

Old Osiyoning badiiy-tarixiy yodgorliklari Misr san'ati singari keng va rang-barang. Bu yerda ham hashamatli saroy va ibodatxonalar qurildi.

Dumaloq haykaltaroshlik va relyefda ajoyib, o'ta dinamik, plastik go'zal asarlar yaratildi, devoriy suratlar, nozik amaliy-dekorativ buyumlar ishlandi. Lekin bu yodgorliklar bizgacha kam yetib kelgan.

Bunga sabab Old Osiyoning asosiy qismini tashkil etgan Ikki daryo oralig'i (Mesopotamiya)da bir-birini almashtirib turgan yangi-yangi davlatlar o'rtasida mamlakatga hukmronlik qilish uchun doimiy kurash borgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, me'morchilik va tasviriy san'atning turlarini rivojlantirish uchun tosh, yog'och va metallarning yetarli bo'lmaganidan yoki kam ishlatilganligidan deyish mumkin.

Saqlanib qolgan yodgorliklar, ularning qoldiqlari Old Osiyoda eramizdan avvalgi 3000-yillardayoq bu yerda o'ziga xos yuksak san'at bo'lganligi va rivojlanganligidan dalolat beradi. Shu yerda yozuv o'z umrini boshladi, me'morchilik turlari yuzaga keldi, badiiy hunarmandchilik rivoj topdi.

Qadimgi Mesopotamiya san'ati

Dajla va Frot daryolarining o'rta va quyi oqimida qadim paytlarda mavjud bo'lgan mamlakatni yunonlar «Ikki daryo oralig'idagi davlat», grekcha Mesopotamiya deb nomlashgan. Hozirgi kunda bu yerlarda Iroq davlati joylashgan. Ikki daryo oralig'idagi yerlarning tabiiy sharoiti, yashash uchun qulayligi bu yerlarda juda erta odamlar jamoasining shakllanishiga va ilk shahar madaniyatining paydo bo'lishiga turtki bo'lgan.

Mil. av. VII–VI ming yilliklarda shu o'rta va quyi oqimda yashash manzillari dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandlik madaniyati rivoj topdi, savdo-sotiq ishlari yo'lga qo'yildi. Mil. av. V–IV ming yilliklarda esa sug'orish dehqonchiligi kengayib, yangi yerlarni o'zlashtirish quloch yoygan. Ayni shu davrda hunarmandchilik va dehqonchilik bir-biridan ajralib chiqqan. Kulolchilik, zargarlik toshtaroshlik shu ajralishda alohida o'rinni egallagan.

Mil. av. IV ming yilliklar o'rtalaridan odamlar yashaydigan manzillarda shahar-davlatlar shakllanib borgan. Bu shahar-davlatlar mudofaa qo'rg'onlari bilan o'ralgan bo'lib, har bir shunday davlatning o'z boshqaruv apparati bo'lgan. Hukmdor va kohinlar jamoani boshqaruvchi asosiy kuch hisoblangan. Asta shu shahar-davlatlar birlashtirilib, dastlab Shumer podsholigi, keyinroq esa Akkad podsholigi tashkil topgan. Akkad podsholigi kuch-quvvatga to'lgan paytlarda Suriya, Falastin yerlari ham davlat tarkibiga qo'shib olinib, uning qo'shinlari O'rta dengiz qirg'oqlariga chiqdi. Bu davlat asoschisi Sargon I edi. U Akkadni shu davlat poytaxti qilib belgiladi va 55 yil mobaynida (mil. av. 2316–2261-yillar) uni boshqardi. Sargon I vafotidan so'ng uzoq janglardan keyin hokimiyatni Naramsuen egallab (mil. av. 2236–2200-yillar), boshqardi. U o'zini «dunyoning to'rt tomonining podshosi» deb hisoblab, iloh darajasida ko'rdi. Shu davrda Mesopotamiya o'zining yangi rivojlanish bosqichini boshidan kechirdi. Shu bilan birga, xalq noroziligi kuchayib, davlat ichki inqirozi ham yetilib bordi.

Mil. av. II ming yillikda Mesopotamiyada hukmronlik qilgan Xammurapi (1792–1750-yillar) davrida Bobil (Vavilon) shahri davlatning ham siyosiy, ham madaniy markaziga aylandi. Meso-

potamiya o'zining rivojining yangi bosqichini boshidan kechirdi. Xammurapi ustalik va ayyorlik bilan Mesopotamiya yerlaridagi mayda davlatlarni bosib olib, yaxlit Babil davlatini yaratishga muvassar bo'ldi. Ayni shu davrda Mesopotamiyaning shimolida Dajla daryosining o'rta oqimida boshqa bir davlat Ossuriya rivojlanish davriga qadam qo'ydi. Kuch-qudratga to'lgan paytda esa u Misr, Falastin, Suriya, Finikiya, Urartu, Babil va Elam yerlarini o'ziga qaratib, qudratli quldorlik davlatga aylandi. Mesopotamiyaning yangi bosqichi Navuxodonosor II (mil.av. 605–562-yillar) davrida o'zining so'nggi rivojlanish bosqichini boshidan kechirdi. Babil qaytadan kuch-qudratga to'lib, uning shaharlari va poytaxti Babil gullarga o'raldi. Obodonchilik va qurilish ishlari amalga oshirildi. Afsonaviy bog'lar-u baland minoralar yuzaga keldi. Ular haqidagi afsonalar haligacha mavjud. Navuxodonosor II vafotidan keyin ichki nizolar mamlakat qudratini susaytira boshladi. Babil davlatining sharqida rivojlanib kelayotgan Eron davlati bu imkoniyatdan foydalanib, uni tor-mor etishga muvassar bo'ldi. Mil. av. 539-yili Eron podshohi Kir II Babil shahriga tantanali kirib keldi. Shu bilan Mesopotamiya tarixi ham o'z nihoyasiga yetdi. U Axomaniylar davlati tarkibiga qo'shilib ketdi.


Shumer va Akkad san'ati

Mesopotamiya san'atida ham monumental me'morchilik yetakchi o'rinni egallagan, san'atning boshqa turlari u bilan bog'liq holda rivojlangan. Mesopotamiya me'morchiligining o'ziga xos xarakterli tomonlari eramizdan avvalgi IV ming yillikda Shumer madaniyati shakllangan paytlarda yuzaga keldi. Bu davrga kelib, odamlar yashaydigan yirik manzillar markazida baland sun'iy yoki tabiiy tepaliklar ustiga qurilgan mahobatli saroylar markaz vazifasini o'tay boshlagan. Ular, asosan, xom g'ishtdan ishlangan, devor yuzasi pishiq g'isht, parchin va qisman toshlar bilan qoplab pardozlangan. Binoning tashqi devori tokchalar va yarim ustunsi-mon vertikal hajmlar bilan ajratilgan. Bu hajmlar binoda yorug'-soya o'yinini kuchaytirib, uning tantanavor ko'rinishini oshirgan. Bu xususda El Ubayddagi koshona (er. av. 3000-yillar) xarakterlidir.


Saroy sun'iy tepalik ustiga qurilgan bo'lib, unga zinalar bilan chiqilgan. Saroyga kirish darvozasiga alohida ishlov — bezak berilgan. Darvoza tepasida sher boshli burgut tasvirlangan bo'lib, uning ikki tomonida kiyiklar tasviri ifodalangan. Darvozaning yon tomonlarining past tomonida esa ikki sher haykali o'rnatilgan bo'lgan. Saroyning ichki qismidagi devorlarda frizlar bo'lib, unda turli voqealar, bo'rtma tasvirda ko'rsatilgan. Devorining ichki va tashqi tomonidagi yarim ustunsimon hajmlar uning mustahkamligini oshirishga xizmat qilgan. Saroyni bezash ishlarida relyef (barelyef, gorelyef) keng qo'llanilgan. Ular yog'och va toshdan ishlangan, yuzasi esa yupqa mis plastinkalar bilan qoplangan, ko'zlar esa inkrustatsiya qilingan bo'lib, hayotiy va ramziy mazmundagi voqealar tasviri ishlangan.

Mesopotamiya me'morchiligining yana bir o'ziga xos xususiyati, ibodatxonalar oldiga qurilgan minora-zikkurat hisoblanadi. Bunday minora-zikkuratlar 3,5 yoki 7 qavatli bo'lib ular tepaga kichrayib boruvchi supachalardan tashkil topgan. Bu supachalar zinalar bilan bog'langan. Zikkuratning eng yuqori qismida xona bo'lib, u yerda oltindan yasalgan stol bo'lgan. Afsonalarga ko'ra, iloh o'z kohinlari bilan shu stol atrofida gaplashgan. Bunday minora Mesopotamiyaning qator shaharlarida qurilgan bo'lgan.

Tasviriy va amaliy san'at. Mesopotamiya tasviriy va amaliy san'atiga xos bo'lgan xususiyatlari Shumer va Akkad davlatlarida



25-rasm. El Ubayd darvoza tepasiga ishlangan bo'rtma tasvirlar



25-rasm. Zikkurat. Rekonstruksiya

(er. av. 4000–yillar oxiri) ko‘rinadi. Bu amaliy bezak san‘ati tasviriy san‘atning rassomlik va haykaltaroshlik turlarida nodir namunalari yaratilgan. Rassomlik namunalari kam saqlangan. Haykaltaroshlik va mayda plastika birmuncha mo‘l bo‘lib, ular misrliklar haykaltaroshligiga nisbatan birmuncha sodda, primitiv bo‘lsa ham, lekin o‘zining ifodali ishlanganligi bilan esda yaxshi saqlanadi. Haykallar ko‘p hollarda yorqin bo‘yoq bilan bo‘yalgan bo‘lib, inkrustatsiya uslubida ishlangan haykallarni eslatadi. (Ona va bola haykali. El Ubayd davri er. av. 4000–3700–yillar). Monumental haykaltaroshlik asarlarida har bir tasvirlanuvchining individual xususiyatlarini ochib berishga, ichki dunyosini yaratishga intilish seziladi. Ur shahridan topilgan ma‘bud (ayol) boshi haykali e‘tiborga loyiq. Haykal alebastrda ishlanib, o‘z vaqtida yuzasi plastinka bilan qoplanib, ko‘zlari inkrustatsiya qilingan bo‘lgan. Relyeflarda esa tarixiy voqealar, jang yurishlari ishlangan. Bu yerda dumaloq haykaltaroshlik va gliptika keng tarqalgan.

Akkad podshohligi davrida Old Osiyo yerlari yagona davlatga birlashtirildi. Shu davrda tasviriy san‘at realizmi ortdi. Ayni shu davrda Shumer dostoni – Gilgamish afsonasi shakllandi.

Akkad davridan saqlanib qolgan haykal va relyeflar hayotiyligi bilan xarakterlanadi. Ularda proporsiyalar to'g'ri, xatti-harakatlar tabiiy, detallar aniq va dekorativ planda ishlangan. Shu o'rinda Sargon Qadimiy haykali, Semit portreti diqqatga sazovordir.

Mesopotamiya san'atida stela o'rnatish keng o'rinni egallagan. Bular ichida Naramsuen stelasi mashhur. Mil. av. 2300-yillarda yaratilgan bu yodgorlik bugungi kunda Parijdagi Luvr muzeyida saqlanadi. Bu stela podsho Naramsinning tog'lik qabilalar ustidan erishgan g'alabasiga bag'ishlangan. Bir to'da jangchilarga bosh bo'lib ketayotgan Naramsin va jangchilar harakati tabiiy chiqqan, tog' manzarasi, tabiat ko'rinishi ham relyef kompozitsiyasi hayotiyligini oshiradi.



27-rasm. Naramsen stelasi. Mil. av. 2300-yillarda. Luvr. Parij

«Xammurapi qonunlarining matni o'yib ishlangan tosh taxta va uning yuqori qismidagi Xammurapining quyosh xudosi Shamash oldida turgan payti tasvirlangan stela ham davrning nodir yodgorliklaridan hisoblanadi. Unda har ikki obrazning ham kiyimi, sochlari, xarakteri aniq ko'rsatilgan. Xammurapi ozg'in, ko'zlari ichiga tushib ketgan holda o'ziga juda o'xshatib ishlangan. Ibodat qilib turgan kishi portreti ham yaxlit formalarda ishlangan bo'lishiga qaramay, jonli chiqqan.


«Ibodat qilayotgan hukmdor haykali» (Suza) o'zining yaxlit badiiy yechimi, shakllarning ifodaliligi hamda tasvirlanuvchining ibodat paytidagi yig'lamsiragan holatiga ko'ra mohirona tasvirlangan.

Amaliy bezak san'atida «suza uslubi»da ishlangan idish e'tiborga loyiq. «Suza uslubi»da ishlangan idishcha nafaqat o'Ichamlarining nafis topilgani, balki uning yuzasiga ishlangan tasvirning uslublashtirilgan ko'rinishi bilan ham davr san'atining yuksaklikka erishganligini namoyish etadi. Zargarlik san'atida mesopotamiya ustalari yuksaklikka erishdilar, oltin kumush va boshqa qimmatbaho madan va toshlardan inkrustatsiya uslubida bajarilgan turli buyumlar, masalan, xanjar va uning g'ilofi, oltindan ishlangan buqa boshi haykali, boshga kiyadigan shlem shu san'atning nodir namunalari.


Dastlab Ur shahrida miloddan avvalgi XXII–XXI asrlarda bunyod etilgan, keyinchalik ko'p marotabalab qayta qurilgan zikkurat yaxshi saqlangan. Zikkurat ustma-ust o'rnatilgan uch qavatli kalta minoradan tashkil topgan.

Ossuriya san'ati

Eramizdan avvalgi I ming yillikda Osuriya yirik quldorlik davlatiga aylangan davrda (mil. avvalgi VII asr) hashamatli saroy, ibodatxonalar vujudga keldi, suronli janglar, ov manzaralarini ifodalovchi hayajonli bo'rtma tasvirlar yaratildi. Dur-Sharruken (hozirgi Xorsobod)dagi Sargon II saroyi xarobalari (er. av. VIII asrning II yarmi) shu davr monumental me'morchiligining muhim yodgorligi. Uning xarobalarda yetib kelgan qismi ham shu davr mahobatli qurilishidan dalolat beradi.



28-rasm. Dur-Sharruken (hozirgi Xorsobod)dagi Sargon II saroyi
(er. av. VIII asrning ikkinchi yarmi)



29-rasm.
Dur-Sharrukendagi
Sargon II saroyi.
Tarh


Saroy balandligi 14 m boʻlgan sunʼiy tepalikka qurilgan, atrofi esa qalin devor bilan oʻralgan. Saroy mehmonxona, yotoqxona va diniy marosimlarga moʻljallangan xonalardan iborat boʻlib, ular alohida ochiq hovli atrofida joylashtirilgan. Saroyga kiraverish darvozalarining ikki yon tomoniga esa qanotli, odam boshli qoʻtos — shedu oʻrnatilgan. Bu haykalga yon tomondan qaralganida yurib borayotganga oʻxshash, old tomondan qaralganda toʻxtab turgandek qilib ishlangan. Bu haykal tabiiy kuchlar ramzi boʻlib, podshoni yomon koʻzdan saqlashda xizmat qilgan. Saroyning tashqi devori va ichki xonalari devoriy surat va boʻrtma tasvirlar bilan bezatilgan. Masalan, saroyning tashqi devorlarida taxmonsifat joylar qoldirilgan boʻlib, u yerga haykallar oʻrnatilgan.

Shunday haykallar ichida Gilgameshning sherni xuddi mushukni ushlab qoʻltigʻiga olib koʻtarib ketayotganga oʻxshatib ishlangan haykali xarakterli. Bu tasvirlarda podshoning harbiy yurishlari hamda afsonaviy Gilgamish qahramonliklari ifodalanadi.

Ossuriya saroyi devorlariga ishlangan boʻrtma tasvirlar jahon sanʼatining nozik durdonalaridan hisoblanadi. Ularda harbiy yurishlar, podsholarning sher ovlashlari oʻta harakatli qilib ishlangan. Kalxudagi Ashshurnasirapal II (er. av. 883–859-yillar), Nanevidagi Ashshurbanapal (er. av. 669–635-yy.) saroylari boʻrtma tasvirlari shu oʻrinda mashhurdir. Ov manzarasini aks ettiruvchi boʻrtma tasvirlar juda yuksak mahorat bilan ishlangan. Relyef kompozitsiyasi oʻta dinamik boʻlib, chopayotgan va yaralangan sherlar haykallari (masalan, yaralangan sher boʻrtma tasviri) jonli tasvirlangandir.

Boʻrtma tasvirlarda shartlilik kuchli, lekin bu hol koʻzga tashlanmaydi. Masalan, odam va hayvonlar tasviri yon tomondan ishlangan boʻlishiga qaramay, voqealar hayotiy koʻrinishga ega. Haykaltarosh hayvonlar tasvirini, ayniqsa, mahorat bilan koʻrsata olgan. Masalan, yaralangan sher tasvirida undagi qudratning soʻnib borayotgani, lekin shunga qaramay nara tortib oldinga intilayotgani juda taʼsirli ishlangan.

Eramizdan avvalgi 612-yili Ossuriya Bobil va Midiya podsholigi yurishlari tufayli oʻz umrini tugatdi. Lekin uning saltanati qadimgi dunyo xalqlari sanʼati rivojiga katta taʼsir qildi.




30-rasm. Ashshurbanipala saroyi bo‘rtma tasvirlari

Urartu davlati san’ati. Yangi-Bobil podsholigi san’ati

Eramizdan avvalgi VII asr oxiriga kelib, Bobil yangi rivojlanish davrini boshidan kechira boshladi.

Me’morchilik. Navuxodonosor II (er. av. 605—562-yillar) podsholik qilgan yillar Bobilda shahar qurilish ishlari avj oldirib yuborildi, shahar qurilishi aniq loyiha asosida tiklanib, yangi binolar qurildi, atrofi qalin devor bilan o‘rab chiqildi. Shaharning sakkiz darvozasi bo‘lib, ular ichida Ashshurdagi Ishtar darvozasi o‘zining ko‘rkam va serhashamligi bilan ajralib turar edi. Darvoza devorlari koshinlar bilan pardozlangan. Ko‘k zamida (fonda) oq va sariq rangli afsonaviy hayvonlarning yurib borayotgani bo‘rtma tasviri ishlangan.

Shu darvozadan shaharning bosh ibodatxonasiga boradigan yo‘l boshlanadi. Darvozadan tashqarida ma’bud Marduk haykali o‘rnatilgan bo‘lgan. Bosh ibodatxona yonida esa to‘qson metrli katta Bobil minorasi qurilgan edi. Uning balandligi 90 m, asosi ham 90X90 m bo‘lgan.



31-rasm. Ishtar darvozasi. Babil. Miloddan avvalgi 570-y.

Navuxodonosor II saroyi ham serhasham, bezakka boy bo‘lib, osma bog‘lar qo‘ynida ertaknamo ko‘rinish kashf etgan edi.

Babil tarixi qisqa davom etdi. Eramizdan avvalgi 539-yili Eron qo‘shinlari tomonidan bosib olindi. Shu bilan Old Osiyo xalqlari qadimiy san‘ati tarixi o‘z umrini tugatdi.

Seminar savollari:

1. *Old osiyo davlatlari san‘ati: o‘xshashligi va o‘ziga xos tomonlari.*
2. *Shumer davri tasviriy san‘at va arxitekturasi. El Ubayd saroyi.*
3. *Ur shahrida «Shohlar maqbarasi»dan topilgan buyumlar.*
4. *Ossuriya san‘ati. Ossuriya saroy me‘morchiligi Dur-Sharruken, Sargon II saroyi xarobalari. Relyef, devoriy suratlar.*
5. *Babil tasviriy san‘at va arxitekturasi.*
6. *Xettlar tasviriy san‘ati va arxitekturasi.*
7. *Akkad va Urdagi III sulola arxitekturasi va tasviriy san‘ati.*
8. *Ossuriya va Babil haykaltaroshlik hamda rang-tasvir san‘ati qiyosiy tahlili.*

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR

1. Всеобщая история архитектуры в 12 томах. 1 том. – Первобытно-общинная архитектура.
2. Архитектура рабовладельческого общества. – М.: 1970.
3. Всеобщая история искусств в 6 томах. / Том 1. – Искусство Древнего мира. // – М.: «Искусство», 1956.
4. История искусства зарубежных стран. Первобытное общество, Древний Восток, Античность. Под ред. М.В. Доброклонского, А.П. Чубовой. – М.: 1980.
5. *Афанасьева В.К., Луконин В., Померанцева Н.* Искусство Древнего Востока. – М.: 1976. (серия: «Малая история искусств» под общ. ред. И.С. Кацнельсона). С. 91–102.
6. *Афанасьева В.К., Дьяконов И., Луконин В., Матье М.* Искусство Древнего Востока. – М.: 1968. Серия: «Памятники мирового искусства». С. 62–65.
7. *Флиттнер Н.Д.* Культура и искусство Двуречья и соседних стран. – Л.: 1958. Переиздание. – Л.: 2008. С. 248–280.
8. *Гарни О.Р.* Хетты. Разрушители Вавилона. Пер. с англ. А.И. Блейз. – М.: 2002.

♦ 9-*mavzu.*

QADIMGI ERON SAN'ATI

(*Axamoniylar va Sosoniylar davri*)

Ma'ruza rejasi:

Axamoniylar davri. Axamoniylar san'ati va madaniyatining tarixiy o'rne. Axamoniylar va Ellinistik an'analar. Me'morchilik. Eron va boshqa qo'shni davlatlarda (Xatra, Turkmanistondagi Eski Nisa) Parfiya qurilmalari. Nisadan topilgan ritonlar. Feruzobod, Sarviston, Kmtesifondagi sosoniylar saroylari. Toki-Buston va uning relyeflari.

Sosoniylar davri. Sosoniylar davrida yaratilgan torevtika, gliptika, numizmatika. Sosoniylar davrida yaratilgan gazlamalar, kulolchilik buyumlari, suyak va shishadan ishlangan buyumlar.

Eramizdan avvalgi VI asrda mavjud bo'lgan Eron podsholigi (boshqacha aytganda, Axamoniylar podsholigi) Sharqdagi birinchi eng katta davlatlardan biri hisoblangan. Bu podsholikning asoschisi Axamoniylar sulolasidan chiqqan Kir II (Kayxusrav II) bo'lgan.

U dastlab Eronning janubi-g'arbidagi tog'li hududlardan birining hukmdori bo'lgan. Eramizdan avvalgi VI asr o'rtalaridan boshlab, o'z yerlarini kengaytirishga kirishgan. Dastlab Midiya podsholigiga qarshi qo'zg'alon ko'tarib, uni qaramlikdan qutqargan va Eron hamda Midiyaning podshosi bo'lib olgan. So'ngra Bobil hamda O'rta Yer havzasidagi qator yerlarni bosib olib, davlat chegarasini yanada kengaytirgan. Sharqiy chegaralarni ham kengaytirish niyati va rejalari uning davomchilari tomonidan amalga oshirilgan. Doro I yurishlari natijasida bu podsholik chegarasi Orol dengizidan Hind okeanigacha, Kichik Osiyo va Misr yerlaridan Xitoy chegaralargacha borib yetgan. Axamoniylar davlati o'zining qisqa, lekin eng gullagan va kuch-quvvatga to'lgan davrini eramizdan avvalgi V asr boshlarida kechirdi.

San'at va madaniyat. Shu davrda uning san'ati rivoj topdi. Shu asrlarda hashamatli saroylar, mustahkam maqbaralar yuzaga keldi. Oltin va qimmatbaho tosh-u injulardan nafis uy, ov va jang buyumlari, qurol-aslahalar ishlangan. Serjilo sopol idishlar yasaldi, qimmatbaho kimxob materiallar to'qildi. Haykaltaroshlik (ko'proq bo'rtma tasvir tarzida), devoriy suratlarning nafis yodgorliklari yuzaga keldi. Bizgacha shu davr san'at yodgorliklaridan juda kam miqyosda namunalar yetib kelgan, ayrimlari esa tasodifiy parchalarda saqlangan. Lekin, shunga qaramasdan, ular hamon o'zlarining jozibasi, ishlanishdagi yuksak mahorati bilan kishilarda katta taassurot qoldiradi.


Me'morchilik. Axamoniylar davri san'atida ham qadimgi dunyoning boshqa davlatlarda bo'lgani singari (masalan, Misr, Old Osiyo va h.k.), me'morchilik yetakchi o'rinni egalladi. Me'morlar o'zlarining qurgan serhasham va mahobatli saroylarida davr ulug'vorligini aks ettirishga, hukmdorlarning kuch-qudratini madh etishga harakat qiladilar. Bunday saroy qoldiqlari Axamoniylar davlatining poytaxtlari Pasargada, Persepol va Suzada saqlanib qolgan. Persepol'dagi saroy ansambli (er. av. VI–IV asrlarda qurilgan) o'z ko'rinishi va qurilishi jihatidan Old Osiyo (Ossuriya) me'morchiligini eslatadi. U ham bevosita tepalik ustiga qurilgan. Saroyga keng va ko'rkam qilib qurilgan zinapoyalar orqali chiqilgan. Zinapoya va ustunlar bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan bo'lib, bu

tasvirlarda shohlar hayotidan olingan voqealar o'z ifodasini topgan. Bu suratlarda shohlar karomati va ulug'ligini ko'rsatishga harakat qilingan. Saroyga 17 metrli to'rtta ustundan ishlangan propiley (darvoza) orqali o'tilgan. Darvoza yon tomonlarida esa qanotli muqaddas ho'kizlar haykallari ishlangan. Saroydan chiqish tomonida ham muqaddas ho'kizlar haykali bo'lib, ular odam boshli bo'lgan. Saroy ansamblida apadana (shoh qabulxonasi), ombor-xona, yashash va ishlash uchun mo'ljallangan xonalar bo'lgan. Ayniqsa, apadana tantanali, ko'rkam va go'zal bo'lgan. Uning maydoni katta bo'lib (62,5x62,6 m), uch tomondan ikki qavatli ayvonlar bilan o'ralgan. Ayvon uchun yengil va nafis ustunlar ishlatilgan. Ularning balandligi 13,6 m bo'lgan. Ustunlarning kapitellari muqaddas ho'kizlar haykaliga o'xshatib ishlangan.


Haykallarning yuzasi esa oltin plastinkalar bilan qoplangan. Saroy xonalari, devorlari, zinaning yon tomonidagi yuzalarga bo'rtma tasvir (relyef)lar ishlangan. Bu tasvirlar qizil, yashil, ko'k, sariq ranglar bilan bo'yab chiqilgan. Bo'rtma tasvirlarda shoh hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan mavzu yetakchi o'rinni egallaydi. Saroyga boradigan zinaning yon tomonida ishlangan bo'rtma tasvirlarda turli millat elchilarining shohga sovg'a-salom bilan kelishlari aks ettirilgan. Bu tasvirda 33 millat va elat vakillari ko'rsatilgan. Ularning kiyimlari, xarakteri, etnik tuzilishi aniq detallar bilan ko'rsatilgan. Doro I davrida Suzada katta qurilish ishlari boshlab yuborildi. Bu yerdagi saroy qurilishi uchun jahonning 12 mamlakatidan qurilish va pardoqlash materiallari, O'rta Osiyo (Xorazm va So'g'diyona)dan ham lazurit va qimmatbaho toshlar keltirildi. Yunon va Misr, Liviya, Bobil ustalari bu qurilishda qatnashdi.

Er. av. VI—IV asrlarda barpo etilgan bu me'morchilik ansambli Persepol saroyi qurilishi prinsiplari asosida bunyod etilgan, lekin uning apadanasi juda hashamatli bo'lgan. 10400 m² maydonni egallagan shoh saroyi uchun 20 metrli ustunlar ishlatilgan, ularning diametri 1,6 m bo'lgan.

Keramikadan ishlangan panno ham xarakterli. Iliq va jarangdor havo rang, sariq, yashil, oq, qora bo'yoqlar gammasida ishlangan bu panno saroyning tantanavor bo'lib ko'rinishida muhim o'rin



**32-rasm. Persepol.
Rekonstruksiya**



33-rasm. Persepol saroyi kapitel qismi

tutgan. Pasargada saroyi, Naqshi Rostamdagi (Persepol yaqinida) Eron shohlari maqbaralari ham boʻrtma tasvirlar bilan bezatilgan.

Tasviriy sanʼat. Qadimgi Eron sanʼati rassomlik sanʼati haqida gapirish qiyin, lekin haykaltaroshlik, ayniqsa, uning boʻrtma tasvir turidan birmuncha moʻl yodgorliklar saqlanib qolgan. Bular dumaloq haykallar va relyeflardir. Ularda tarixiy voqealar shoh va shahzodalar, turli hayvon va fantastik jonivorlar tasvirlari yaratildi. Bu boʻrtma tasvirlar nihoyatda betakror va yuksak mahoratda ishlanganligi, shakl va chiziqlar oʻyiniga, nur soya boyligiga egaligi bilan chuqur taassurot qoldiradi. Bu tasvirlarda reallik va shartlilik yuksak darajada aralashib, oʻziga xos latofat kashf etadi. Shu oʻrinda zina tomonlaridagi ishlangan hayvonlar olishuvi (Sher va buqa), saroyga chiqish zinalarining yon tomonlaridagi boʻrtma tasvirlar, taxtda oʻtirgan shoh Artakserks I boʻrtma tasviri eʼtiborga loyiq.

Amaliy bezak sanʼati. Buyumlar yuzasiga boʻrtma tasvirlar ishlash, metallardan turli idishlar yasash borasida eronliklar mashhur boʻldilar. Oltin va boshqa qimmatbaho metallardan yaratilgan uy-anjom buyumlari, qurol-aslahalar, ov qurollari nihoyatda nafis va jimjimador, tasvirlarga boy qilib ishlangan.

Axamoniylar davri yodgorliklari ichida silindrik muhrlar ham keng oʻrinni egallagan. Muhr yuzasiga hayotiy voqealarni aks ettiruvchi tasvirlar tushirilgan. Shoh hayoti va faoliyatiga bagʻishlangan tasvirlar muhr yuzasiga ishlangan tasvirlarning bosh mavzusini belgiladi.

Kulolchilik buyumlari shakl jihatdan rang-barang, geometrik naqshlar, hayotiy sujetlar bilan bezatilgan. Eron sanʼatida parchinlar (mayolika) keng qoʻllanildi. Ular Eron meʼmorchilik yodgorliklariga oʻziga xos qaytarilmas joziba kiritdi.

Axamoniylar davlati qadimgi Sharqning soʻnggi yirik davlatlaridan edi. U eramizdan avvalgi 331–330-yillarda Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy) boshchiligidagi qoʻshin tomonidan barbod etildi. Keyinchalik bu yirik Eron imperiyasi oʻrnida bir qancha ellinistik davlatlar yuzaga keldi.

Axamoniylar davrida vujudga kelgan sanʼat Oʻrta Sharq xalqlari tarixida muhim oʻrinni egallaydi. Bu sanʼat bevosita Oʻrta Sharqda

yashagan xalqlarning o‘zaro yangi munosabati natijasida ravnaq topdi, atrofdagi xalqlar san’atidan ta’sirlandi. Bu davr san’ati rivojida o‘zga xalqlarning ham sezilarli xizmatlari bor. Jumladan, Persepol va Suza saroylarini qurishda So‘g‘d, Baqtriya va Xorazmdan kelgan usta va san’atkorlar mehnat qilganliklari haqidagi ma’lumotlar mavjudligi shundan dalolat beradi. Shu bilan birga, Axamoniylar davri san’ati atrofdagi mamlakatlar san’atiga, jumladan, O‘rta Osiyo san’ati taraqqiyotiga ham o‘zining sezilarli ta’sirini o‘tkazgan.

Seminar savollari:

1. *Axamoniylar davri san’atiga umumiy ta’rif.*
2. *Axamoniylar va Ellinistik an’analar. Me’morchilik.*
3. *Qadimgi Eron amaliy san’ati xususiyatlari. Amudaryo xazinasi misolida.*
4. *Sosoniylar davri Feruzobod, Sarviston, Ktesifondagi saroylari. Toki-Buston va uning relyeflari.*
5. *Sosoniylar davri. Sosoniylar davrida yaratilgan torevtika, gliptika, numizmatika. Sosoniylar davrida yaratilgan gazlamalar, kulolchilik buyumlari, suyak va shishadan ishlangan buyumlar.*

◆ **10-mavzu.**

QADIMGI HINDISTON SAN’ATI

(VII asrgacha bo‘lgan davr)

Ma’ruza mazmuni:

Qadimgi Hindiston san’ati (VII asrgacha bo‘lgan davr). Qadimiy Hindiston tarixi va madaniyatiga xos bo‘lgan xususiyatlar. Tarix va ijtimoiy tuzum.

Moxenjo-Doro va Xarappa me’morchiligi, tasviriy va amaliy-dekorativ san’at.

Maurya davlati san’ati. Qurilishda qo‘llanilgan asosiy tiplar. Ajantadagi g‘orga qurilgan ibodatxonalar. Ganxardagi yunon-budda san’ati.

Hozirgi Hindistonning shimoli-g‘arbidagi hind daryosi havzasidan topilgan Moxenjo-Doro (Sind viloyati) va Xarappa (Panjob)dan topilgan qadimgi shahar qoldiqlari, madaniyat yodgorliklari eramizdan avvalgi III–II minginchi yillardayoq hind san’ati o‘ziga

xos, yorqin va jozibador, fantaziyaga boy san'at bo'lganligini tasdiqlaydi.

Eramizgacha bo'lgan davrdan bir necha asr oldinoq, bu yerda matematika, tilshunoslik, falsafa, tibbiyot ravnaq topgan. Hunarmandchilik rivojlangan, yozuv paydo bulgan. Me'morchilik, haykaltaroshlik va rassomlik san'ati bir-biri bilan uyg'unlashgan holda rivoj topgan. Eramizdan avvalgi 1000-yillarning II yarmida bu yerda dastlabki sinfiy davlat paydo bo'lgan. Adabiy manbalarga ko'ra, shu davrlarda ajoyib, hashamatli yog'och me'morchiligi ravnaq topgan. Bular bizgacha saqlanmagan.

Eramizdan avvalgi III asrdan yangi eraning VII asrigacha bo'lgan davrda Hindiston Osiyodagi eng yuksak madaniyat o'chog'iga aylangan. Bu yerda paydo bo'lgan buddizmning Osiyodagi ko'pgina yerlarga tarqalganligi ham shundan dalolat beradi. Hindiston san'ati ham qator taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan. Bu taraqqiyot jarayonida hind san'atiga goh shumer, goh yunon san'atining ta'siri bo'lgan. Lekin shunga qaramay, uning san'atida o'ziga xoslik mavjud bo'lib, u, asosan, xalq san'ati, ayniqsa, hunarmandchilik ta'sirida bo'lgan.

Qadimgi Moxenjo-Doro shahrining qoldiqlari bizgacha yaxshi saqlangan. U yirik shaharlardan biri bo'lib, ko'chalar va binolar pishiq g'ishtdan ishlangan. Ko'chalari to'g'ri bo'lib, ularning kengligi 10 metrga yetgan. Ko'cha yoqasidagi uylar bir chiziqda joylashgan. Binolar 2—3 qavatli bo'lib, shaharga o'zgacha fayz kiritib turgan. Bino devorlari esa yaxshilab pardozlangan va suvalgan. Bu hol Hindistonda juda qadim paytlardanoq shahar qurish san'ati paydo bo'lganligidan, shaharlarni reja asosida qurishga e'tibor berilganligidan dalolat beradi. Shaharda katta jamoat binolari bo'lgan, hammom va kanalizatsiya tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Topilgan sopol buyumlarning yuzasi geometrik naqshlar bilan bezatilgan. Turli xildagi loy va toshdan ishlangan haykal va haykatchalar, o'ymakorlik bilan bezatilgan turli uy-anjom, bezak va zargarlik buyumlari ham shu davr san'ati rivojidan dalolat beradi.

Moxendjo-Dorodan topilgan kohin boshi haykali (er. av. 3000-yil), loydan ishlangan, aravaga qo'shilgan ho'kizlar haykali (er. av. 3000-yil), Xarappadan topilgan erkak torsi (er. av. 3000-yil)



34-rasm. Moxenjo-Doro qadimgi shahar

o'zining plastik yechimi bilan diqqatni tortadi. Kohinning boshi haykalida soch-soqollar tasviri, kiyimlar xarakterida shartlilik mavjud bo'lsa, aksincha, qizil toshdan ishlangan erkak torsi yuksak mahorat bilan, hayotiy aks ettirilgan. Hindiston Shumer, Akkad va Mesopotamiyaning boshqa davlatlari, shuningdek, Misr bilan yaqin aloqada bo'lgan, ular orasida savdo-sotiq rivojlangan. Mesopotamiyaning Kish, Eshnunna shaharlaridan topilgan hind o'yma muhrlari, filning bo'rtma tasviri tushirilgan muhr, hind qalpog'i kiygan ayol haykali bu o'rinda diqqatga sazovordir.

Eramizdan avvalgi 2000-yillarning o'rtalarida Hindistonning qadimiy shaharlari g'arbdan kelgan ko'chmanchi oriy qabilalari tomonidan bosib olinadi, keyinchalik bu



35-rasm.
Moxendjo-Dorodan topilgan kohin boshi haykali
(er. av. 3000-yil)

qabilalar hind qabilalari bilan assimilyatsiyalashib ketgan. Bu davr san'ati va madaniyatini, asosan, adabiy va diniy yodgorlik «Veda» («Bilim») deb nomlangan to'plam asosida o'rganiladi. Shuning uchun ham bu davr shartli ravishda «Veda davri» deb yuritiladi.

«Veda» adabiy-diniy to'plamida poetik formada din, hayot va qabilalarning turmush tarzi haqida hikoya qilinadi. Tabiat kuchlari, Indra (momoqaldiroq xudosi), Agni (olov xudosi), musiqa, me'morchilik to'g'risida fikr yuritiladi. Veda davrida avvalgidek yirik shaharlar qurilmagan. Odamlar katta bo'lmagan manzillarda yashaganlar. Me'morchilikda, asosan, yog'och yetakchi o'rinni egallagan. Binolar yarim sferik tarzda qurilgan. Lekin qadimgi paytlardagidek, shaharda binolar rejalashtirish prinsipida joylashgan.

Veda davri tasviriy va amaliy san'at namunalari bizgacha kam yetib kelgan. Bular, asosan, loydan, oltindan ishlangan kichik hajmdagi haykallardir. Eramizdan avvalgi 1000-yillarda Gang daryosi vohasida ishlab chiqarish kuchlari ortdi, ibtidoiy jamoa tuzumi inqirozga yuz tutib, yangi quldorlik sinfiy jamiyati yuzaga kela boshladi.


Qadimgi Hindistonning muhim adabiy yodgorliklari «Mahobhorat» va «Ramayana» eramizdan avvalgi 1000-yillarning II yarmida yaratilgan epik dostonlardir. Ularda qadimgi davrdagi xalqlar hayoti, urf-odati, odamlarning xudo va afsonaviy qahramonlar haqidagi tushunchalari aks ettirilgan.

Qadimgi Hindiston san'atining gullagan davri Mauriya sulolasi (er. av. 322–185-yillar), ayniqsa, Ashoka imperatorligi davri (er. av. 272–232-yillar)da sodir bo'ldi. Ashoka hukmronlik qilgan davrda buddizm keng yoyildi. Bu din dastlab Hindistonga, keyinroq Sharqning qator davlatlari (Xitoy, Birma, Yaponiya, qisman O'rta Osiyo)ga tarqaldi. Buddizmning tarqalishi u bilan bog'liq bo'lgan ibodatxonalar qurilishiga, tasviriy san'at namunalari paydo bo'lishiga olib keldi. Buddaga bag'ishlangan me'morchilik kompozitsiyalarida qadimgi hind me'morchiligidagi mavjud an'analar, xalq mifologiyalari, Buddha hayoti va faoliyati bilan qo'shib ketgan afsonalar o'z ifodasini topdi. Qurilish materiali sifatida tosh keng ishlatila boshladi.

Buddizmning asosiy me'morchilik kompozitsiyalaridan biri stupa bo'lib, bunday qurilmalar Ashoka davrida ko'p qurilgan. Sanchidagi katta stupa (er. av. 250-y.) shu me'morchilik namunasi sifatida o'ziga xos jihatlarni yoritadi va davr mohiyatini tushunishga yordam beradi.

Bu stupa yarimsfera shakliga ega bo'lib, u aylana shaklidagi tepachaga o'rnatilgan. Har ikkisinining ichi g'isht va tosh bilan to'ldirilgan. Uning yarimsferik shakli teskari o'girilib qo'yilgan qozonni eslatib, osmon gumbazining ramzi hisoblangan. Gumbaz tepasida esa muqaddas tog' bo'lib, u to'rt tomondan shartli o'ralgan. Stupaning tomonlariga darvoza o'rnatilgan. Bu darvozalar juda boy bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan.

Buddizmning muhim yodgorligidan yana biri ustunlar — stambxlardir. Ular yaxshi pardozlangan yaxlit toshdan ishlangan bo'lib, Budda ta'limotini targ'ib etishda foydalanilgan hamda imperiyaning tanholigi va jipsligini ko'rsatadigan o'ziga xos ramzi vazifasini o'tagan. Bu ustunlar hayvonlar tasviri ishlangan kapitel



**36-rasm. Mauriya sulolasi (er. av. 322–185-yillar)
Ashoka imperatorligi davri (er. av. 272–232) arxitekturasi.
Sanchidagi katta stupa (er. av. 250 y.)**

bilan tugallangan. Sarnatxdagi stambx va uning sherlar tasviri ishlangan kapiteli mashhurdir.

Bu kapitel bugungi kunda Hindiston Respublikasi gerbida ishlatiladi. Muqaddas hayvonlar bo'rtma tasviri — dumaloq baraban ustida to'rt sher tasvirlangan bo'lib, ular bir-biriga orqa qilgan holda to'rt tomonga qarab turibdi. Sherlar birmuncha sodda va sxematik tasvirlanishiga qaramasdan, ta'sirchan, ulug'vor va qudratlidir. Bu kuch-qudrat, ulug'vorlik esa buddizm, davlatning ramzi sifatida gavdalanadi.

Buddaning darvishona hayot kechirganining ramziy ifodasi g'orlarga ishlangan ibodatxona (chaytya)lardir. Bunday ibodatxonalar qoyalar ichiga ishlangan, ichkarida monaxlar xonasi va ibodatxona (chaytya) joylashgan. Qadimgi hind g'ori ichiga ishlangan ibodatxona (chaytya)lardan biri Karlidagi ibodatxonadir.

Uning xonalari qoya ichiga o'yib kirgan, devorlari esa haykaltaroshlik va rang-tasvir bilan bezatilgan. Xonaning dumaloq qilib ishlangan tomoniga esa stupa o'rnatilgan.



37-rasm. Gandxara buddasi

I—III asrlarda Hindistonning shimoliy qismi Kushon davlatiga qo'shib olindi. Kushon davlatining hukmdori Kanishka buddizmning Hindiston tashqarisiga ham tarqalganligini hisobga olib, o'z davlatini mustahkamlashga harakat qildi va undan mafkuraviy kurashda foydalandi. Hind plastikasida Buddha haykali ikonografiyasi shakllandi.

Bu haykallarda ellinistik plastika ta'siri sezilarli. Bunga sabab — Buddha haykalini Gandxara viloyatida Makedonskiy davrida kelib qolgan yunonlar yoki kichik osiyoliklar ishlagan. Gandxarada paydo bo'lgan Buddha haykali keyinroq buddizm tarqalgan yerlarga etalon sifatida tarqaldi.

Gandxara Buddasida ellin haykaltaroshligidagi jismoniy garmolik ideal obraz hind haykaltaroshligidagi obrazlarning to'laqonligi bilan uyg'unlashib ketdi. Natijada, jismoniy go'zal, xotirjam holda farog'atga, donolikka erishgan ideal inson obrazi yaratildi.

Hind san'atining so'nggi taraqqiyoti Guptalar sulolasi (320–450–yillar) davriga to'g'ri keladi. Bu Hindistonning quldorlikdan feodal munosabatlarga o'tish davri bo'lib, san'at va madaniyatning yanada ravnaq topish davri hisoblanadi. Ajanta g'oridagi ibodatxona va uning badiiy bezaklari, devoriy suratlari qadimgi hind san'atining eng yaxshi tomonlarini o'zida mujassamlashtirgan.

Ajantadagi g'or ichiga ishlangan ibodatxona kompleksi eramizdan avvalgi II, yangi eraning VII asrlari mobaynida bunyod etilgan. Chaytya to'rtburchak shaklida bo'lib, uning kiraverishi to'g'risidagi yarim doira shaklidagi joy budda haykali uchun mo'ljallangan. Kirish tomonida «quyosh darchasi» deb nomlangan teshik – darcha mavjud. Ibodatxona devor va ustunlari esa haykaltaroshlik asarlari bilan bezatilgan, devoriy suratlar ishlangan. Gupta sulolasi davrida qurilgan. Ajanta ibodatxonasining old tomoni ham haykaltaroshlik san'ati namunalari bilan nafis va serjilo qilib bezatilgan. Buddha va shogirdlarining haykallari kiraverishdagi devor tokchalarini to'ldirgan. Ajanta g'ori ibodatxonasi xonalarining devor va shiftlari esa devoriy suratlar bilan to'ldirilgan. Bu suratlarda Buddha haqidagi afsonalar bilan birga, turli ilohlar, hayvon, qushlar tasviri ham nozik va zo'r muhabbat bilan chizilgan, budda afsonalari hayotiy va real qilib, mahorat bilan ishlangan.

«O'layotgan malika» surati nozik psixologizmi va tasvirlangan obrazlar hissiy kechinmalarining rang-barangligi bilan xarakterlanadi. Obrazning plastik yechimi ham diqqatga sazovor. Chiziqlar plastikasi yosh malikaning nozik jussasi, chiroyli, dumaloq yuzidagi yumilib borayotgan katta ko'zlari, go'zalligini namoyon qiladi. «Raqqosa» devoriy rasmi ham o'zining plastik yechimining go'zalligi bilan yaxshi taassurot qoldiradi.

Chaytya devoriy suratlari mavzu jihatdan qanchalik rang-barang bo'lmasin, ularda yagona fikr – insonning hayotga bo'lgan mehri, falsafiy dunyosi va o'yi, his-tuyg'ulari, orzu-istaklari va yuksak estetik ideali o'z ifodasini topgan. Ajanta san'ati qadimgi

hind san'atining nodir yodgorligidir. Undagi yuksak badiiy mahorat, gumanizm va xalqchilik hind san'ati taraqqiyoti uchun muhim zamin bo'lib qoldi.

Seminar savollari:

1. Hindiston qadimgi davrdagi san'ati xususiyatlari.
2. Moxenjo-Doro va Xarappa me'morchiligi.
3. Ajantadagi g'orga qurilgan ibodatxonalar arxitekturasi.
4. Maurya imperiyasi davri Hindiston san'ati.
5. Ganxardagi yunon-budda san'ati.

◆ **11-mavzu.**

QADIMGI XITOIY SAN'ATI

(Eramizning III asrgacha bo'lgan davr)

Ma'ruza mazmuni:

Kulolchilik – *Qadimgi Xitoy dastlabki yodgorligi sifatida. Yanshao kulolchiligi. Shan-In va Chjou davrida bronzadan yasalgan idishlar. Xan davri san'ati. Buyuk Xitoy devori. Xo-Soy-bin maqbarasi. Loyang-Lyansi va Chendudan topilgan yodgorliklar. Mayda plastika.*

Qadimgi Xitoy san'ati tarixi eramizdan avvalgi 4–3 minginchi yillardan eramizning III asrigacha bo'lgan davrni o'rganadi, tahlil etadi. Eramizdan avvalgi 4–3 minginchi yillarda Xuanxe daryosi vohasida odamlar dehqonchilik bilan shug'ullanib, ayrim qabilalar esa o'troq hayot kechira boshladilar. Bu davrda odamlar yashaydigan uylar dumaloq shaklda va ko'proq yerto'la tipida bo'lgan, ular yerni 3–4 metr qazib ishlangan. Asta-sekin yarim yerto'la shaklida va nihoyat, yer ustida karkas uslubidagi uylar yuzaga kelgan. Ular to'rtburchak yoki kvadrat shaklida qurila boshlangan. Tepa tomi shox-shabbalar yoki loydan pishirilgan plitalar bilan yopilgan. Ustun-to'sin sistemasi ham shu davrlarda me'morchilikda keng qo'llanila boshlangan.

Xitoyning eng qadimgi san'at namunalari bizgacha kulolchilik buyumlari orqali yetib kelgan. Qo'lda, dastgohsiz yasalgan turli xum, ko'za, tovoq, vazalar rangdor naqshlar bilan bezab chiqilgan. Bu kulolchilik buyumlarining yuzasi spiralsimon, to'liqsimon,

to‘rsimon chiziqlar bilan bezalgan, soddalashtirilgan odam, hayvon va qushlar rasmi ham ishlangan. Bunday ashyolar Yanshao manzilidan topilgani uchun ham ular «Yanshao madaniyati yodgorligi» deb yuritiladi. Shu madaniyat keyingi Xitoy kulolchiligi rivojida ham muhim o‘rinni egalladi.

Xitoyning ayrim viloyatlarida kulolchilik buyumlari qora loydan dastgohda ishlangan. Bu buyumlar nafisligi va nisbatlarining qat’iyligi bilan ajralib turadi. Bunday idishlar Lunshan manzilidan topilgani uchun «Lunshan madaniyati yodgorliklari» deb yuritiladi.

Eramizdan avvalgi 4–3 minginchi yillarda Xitoyda loydan ishlanib, olovda toblab pishirilgan odam haykallari (terrakotalar), odam boshini eslatuvchi ko‘zalar, toshdan ishlangan turli badiiy buyum va haykallar uchraydi.

Eramizdan avvalgi 2000-yillarda Xuanxe daryosi vohasida Xitoyda birinchi bor davlat paydo bo‘ldi. Bu davlatni Shan (yoki In, taxminan, er. av. XVI asr mil. av. 1027-yillar) sulolasi boshqardi. Sinfiy quldorchilik jamiyati shakllanib, rivojlanib bordi.



38-rasm. Yanshao madaniyati.
Mil. av. 3000-y. Xitoy milliy muzeyi. Pekin

Birinchi shaharlar yuzaga keldi. Ular aniq rejalashtirish asosida qurildi. Dehqonchilik, hunarmandchilik rivojlandi, savdo-sotiq ishlari jonlandi.

Shan davridan bizgacha saqlanib kelgan yodgorlik Angyan manzilidan topilgan katta shahar qoldiqlari hisoblanadi. Shahar aniq loyihaga ega bo'lib, u kvartallarga ajratilgan. Binolar sun'iy tepalik ustiga qurilgan.

Binoda ustunlar imkoniyatidan foydalanilgan. Tom esa ikki nishabli bo'lib, poxol bilan yopilgan.


Shan davrida Xitoyda afsonalar davri boshlangan va shu davrdan turli ramziy belgilar yuzaga kelgan. Bu belgi va afsona sujetlari idishlarning yuzalariga ishlangan haykallarda, rang-tasvirda tasvirlangan va ularda kishilarning falsafiy qarashlari o'z ifodasini topgan. Shu vaqtda bronzadan ishlangan, diniy marosimlar o'tkazish uchun mo'ljallangan buyumlar yuksak mahorat bilan yaratilgan, ularning yuzasi ramziy belgi, naqsh va yarim fantastik obrazlarning bo'rtma tasviri bilan bezalgan.

Belgi, naqsh va obrazlar yagona ritmga bo'ysundirilgan. Buyumlarning bandi va qopqog'iga ham turli shakllar berilgan. Shan davrida toshtaroshlik va suyak o'ymakorligi ham rivojlangan. Ustalar qattiq nefrit toshlaridan taqinchoq, ko'mish marosimi bilan bog'liq bo'lgan buyumlarni, turli xil hayvon va jonivorlar haykalchalarini yuksak mahorat bilan bajarganlar. Shan davrida oq loydan yasali, yuzasi bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan turli xum va boshqa idishlar ham yuksak mahorat bilan ishlangan.

Xitoyda ham ko'mish marosimi tantanali bo'lgan. Qabr, sag'analar hajm jihatidan katta to'rtburchak shaklida bo'lib, u yerga bezak va ishlatiladigan idish-anjomlari qo'yilgan. Sag'anaga kiraverishning ikki tomonida afsonaviy odamga o'xshash sher haykali bo'lib, u og'zini katta ochganicha, orqa oyoqlarida o'tirgan holda, old oyoqda tayanib turgan payti tasvirlangan. Haykalning hamma tomoni naqsh bilan bezab chiqilgan. Bu haykallar «yomon ko'zlarni» qo'rqitish uchun kerak bo'lgan.

Eramizdan avvalgi XII asrda Shan-In davlati Chjou qabilasi tomonidan tor-mor etiladi. Yangi tuzilgan podsholik shu qabila nomi bilan yuritilgan va eramizdan avvalgi XII asrdan III asrgacha

davom etgan. Chjou davri san'ati va madaniyati avvalgi an'analarga tayan-gan holda boyib bordi, san'atning tur va janrlari kengaydi, ramziy obrazlar bilan bir qatorda, hayotiy voqealar, odam va hayvonlarning real tasviri keng o'rin egallay boshladi. Bron-zadan ishlangan idishlar ko'p yasaldi.



39-rasm. Bronza idish.
Chjou davri. Mil. av.
XII–III asrlar

Adabiyot rivojlandi, falsafiy ta'li-motda materialistik qarash, hayotni, tabiatni o'rganish masalalari ko'tarildi.

Eramizdan avvalgi 1000-yillikning o'rtalarida shoyiga suratlar ishlash san'ati paydo bo'ldi, tushda rasm ishlash san'ati rivojlana boshladi. Bu keyingi davr san'atida yanada rivojlantirildi.

Qadimgi Xitoyning muhim yodgorligi Buyuk Xitoy devoridir. Eramizdan avvalgi IV–III asrlarda qurila boshlagan bu devor dastlabki paytda Xitoyning shimoliy chegaralarini ko'chmanchi qabilalardan saqlash uchun xizmat qilgan va 750 km ni tashkil etgan. Keyinroq uning uzunligi 3000 km ga yetgan. Devorning balandligi 5–10 metr, eni esa 5–8 metr bo'lgan. Devor tepasida yo'l mavjud bo'lib, har 100 metrda katta minoralar ishlangan.

Qadimgi Xitoy san'ati va madaniyatining eng rivojlangan bosqichi eramizdan avvalgi III asrdan eraning III asrigacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Bu davrda mamlakat yagona markazlashgan yirik davlatga aylandi.

Sin (er. av. 221–206-yy.) va Xan (mil. av. 206-yangi eraning 220-yili) sulolasi hukmronlik qilgan paytida avvallari mustaqil bo'lgan qator davlat va qabilalar Xitoy imperiyasiga qo'shildi. Xitoy O'rta Osiyo, Eron, Suriya, Rim imperiyalari bilan savdo-sotiq ishlarini jonlantirdi. Xitoyning tasviriy, amaliy va me'morchilik san'ati ham rivojlandi. Sin davridan bizgacha ba'zi yodgorliklar yetib kelgan.

Lekin Xan davri yodgorliklari birmuncha boy san'at va mada-niyati haqida ma'lumot beradi. Xan podsholigi davrida uning poytaxti bo'lgan Chanani qadimgi dunyoning eng yirik shahar-

laridan bo'lgan. Shahar 12 darvozali bo'lib, qalin devor bilan o'rab chiqilgan. Imperator saroyi shaharning eng baland binolaridan bo'lgan. Saroy yaqinida sariq rangga bo'yalgan ma'muriy binolar bo'lgan. Boy-zodagonlarning uylari ham ko'p qavatli edi. Ularning old tomoni plastr, karniz va ustunlar bilan bezatilgan. Bino va minoralarning tomlari rangli silindrik cherepitsalar bilan yopilgan. Ular ham funksional, ham dekorativ vazifani o'tagan. Relyefli naqsh, o'simlik va hayvonlarning bo'rtma tasviri tom yuzasini bezash ishlarida qo'llanilgan.

Qadimgi Xitoy madaniyatini o'rganishda maqbaralar ham muhim o'rinni egallaydi. Maqbaralar minoralar (pilon) bilan boshlanib, ularga bezak berilgan, old tomoniga haykallar o'rnatilgan. Maqbaraning yer osti qismi ham pishiq g'isht yoki tosh bilan pardozlangan. Sag'anaga ko'milgan marhumning buyumlari ham qo'yilgan. Ayrim sag'analarda juda ko'plab haykaltaroshlik va rassomlik namunalari mavjud. Maqbaralardan loydan ishlab pishirilgan va bo'yalgan ko'p qavatli uy va minoralarning modellari ham topilgan.

Dastlabki san'at asarlari birmuncha sodda. Lyaonin yaqinidagi Shandun va Sichuan maqbaralari, ayniqsa, tasviriy san'atga boy. Shandundagi zodagon U Lyansi maqbarasining relyeflarida afsonaviy qahramonlar, podshohlar orasidagi janglar, ov va bazm paytlari, farzandlarning o'z ota-onalariga hurmati va shunga o'xshash voqealar tasvirlangan. Bo'rtma tasvirlar friz tarzida bo'lib, ular ustma-ust joylashtirilgan. Har bir voqeaga tushuntirish yozuvi berilgan. Sichuandagi maqbara relyeflari birmuncha dinamik xarakterga ega bo'lib, u yerda ov manzaralari, yig'im-terim ko'rinishlari tasvirlangan. Xan davri maqbaralarida ko'plab devoriy surat namunalari uchraydi. Ular yorqin bo'yoqlarda ishlangan, voqea va hodisalarning hayotiy va ifodali bo'lishiga e'tibor berilgan.

Xan davrida portret rassomligi ham rivojlandi. Maqbara va saroy devorlariga portretlar ishlash keng odat tusiga kirdi. Devorga ishlangan shunday portretlardan biri Lyaonin yaqinidagi Xan davri maqbarasida saqlanib qolgan.

Shunday portret ishlashda tanilgan rassomlardan biri eramizdan avvalgi I asr oxirlarida yashab ijod etgan Mao-Yan-Shou bo'lgan.

U odamlarni o'ziga juda o'xshatishga, hatto, ideallashtirishga harakat qilgani seziladi. Uning portretlaridan tasvirlanuvchi odamning yoshi va hatto, xulqini bilish mumkin bo'lgan. Maqbaralardan topilgan terrakotalar ham diqqatga sazovor. Ular o'zining ifodali va hayotiy ishlanganligi bilan diqqatni tortadi.

Xan davrida amaliy-dekorativ san'atda ham jiddiy o'zgarish yuz berdi, buyumlarning foydali tomoniga e'tibor ortdi, bezak va relyefli tasvirlar kamaydi. Bronzadan ishlangan jimjimador ko'zgular ham keng tarqalib, bu ko'zgular inkrustatsiya qilingan, oltin, kumush va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan. Bu davrda bronzadan ishlangan buyumlar, idishlar avvalgi davrga nisbatan yanada nafis va jimjimador bo'lgan, ayniqsa, inkrustatsiya uslubi keng qo'llanilgan. Turli xildagi amaliy buyumlar, idishlar, musiqa asboblari, lak bilan bezatilgan buyumlar ham boylar xonadonini bezagan. Kulolchilikda ham rang keng qo'llanila bordi. Badiiy kashtachilik va to'qimachilik g'arbiy Osiyo va Yevropa mamlakatlarida yuqori baholandi.

Qadimgi Xitoy san'ati Xan davlatining inqirozga yuz tutishi bilan o'z umrini tugatadi. Lekin qadimgi davrlarda, ayniqsa, Xan



40-rasm. Buyuk Xitoy devori

davri san'atida paydo bo'lgan an'analar Xitoy san'ati va madaniyati taraqqiyotiga katta ta'sir qildi, uning xarakterli tomonini belgilashda muhim o'rin egalladi.

Seminar savollari:

1. *Qadimgi Xitoy san'ati shakllanishida Qadimgi Yaqin Sharq madaniyatining o'ri.*
2. *Yanshao manzili kulolchiligi.*
3. *Shan-In va Chjou davrida bronzadan yasalgan idishlar.*
4. *Qadimgi Xitoy madaniyatida maqbaralar arxitekturasi.*
5. *Qadimgi Xitoy haykaltaroshlik san'ati.*
6. *Xan davri san'ati.*

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Азимов А. Ближний Восток. История девяти тысячелетий. — М.: 2003.*
2. *Азимов А. Египтяне. От древней цивилизации до наших дней. — М.: 2004.*
3. *Афанасьева В., Дьяконов И., Луконин В., Матве М. Искусство Древнего Востока. — М.: 1968. Серия: «Памятники мирового искусства».*
4. *Афанасьева В.К., Дьяконов И. Об основных этапах развития изобразительного искусства Древнего Шумера. Труды Государственного Эрмитажа. — Л.: 1961. С. 5–23.*
5. *Афанасьева В.К., Луконин В.Г., Померанцева Н.А. Искусство Древнего Востока. — М.: 1976. (Серия: «Малая история искусств»).*
6. *Бертман С. Месопотамия (Bertman S. Handbook to life in Ancient Mesopotamia). — М.: 2007.*
7. *Блэк В.Б. Пластика Передней Азии II тысячелетия — первой половины I тысячелетия до н. э. — СПб.: 2004.*
8. *Брестед Д., Тураев Б. История Древнего Египта. Минск, 2003.*
9. *Всеобщая история архитектуры в 12 томах. 1 том — Первобытнообщинная архитектура. Архитектура рабовладельческого общества. — М.: 1970.*
10. *Гарни О.Р. Хетты. Разрушители Вавилона. Пер. с англ. А.И. Блейз. — М.: 2002.*
11. *Гуляев В.И. Шумер, Вавилон, Ассирия. 5000 лет истории. — М.: 2004.*
12. *Дандамаев М.А. Иран при первых Ахеменидах. — М.: 1963*
13. *Дандамаева М.М. Древняя Месопотамия. — СПб.: 2004.*
14. *Дюнан Ф. Мумий. Путешествие в вечность. Пер с фр. Е. Сутоцкой. — М.: 2003. Серия: «Наука. Открытие».*

15. *Емельянов В.В.* Древний Шумер. Очерки культуры. — СПб.: 2003.
16. *Емельянов В.В.* Ритуал в Древней Месопотамии. — СПб.: 2003.
17. История Древнего Востока. Под ред. В.И. Кузищина. — М.: 1999.
18. История искусства зарубежных стран. Первобытное общество, Древний Восток, Античность. Под ред. М.В. Доброклонского, А.П. Чубовой. — М.: 1980.
19. История искусства. Первые цивилизации. Изд. группа ОСЭ-АНО, пер. с исп. — М.: 1998.
20. *Керам К.В.* Боги, гробницы, ученые. — СПб.: 2001.
21. *Кленгель-Брандт Э.* Древний Вавилон. Пер. с нем. Б.М. Святского. Смоленск, 2001.
22. *Крамер С.* Шумеры. Первая цивилизация на земле. Пер. с англ. А.В. Милосердовой. — М.: 2002.
23. *Куликан У.* Персы и мидяне. Подданные империи Ахеменидов. Пер. с англ. Л.А. Игоревского. — М.: 2002.
24. *Лапис И.А., Матье М.Э.* Древнеегипетская скульптура в собрании Государственного Эрмитажа. — М.: 1969.
25. *Луконин В.Г.* Искусство Древнего Ирана, Кавказа и Средней Азии. — Л.: 1961.
26. *Луконин В.Г.* Искусство Древнего Ирана. — М.: 1977.
27. *Матье М.Э.* Во времена Нефертити. — М-Л.: 1965.
28. *Матье М.Э.* Искусство Древнего Египта. — Л.: 1961. (Переиздание: — СПб.: 2001).
29. *Матье М.Э.* Искусство Древнего Египта. — М.: 1970. Серия: «Очерки истории и теории изобразительных искусств».
30. Мифы народов мира. Энциклопедия в 2 томах. Под ред. С.А. Токарева. — М.: 1982.
31. *Овчинникова А.Г.* Легенды и мифы Древнего Востока. — СПб.: 2002.
32. *Павлов В.В.* Египетский портрет. I—IV веков. — М.: 1967.
33. *Павлов В.В.* Скульптурный портрет в Древнем Египте. — М.: 1937.
34. Памятники мирового искусства, т.1. Искусство Древнего Востока. — М.: 1968.
35. *Пиотровский Б.Б.* Искусство Урарту. — Л.: 1962.
36. *Пунин А.Л.* Искусство Древнего Египта. Раннее царство. Древнее царство. — СПб.: 2008. Серия: «Новая история искусства».
37. *Рак И.В.* Египетская мифология. — СПб.: 2002.
38. *Силиотти А.* Египет. Долина царей. (Атлас чудес света). — М.: 2001.
39. *Силиотти А.* Египет. Пирамиды. (Атлас чудес света). — М.: 2001.
40. *Стрелков А.* Фаюмский портрет. — М-Л.: 1936.

41. *Флиттнер Н.Д.* Культура и искусство Двуречья и соседних стран. – Л., – М.: 1958. Переиздание: – Л.: 2008.
 42. *Харден Д.* Финикийцы. Пер. с англ. Л.А. Игоревского. – М.: 2002.
 43. *Химик И.* Древний Египет. Скифский мир. Мировая художественная культура. Хрестоматия. Краснодар. – М.: – СПб.: 2004.
 44. *Ходжаиш С.* Каир. – М.: 1975. Серия: «Города и музеи мира».
 45. *Церен Э.* Библейские холмы. – СПб.: 2002.
 46. *Шампольон Ж. Ф.* О Египетском иероглифическом алфавите. Пер. и комм. И.Г. Лифшица. – Л.: 1950.
 47. *Шуринова Р.* Искусство Древнего Египта. – М.: 1974.
 48. *Эмери У.* Архаический Египет. – СПб.: 2001. (пер. с англ. 1962).
- Chet tilidagi adabiyotlar ro'yxati:***
49. Dictionary of the Ancient Near East (in association with the British museum). Ed. by P. Bienkowsky, A. Millard. London, 2000.
 50. *Shaw I., Nicholson P.* The Dictionary of Ancient Egypt (in association with the British museum). London, 2003.

Internet sahifalar:

<http://www.smb.spk-berlin.de/smb/index.php> Berlin davlat muzeylari rasmiy sayti (ingliz va nemis tilida).

http://www.museumsinsel-berlin.de/index.php?lang=en&page=3_3_1 Misr muzeyi haqida.

http://www.museumsinsel-berlin.de/index.php?lang=en&page=3_5_1 Old Osiyo muzey haqida.

http://www.louvre.fr/lv/commun/home.jsp?bmLocale=fr_FR Luvr muzeyi rasmiy sayti (ingl. va frans. tilida)

<http://www.britishmuseum.org/> Britan muzeyi rasmiy sayt.

III qism

ANTIK DAVR SAN'ATI

Antik iborasi lotincha «antikus» soʻzidan olingan boʻlib, «qadimiy» degan maʼnoni bildiradi. Bu ibora XV asrda Italiyada Uygʻonish davrida muomalaga kiritilgan boʻlib, qadimgi Yunon-Rim madaniyati va sanʼatini taʼriflash uchun ishlatiladi.

Antik dunyo sanʼati va madaniyati tarixi miloddan avvalgi 3000-yillardan milodiy V asrgacha boʻlgan davrda Oʻrta Yer dengizi havzasi hamda Qora dengiz sohillarida quldorlik davlatlarining paydo boʻlishi, rivojlanishi va inqirozga yuz tutishi davrida mavjud boʻlgan sanʼat tarixini oʻrganadi, tahlil qiladi.

Yunonlar oʻzlarini ellinlar deb, oʻz mamlakatlarini esa Ellada deb ataganlar. Ellada sanʼati keyinchalik Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy) bosib olgan juda katta imperiyada sanʼatning rivojlanishiga taʼsir oʻtkazdi.

Ellinlar sanʼati keyingi rivoji qadimgi Rim sanʼatida koʻrinadi. Antik madaniyat va sanʼat tarixi 476-yili Rim imperiyasining qulashi bilan tugallanishini ham shu bilan izohlash mumkin.

Antik sanʼat asrlar mobaynida insoniyatni maftun etib, uni oʻziga jalb etadi. Yevropa xalqlari shu sanʼat va madaniyatga, yunon va rimliklar yaratgan maʼnaviy boyliklarga murojaat qilib keldilar.

Bugungi Yevropa tasviriy sanʼati, teatri, adabiyoti va falsafasi antik dunyoga suyanadi. Uygʻonish davri, XVII asrda paydo boʻlgan «Klassisizm» badiiy oqimi namoyandalari ijodi ham antik dunyo sanʼatiga tahlid qilish asosida rivojlandi.

Oʻrta Osiyo xalqlari, jumladan, Oʻzbekiston xalqlari ham ellinlar madaniyati va sanʼatidan xabardor boʻldilar. Oʻzbekistondan topilgan va topilayotgan yunon madaniyati va sanʼatiga oid juda koʻp namunalari yoki ular taʼsirida yaratilgan madaniy yodgorliklar shundan dalolat beradi.

◆ **12-mavzu.**

KRIT-MIKEN SAN'ATI (EGEY SAN'ATI)

Ma'ruza mazmuni

Egey san'ati. Egey tarixiga oid qisqacha ma'lumotlar. Uning geografik o'rni va davriy chegarasi. Egey madaniyatining asosiy markazlari: Krit, Peloponnes, Troya. Me'morchilik, tasviriy va amaliy-dekorativ san'ati. Knoss saroyi tarhining o'ziga xos tomonlari. Me'morchilikda qo'llanilgan amaliy-bezak san'ati.

Kritdan topilgan mayda plastika.

Tirinfdagi saroy, uning tarhi, bezatilishi. Megoron. Uning yunon me'morchiligi rivojiga qo'shgan hissasi.

Miken. Me'morchilik, tasviriy va amaliy-bezak san'ati. «Sherlar darvozasi». Amaliy san'at. Egey san'atining Yunon madaniyati va san'ati rivojiga qo'shgan hissasi.

Geografik o'rni. Antik davr muqaddimasi Egey yoki krit-miken davridan boshlanadi. Egey san'ati O'rtayer dengizining sharqiy qismi va Egey dengizi bo'ylarida joylashgan kichik orollarda-Peloponnes yarim oroli, Krit, Kiklad orollari Mikena, Pilos, Tirinf va Kichik Osiyoning g'arbiy sohillari va uning shimolida joylashgan Troya shaharlarini o'z ichiga oladi. Egey san'atining markazi Krit oroli bo'lib, fanda Krit-Miken san'ati ham deb yuritiladi. Madaniy va iqtisodiy rivojlanish Krit orolida boshlanib so'ng Pellopones orollarida o'z rivojini davom ettiradi.

XIX asr o'rtalari va XX asr boshida Krit va Mikenada yirik arxeologik kashfiyotlar va ilmiy tadqiqotlar natijasida, insoniyatning ko'z oldida Egey olami yoki qadimgi yunonlarning avlod-ajdodlari yaratib ketgan katta madaniyat kashf etildi. Shu davrgacha Egey dunyosi haqida faqatgina qadimgi yunonlarning afsona va rivoyatlarida, jumladan, Gomerning «Iliada va Odissey» eposida yozib qoldirilgan ma'lumotlar mavjud.

XX asr boshida ingliz arxeologi Artur Evans Krit orolida o'zining ajoyib kashfiyotini olib boradi. Krit madaniyati san'ati kutilmaganda XX asr kishilari ko'z oldida paydo bo'ldi. Knoss saroyi ochilib, uning badiiy boylklari o'rganildi. Shuningdek, arxeologik tadqiqotlar boshqa olimlar tomonidan ham olib borilib, qadimiy Krit shaharlari bo'lmish Festa va Gurniya ham kashf

Antik davr san'ati
Krit-Miken san'ati (Egey san'ati)



1-rasm. Egey dengizidagi orollar xaritasi

etildi. Evans Krit san'ati va madaniy rivojini dastavval Misr va Old Osiyo san'ati bilan bog'liqligini qiyoslagan holda o'rganishni maqsad qildi. Evans Egey madaniyatini shartli ravishda davriy uch katta bosqichga bo'lib, ularning har birini o'z o'rnida uchtdan subdavrga bo'lib, ularni afsonaviy shoh Minos nomi bilan yuritadi.

Ilk Minoy davri — er. av. 3000-yillik:

- A) birinchi ilk minoy davri;
- B) ikkinchi ilk minoy davri;
- C) uchinchi Ilk Minoy davri.

O'rta Minoy davri — er. av. 2000-yillikning I yarmi:

- A) birinchi o'rta minoy davri;

B) ikkinchi o'rtta minoy davri;

C) uchinchi o'rtta minoy davri.;

So'nggi Minoy davri — er.av. 2000-yillikning II yarmi:

A) birinchi so'nggi minoy davri;

B) ikkinchi so'nggi minoy davri;

C) uchinchi so'nggi minoy davri.

Evansning davrlarga ajratishi keyingi yunon san'atini bosqichlarga ajratishda muhim bo'ldi.

Egey yozuvi yaxshi o'rganilmagani bois, Egey san'atini o'rganish murakkab kechadi. Egey madaniyatini o'rganishda arxeologik kashfiyotlar bilan bir qatorda qadimgi yunon adabiy manbalari bilan birga Old Osiyo va Misr yozma manbalarida keltirilgan ma'lumotlar katta yordam berdi.

Krit orolida dastlabki madaniy rivojlanish neolit davridan boshlanadi. O'zining butun rivojida Egey dengizi xalqlari ilk quldorlik tuzumini boshidan o'tkazdi. Bu tuzum hammadan ilgari Kritda kechib o'tadi. Krit O'rtayer dengizining sharqiy qismining markazida joylashganligi dengiz orqali savdo-sotiqning rivojiga zamin yaratdi. O'sha vaqtlarda Krit yerlari serhosil bo'lib, quyuq o'rmonzor bilan qoplangan. Aholisi ham zich joylashgan. Uning bandargohi ham har qanday to'fonlarga dosh bera oladigan mustahkam bo'lgan. Hali ilk minoy davridan boshlab Krit kemalari Egey dengizidagi — Melos, Feru, Delos va boshqa orollarga ham yetib borgan.

Eramizdan avvalgi 2000-yillarda Kritda dastlabki saroylar harbiy sarkardalar uchun qurila boshladi. Ularning aksariyati Knoss saroyi yoki Mallindagi saroy kabi himoyalانuvchi baquvvat devorlar va minoralarga ega bo'lib, boshqalari baland tepalikda qad ko'tardi. Ba'zilari Festadagi saroy kabi baland tepalikda qad ko'tarib, devor va minoraga ehtiyoj bo'lmagan.


Er. av. XVIII asrga kelib, Kritda qandaydir falokat yuz bergan, ammo uning mohiyati haligacha ma'lum emas. Ba'zi tadqiqodchilar bu fojia yer qimirlashi bilan bog'liq desalar, boshqasi — giksoslarning Misrga qilgan bosqinchiliklariga o'xshash hodisa bilan bog'lashadi. Ammo Egey madaniyati yo'q bo'lmadi. Aksincha, er. av XVII asr boshidagi yuksalish Egey san'ati bilan bog'liq

yuksalish deb qayd etiladi. Krit bu davrda qudratli davrga qadam qo'yib, dengiz harbiy kuchiga ham ega bo'lib, O'rtayer dengizining sharqiy qismiga ham hukmronlik qildi.

Bu yuksalgan davr o'rta minoy davrining oxiri va so'nggi minoy davrining boshiga to'g'ri kelib, Krit san'ati behisob san'at asarlarining yuqori badiiy saviyaga erishganligidan dalolat beradi.

Arxitektura. Krit ajoyib me'morchiligi va me'moriy obidalari bilan, shuningdek, mahobatli rang-tasviri va amaliy san'ati bilan insoniyat tarixida o'ziga xos sahifa ochgan. Krit san'atining yuksalishi Misrning Yangi Podsholik davriga to'g'ri keladi. Umuman olganda, Krit san'ati sharq mamlakatlari san'ati bilan ham yaqin, biroq unda sharqqa xos mahobat va ulug'vorlik yetishmaydi.


Kritdagi arxeologik kashfiyotlar me'morchilik obidalar bilan bog'liq. Qadimgi Kritning eng nodir me'moriy obidasi – bu Knoss saroyidir. Bu ulkan me'moriy majmua bir necha asrlar davomida qurilib, boshidan ko'plab tabiiy ofatlarni kechirib, qayta-qayta tiklangan. Saroyning katta hajmi va chalkash tarhi va bebaho



2-rasm. Knoss saroyi. Rekonstruksiya

ichki bezaklari shu yerlik aholida katta taassurot uyg'otdi. XIX asr oxirigacha bu saroy xalq ijodiyoti deb faraz qilingan edi. Grek afsonasidagi Labirint va inson-buqa qiyofasidagi Minotavri bilan Knoss saroyi bilan bog'liqdir.

Knossdagi ilk qurilmalar er. av. 2000-yillikda paydo bo'la boshlagan. Butun saroy kompleksi er. av. 1600-yilda qurib bitkazildi. Keyingi yillarda ham o'zgaritirishlar kiritilib boradi.



3-rasm. Knoss saroyi tarhi: (A. Evans bo'yicha).

1. G'arbiy hovli; 2. G'arbiy kirish qismi; 3. Tantanalas yo'lagi; 4. Propiley;
5. Monumental zinapoya; 6. Omborxonalar; 7. Markaziy hovli; 8. Shimoliy kirish qismi; 9. Gallereya; 10. Katta zinapoya.

Knoss saroyi dengiz bilan himoyalanganligi sababli atrofini devor bilan o'ramaydilar. Bu esa o'z holida Krit me'morchiligida ochiq tarzli arxitekturaning shakllanishiga olib keladi.

Knoss saroyidagi eng e'tiborli joy — bu *to'g'rito'rtburchak* shaklidagi uzun tamoni 52,5 metrli *ichki hovlisidir*. Uning har tarafidan turli vaqtda saroy binolari qo'shib borgan. Knoss saroyining markaziy maydoni atrofida yuzlab uncha katta bo'lmagan xonalar, mehmonxona, ibodatxona, podsho xonalari, diniy marosimlar o'tkazish uchun mo'ljallangan xonalar bo'lgan. Bu xonalar bir-biri bilan zina va panduslar orqali bog'langan.


Ba'zilar undan pastroqda, boshqalari — bir-ikki qator balandroqda chalkash holda oldinma-ketin qurilgan.

Saroyda bir necha kirishlar bo'lib, ulardan 4 tasi keng zinapoyaga ega. Qurilmalarning betartib joylashuvi ko'plab zinapoya va panduslar zaruriyatini tug'diradi. Saroy xonalari yorug'lik tushadigan o'yiqlar orqali yoritilgan. Xonalar bir tekis yorug'lantirilmagani va ularning betartib joylashgani ichki makon o'ziga xos boy taassurot qoldiradi. Ichki makonda eng ahamiyatlisi — bu devoriy suratlar bo'lib, ular o'ta dekorativligi bilan ko'zga tashlanadi. Saroyning janubi-sharqiy qismida yashash uchun mo'ljallangan xonalar mavjud bo'lib, bu yerda malikaning yashashi uchun mo'ljallangan bo'lib, unda hammom (vanna), basseyn-hovuz o'rin olgan.


Sharqiy va shimoliy-sharqida ustaxonalar o'rin olib, unda ustalar va hunarmandlar mehnat qilishi, shuningdek, omborxona va xazina ombori ham joylashgan.

G'arbiy qismning markazida — Evans shoh uchun mo'ljallangan qator xonalarni aniqlaydi. Xususan, unda tantanavor marosimga mo'ljallangan katta zal — bu yerda shoh-kohin bilan diniy marosimlar o'tkazilgan. Uning devoridan gulzor ichida yotgan qoplon tasvirlangan freska ishlangan. Undan keyin g'arb tomonda yo'lakcha va hujraxonalar; markaziy hovli oraliq'ida ibodatxona va uning boylıkları saqlanadigan omborxona ham o'rin olgan.

Saroyning shimoliy-g'arbida — diniy marosim o'tkazishga mo'ljallangan maxsus joyda — maydoncha, ikki chekkasi bezatilgan zinapoyaga chiqiladi. Saroyning devori xom g'isht bilan yog'och



4-rasm. Knoss saroyi. Tantanalar zinapoyasi



5-rasm. Knoss saroyi


sinchdan, quyi qismi taroshlangan xarsang tosh bilan ko'tarilgan. Ularda ohaktoshdan tashqari, gipsdan ham unumli foydalanilgan.

Egey me'morchiligining yana bir o'ziga xos xususiyati — yog'och ustunlarning pastdan yuqori tomon kengayib boruvchi nusxasi topilib, u tosh yoki gips asosli bo'lgan. Xonalar devori suvoq qilingan va sirti freskalar bilan bezatilgan. Saroyning devor qismlari turlangan bo'rtma tasvir, hayvonlar, o'simliklar tasviridan iborat freskalar bilan bezalgan. Saroy tarhi judayam chigal bo'lganligi sababli, keyinchalik Kritni bosib olgan yunonlar labirint saroy ham deb atashadi.

Knoss saroyidan tashqarida aholining 2 yoki 3 qavatli uylari zich joylashib, ular tekis tom bilan berkitilgan.

Tasviriy san'at. Saroy devorlariga suratlar ishlangan, pollari esa bejirim naqshlar bilan bezatilgan. Devoriy suratlar mavzusi kritiklarning hayoti, mehnati, hordiq chiqarishiga bag'ishlangan.

Turli qush va hayvonlar rasmi ham jonli chizilgan. Saroydagi diniy marosimlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan taxtli zal nafis ishlangan. Devor qizil rangga bo'yalgan va shu rang ustidan oq, to'lqinsimon chiziqlar bilan papirus novdasi va ular orasida afsonaviy hayvonlar — burgut boshli sherlar (grifonlar) tasvirlangan.



6-rasm. Zirovor yig'uvchi. Freska. Knoss saroyi.
Mil. av. XVIII—XVII asrlar



7-rasm. Parijlik ayol.
Mil. av. XVI asr.
Knoss saroyi
freska qismi.
Milliy muzey. Afina

Knoss saroyida ayol tasviri yaxshi saqlangan. Arxeologlar uni «Parijlik ayol» deb nomlaganlar. U shaffof matodan to'qilgan libos kiyib olgan. Ayol boshi yon tomondan ishlangan, ko'zi esa old tomondan tasvirlangan.

Monumental haykaltaroshlik bu yerda uchramaydi. Lekin mayda haykaltaroshlik, amaliy-bezak, toshtaroshlik va zargarlik san'ati borasida kritiklar nodir yodgorliklar qoldirganlar. Ilon ushlagan ma'buda haykalchasi shunday yodgorliklardan. Ular toshtaroshlikda ham juda mohir bo'lib, undan vazalar ishlaganlar, nafis bo'rtma tasvirlar yaratganlar. Hayvonlarini, ayniqsa, turli dengiz hayvonlarining bo'rtma tasvir-

larini zo'r mahorat bilan ishlaganlar. Inkrustatsiya ishlash, turli ashyolardan badiiy asar yaratishda ham mohir bo'lganlar.


Kritliklar kulolchilikda ham katta yutuqlarga erishganlar. Kulolchilik buyumlarini maxsus bo'yoqlar bilan sirlab, yuzasini turli naqsh, dengiz hayvonlari va o'simliklarning tasviri bilan bezaganlar. Kulolchilikning eng rivoj topgan davri «O'rta Minoy» davri (taxm. miloddan avvalgi XVII asrlar) hisoblanadi. Kulolchilik tarixida «Kamares uslubi» (Krit orolidagi Kamares nomli aholi yashaydigan hududdan topilganligi sababli) nomi bilan tanilgan buyumlar shu davrga oid. O'rta Minoy davrida kulolchilik namunalari o'simliklar dunyosidan olingan tasvirlar bilan bezatilgan (lola, nilufar va b.). Kechki Minoy davridan (miloddan avvalgi XVI asrlar) esa dengiz mavjudotlari tasvirlari keng qo'llanila boshlaydi.

Yanada keyinroq davrdan (miloddan avvalgi XV asrlar) «sxematik» tasvirlar kulolchilik hamda xona interyerlarida qo'llash avj oldi. Bunday bezash «Saroy uslubi» darajasigacha ko'tarilib, bora-bora nafislashib, xandasiy bezak turiga aylanib ketadi.

Eramizdan avvalgi XIV asrga kelib, Krit madaniyati inqirozga yuz tutdi. Endilikda Egey madaniyatining markazi grek yerlariga —



8-rasm. Kamares ko'zalari



**9-rasm. Sakkizoyoq tasvirli
ko'za. Gurniya hududi.
Sopol.
Mil. av. 2000-yillik**

Peloponnes yarimoroli va undagi Mikena, Tirinf manzillariga ko'chdi. Bolqon yarimorolining janubida, Egey dengizi orollarida va Kichik Osiyoning g'arbiy sohillarida yashagan axeyaliklar bu yangi madaniyat taraqqiyotini belgiladilar.

Mikena davri.

Arxitektura va tasviriy san'at

Egey san'atining Gretsiya hududida (Peloponnes yarimoroli Gretsiya hududiga tutashgan) yuzaga kelgani Mikena san'ati deb yuritiladi. Krit va Mikenaning etnik kelib chiqishi fanda yaxshi o'rganilmagan.

Taxminlarga qaraganda bu hududda yashovchilar turli etnik guruhdan tashkil topgan. Mikenada balki axeylar istiqomat qilgan va ular boshqa xalqlar bilan chatishib ketgan degan taxmin ham bor. Er. av. 2000-yilga yaqin Bolqon yarimoroli janubida qo'nim topganlar. Bolqon yarimorolida kariylar va pelasglar istiqomat qilib, ularning bir qismi o'z yerlarini tark etib, boshqa yerlarda qo'nim topib, ba'zilar kelindilar bilan chatishib ketgan.


Mikena madaniyatining gullagan davri er.av 1500–1200-yilga to'g'ri keladi. Mikena va boshqa Egey shaharlari bilan birga Kichik Osiyo bo'ylarida yashovchi elatlarga xos tabaqalanish – ibtidoiy jamoadan urug'doshlik jamoasiga o'tish, aslzodalarga ajralish va patriarxal quldorlik tuzumiga o'tish, shuningdek, «basilevs» (harbiy yo'lboshchi) boshchiligida qator mayda davlatchilikning yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi.

Basilevs – harbiy sarkarda, u ham oliy kohin hamda qozi kabi hukm ijro etishga qodir shaxsdir. Davlat ishlarini hal qilishda jamoa majlisini o'tkazish zarur bo'lgan. Qabila oqsoqolining o'rnini egallash yoki taxt, hokimiyat talashish uchun qabilalar o'rtasida muntazam keskin urushlar bo'lib turgani to'g'risida yunon mifologiyasi va tragediyalarda yozib qoldirilgan.

Mikena san'atida yetakchi o'rinni me'morchilik egallaydi.

Eramizdan avvalgi XVII–XIV asrlardan boshlab, axeyaliklar madaniyati va san'ati o'z xarakteri jihatidan Krit madaniyati bilan yaqin aloqada bo'ladi, lekin bu yaqinlik axeyaliklar san'atining o'ziga xos original tomonlari ham mavjud ekanligini inkor etmaydi. Bu, ayniqsa, monumental me'morchilik san'atida yaqqol ko'zga tashlanadi. Kritdagi shaharlar qalin devorlar bilan o'rashga muhtoj emas edi. Chunki shaharni dengiz qo'riqlar edi. Aksincha, axeyaliklar o'z turar joyi va qo'rg'onlarini baland tepaliklar ustiga qurib,


uning atrofini qalin devorlar bilan o‘rab chiqqanlar. Keyinchalik yunonlar bunday manzillarni «*akropol*» – «yuqori shahar» deb nomladilar.




10-rasm. Mikenada Akropoli. Rekonstruksiya

Arxitektura. Bu davrga oid me'moriy yodgorliklar – Mikenada, Tirinfda, Orxomeneda, Afinada va Gretsiyaning boshqa hududlarida, shuningdek, Troyada ham topilgan. Ular baland tepalikda qad ko'targan. Tirinf va Mikenada saroylari mustahkam mudofaaga ega. Ularning baquvvat devorlari ostida aholi dushmandan jon saqlagan. Qal'a devorlari og'irligi 5–6 tonnagacha keladigan toshlardan qurilgan bo'lib, devorning qalinligi 6–10 m, hatto undan ham ortiq bo'lgan. Masalan, Tirinf qo'rg'oni devorining qalinligi 17,5 m bo'lgan. Devor ichi bo'shliq bo'lib, u yerda xazina, oziq-ovqat, qurol-aslahalar saqlangan.

Qal'a devorlari ichida saroy binosi joylashgan. Unda basilevs o'z oilasi bilan istiqomat qilgan. U bilan birga qarindosh-urug'lari, xizmatkorlar, jangchilar ham yashagan. Shu yerda ularni boqish uchun oziq-ovqat zaxiralari ham bo'lgan.



11-rasm.
Tirinf akropoli tarhi




12-rasm. Tirinf tarhi:

1 – qiya ko‘tarilgan yo‘l; 2 – kirish; 3 – tashqi hovli; 4 – darvoza;
5 – ustunlar yo‘lagi; 6 – o‘tish joyi; 7 – hovlilar; 8 – baland devorli
xonalarga olib boruvchi zinapoya; 9 – mehrob; 10 – katta xona (zal);
11 – cho‘milish xonasi; 12 – ayollar xonasi; 13 – tepa xonalarga chiqish
zinasi; 14 – o‘rta hovli; 15 – yon tomonga chiqish zinasi.


Mikena saroy kompleksining kompozitsiyasi Krit saroylari bilan birmuncha o'xshashligi mavjud. Bu — qurilmalarning assimetrik joylashuvida va ichki makonni yorug'lik tushadigan quduqlar orqali yoritilishda namoyon bo'ladi. Saroyning shoh o'tiradigan eng katta xonasi markazida megaron qurilgan. Megaron — to'rt tomoni ustun bilan o'ralgan o'rtasida o'choq joylashtirilgan, tepasida tutun chiqib ketishi uchun tuynuk qoldirilgan me'moriy qurilma. Bu ustunlar tepa qismdagi tomni hamda prodomos (senya)ni ham ushlab turadi. Megaronning keyingi rivoji yunon me'morchiligi xarakterida muhim o'rin egallaydi. Uning tashqi old tomoni (portik) — peshayvonga ega bo'lib, u ikki ustuni bilan e'tiborni tortadi.

Saroy binosining devori yog'och asosli xom g'isht bilan ko'tarilib, ichki qismi shtukaturka suvoq qilinib, devorlari ba'zan suratlar bilan bezatilgan.


Mikena me'morchiligiga xos xislat — qal'a mudofaa devorining taroshlanmagan katta toshlar bilan o'ralishidir. Tirinfdagi mudofaa



13-rasm. Megaron. Rekonstruksiya



14-rasm. Megaron. Qirqim. Tarh



15-rasm. Megaron. Tarh

devorining qalinligi 8 metrni tashkil qiladi. Devorlari minoraga ega. Eramizning II asrida yashagan Pavsaniy o'zining Ellada haqidagi bitiklarida ularni «siklopik» deb atagan. Uning ta'rificha, bunday xarsang toshlarni faqat afsonaviy bahaybat maxluq siklopgina ko'tara olar ekan. Bu termin fanda ayni vaqtgacha qo'llaniladi. Mikenaga qal'a va saroylari keyingi yunon akropolining ibtidosi hisoblanadi.

Mikenadagi dahmalar yoki qabrlar o'ziga xosligi bilan alohida e'tiborlidir. Bular shaxtasimon yoki konga o'xshashligi bilan kishida chuqur taassurot qoldiradi. Qabrlar qoyaga o'yib ishlanib, sirti tosh plitalar bilan berkitilgan. Shuningdek, Mikenadan gumbazli maqbaralar — *toloslar* ham ko'plab topilgan. Konsentrik aylanasimon qurilmalar usti gumbaz bilan yopilgan va devorlari g'isht bilan terilgan. Aylanasimon xonaga uzun yo'lakcha — «*dromos*»

olib borgan. Bunday gumbazli maqbaralardan eng yaxshisi – er. av. XIV asrga xos Mikenadan Shliman tomonidan ochilgan – «Atrey gʻaznasi» deb nom olgan maqbara. Gʻazna deyilishining sababi, maqbarada shohga tegishli xazina ham topilgan. Maqbara-gʻazna Axeylar yoʻlboshchisi – shoh Agamemnonning otasi Troya urushining qahramoni – Atreyga tegishli:

gʻazna balandligi – 13 m;


aylanasimon ichki makoni – 14,5 m;

gumbazi – 34 konsentrik aylanadan tarkib topgan;

dromos uzunligi – 36 m.

Maqbaraga kirish – toʻgʻri tekis tosh boʻlaklari yotqizilgan kirishdan boshlanadi. Eshik oʻyimi – yuqoriga qisqaruvchan shakldagi bahaybat, ogʻirligi 12 tonna keladigan monolit plitalardan iborat. Undan yuqorida yana tosh terish davom etib, u uchburchak shaklga ega.

Xuddi shunga oʻxshash loyihani – «*Sherlar darvozasi*»da ham koʻrish mumkin.



16-rasm. Mikenadagi gumbazli Atrey maqbarasi. Rekonstruksiya.

Taxm. mil. av. 1500-y.

Sherlar darvozasi – Mikenakropolining kirish qismi hisoblanadi. Darvozaning yuqori qismi – katta monolit tosh yotqizilgan uchburchak shakldagi kirishga ikki sher tasvirli boʻrtma haykal tushirilgan. Bu boʻrtma Egey sanʼatidagi yagona mahobatli haykaltaroshlik namunasidir.



17-rasm. «Sherlar darvozasi». Mikena

Mikena me'moriy kompleksi kompozitsiyasi o'ziga xos bo'lib, ammo bezatilishi va ornamentikasida Krit san'atining kuchli ta'siri seziladi.

Tasviriy san'at. Tirinf va Mikena saroylarining devorlari alebstr bilan pardozlangan devoriy suratlar bilan bezatilgan. Bu yerdagi tasvirlar ishlanishi, mavzusi xuddi Kritnikiga o'xshab ketadi. Balki bu freskalar kritiklik usta-musavvirlar tomonidan ishlangandir degan taxmin bor.

Tirinf-Mikena devoriy suratlari Krit san'atkorlarining asarlaridan badiiy jihatdan bo'shligi, figuralarning birmuncha statikligi, chizilgan suratlarining quruqligi bilan ajralib turadi. Tirinfdan topilgan freskada — xuddi Kritdagidek — buqa bilan akrobat o'ynayotgan kishi tasvirlanadi.

Eng yaxshi holda yetib kelgan freskalardan — «To'ng'iz ovi» sahnasi e'tiborni tortadi. Unda kamon o'qi bilan yaralangan yovvoyi to'ng'iz xatti-harakati va itning yengil harakati o'ta ajoyib va jonli yetkazilgan. Ammo ranglarning shartli berilishi surat dekorativ xususiyatini oshiradi.

Mikena mahobatli rang-tasvirining dekorativligi — orna-mentning keng foydalanishi bilan naqshinkorlik san'atiga yaqindir.




18-rasm. To'ng'iz ovi. Miken saroyi freskasi

Bunda rang, bo'yoq surtmalari emas, balki chiziqlar asosiy rolni o'ynaydi. Vaqtlar o'tib, devoriy suratlarda yassilik va shartli sxematizatsiya orta bordi. Masalan, uncha katta bo'lmagan 50 sm kattalikdagi suratda — «Ot-aravada ketayotgan ikki ayol» sahna-sidagi ayollar ustidagi ko'ylak kritiklarga xos bo'lmay, aksincha yunonlar, xitoyliklarnikiga o'xshaydi. Ular ortida esa mutlaqo shartli talqin etilgan dov-daraxtlar tasvirlanadi. Kompozitsiyaning qoq markazi ot figurasi bilan bo'lingan. Bu freska qaysidir yirik ko'pfigurali kompozitsiyaning bir bo'lagi bo'lishi ham mumkin.

Amaliy san'at. Axeyaliklar yaratgan kulolchilik buyumlari o'z shakli jihatidan Krit kulollari yaratgan shakl va uslubini qaytaradi, lekin vaza yuzasiga ishlangan dengiz hayvonlari va o'simliklari tasviri birmuncha soddalashtirilgan, ko'p hollarda naqsh ritmiga bo'ysundirilgan. Mikena-Tirinfdagi maqbaralarda arxeologlar badiiy hunarmandchilikka oid qimmatbaho buyum va oltin niqoblar topishgan. Bu maqbaralar ichida shoh Atrey maqbarasi va u yerdan topilgan nodir san'at yodgorliklari mashhurdir.

Bu yerda oltin, tog' billuridan ishlangan idishlar, o'ymakorlik bilan bezalgan buyumlar topilgan. Sher boshli tilla vaza, kabutarlarning bo'rtma tasviri tushirilgan tilla qadah, inkrustatsiya qilingan bronza xanjarlar axeyaliklarning mohir san'atkor bo'lgan-



19-rasm. Ot-aravada ketayotgan ikki ayol.
Mil. av. XIII–XII asrlar



20-rasm. Tilla uzuk, 20 x 13 mm. Mikena, «Atrey maqbarasi xazinasi»,
mil. av. XIV–XIII asrlar

liklaridan dalolat beradi. Hozirgi Vafio (Peloponnes)dagi maqbaradan topilgan ikki tilla qadah ham o'zining nafis va badiiy bezatilganligi bilan ajralib turadi. Ular yuzasiga ishlangan buqa ovi bo'rtma tasviri juda jonli chiqqan.

Gomer o'z asarlarida mikenani oltinga boy deb ta'riflagan. Haqiqatan ham, Shlimanning XX asrning 50-yillarida olib borgan qazish ishlari bizga badiiy boyliklarni, ya'ni badiiy saviyasi yuqori darajali va tugal san'at namunalarini va amaliy san'at buyumlarini yetkazib berdi. Misol uchun, **shoh Agamemnonning niqobi**, ko'plab kuboklar, idish-tovoqlar toza oltindan ishlangan, dastasi o'rdak boshli kubok esa tog' billuridan yasalgan. Bronzadan yasalgan qilich — dastasi fil suyagidan ishlangan va tilla bilan inkrustatsiya qilingan.

Egey san'atining nodir san'at turlaridan yana biri — bu metall yoki toshdan yasalgan bosma yoki o'yma uzuklar bo'lib, ular sirtiga solingan mavzu turlicha.

Eramizdan avvalgi XII asr o'rtalarida Bolqon yarimorollarining shimolidan janubga tomon siljiy boshlagan doriy qabilalarining Egey orollaridagi davlatlarni bosib olishi Peloponnesdagi Egey madaniyatining tugashiga sabab bo'ldi. Lekin uning boy madaniyatining keyingi Ellin madaniyatiga ta'siri kuchli bo'ldi. Elladaliklar Egey madaniyatining eng yaxshi yutuqlarini o'zlashtirdilar. Ular Krit-Miken diniy-mifologik tushunchalarini qabul qildilar. Kulolchilik, mayda plastika san'ati an'analari Ellada san'ati taraqqiyotida davom ettirildi.



**21-rasm. Oltin niqob.
Mikena maqbaralari.
Mil. av.
XVI asr o'rtalari**

Seminar savollari:

1. Egey dengizi bo'ylarida yashovchi elatlarning kelib chiqishi va ijtimoiy hayoti to'g'risida nimalarni bilasiz? Egey olami yoki Egey dunyosi haqida qanday afsona va rivoyatlarni bilasiz? Troya haqida va undagi qadimgi yunon xalqi tarixida bo'lib o'tgan urush to'g'risida hikoya qiling. Bu davr tarixida rol o'ynagan shaxslar va qahramonlar haqida, Axill, Priam, Gektor, Agamemnon va Atrey kabi shohlarning san'atdagi o'rni

va keyingi jahon san'atida bu obrazlar bilan bog'liq san'at asarlarini tushuntiring.

2. Egey madaniyatining kashf etilishi. Arxeologik tadqiqotlar qachon va kimlar tomonidan olib borilgan? Genrix Shliman va Derrfeldning kashfiyotlari; Artur Evansning Krit madaniyati va san'atini kashf etishdagi xizmatlari to'g'risida.
3. Egey me'morchiligiga umumta'rif keltiring.
4. Krit me'morchiligining xarakterli xususiyatlari.
5. Knoss saroyini tahlil qilib bering.
6. Egey mahobatli rang-tasviriga xos xususiyatlar nimadan iborat? Knoss saroyi mahobatli rang-tasviriga izoh kiriting.
7. Krit-Miken haykaltaroshligiga xarakteristika bering.
8. Krit kulolchiligining xarakterli xususiyatlari. «Kamares» uslubidagi vazalar rivoji va inqirozi xususida to'xtalib.
9. Egey amaliy san'atidan bizgacha yetib kelgan namunalarni qayd eting va sharhlang.
10. Miken san'atiga ta'rif bering.
11. Miken me'morchiligiga xos xarakterli belgilar.
12. Mikenadagi megaron nusxadagi qurilmalarni tushuntiring.
13. Tolosslarga ta'rif bering.
14. Miken mahobatli rang-tasvirini Krit mahobatli rang-tasviriga qiyoslang. Ularning sharhini keltiring.
15. Miken kulolchiligi va Dipilon amforalarini sharhlang.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR

1. Всеобщая история архитектуры в 12 томах. — М.: 1973. / Т. 2. Древняя Греция и Древний Рим.
2. Всеобщая история искусств в 6 томах. — М.: «Искусство», 1956. / Том 1. Искусство Древнего мира. // Эгейское искусство С. 131–143.
3. История искусства зарубежных стран. — М.: 1979. / Раздел III. Античное искусство. Глава I. Эгейское искусство. С. 95–102.
4. Андреев Ю.В. От Евразии к Европе. Крит и Эгейский мир в эпоху бронзы и раннего железа. — СПб.: 2002. С. 9–565.
5. Алпатов М.В. Художественные проблемы искусства Древней Греции. — М.: 1987.
6. Колпинский Ю.Д. Великое наследие античной Эллады и его значение для современности. — М.: 1988.
7. Колпинский Ю.Д. Искусство Эгейского мира и Древней Греции. — М.: 1970. С. 6–15.
8. Сидорова Н.А. Искусство Эгейского мира. — М.: 1972. С. 7–142.

QADIMGI YUNONISTON SAN'ATI

Ma'ruza mazmuni:

Qadimgi Yunonistonning geografik o'rni va chegarasi. Yunon san'atining jahon madaniyati tarixidagi o'rni. Yunon san'atidagi yuksak mahorat, insoniylik va xalqchilik. Qadimgi yunon san'ati mavzusi, tasviri va ifoda vositalari. Yunon san'atining rivojlanishida afsonalarning o'rni. Yunon san'atining boshqa davlatlar san'atiga ta'siri. Yunoniston san'ati tarixiy rivojlanishining asosiy bosqichlari.

Odatda, Qadimgi Gretsiya san'ati tarixi Mikenaning qulashi va doriylar tomonidan Peloponnes, uning janubida joylashgan orollar, Kritning bosib olinishi bilan boshlanadi va eramizdan avvalgi XI asrdan to eramizdan avvalgi I asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu tarixiy-badiiy davr to'rt bosqichdan iborat:

1. Gomer davri (er. av. XI–VIII asrlar);
2. Arxaika davri (er. av. VII–VI asrlar);
3. Klassika davri (er. av. V va IV asrlarning so'nggi choragi);
4. Ellinizm davri (er. av. IV–I asrlar).

Qadimgi quldorlik davlatlaridan bo'lgan Gretsiyada jahon san'ati tarixida birinchi marta demokratik tamoyillar shakllanadi. Greklar birinchi bor badiiy ijodda insoniyatning asriy muammolarini yechishga urindilar. Ular botirlik, jasorat, vatan mehri va hur insonning qudratini ulug'ladilar, uning jismoniy go'zalligi va ma'naviy barkamolligini ifodalab, ideal, barkamol inson obrazini yaratishga intildilar.

Buyuk Sofoklning «Tabiatda insondan kuchli zot yo'q», degan fikri davr estetikasi, dunyoqarashini namoyon qiladi. Qadimgi Gretsiyada faoliyatli, davlat manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yadigan insonni ulug'ladilar. Irodali, vatanni sevadigan va uning uchun kurasha oladigan kishi obrazini ideal inson deb bildilar. Har to'rt yilda o'tkaziladigan Olimpiya musobaqalari esa erkin ellinning jismoniy va ma'naviy shavkatini namoyish etuvchi bayramga aylandi, g'oliblarga haykallar o'rnatildi. Qadimgi grek san'ati diniy marosimlar, mifologiya bilan bog'liq holda rivojlandi. Lekin yunon dinida Qadimgi Misr yoki Ikki daryo oralig'idagi davlatlarda

mavjud bo'lgan koinlar yo'q edi. Ularning xudolari yerdagi odamlarga o'xshaydi. Ular inson kabi xatolarga yo'l qo'yadi, farog'atni sevadilar. Yunon dinida ularning dunyo, aql-zakovat kuchi to'g'risidagi tushunchalari o'z ifodasini topdi. Sodda, lekin rang-barang yunon mifologiyasida fan, falsafa kurtaklari shakllana boshladi. Xudo va ma'budalarni odam qiyofasida tasvirlab, mifologiyani haqiqiy hayotga yaqinlashtirdilar. Yunon xudo va ma'budalarida, masalan, Apollon (nur xudosi), Afina (hunarmandchilik va dehqonchilik ma'budasi) va boshqa ma'budalar timsolida yunonlar o'zlarining tasavvuridagi barkamol inson qiyofasini gavdalantirdilar.

♦ *13-mavzu.*

GOMER VA ARXAIIKA DAVRI

Tasviriy san'at va arxitektura

Ma'ruza mazmuni:

Gomer davri san'at va madaniyati. Gomer asri san'ati, tasviriy san'at, me'morchilik va amaliy-dekorativ san'at.

Arxaik davr san'ati va madaniyati. Yunonistonda quldorlik jamiyatining paydo bo'lishi. Shahar-davlatlar (polislar)ning yuzaga kelishi, san'at, madaniyat, savdo-sotiqning kuchayishi.

Arxaik davr me'morchiligi. Uning o'ziga xos tomonlari. Yunon ibodatxonalarining turlari, ularning tuzilishi. Yunon me'morchiligida orderlarning ahamiyati.

Ko'zalarga rasm solish san'ati. Ko'zalarning shakli. Ko'zaga rasm solish san'atida turli usullarning mavjudligi. Ilk arxaik davrda yaratilgan dastlabki ma'budlar haykali. Ularning o'ziga xos xususiyatlari. San'atda realistik tendensiyalarning kuchayishi. «Kuros» va «Kor» haykallari.

Yunon san'atining eng qadimgi va boshlang'ich davri — Gomer davri deb yuritiladi. Bu bosqich eramizdan avvalgi XII asrdan to VIII asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Mazkur davr san'ati va madaniyatini o'rganishda Gomerning «Iliada» va «Odyssey» dostonlari asosiy manba hisoblanadi. Shuning uchun Gomer nomi bilan ta'riflanadi. Mikena yozuvlarining o'qilishi shu davrga oid ma'lumotlarning kengayishiga yordam berdi. Bu

asrlarda Gretsiya yerlarida mulkiy tengsizlikning kelib chiqishi natijasida quldorlik tuzumiga zamin yaratildi.

Miloddan avvalgi XII–VIII asrlar – yunon mifologiyasi shakllanish davri. Bu davrda yunon mifologiyasi, xalq epik poeziyasi paydo bo‘lib, ularda xalq hayoti, uning ma’naviy intilishi va jasorati keyingi yunon madaniyatini rivojida muhim o‘rin tutadi. Undagi mavzu, sujetlar davr ruhida qayta o‘rganilib, adabiyot, tasviriy san’at, amaliy san’atda aks etib bordi.

Amaliy san’at. Gomer davriga oid badiiy asarlar dastlab «geometrik uslub»dagi handasiy shakllar bilan bezalgan ko‘za-vazalarda namoyon bo‘ladi. Diniy marosimlar bilan bog‘liq bo‘lgan katta hajmdagi (ba’zida odam bo‘yi barobar keladi) «Dipilon vazalari» (Afina yaqinidagi Dipilon darvozasi yonidan topilgani uchun shunday nomlangan) shunday xarakterda ishlangan.

Gomer asri sopol ko‘zalarida geometrik naqshlardan tashqari, o‘simliklardan ishlangan naqshlar, hayotiy voqealarni sxematik talqin etuvchi tasvirlar uchraydi. Dastlabki ranglar gammasida xira tortgan sariq rangli fonga to‘q jigar rangli bezaklar tortilishi xarakterli.

Qadimgi yunon amaliy-bezak san’atining o‘ziga xos xususiyatini o‘ziga singdirgan bu vazalar naqshlar kompozitsiyasining aniqligi, siluetlari qat’iyligi bilan ajralib turadi. Geometrik bezak «meandar» bilan bezalgan belbog‘lar keng qo‘llaniladi. Bu bezak turi yunon san’atining barcha davrlarida ishlatiladi.

Loy, tosh, yog‘och, bronza yoki suyakdan ishlangan haykaltaroshlik namunalari topilgan bo‘lib, ular yaxlit formada, mayda detallarga e’tiborsiz holda ishlangan. Bu haykallarda, asosan, xalq hayotidan olingan voqealar, turli hayvonlar tasvirlangan. «Yer haydovchi», «Ot haykali» (er. av. VIII asr) kabi yodgorliklar shular jumlasidan.

Shu davrga oid me’morchilik namunalari esa, qal’a va qo‘rg‘onlarning qoldiqlari orqali yetib kelgan. Ular o‘z xarakteri jihatidan Mikena me’morchiligini eslatadi. Gomer davri arxitekturasi ham Mikena va Tirinfda shakllangan peshtoq, dahliz va zaldan iborat turning qayta ishlanganini qo‘llaydi.

Arxaika davri Gretsiya tasviriy san'at va arxitekturasi

Eramizdan avvalgi VII–VI asrlarda yunon san'ati eng qadimgi «*arxaik*» davrni boshidan kechiradi. «Arxaik» so'zi «qadimgi» degan ma'noni anglatadi.

Arxaik davr grek san'ati avvalgi gomer davri san'atiga xos bo'lgan primitiv, ya'ni ibtidocha shakllardan uzoqlasha bordi. Bu davr san'ati qiyoslab bo'lmaz darajada murakkablashib, eng ahamiyatlisi – bu davrda realistik san'at shakllandi. Arxaik davr san'atining o'ziga xos qirralari hamma sohada ham bir tekis kechmaydi. Yuksalish eng avval me'morchilik va kulolchilikda ko'zalarga gul solishda ko'rinib, haykaltaroshlik esa bu davrda diniy marosim va urf-odatlar bilan bog'liq holda rivojlanib, u ancha qonuniylashtirilgan siquvlikda edi.

Arxaik davr san'atining barcha murakkabliklari va qarama-qarshiliklari bu davr grek xalqi va uning tarixiy rivoji bilan belgilanadi.

Bu davrdan avvalgi qabila boshliqlari – «Basilevslar» o'z o'rnini yer, suv va qullarga ega bo'lgan naslli aslzodalar «Evpatriid»larga bo'shatdilar. Evpatriidlarga qarshi chiqqan asosiy kuch esa «*Demos*»lar bo'ladi.

Demoslar yunon jamiyatining erkin fuqorosi bo'lib, ular bir necha sotsial tabaqalardan tashkil topgan – erkin dehqonlar, savdogarlar va hunarmandlar.

Bu davrga xos eng e'tiborli kurash – demoslarning evpatriidlarga qarshi kurashidir. Evpatriidlar grek xalqining erkin fuqorolarini xuddi qadimgi sharqqa xos mustabid tuzum kabi ezishga va ulardan foydalanishga harakat qilganlar. Shuning uchun er. av. VII–VI asrlar san'atining rivojlanish jarayonida xuddi qadimgi sharq san'atiga xos xislatlarning uchrashi tabiiydir. Qadimgi Sharq san'atining arxaika san'atiga ma'lum ma'nodagi ta'siri shuni ko'rsatadiki, grek quldorlik jamiyatida shakllangan musavvirlar eng avval sharq madaniyati va san'atida erishilgan yutuq va tajribalardan unumli foydalanganlar. Keyinroq ular bosib o'tgan yo'l yanada aniqroq ko'rinib, o'ziga xos yo'nalishni topishga muvaffaq bo'ldilar.

Hunarmandlar, savdogarlar, dengizchilar va erkin dehqonlarning keng ommasining eskicha tuzum ustidan erishgan g'alabasi aynan antik ko'rinishdagi quldorlik tuzumining qaror topishiga olib keldi.

Me'morchilik. Arxaik davr me'morchiligida – bu davr san'atining progressiv tendensiyasi butun borlig'i bilan namoyon bo'ldi. Unda demoslar – shahar-davlatlarining erkin fuqarosining qarashlari yorqin aks ettirilgan. Yunon ibodatxonalarining qadimgi sharq ibodatxonalaridan prinsipial farqi – bu yer shahar-davlatda istiqomat qiladigan kishilarning umumjamo'a hayotidagi eng zarur hamda ahamiyatli voqea va tadbirlar o'tkaziladigan markaz hisoblangan. Ibodatxona – grek xalqining xazina va boyluklarini saqlovchi ombor vazifasini ham o'tagan. Uning qarshisida bayram va majlislar o'tkazilgan. Ibodatxona shahar-davlatning kuch-qudrati va birligini o'zining tashqi qiyofasida mujassamlashtirgan.

Grek ibodatxonalarining me'moriy shakli tamoyilining rivoji yengil kechmadi, hatto arxaik davrda ham uzoq evolyutsiyani boshidan kechirdi. Biroq, arxaika san'atidayoq mantiqan puxta va lo'nda, shu bilan birga, me'moriy shakllari turlicha bo'lgan tizim yuzaga kelib, u keyingi grek me'morchiligi rivojida poydevor bo'ldi. Agar sharqda ibodatxona shoh-fir'avnlr maqbara dahmasi rolini o'ynagan bo'lsa, Yunonistonda er. av. VII asrga kelib, qurbonlik qilish butunlay ibodatxonadan tashqarida, uning qarshisida o'tkazila boshladi. Bu esa ibodatxonaning vazifasi o'zgarishiga olib keldi. Endi ibodatxonaning qarshisidagi maydon – ommaviy chiqishlar va bayramlar o'tkaziladigan joyga, shu bilan birga, polis fuqarolarini bir joyga jamlaydigan markazga aylandi. Yunon ibodatxonalari sharq ibodatxonalariga qaraganda hajm jihatdan u qadar mahobatli yechimda bo'lmagan. Hatto, hajmi bilan ham kishini lol qoldirmagan.

Ijtimoiy hayot shaklining o'zgarishi shahar qurilishida ham o'z ifodasini topdi. Bu davrda qurilgan shahar, odatda, tepalikka qurilgan *akropol* atrofida joylashib, tepalikning eng yuqori qismida polisning xaloskori bo'lgan ma'budaga atalgan ibodatxona, akropol etaklari va yonbag'rida esa turar joy kvartallari qurilgan. Bu kvartallar loyihasi erkin, stixiyali tarzda paydo bo'lgan. Har bir

polis ibodatxona qurilishiga, uning boshqa polis ibodatxonalaridan ajralib turishi, ko'rkam va ulug'vor bo'lishiga alohida e'tibor bergan.



22-rasm. Afina Akropoli.
Tarh

Ibodatxona shahar-davlat yoki polis fuqarolari birligini ta'minlab, u akropolning eng baland yerida, aniqrog'i, qoq markazida, ya'ni shahar maydonida qad ko'targan. U shaharning boshqa me'moriy ansambllari ichida hukmronlik qilib, ko'zga tashlanib turgan. Ular grek fuqarolari ma'naviy olami va qarashlarini yorqin aks ettirdi.

Grek ibodatxonalari o'zining butun borlig'i bilan qadr-qimmatini yo'qotmasligi — bu uning shahar rahnamosi bo'lgan ilohlarga bag'ishlab qurilganligidandir. Grek diniy e'tiqodida xudolar obrazi xuddi insonga xos qiyofada mujassamlashib, keng rivojlandi. Biror **ilohga bag'ishlab** qurilgan ibodatxonaning fasadi — sharqqa tomon qarata qurilgan bo'lsa, **jangda jasorat ko'rsatgan qahramonlarga** bag'ishlab qurilgan ibodatxona fasadi — g'arb tarafga qarata qurilgan, ya'ni g'arb tomon o'lganlar saltanati degan tushunchani anglatgan bo'lib, ular ruhini abadiylashtirishga ahamiyat beriladi.

Eng qadimiy va sodda ko'rinishdagi toshdan qurilgan arxaik ibodatxona nusxasi — **Antli ibodatxona** bo'lib, u uncha katta bo'lmagan xona — naosdan iborat, tarhi sharqqa qarata qurilgan. Uning fasadidagi antalar orasida, ya'ni ikki chekkasida turtib chiqqan yon devor oldida ikki ustun joylashtirilgan. Antadagi

ibodatxona bunday ko‘rinishi bilan qadimiy *megaronni* eslatadi. Polis ahli uchun Antadagi ibodatxona u qadar qulay bo‘lmasa-da, u ko‘p narsalardan cheklangan, faqat old tomondan ko‘rishga mo‘ljallangan. Shu bois miloddan avvalgi VI asrga kelib, bu turdagi inshoot kichik hajmdagi qurilmalar uchun qo‘llanilgan.




23-rasm. Antli ibodatxona

Ibodatxona turlari. Arxaik davrda ibodatxonaning eng tugal ko‘rinishi yoki nusxasi — *Prostil* bo‘lib, uning old tomonida 4 ustun joylashgan.

Amfiprostil nusxasida kolonnalar ham old, ham orqa tomonida joylashadi. Uning orqa tomonida xazina omboriga olib boradigan yo‘l ham mavjud.

Grekl ibodatxonasining klassik nusxasi va namunasi — *Peripter* bo‘ldi. Bunday nusxadagi ibodatxona to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida bo‘lib, rejada uning har to‘rt tarafi ustunlar bilan o‘ralgan, binoning markaziy qismi sella deyiladi. Peripter eramizdan avvalgi VII asr boshlariga kelib, o‘zining butun ko‘rinishiga ega bo‘lib, rivoj topdi.



24-rasm. Ibodatxona turlari. Qadimgi Yunoniston

Ibodatxona qurilishining keyingi rivojida peripterning tugal proporsiyasi va loyihalash tizimidan unumli foydalanildi. Peripterning yaratilishi qurilmani makonda erkin joylashtirish bilan birga, ibodatxonaning salobatli va tantanavor ko'rinishini ham ta'minlaydi.

Peripterni loyihalashning asosiy elementlari o'ta sodda bo'lib, uning kelib chiqishi ham xalqchildir. Grek ibodatxonalarining konstruksion tuzilishining ildizi — *loy suvoqli yog'och me'morchilikka borib taqaladi*. Aynan shu yerdan ikki nishabli tom yopish yuzaga kelib, u yog'och g'ola bilan amalga oshgan. Keyinroq, u tosh bilan almashindi. Kolonna ustunlar ham avval yog'ochdan ishlangan. Bu bilan grek ibodatxonalarini yog'ochdan toshga mexanik ravishda o'zgardir deb bo'lmaydi, albatta.

Qadimgi grek me'morlari qurilishda material bilan ishlashni va uni qayerda ishlatishni ham yaxshi bilganlar. Shu sabab ular binoni loyihalashda va uning ko'rkam bo'lishida barcha badiiy imkoniyatlarni qo'llab, uni rivojlantirishga intildilar. Natijada, bunday izlanishlar orqali badiiy jihatdan puxta va lo'nda yaxlit me'moriy tizim yuzaga kelib, keyinroq rimliklar uni «**Orderlar**» deb atadilar. **Orderlar** — *ustunlarning tartib bilan konstruksion bir tizimga ega bo'lishidir*. Grek me'morchiligida order iborasi keng ma'noda qo'llanilib, u grek me'morchiligining butun bir obrazli va loyihaviy tizimini ham nazarda tutib, eng asosiysi, qurilmada ustunlarning tartib bilan terilishi va joylashuvi, ular oralig'idagi masofaning aniq hisob-kitob qilinishi, shuningdek, uning ustiga tashlangan *antablementni*, ya'ni to'sinni ham o'z ichiga oladi. Orderlarning joylashuvida me'morlar faqat funksional jihatiga, ya'ni bunda tayanch va tirgak vazifasini o'tashi uchun emas, balki ularning estetik nuqtayi nazardan qaraganda jozibador, ko'rkam bo'lishini ham e'tiborga oldilar. Masalan, ularning nisbatlariga birmuncha erkinlik kiritilsa, bunda binoning butun bir badiiy obrazida so'zsiz o'zgarish sezilib, uning ta'sir kuchi ham o'zgacha bo'ladi.

Arxaik davrda grek orderlarining ikki xil nusxasi: **doriy** va **ioniy** nusxalari dunyoga keldi. Bu esa me'morchilik san'atida ikki joylik maktablar mavjudligi va ular bir-biridan keskin farq qilishidan dalolat beradi.

Doriycha order — qadimgi yunonlarning fikricha, baquvvatligi, tantanavor-jiddiyliги bilan matonat va qahramonlik ramzi sifatida mujassamlashadi. Kelib chiqishi Yunoniston qit'asidan va qadimda yashagan doriy qabilalaridan deb hisoblanadi. Dastlabki nusxalari ham shu yerda qurilgan.

Ioniy orderi esa buning aksi bo'lib, u nafis va nozik, jimjimador, jozibador va bayramonadir. Kelib chiqishi sharq davlatlari bilan aloqada bo'lgan yunon orollari va Kichik Osiyo hisoblanadi. Ioniy orderi ixcham va jozibador bo'lganligi uchun ham vaqti kelib kolonna-ustunlar — koriatidalar bilan almashinadi.


Doriy orderida ishlangan ibodatxona yuqoriga kichrayib boruvchi uchta supacha tarzidagi tosh asos **stereobatga** qurilgan. Ustunlar tagliksiz (bazasiz) bo'lib, ular tepaga torayib boruvchi shaklda yaratilgan. Yuzasiga esa tarnovchalar — **kannelyuralar** ishlangan.

Doriy ustuni bevosita **stilobat** (**stereobatning** so'nggi supachasi)ga o'rnatilgan. Ustunning tepa qismi **exin** (dumaloq shakldagi yostiqla)ga taqaladi. Uning tepasida esa **abak** (to'rtburchak shaklidagi plita) bo'lib, unga antabliment (arxivra, karniz va friz) qo'yiladi.

Doriy orderi arxivra (ustunga qo'yilgan to'sin) tekis ishlangan, **friz** esa **metop** (to'rtburchak plitalar) va **tringliflar** (vertikal tarnovchali-kannelurli plita)dan tashkil topgan.

Ibodatxona tomi ikki nishabli bo'lib, uning old va orqa tomonida hosil bo'lgan uchburchakli maydon **fronton** deb atalgan. Fronton va metoplar bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan. Ibodatxonaning tomi burchaklariga **akroteriyalar** o'rnatilgan. Arxaika davrida fronton va tringliflar yuzasi ko'k, metoplar yuzasi qizil rang bilan bo'yalgan.

Ion orderi eramizdan avvalgi VII asr oxirlarida paydo bo'lgan. U doriy orderidan o'zining nafisligi, bejirimligi hamda tag tomonida stilobatga qo'yilgan tagkursining mavjudligi bilan ajralib turadi. Ion orderida tarnovchali ustunining kapitelinii ikki tomonga buralib turgan jingalak sochni eslatuvchi shakl **valyuta**, exin va abak tashkil etadi. Arxivra esa uchta gorizonta tasma tekislikka ajratilgan. Friz lentasimon qilib ishlangan va bezaksiz.



25-rasm. Yunon order tizimi


Korinf orderi birmuncha kechroq – klassika davrida paydo bo‘ldi. U ion va doriy orderiga nisbatan jimjimador va ko‘rkam, kapiteli *akanf* daraxti barglaridan tashkil topgan buketni eslatadi.

Grek orderlari antik dunyo davlatlarida, *Uyg‘onish davri* va Yangi davr me‘morchiligida keng ishlatildi hamda rivojlantirildi.

Ilk arxaika ibodatxonalari birmuncha past va uzunchoq qilib ishlangan. Ularning ko‘rinishi vazmin va salobatli.

Doriycha nusxadagi ibodatxonaning eng qadimgisi – **Gera** (Gerayon) er. av. VII asr ibodatxonasidir. Bu ibodatxonadan qolgan qoldiqlar ibodatxonaning rejasi, arxaik doriycha peripter orderlar nisbatlari to‘g‘risida yaqqol namunadir. Buyuk Gretsiyada arxaik davrda ko‘plab doriycha ibodatxonalar qurilgan. Ulardan eng yaxshisi Selunentdagi ibodatxonadir. U Pestumdagi bazilika deb nom olgan. Bu bazilikada eng avval qurilmadagi kuch va qat‘iylik ko‘zga tashlanadi. Shu bilan birga, nisbatlar uyg‘unlikdan mahrum.

So‘nggi arxaikaning eng nodir va tugal qurilmalaridan biri – Korinfdagi (Peloponnes) *Apollon ibodatxonasidir* (er. av. VI asrning II yarmi). Uning rejasi biroz cho‘ziq, fasadida 6 ustuni mavjud, yon tomonlarida 15 tadan baquvvat ustunlar ketma-ket terilgan. Ammo bu ibodatxonada birinchi navbatda proporsiyaning lo‘nda va aniq garmonikligi aks etib, shu bilan birga, me‘moriy



26-rasm. Apollon ibodatxonasi (mil. av. VI asr)

shaklning qat'iyli va kuchlili mujassamlashgan. Bu ibodatxonada ham arxaika me'morchiligining xarakterli tomonlari ochiladi. Efesdagi Artemida ibodatxonasi ion orderida ishlangan, u hajmining kattaligi va badiiy bezagining serhashamligi bilan ajralib turadi.

Haykaltaroshlik. Arxaik davr haykaltaroshligi ziddiyatli. Bu davr san'atida, asosan, ma'budlar haykalini yaratish kun tartibiga qo'yiladi. Ular, asosan, beharakat, jiddiy qotib qolganga o'xshash (sxematik) tarzda ishlanishi bilan arxaikdir. Bunday haykallar hayotdan yiroq bo'lib, qadimiy an'analarni o'zida saqlab qolgan, shu bilan birga, ularda hali plastik jihatlariga yoki inson tana nisbatlarini to'g'ri ifodalashga bo'lgan tushunchaning yetishmasligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ularda arxaik haykaltarosh qoidani buzmaslikka harakat qilgani shundoq sezilib turadi. Shunday nusxadagi haykallardan biri — *Deloslik Artemida haykali* (er. av. VII asr). Bu haykal hali ancha primitiv ko'rinishga ega bo'lib, Artemida deb nomlanishi taxminlarga asoslanadi. Unda Nikendra ma'budaga sovg'a keltirgani tasvirlanadi. Haykal yaxlit tosh blokka o'xshash, tana shakli va nisbatlari yaxshi sezilmaydi. Bosh qismi profil holda, sochlari yelkasiga tushgan, ammo simmetrik yechimda, qo'llari esa pastga qaragan.

Samoslik Gera haykali deb nom olgan keyingi haykal eramizdan avvalgi VI asrning I yarmiga tegishli. Samosdan topilgan bu haykalda ma'buda Gera tasvirlangan bo'lishi mumkin. Bu haykalda yuqoridagi haykalga nisbatan birmuncha farq seziladi. Arxaik haykaltarosh libos tagidagi tanani to'g'ri yetkazishga harakat qiladi. Biroq, haykal inson tanasidan ham ko'ra daraxtga o'xshash taassurot qoldiradi. Ammo Gomer davri haykallariga qaraganda biroz yangilik bor. Jussaning yasashida proporsiyani yetkazish va hajm (obyem)ni ko'rsatishga bo'lgan intilish seziladi.

Qizil olma ushlagan ma'buda haykali bizgacha boshsiz holda yetib kelgan. Bu diniy marosim uchun mo'ljallangan haykal hayotiylikdan va jonlilikdan mahrum.

Arxaitlar haykali (VI asr o'rtasi) singari haykallarda, tantanavor va mahobatli yechimiga qaraganda, hukmdorlar o'tirgan holda tasvirlangan. Ular qadimiy Apollon ibodatxonasidan topilib, yo'l yoqasida o'rnatilgan. Bunday haykallar sxematikligi shaklining geometrikligi va qotib qolgan beharakatligi bilan ajralib turadi. Kiyimidagi burmalar ham bilinar-bilinmas, ularning sirtida Xares deb nomi ham o'yib yozilgan.

Bronzadan yasalgan Apollon haykali 13 metr balandlikda bo'lib, u xuddi ustunga o'xshaydi. Haykalning qo'l-oyoqlari xuddi ulab qo'yilgandek taassurot qoldiradi.

Arxaik haykaltaroshlikda eng e'tiborli haykallar – bu kuroslar haykalidir. **Kuroslar** tipi eramizdan avvalgi VII va VI asr boshida Peloponnes yarimorolida paydo bo'ldi. Keyinroq, butun arxaik davrda Gretsiyaning boshqa hududlarida bu obraz ustida izlanishlar kuzatiladi. Arxaik davrda mahalliy haykaltaroshlik maktablari yuzaga kelib, kuros tipini yaratishda o'zaro raqobatlashdilar.

Kuros obrazi matonat va qahramonlik ramzi sifatida qabul qilinib, haqiqatan ham grek polislarining qahramon jangchi obrazidir. U polis kishilari g'oya va qarashlarini o'zida mujassamlashtiradi. Kuros tipining yaratilishi o'tgan davrdan bir qadam oldinga siljishni ko'rsatadi. Dastlab unda polis xudosining obrazini ko'ra olgan bo'lsalar, vaqtlar o'tib, polisning ideal jangchi obrazini ilgari surdilar. Ba'zi hududlarda qurbon bo'lgan jangchining qabrtoshida haykal vazifasini o'tagan bo'lsa, ba'zi maktablarda u

olimp o'yinlari musobaqasining g'olibi sifatida gavdalandi. Bunday o'rin almashinuv bu haykal turida etik-axloqiy rolning orta borishini ko'rsatadi. Kuroslar obrazida hech qanday individual portret chizgilar ko'rinmaydi. Uning qiyofasida doriycha yo'nalishga monand matonat, ulug'vorlik va kuchlilik mavjud. Kuroslar haykaliga xos rivojlanish ularning proporsiyasida kuzatiladi. Bu shaklning geometriklashuvi va sxematik tuzilishining bartaraf etilishida, shuningdek, ornamental dekorativlikdan qutila borishda ko'rinadi. Shu bilan birga, ular yanada hayotiy va real talqin etila bordi.

Ammo er. av. VI asrgacha frontal ko'rinish va beharakatlilik saqlanib qoldi. Kuroslar obrazining doriycha nusxasi — Polimed Argoskiyning — «*Kleobis va Biton*» afsonaviy qahramonlarida ko'ramiz. Polimed er. av. VI asrning I yarmida Peloponnesning Argos shahrida yashab ijod qilgan. Kleobis va Biton haykallari guruhli haykal turiga mansub bo'lib, bunday guruhli haykal arxaik davr haykaltaroshligidagi yagona haykaldir. Bu ikki haykal frontal ko'rinishi bilan e'tiborni tortib, simmetrik yechimda tasvirlangan. Ularda arxaik haykaltaroshlikning o'ziga xos xislatlari yaqqol ufurib turibdi. Masalan, inson tana tuzilishini to'g'ri yetkazilmasligida frontal ko'rinishga egaligi, bir oyog'ini oldinga tashlaganligini hisobga olmaganda, so'zsiz, shartli ravishda ishlangan haykal turiga mansub. Ularda jangga otlangan jangchi qiyofasining primitiv yetkazilishi ham arxaikdir.

Kuroslar turiga xos yana bir, Nyu Yorkdagi *Metropolitenda* saqlanayotgan *kuros haykali* avvalgi haykallarga qaraganda katta farq qiladi. U sarvqomat, kelishgan, shakli ham u qadar sxematik emas. Agar uning bosh qismidagi geometrik ornamentallikni hisobga olmasak, bu haykalda arxaik san'atdagi rivojni kuzatish mumkin. VI asr o'rtalariga kelib, kuroslar tipida yanada jonlanish bo'lib, ular yanada insoniy qiyofaga ega bo'la bordi. Ularda tana tuzilishi va nisbatlar to'g'ri yetkazilib, hatto mushaklarni ifodalashda ham maromiga yetkazishga ham e'tibor qaratildi. Ayniqsa, ularda yuz qiyofani ko'rsatish kuchayib, mayin tabassum ham paydo bo'ldi. Bu tabassum keyinroq fanda «arxaik tabassum» deb nom oldi. Shunday usulda ijod qilganlardan biri — *teneylik Apollon* (er. av. VI asr I yarmi). Arxaik tabassum ba'zi haykallarda

yanada boʻrttirilishini *beotiyalik Apollon Ptojos* haykalida kuza-tish mumkin. Bu haykal soʻnggi arxaikaning nodir namunasi hisob-lanadi. U avvalgi frontal, beharakat kuroslerden katta farq qiladi. Unda tana tuzilishi, proporsiya va shaklni modellashtirish ham maromiga yetkazilgan. Shu bilan birga, insonga xos tabiiylik, sipohlik va ulugʻvor qiyofa bilan ham qahramon obrazini mujasamlashtirish masalasiga ham toʻgʻri keladi.

Arxaik haykaltaroshlikda faqatgina statuya haykaltaroshligi borasida izlanish bormay, balki boʻrtma va sujetli fronton kompo-zitsiyalar ham rivojlandi. Bu davrning eng xarakterli boʻrtma kompozitsiyalaridan — Afina Afayi ibodatxonasi peshtoqlariga ishlangan mifologik mavzudagi boʻrtmalardir. Yuqorida qayd etil-gandek, arxaik davr haykaltaroshligida oʻziga xos rol oʻynagan narsa — bu mahalliy maktablar boʻldi. Bu maktablarning oldidagi asosiy vazifa va maqsadi ham bir-biriga oʻxshashdir. Ularning aksa-riyati yo diniy urf-odatga moʻljallangan xudolarni tasvirlash, yo boʻl-masa, polis xaloskori boʻlgan kuros obrazi ustida izlanish olib bordi.

Ioniy maktabi. Arxaik davrda ioniy maktabi ham oʻziga xos yoʻldan borib, bu yoʻnalish Kichik Osiyo hududida yuzaga kelib shakllandi. Haykaltaroshlikda ioniy maktabi butunlay oʻzgacha yoʻldan bordi. Agar doriy maktabi haykallarda konstruktiv tuzilishiga koʻproq eʼtibor qaratgan boʻlsa, ammo ioniy maktabida birinchi navbatda haykalning tashqi yuzasiga eʼtibor berish masalasi koʻndalang turdi. Bunda tanani his qilishdan koʻra, libosni va undagi burmalar hamda boshqa mayda elementlarga nisbatan eʼtibor kuchli boʻldi. Bundan tashqari, ioniy ustalari doriy usta haykaltaroshlaridan materialga ishlov berishda ham oʻzib ketdilar. Doriy ustalari 600-yilga yaqin oʻsha davrga xos dagʻal ohaktoshdan haykal yasagan boʻlsalar, Egey dengizidagi orollarda marmardan haykal yasashni boshlaganlar. Ioniyalar bronzadan quyma haykal yasashda ham birinchilardan boʻlganlar. Biroq, keyinroq grek haykaltaroshligi rivojida bronza doriy ustalarining sevimli xom-ashyosiga aylandi. Unga xuddi marmar kabi silliq va nozik ishlov berish ioniy haykaltaroshlarining kasbiga aylandi. Shu bois ioniy va doriy maktablarining bir-biridan farqi ham, bogʻliqligi ham shu boʻldiki, ioniyalar haykaltaroshlikda oʻzlarini dekorativ muam-

moni hal etishga yo'naltirdilar. Agar doriy ustalari yakka tinch turgan inson haykalini yaratishni maqsad qilgan bo'lsalar, ioniy maktabida sharqning kuchli ta'siri bois mahobatli haykaltaroshlikda ansambllarda ko'plab haykallarni yaratishni xush ko'rgan.

Attika maktabi. Grek san'ati tarixida uchinchi yirik bir arxaik haykaltaroshlik maktabi yuzaga kelgunga qadar doriy va ioniy maktablari yuzaga kelib, o'z rivojini boshidan kechirayotgan edi.

VI asr o'rtalaridan grek badiiy estetik hayotida Attika maktabi yetakchilik qildi. Bu maktab go'yo o'zida butun arxaik davr yutuqlarini sintezlashtiriga harakat qilgandek tuyuladi.

Ioniy maktabiga xos dekorativlik, doriy maktabiga xos mustahkam konstruktivlik, Attikaga xos o'ymakorlik go'yoki garmonik umumlashmalikka erishgandek. Biroq, doriy va ioniy elementlarining uyg'unlashuvini attik ustalar o'zlari yaratishga muvaffaq bo'lgan badiiy konsepsiya bilan birga qabul qildilar. Attika maktabining asosiy farqi shunda bo'ldiki, haykallardagi individual jozibadorlik dramatik hikoyanavislik asosida namoyon bo'ladi. Butun arxaik haykaltaroshlikda attika maktabiga xos haykallar boy ma'naviy olami va yuqori badiiy saviyasi bilan ham ajralib turdi.

Attika maktabi haykaltaroshligning dastlabki namunasi er. av. VII asr oxiriga to'g'ri kelib, Dipilon darvozasidan topilgan haykal – boshdir. O'zining primitivligiga qaramay, bu kalla o'ta mahobatli yechimi bilan yorqin taassurot qoldiradi. Undagi soch va chizgilari toza ornamental, ammo bu ornament ioniy haykaltaroshlariga o'xshab sirtida emas, aksincha uning ich-ichiga singib, plastik shaklning tuzilishiga kirishib ketadi. Bu yerda quloqni ornamental-tektonik talqin etish butunlay abstrakt shakllarda yetkazilgan, umuman, Attika maktabining dastlabki davrida personajlarning o'ziga xos ko'rinishi ko'zga yaqqol tashlanadi.

Argoss maktabi. Spartan maktabi haykaltaroshlari o'zlarining asosiy e'tiborlarini harakatni ko'rsatish muammolariga qaratgan bo'lsalar, boshqa doriy maktablar diqqat markazida inson jussasi (figurasi) yoki gavdasining tinch turgan holati turgan. Arxaik davrda Argoss va Skionda haykaltaroshik maktabi yuzaga kelib, u ko'zga ko'rindi. Bu maktablarning oldiga qo'ygan maqsad va vazifasi – yalang'och erkak tanasi va gavda tuzilishini ko'rsatishdan

iborat bo'ldi. Avval barcha kiyimsiz yosh erkak haykallari — Apollon deb nomlangan. Haqiqatan ham, ularning aksariyatida Apollon tasvirlangan, ammo ko'p haykallarda ma'budlar emas, balki o'lgan kishilar obrazi talqin etilgan. Bunday haykallar qabrlar uchun mo'ljallangan. Va yana atletlar Olimp musobaqalarida ishtirok etgan g'oliblar uchun ham haykallar ishlagan. Shu sabab bunday arxaik davrga xos haykallar nomi va shaxsini ajratish mushkul bo'lib, umumiy nomi kurokdir.

Arxaik Apollon haykalining dunyoga kelishida Misr haykalta-roshlik namunalari roli katta bo'ldi. Bunday misrcha haykal-larga xos arxaiklik — Apollonning chap oyog'ini oldinga tashlagan, qo'llarini musht qilgan holati uzoq vaqt saqlanib turdi. Ammo grek haykaltaroshlari dastlabki qadamlardan oq, Apollon haykalida Misr san'atida mutlaq uchramagan o'ziga xos konsepsiyani yarata oldilar. Birinchidan, haykalning to'laqonli yalang'ochligi; ikkin-chidan, haykalning strukturasi, ya'ni inson tanasining organik funksiyasi hamda tuzilishi va nihoyat, haykalning atrof-muhitdan xoli erkin turishi.

Rang-tasvir, amaliy-dekorativ san'at. Qadimgi grek rang-tasvir san'atining namunalari bizgacha yetib kelmagan. Biz shu davrga



27-rasm. Argoslik Polimed. Kleobis (Biton) statuyasi. Marmar. Er. av. 600-y. Arxeologiya muzeyi. Delfa (Yunoniston)

mansub kulolchilik buyumlari yuzasiga ish-langan rassomlik asarlari asosida o'sha davr rang-tasviri mavzusi, xarakteri to'g'risida tasavvur hosil qilishimiz mumkin. Arxaika davri amaliy-dekorativ san'at hamda hunar-mandchilikning haqiqiy gullagan davridir. Ayniqasa, ko'za va boshqa kulolchilik buyu-lariga surat ishlash san'ati sohasida bu davr san'atkorlari juda katta yutuqlarni qo'lga kirit-dilar.

Grek ko'zalari shakl va hajm jihatidan rang-barang bo'lib, turli maqsadlarda ishla-tilgan va shunga qarab turlicha nomlangan. Ko'za yuzasiga ishlangan suratlar mavzusi, mifologiyadan olingan sujet yoki hayotiy voqealarga bag'ishlangan.

Arxaika davrining koʻzga surat solish sanʼati dastlab qora figurali vazalarda namoyon boʻldi. Bunday vazalarga qora lak bilan turli tasvirlar ishlaganlar. Ayniqsa, qora figurali vazalar ishlash sanʼati VI asrning II–III choragida rivojlanib, bu sohada attikali kulollar va rassomlar nom chiqarishgan. Shunday mashhur ustalardan biri, rassom *Klitiy* boʻlgan. U jahonga mashhur boʻlgan «Fransua vazasi»ni bezagan. Vaza yuzasiga 200 dan ortiq odam tasviri tushirilgan.

Qora figurali vazalar uslubida ishlagan mashhur rassomlardan yana biri eramizdan avvalgi VI asrning II choragida yashab ijod etgan *Eksekiy* boʻlgan. Uning yaratgan kompozitsiyalari goh sokin hikoyanavislik bilan, goh oʻta harakatda tasvirlanganligi bilan xarakterlanadi. Rassom birinchi marta oʻz qahramonlarining ruhiy kechinmalarini yoritishga harakat qiladi. Eksekiyning ishlagan obrazlarida chiziqlar nafis, plastik aniq va tiniqligi bilan xarakterlanadi. Eksekiyning «Qayiqdagi Dionis» deb nomlangan mashhur asari eramizdan avvalgi 540-yilda ishlangan. Bu klik (*klik* – vino ichish uchun moʻljallangan idish) oʻzining shakli va detallarining bir-biriga mutanosibli, tashqi va ichki bezagi buyumning mazmuniga mosligi bilan xarakterlanadi. Klikning tashqi tomonida jang manzarasi va katta qilib ishlangan ikkita koʻz tasvirlangan. Bu koʻz sharob ichuvchini «yomon koʻzdan» saqlashi kerak.

Klikning ichki qismida esa qayiqda suzib ketayotgan vinochilik va shodlik maʼbudi Dionis tasvirlangan. Afsonaga koʻra, dengiz qaroqchilari Dionisni taniganlari holda uni oʻgʻirlab, qul qilib sotmoqchi boʻladilar. Kema ochiq dengizga chiqadi. Shu payt palubadan tok novdalari oʻsib, yirik uzum boshlari hamda Dionisni kuzatib boradigan hayvonlar paydo boʻladi. Qaroqchilar buni koʻrib vahimaga tushadilar. Oʻzlarini suvga ota boshlaydilar, lekin suvga yetmayoq delfinlarga aylana boshlaydilar. Kompozitsiyada delfinlarning kema atrofida suzib yurishi va Dionisning kemada yon-boshlab yotgan payti tasvirlangan. Kema,



28-rasm. Eksekiy.
Qayiqdagi Dionis.
Kilikdagi tasvir

nazarimizda, dengiz to'liqlarida asta tebranib suzib borayotganga o'xshaydi. Shu taassurotni ochishda idishdagi egri chiziqlar shakliga mos tushgan qayiqning silueti, delfinlar harakati va kompozitsiya ritmi muhim o'rin egallagan. Eksekiyning ko'pgina asarlari Gerakl qahramonligiga, greklarning amazonkalar bilan jangi hamda Gomerning «Iliada» dostonidan olingan sujetlarga bag'ishlangan. Bular ichida «Axil va Ayaksning shashka o'yini», «Ayaksning o'zini o'ldirishi» kabi asarlari, ayniqsa, mashhur.

Eramizdan avvalgi 540–530-yillarda qizil figurali vazalar ishlash keng tarqaldi. Bu vazaga gul solish san'atida realistik jarayonlarning yanada rivojlanishiga yo'l ochdi. Qizil figurali ko'zalarda tasvirlangan obrazlar ko'zaning tabiiy rangi pishirilgan loy rangida (qizg'ish, qizg'ish-jigarrang) qoldirilib, fon, qolgan bo'shliq esa qora lak bilan bo'yab chiqilgan. Bu uslub voqelikni real tasvirlashda katta imkoniyatlarga ega bo'lib, eramizdan avvalgi VI asrning III choragidan IV asrgacha davom etdi. Qizil figurali vazalarga ishlangan suratlarda hayotiy voqealarni tasvirlashga keng o'rin berilgan. Evfraniy, Andokid kabi buyuk rassomlar bu uslubda nodir yodgorliklar qoldirganlar.

Arxaika davrida *gliptika*, mebel sohasida ham sezilarli ishlar bajarildi. Lekin ularda sharq, ayniqsa, Qadimgi Misr san'atining ta'siri sezilarlidir.

Seminar savollari:

1. Gomer davri Qadimgi Yunoniston tasviriy san'at va arxitekturasi dastlabki davri sifatida.
2. Arxaika davri haykaltaroshligi.
3. Qadimgi Yunoniston arxaika davri arxitektura maktablari, ularning o'ziga xosligi.
4. Arxaika davri Qadimgi Yunoniston arxitekturasi orderlar tizimining ahamiyati.
5. Arxaika davri kulolchiligi, ularning turlari va uslubiy jihatlari.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR

Gomer davri

1. Всеобщая история архитектуры в 12 томах. Том 2. Древняя Греция и Древний Рим. – М.: 1973.

2. Ривкин Б.И. Античное искусство. — М.: 1972. С. 43–64.
3. Колпинский Ю.Д. Искусство Эгейского мира и Древней Греции. — М.: 1970. С. 20–35.
4. Соколов Г.И. Искусство Древней Греции. М, 1980. С. 27–43.
5. Акимова Л. Искусство Древней Греции. Геометрика. Архаика. — СПб.: 2007. С. 19–96 / С.234–262.
6. Колпинский Ю.Д. Великое наследие античной Эллады и его значение для современности. — М.: 1988. С. 42–67.
7. Михайловский И.Б. Архитектурные формы античности. — М.: 2006. *Arxalka davri*
1. Ривкин Б.И. Античное искусство. — М.: 1972. С. 64–85.
2. Колпинский Ю.Д. Искусство Эгейского мира и Древней Греции. — М.: 1970. С. 35–42.
3. Соколов Г.И. Искусство Древней Греции. — М.: 1980. С. 43–68.
4. Акимова Л.И. Искусство Древней Греции. Классика. — СПб.: 2007. С. 263–332.
5. Колпинский Ю.Д. Великое наследие античной Эллады и его значение для современности. — М.: 1988. С. 67–76.

♦ *14-mavzu.*

KLASSIKA DAVRLARIDA QADIMGI YUNONISTON TASVIRIY SAN'AT VA ARXITEKTURASI

Ilk klassika davri. Tasviriy san'at va arxitektura

Ma'ruza mazmuni:

Ilk klassika davrida Yunoniston san'ati. Arxitektura. Yunon-Eron urushi va yunonlar g'alabasi. Bu yutuqning san'atdagi ifodasi. (Pestumdagi Poseydon, Olimpiyadagi Zevs ibodatxonalari).

Haykaltaroshlik. Realistik tendensiyalarning rivojlanishi va ifoda vositalari. Haykaltaroshlikda tarixiy voqealarni ifoda etuvchi asarlarning paydo bo'lishi. Olimpiya ibodatxonasi uchun ishlangan haykallar. Rassomlik. Polignot Fasosiy devoriy rasmlari. Qizil figurali vazalar. Vaza ishlash bo'yicha yirik ustalar Orveto krateri.

Eramizdan avvalgi V asrga kelib, Gretsiya o'zining siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotining eng yuksak bosqichiga ko'tarildi. Bu taraqqiyot eron-grek urushlaridan keyingi Afina davlatining kuchayishi va quldorlik demokratiyasining rivojlanishi

bilan bog‘liq. Urush yunon polislarini Afina davlati atrofida birlashtirdi. Urushdan keyin ham Afina 150 dan ortiq shahar-davlatlar ichida boshqarish imtiyozini saqlab Gretsiya qit‘asiga tutashgan dengizlarda hukmron bo‘lib oldi. Bu yangidan-yangi bozorlarni qo‘lga kiritishga, Qora dengiz sohillaridagi mustamlakalar bilan oldi-sotdi ishlarini rivojlantirishga yangi imkoniyatlar yaratdi. Afina shahri eramizdan avvalgi V asr o‘rtalariga kelib, butun grek olamining eng yirik madaniy va iqtisodiy markaziga aylandi.

Gretsiyaning yuksak ichki taraqqiyoti afinalik davlat arbobi, notiq, harbiy qo‘mondon *Perikl (mil. av. 494–429-yy.)* asriga to‘g‘ri keladi. O‘z zamonasining nihoyatda ishbilarmon davlat arbobi, notiq, odamlarda tashabbuskorlik ishtiyoqini uyg‘ota olgan, ilm-u fan, san‘at va adabiyotga qiziqqan Perikl bu taraqqiyotda muhim rol o‘ynadi. U o‘z atrofiga grek elida mashhur bo‘lgan ijod ahlini to‘pladi. Esxil, Sofokl, Evripid kabi buyuk san‘atkorlarning nomi, Suqrot, Gerodot, Demokrit kabi buyuk tarixchi va faylasuflarning nomi Perikl davri bilan bog‘liq. Bu davrda san‘at beqiyos rivojlandi. U erkin fuqarolarning his-tuyg‘ularini ifodalovchi, ularni doim ozodlikka chorlovchi bir minbarga aylandi, ideal inson qanday bo‘lishi kerakligini ifodaladi.

Eramizdan avvalgi V–IV asr san‘atida «yunon klassikasi» degan nomni olgan bu davr shartli ravishda *ilk klassika, yuqori va so‘nggi klassika davriga bo‘linadi*. Ilk klassika eramizdan avvalgi 490–450-yillardagi eron-grek urushi davriga to‘g‘ri keladi. Bu davr san‘atda realistik tendensiyalarning ortib borishi bilan xarakterlanadi. Ijodkorlar inson obrazini, eng avvalo, uning tipik umumlashma obrazini yaratish, harakatni real va ishonarli tasvirlash borasida sezilarli yutuqlarni qo‘lga kiritdilar. Shu bilan birga, real hayot lavhalariga murojaat qilib, murakkab haykaltaroshlik, me‘morchilik kompozitsiyalari yaratish masalasi bilan shug‘ullandilar.

Me‘morchilik. Ilk klassika davrida ko‘p me‘morchilik kompozitsiyalari yaratildi, ayrim shaharlar qayta tiklandi. Me‘morchilikda, asosan, peripter tipidagi ibodatxonalar qurilishi yetakchi o‘rinni egalladi. Ular ko‘pincha doriy uslubida qurildi. Lekin ularning yar biri me‘morning ijodiy yondashishi natijasida o‘ziga xos indivi-

dual fazilatlar kashf etdi. Ibadatxona o'zining proporsiyasi bilan yanada yaxlitlashib, hali u qadar bo'y cho'zmagan bo'lsa-da, undagi arxaikaga xos dag'allik va nomutanosiblik yo'qoldi. Katta ibodatxonalarda ichki makondagi katta xona — *naos* — asosan, bo'y barobar ikki qator ustunlar bilan uch bo'lakka bo'linar edi. Uncha katta bo'lmagan ibodatxonalarda me'morlar ichki makonda naosning tomigacha bo'y cho'zgan ustunlarsiz ham amallaganlar. Ibadatxonaning yon tarafida ilgari toq sonli kolonnalar qo'llanilgan bo'lsa, masalan, tarzida 6, yon tamoni 13 yoki 8 x 17 bo'lgan bo'lsa, endi yon tomondagi ustunlar soni ikkitaga ortib, yana bittaga oshdi. Pestumdagi Gera ibodatxonasi (er. av. V asrning I choragi) bizgacha yaxshi saqlangan. Unda ilk klassika me'morchiligiga xos fazilatlar ko'zga ko'rinadi. Binoning nisbatlari bir-biriga uyg'un, detall va bezaklar o'z o'rnida ishlatilgan. Lekin binodagi primitivlik va og'ir ko'rinish uni arxaika davri bilan bog'laydi. EGINE orolidagi Afina Afayi ibodatxonasi (er. av. 490-y.) va ayniqsa, Olimpiyadagi Zevs ibodatxonasi o'zining nisbatlar garmoniyasi, badiiy bezagining nafisligi bilan xarakterlanadi va grek me'morchiligining shoh namunalaridan hisoblanadi.

Olimpiyadagi Zevs ibodatxonasi. Zevs ibodatxonasi uchun ishlatilgan ustunlar uzaytirilib olinishi hisobiga binoga ko'rkamlik kiritilgan. Ichki markaziy naosda ichki kolonnalar bilan gir aylangan yerda, kirish qismining ro'parasida shu ibodatxonaga bag'ishlangan ma'bud haykali qad ko'targan. Ibadatxona loyihasi mantiqan lo'nda va aniq, ulug'vor va tantanavor ko'rinishga ega bo'ldi. Umuman, butun ibodatxonaning konstruksiyasi, puxta va jiddiy o'ylangan rejasi va undagi me'moriy elementlarning o'zaro bog'lanishi hamda uyg'unligi, ibodatxona obrazining to'g'ri yo'lga solinganligidan dalolat beradi.

So'nggi arxaika me'moriligiga xos ibodatxonalardan — *Egina orolidagi — Afina Afayi* ibodatxonasi er.av 490-yilda qurilgan. Undagi kolonnalar oralig'i — 6x12; ustunlar proporsiyasi tekis va uzun, ammo antablementi hali biroz og'irroq. Ibadatxona ohaktoshdan qurilgan, sirti suvoq qilingan va gul solingan. Ibadatxonaning dengiz sohilining baland yerida joylashuvi, ya'ni arxitektonikasi yoki atrof-manzara bilan uyg'unligi grek me'morlarining


bu sohada erishgan yutug'idir. Ilk klassika me'morchiligining eng nodir me'moriy obidalaridan biri — Pestumdagi **Poseydon** va Olimpiyadagi **Zevs** ibodatxonalaridir. **Poseydon ibodatxonasi** er. av. V asrning II chi choragida qurilgan va u bizgacha yaxshi holda saqlangan. Tashqi tomondan qaralganda u biroz og'irroq taassurot qoldiradi. U uch qavat taglik asosda qad ko'targan. Kolonnalar oralig'i 6x14; ibodatxona har taraftan ko'rishga mo'ljallangan. *Klassik me'morchilikka xoslik — bu qurilmaning, ya'ni ibodatxonaning har taraflamaligi, bir necha ko'rish nuqtasidan ko'rishga mo'ljallanganligidir.*



29-rasm. Pestumdagi Poseydon ibodatxonasi

Zevs ibodatxonasi 468–456-yillar mobaynida me'mor Libon tomonidan qurilgan. Zevs ibodatxonasi butun Peloponnesdagi eng yirik va e'tiborli ibodatxonalardan biridir. Ibodatxona bizgacha buzilib ketgan holda yetib kelgan. Qadimgi manbalarga tayangan holda u yana qayta tiklangan. Zevs ibodatxonasi **klassik nusxadagi doriycha peripter tipida** qurilib, kolonnalar oralig'i 6x13; baquvvat ohaktoshdan qurilgan. Proporsiyasi jiddiy va lo'nda, frontonlari haykaltaroshlik bo'rtma kompozitsiyalari bilan bezatilgan. Tashqi tomonidagi friz va metoplari esa ilk klassikaning boshqa ibodatxonalari kabi haykal bezaklardan xoli. Tashqi kolonnadalar ortida

pronaosning portiki uzra va opistodomning metop va trigliflari haykaltaroshlik kompozitsiyalari bilan bezatilgan. Ulardagi mavzular shu davr bilan bog'liq — olimp musobaqalaridan olingan sujetlar ifodalangan. Frontonlarida — *Pelops va Enomayaning ot-arava poygasi va grek-lapiflarning kentavrlar bilan jangi* tasvirlangan. Ibadatxonaning ichkarisida Fidiyning Zevs haykali fil suyagidan ishlangan. *Zevs ibodatxonasida me'morchilik va haykaltaroshlikning sintezi kuzatiladi.*



30-rasm. Zevs ibodatxonasi sharqiy frontoni. Rekonstruksiya

Haykaltaroshlik mustaqil san'at sifatida maydonlarga qo'yish uchun yoki bevosita me'morchilik kompozitsiyalari bilan bog'liq holda rivojlandi. Grek me'mor va haykaltaroshlari hamkorlikda san'atda sintez masalasini hal etdi. Monumental haykaltaroshlik san'ati ijtimoiy hayotda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, polis kishilarining hayotiga ta'sir etishga qaratilgan edi. Bu bilan grek haykaltaroshligi qadimgi Sharq san'atidan keskin ajralib turadi. Ibadatxonaning fronton va metoplariga ishlangan haykallarda ham, alohida-alohida ishlangan haykallarda ham kim tasvirlanishi, nima tasvirlanishidan qat'iy nazar, grek san'atkorlari zamonaviy masalalarni ko'tarib chiqish, unga real mazmun kiritish va eng muhimi, polis ahlida o'z yurtiga sodiqlik kayfiyatini uyg'otishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Insonning aql-zakovati va qudratini ulug'lab, unda o'z kuchiga ishonch hosil qildirishga harakat qildi. Ilk klassika haykaltaroshligidagi realistik jarayonlarning rivojlanishi tarixiy va hayotiy voqealarga bag'ishlangan kompozitsiyalarda aniqroq namoyon bo'ladi. Bu davrda joylik maktablar bir-birlari bilan o'zaro raqobatlashib, ularda inson gavda va tana tuzilishini to'g'ri yetkazish bilan birga, proporsional jihatiga ham e'tibor

qaratish, eng asosiysi, *insonning xatti-harakatini ko'rsatish bilan birga, tana og'irligini bir oyoqqa tushirish kabi muammolar ham bu davr haykaltaroshlarining asosiy izlanishlaridan bo'ldi.*

Ilk klassikada eng yetakchi maktab – bu *Argoss-Skion* maktabi haykaltaroshlikda – *tinch, erkin holatda turgan inson haykalini yaratish muammolari ustida izlanish olib borar edi.* Eskicha doriycha an'analar bilan birga, shu maktabning yirik haykaltaroshi Agellad er. av. V asrning boshida tinch va erkin holatdagi inson haykali ustida ish olib borgan edi. *Agellad tinch holatdagi inson haykalida tana va gavda og'irligining faqat bir oyoqqa tushishini o'z haykalida ko'rsatishga va isbotlashga muvaffaq bo'lgan bo'lsa, shu maktabning yana bir boshqa haykaltaroshi esa, inson figurasida xatti-harakat va burilishida tabiiylikka erishdi.* Argos-Skion maktabi usta haykaltaroshlari tomonidan shuningdek, *ideal-barkamol inson obrazi ustida ham izlanish olib borilib, aniqrog'i bunda asosan, tana va gavda tuzilishini to'g'ri isbotlash bilan birga, uning go'zalligini real ochib berish masalasi ustida ham ish olib borildi. Bu maktab inson tana va gavda tuzilishida proporsional jihatlarga, ya'ni tana nisbatlarini to'g'ri yetkazishga ko'proq e'tibor qaratdi* va bunday masalalar bu davr san'atida juda ahamiyatli bo'ldi.

Xuddi shunday muammolar ustida *ioniy yo'nalishidagi* haykaltaroshlik maktabida ham tajribalar olib borildi. Ioniy maktabi eski an'analarga muvofiq *insonni tasvirlashda uni o'ta ishonarli yoki haqqoniy va hayotiy ifoda etishga harakat qilganlar.* Ular ham boshqa maktablar kabi *katta e'tiborni inson tanasi va harakatiga qaratadilar.* Biroq, bu ikki yo'nalish orasidagi farq klassika davrida u qadar ahamiyatli bo'lmadi. Bu ikki yo'nalishda ijod qilgan yetakchi ustalar amalda ikki xil yo'ldan borsalar-da, ammo ularning izlanishlaridagi maqsad va vazifalari ham bir bo'ldi. U ham bo'lsa – *barkamol-ideal insonning realistik obrazini yaratish edi.* Eramizdan avvalgi VI asrdanoq *Attika maktabi bu ikki yo'nalishning eng a'lo sifatlarini o'zida sintezlashtirdi.* Eramizdan avvalgi V asr o'rtalariga kelib, bu xislatlar Afina polisining ravnaqi bilan realistik san'atning a'lo sifatlari va asosiy prinsiplarida keng yoyila boshladi. Va u umumellin san'atida hukmronlik qilib ulkan ahamiyat kasb etdi.

Attikaning bosh va yetakchi polisi yoki shahar-davlati bo'lgan **Afina** — er. av. V asr o'rtalariga kelib, me'moriy obidalar va yodgorliklarni yaratishda Elladaning eng yaxshi badiiy boylıklarini bir joyga jamlab, ya'ni o'zida mujassamlashtirish, shu bilan birga, maqsad butun grek xalqining, qolaversa, polis fuqarosining edi. *Klassika davri grek haykaltaroshligining o'ziga xos xarakteri, umumjamoa hayoti bilan uzviy bog'liqligi bo'lib, unda haykalning o'rni shahar maydonida bo'lib, obrazlilik ham u bilan bog'liq bo'ldi.*

Klassika davrida greklar yaratgan haykal umumjamoa xarakteriga ega bo'lib, u erkin fuqarolardan iborat jamoaning boyligi hisoblangan. Aynan mana shunday masalalar orqali san'atning tarbiyaviy rolining jamiyatda ortib borishining kuzatilishi tabiiy holdir. Hatto, mahobatli haykaltaroshlik asarlarida ham butunlay yangicha estetik talablarga javob beradigan ideal insonning a'lo sifatlarini yoritish muammosi ioniy maktabiga ham xos bo'ldi. *Haykal shahar maydoni uchun mo'ljallanib, uning vazifasi me'moriy qurilma bilan bog'liq bo'ldi.* Jamiyatdagi yangicha demokratik qarashlar arxaik haykaltaroshlikdagi shartli chalg'ituvchan haykal bilan to'g'ridan-to'g'ri to'qnashuvga olib keldi. Haykaltaroshlikdagi bunday keskinlik va to'qnashuvlar shu davr — er. av. V asr boshida yaratilgan haykallarda o'z aksini topdi. Bunday hol **Egina orolidagi Afina Afayi ibodatxonasi** (er. av. 490-y) frontonlariga ishlangan bo'rtma kompozitsiyalarda ko'zga tashlanadi. Eginadagi ibodatxona fronton haykaltaroshligi XVIII asr boshida topilib, u butunlay vayron bo'lgan holda yetib kelgan edi. U daniyalik olim Torvaldsen tomonidan restavratsiya qilingan. Frontondagi eng asosiy kompozitsiya rus olimi Malmberg tomonidan qayta tiklangan. Bu ikki fronton kompozitsiya jiddiy **tosh oyna aksi** kabi simmetrik tarzda yechilib, ba'zi qismlari bo'yalgan holda ishlangan.

G'arbiy frontonida — greklarning troyaliklar bilan jangi — «Patroklning jasadi uchun kurash»i tasvirlanadi. Kompozitsiyaning qoq markazida — Afinaning figurasi joylashib, u beharakat, sokin jang maydonida bamaylixotir turibdi. Uning bu jangdagi ishtiroki shuni ko'rsatadiki, uning qo'ldagi qalqoni dushmanga

qarata otlangan. Shunisi e'tiborliki, Afina qoq markazda simmetrik joylashganiga qaramay, uning oyog'i dushman tomonga qaragan. Aynan mana shu xatti-harakati bilan Afinaning ellin xalqi uchun jangga otlanganligi ramziy ma'noda berilganini ilg'ash mumkin. Agar Paris uzun va baland bosh kiyimi va qo'lidagi kamoni bilan ajralib turmaganda edi, balki u dushmandan farq qilmas edi. Xuddi shu figuralar tosh oynadagi aks kabi qayta takrorlanadi. Jangchilar figurasida ham arxaikaga xos frontal ko'rinish takrorlanmay, balki ularning harakatlari real anatomik tuzilishi ham arxaik san'atga nisbatan to'g'ri olingan. Hatto butun bir voqea tekis fronton yuzasida jiddiy ro'y bersa-da, har bir figura yetarlicha aniq va hayotiy ishlangan. Ammo jang qilayotgan jangchilar yuzidagi tabassum yoki imo-ishoralar biroz arxaikga xos.

Egina ibodatxonasi frontonlarida hali eski arxaik kanonlar ta'siri ufurib turadi. Unda kompozitsion yaxlitlikka yoki umumlashmalikka sun'iy dekorativ usul orqali erishiladi. Me'morchilik va haykaltaroshlik uyg'unlashuvining asosiy prinsipi – bu fronton kompozitsiyalarda haddan ziyod arxaiklik mavjudligi.

Egina ibodatxonasining *sharqiy frontoni* bizgacha g'arbiy frontonidan ham yomonroq ahvolda yetib kelgan bo'lib, undagi *tasvirlarda bir qadam oldinga siljish kuzatiladi*. Agar sharq tomondagi Gerakl figurasi bilan g'arb tomondagi Paris figurasini solishtirsak, *bunda insonni tasvirlash g'arbiy fronton ustalariga nisbatan hayotiyroq ishlangan*.

Bu ikki frontondagi yaralangan jangchi figurasini solishtirganda – sharqiy fronton haykaltaroshi jangchi qiyofasida arxaikaga xos tabassum mos kelmasligini to'g'ri tushungan. Undagi harakat holati ham haqqoniylikni ifodalashi jiddiy va haqiqatga yaqin. Haykaltarosh nafaqat *harakat va holatini, hatto, ichki kechinmasini ham yetkazishga intiladi*. Jangchilarning Atletlarga xos baquvvat tanasini jismoniy kuch tark etayotganini yarim yonboshlagan qo'lida qalqon ushlagan jangchida ko'rish mumkin. U yaralanib yiqilgan o'rnidan turishga harakat qilmoqda, ammo oyoqlari kuchsizlanib qolgandan sekin-asta yana yerga qulamoqda. Qulayotgan jussa esa vertikal holatdagi qalqon bilan qarama-qarshi qo'yilgan.

Ilk klassika haykaltaroshi inson haykalining faqat jismonan go'zalligi va mutanosib tana tuzilishini ko'rsatish bilan cheklanmay, balki uning qalb kechinmasini ham yoritishni uddalagan. Eginaning sharqiy frontonidagi yaralangan jangchi haykali bunday muammoni hal qilishdagi eng dastlabki qadam hisoblanadi.

Klassika haykaltaroshligida arxaik davrga xos shartlilik va siqovlikka barham berishda tarixiy voqeaga asoslangan mavzudagi, shuningdek, quldorlik demokratiyasi ustidan g'alabaga erishgan etik-estetik jihatdan boy haykaltaroshlikning paydo bo'lishi bu davr san'ati uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Mifologik mavzu va sujet grek san'atida hali hukmronlikni davom ettirib, ammo afsona va rivoyatning diniy ertaknoma fantastik tarafi ikkinchi rejaga o'tadi. *Ilk klassika san'atda mifologiyaning etik-axloqiy jihatlari birinchi o'ringa o'tib, mifologik qahramonlarning etik va estetik jihati va ideal qirralarini yoritish grek jamiyatida shu davr g'oyasi bilan hamohang bo'ldi.* Mifologik obrazlarni realistik talqin etish nafaqat grek klassik haykaltaroshlari oldidagi vazifa bo'lmay, balki eramizdan avvalgi V asrning klassik tragiklari — Esxil va Sofokl asarlarida ham o'z ifodasini topdi. Bunga yaqqol misol Esxilning — «Forlar tragediyasi» bo'lib, bu asar greklarning ozodlik uchun olib borgan qahramonona kurashlariga ham bag'ishlanadi.

Haykaltaroshlar *Kritiy va Nesiot* — «*Aristogiton va Garmodiy*»ning bronzadan guruhli haykallarini yaratdilar. Er. av. V asrda Aristogiton va Garmodiy Afinaning johil hukmdori Gipparx tomonidan 514-yilda qatl etilgan. Keyinroq xalq uning o'zini ham qatl etadi. Fuqarolarining ko'rsatgan jasorati va qahramonliklari butun grek xalqini larzaga soladi. Bu ikki obrazning yaratilishi davrda muhim bo'lib, shu davr g'oya va qarashlariga ham mos bo'ldi. Ammo bu guruhli haykal bizgacha yetib kelmagan.

Mavjudlari rimliklar tomonidan ishlangan nusxadir. Haqiqatan, Garmodiy va Aristogen obrazi er. av. VI asrda Afinadagi demokratik va aristokratlar partiyasiga rahbarlik qilgan, er. av. V asrda afinaliklar jamiyatida ularning roli katta bo'lib, polis fuqarolari o'zlarini ularga o'xshatishga harakat qilganlar.

Aristogiton va Garmodiy haykalida haykaltaroshlik guruhini ma'lum voqea va sujetga bo'ysunishi yoki birlashuvi kabilar ilk bor hal etildi. O'tgan davrdagi Kleobis va Biton haykallari shunchaki yuzaki qovushgan haykal bo'lib, unda ikki tik turgan kuroslar orasida o'zaro hech qanday bog'lanish ko'rinmaydi. Aristogen va Garmodiy o'zaro harakatda qovushib, ular dushmanga zarba berayotgani tasvirlanadi. Bu ikki figuraning bir tomonga qarata yo'naltirilgan xatti-harakati va holati guruhda badiiy uyushqoqlikni yaratadi. Vaholanki, bu xatti-harakat hali ancha sxematik bo'lsa-da, undagi kompozitsiya va sujet tanlash mukammaldir. Biroq, qahramonlar qiyofasi qiliq va ishoralardan mahrum.

Bizgacha yetib kelgan manbalarga qaraganda er. av. V asr 70–60-yillarida yetakchi haykaltaroshlardan — **Agellad, Pifagor Regiyskiy va Kalamidlar** — haykaltaroshlikda dadil izlanishlar olib bordilar. Ular to'g'risida rimliklar tomonidan ishlangan nusxalardan bilish mumkin.

Eramizdan avvalgi V asr grek haykaltaroshlik san'at asarlari mahobatli ko'rinishga ega bo'lib, ular, asosan, bronzadan yasaliib, keyingi davrdagi soxta rim nusxalaridan a'lo sifatlari bilan ajralib turgan.

Ilk klassika haykaltaroshligida eng e'tiborli bunyodkorlardan biri — **Pifagor Regiyskiydir** (er. av. 480–450-yy.). U ilk klassika haykaltaroshligi realistik san'ati rivojiga katta hissa qo'shgan haykaltaroshlardan biridir. Pifagor asli samoslik bo'lib, u Italiya-ning janubida Regiye shaharchasida ijod qiladi. Unga berilgan Regiyskiy taxallusi ham mana shu joy nomidan kelib chiqqan. Uning bronzadan ishlangan haykallarida, asosan, atletlar tasvirlanib, ular Olimpiya va Delfda qad ko'tarib turgan. Uning san'atida eng asosiysi — *insonning tabiiy haqqoniy harakatini real tasvirlashga intilish bo'lgan.* Pifagor kompozitsiya muammosini hal etishda dadil va kuchli novatorlardan hisoblanadi. U ishlarida *«uch o'lchamli»* qurilishni qo'llashi uning birdan-bir yutug'idir. Bu bilan u o'zining figuralarining harakatchan va egiluvchanligiga erishadi. U o'ta mahorat bilan figuralarning statik-turg'un holatdan harakatchan holatga o'tishini uddasidan chiqa olgan. Shunday

ishlaridan — *«Poygadagi chopqir»* nomli bronzadan ishlangan haykali rim nusxasida bizgacha yetib kelgan. Qadimiy manbalardan ma'lumki, uning *«Yaralangan Filoktet»* haykali shu davr kishilarini o'ta hayotiy va jonliligi bilan lol qoldirgan. Pifagorning *«Giasint»* yoki *«Erot Soranso»* haykali ayni vaqtda Ermitajda saqlanadi. Haykaltarosh yosh yigitning — Apollon tomonidan uloqtirilgan diskni kuzatayotganini tasvirladi. U bir oyog'ini ko'tarib tasvirlashgan, bunda uning butun gavda va tana og'irligi bir oyoqqa tushayotgani ko'zga tashlanadi. Insonni ana shunday birgina xatti-harakatda ko'rsatishning o'zi haykaltaroshning asosiy maqsadi bo'lgan. Bu arxaikaning jiddiy frontal, beharakat haykallariga nisbatan qarama-qarshi bo'lib, keyinroq, ularda realistik qirralar chuqur rivojlana bordi. Realizm esa hali arxaika san'atining so'nggi davridanoq ko'rina boshlagan edi. Shu bilan birga, Giasintning harakatida biroz keskinlik kuzatilib, mayinlik yetishmaydi. Soch turmagida, ya'ni yasalishida ham arxaikaga xos an'analar o'z-o'zidan singib ketishi kuzatiladi.

Pifagor san'atini o'rgangan tadqiqotchi Valdgauyer O.F. shunday yozadi: «Uning haykallarida inson jussasi misoli ikkiga bo'linib harakatlanadi: tananing quyi qismi avvalgidek holatda tursa, yuqori qismi esa shunday holatda beriladiki, ya'ni unda quyisi ham bir lahzada u bilan birga harakatda bo'ladi». Pifagor o'z san'atida *«xiazm»* usulidan unumli foydalangan. *Xiazm* — *har taraflamali xatti-harakatni qo'llash yoki qarama-qarshi holatdagi harakat*. Bunda yelkaning joylashuvi, bo'ksa va chanoq turli xil harakat va rakurslarda beriladi. Pifagor o'z asarlarida aynan shu usuldan keng va unumli foydalana bilgan. U xiazmni o'zining barcha asarlarida qo'llaydi. Masalan, *«Yaralangan Filoktet»* va *«Zirapchani sug'urayotgan bola»* kabi kompozitsiyalarida ham xuddi shu usuldan keng foydalangan.

Badiiy obrazni mujassamlashtirishda — falsafiy va estetik qarashlarning aks etishi, hayotiy haqqoniylik, real insonni qahramonona tipiklashtirish kabi masalalar — klassika san'atida yuzaga kelgan asosiy qirralardir. Ilk klassika san'atining umumjamoa tarbiyaviy roli ham uning haqiqatan badiiy jihatdan boyligi yoki yetukligi, obrazlarni atayin va qalbaki axloqiy soxtalashtirishdan

yroqligidadir. San’atdagi bunday qarashlar va tushunchalar inson obrazini yaratishda yangicha vazifalarni yoki muammolarni keltirib chiqardi. Shu bilan birga, yangicha go’zallik kategoriyasi ham vujudga keldi.

Yangicha estetik ideallarni yoritishda, ya’ni har tomonlama barkamol shaxs obrazini ochishda — «*Delf aravakashi*» nomli haykal muhim rol o’ynaydi. Delf aravakashi — eramizdan avvalgi V asrning II yarmiga tegishli haykal bo’lib, bizgacha haqiqiy original holda yetib kelgan bronzadan ishlangan haykaldir. Bu haykal Peloponnes haykaltaroshlari tomonidan xuddi Pifagor Regiyskiy haykallariga xos ohangda ishlangan bo’lib, mahobatli haykal turiga mansubdir. Delf aravakashining tashqi qiyofasida jiddiy suronli sipohlik mavjud, uning ruhiyatidagi sokin ulug’vorlik butun jussasini qamrab oladi, uzun libosi va tik turgan jiddiy beharakat holati o’ta tabiiy va haqqoniydir. Haykalda butun bir figuraning ajoyib ishlanishi, jozibasining realizmi shu bilan yakunlanadi. Grek musobaqalaridagi g’olib obrazi umumlashma va sodda berilib, undagi ko’z ilg’amas mayda detallar maromida ishlanib, u haykalning butun tashqi qiyofasiga mos ravishda ifodalanadi.

Ilk klassika haykaltaroshligidagi estetik ideallarining xarakterini yoritishda — «*Chaqmoq chaquvchi Zevs*» ning bronzadan yasalgan haykali ham o’zining butun borlig’i bilan namuna bo’la oladi. Bu haykal 1928-yilda Evbey oroli sohilidan topilgan. Bu mahobatli haykal balandligi 2 metrdan oshiq bo’lib, ilk klassikada o’zining ishlanishi bilan e’tiborli haykallardan biri bo’lgan. Zevs haykali Delf aravakashi bilan solishtirganda gavda-tana tuzilishi va yasalişhida ulkan realizmi, ya’ni haqqoniyliğı bilan farq qiladi. Uning xatti-harakatida ham haddan ziyod erkinlik mavjud. Haykalning keng ochilgan oyoqlari biroz bukilgan holatida intiluvchan harakatga yetkazilgan. Zevs haykalining qo’l qismi keng ochilgan holati juda maromiga yetgan va u bu haykalning umumiy ko’rinishiga urg’u berayotgandek. Qo’llar butun holda yetib kelmagan bo’lsa-da, uning o’ng qo’li orqaga qarata chaqmoq hosil qilishga qaratilgani seziladi, bir lahzada uni kim tarafga qarata otishi esa noma’lum. Zevsning baquvat tanasining mushaklari tarang tortilgan. Haykal shakl jihatdan puxta yasalganini qora

bronzada nur va soya o'yinlarining o'ziga xos o'yinidan bilsa bo'ladi. Haykalda, shuningdek, insonning umumiy qalb kechinmasi va haroratini ifoda etish kabi muammolar ham hal etilgan. Umuuman, bu haykal o'tgan davr namunalaridan keskin farq qilib, unda avvalgi davrga nisbatan inson tana tuzilishi va xatti-harakatini jonli yetkazish va muvozanatni ko'rsatishda ham bir qadam oldinga siljish kuzatiladi.

V asrning II yarmida ijod qilgan haykaltaroshlar haykalda murakkab ichki holatni yoki kechinmani ko'rsatishni hali bilmagani. Ammo uning tashqi qiyofasi va harakatida xuddi shunga o'xshash xislatlarni yetkazishga uringanlar.

Ammo *asarda dramatik xislatlarni yetkazishda* – «*Yaralangan Niobida*» haykali o'zining chuqur drammatizmi va ajoyib ishlanishi bilan e'tiborli. Bu haykal ayni vaqtda Rimdagi Term muzeyida saqlanib, u balki biror fronton kompozitsiyasining bo'lagidir.

Inson figurasining o'ta tabiiy, hayotiy va jonli ifoda etishlashini *Ksanflik Nereida* haykalida ko'rish mumkin. Bu haykal er. av. V asr o'rtalarida ioniy ustalari tomonidan ishlagan bo'lib, bunday haykallar Kichik Osiyoda bezatishda xizmat qilgan. Haykalning oyoq qismi profil holatda berilib, tanasining yuqori qismi bilan unchalik mos kelmagan. Biroq, tanasining yasalishi haddan ziyod jozibador va harir libosi ostida u sezilib turadi.

Ilk klassika haykaltaroshigida ortda qolgan arxaik san'at bilan yangi klassik an'analar qaror topayotgan bir davrda mifologik sujetlarning davom etishi – taxtga ishlangan «*Veneraning tug'ilishi*» nomli bo'rtma kompozitsiyada o'z ifodasini topgan. Ioni ustalari tomonidan ishlangan er. av. V asr II chi yarmiga tegishli. Ludovizi taxtining yon tomoni uchun yoki Afrodita haykali postamentiga mo'ljallangan bu bo'rtmada – dengiz ko'piklaridan tug'ilayotgan Afrodita yoki Venera tasvirlangan. Marmardan ishlangan bu kompozitsiyada Venera kiyimsiz holda va fleyta chalayotgan qizlar tasvirlanadi. Bo'rtmaning jonli va hayotiy ishlanishi sokin muvozanatlilik va tabiiyligi avvalgi davr bo'rtmalaridan keskin farq qiladi.

Shunday qilib V asr 50-yillardagi klassika haykaltaroshligi o'zining rivojida katta yo'lga qadam qo'ydi.

Olimpiyadagi Zevs ibodatxonasi boʻrtma kompozitsiyalari — ilk klassikadan yuqori klassikaga oʻtishda yaratilgan nodir namunadir.

Egina orolidagi Afina Afayi ibodatxonasidagi frontonning boʻrtma tasvirida greklarning troyaliklar bilan jangi tasvirlangan. Bu yodgorlik grek sanʼatining arxaik davridan ilk klassikaga oʻtishini koʻrsatadi. Kompozitsiyada tasvirlangan obrazlar birmuncha murakkab rakurslarda, har xil harakatda tasvirlangan, har bir obraz jonli va hayotiy ishlangan. Lekin shu bilan birga, yaralangan va jang qilayotgan jangchilar yuzidagi sunʼiy tabassurning mavjudligi, obrazlarning faqat fronton tekisligi boʻyicha joylanishi sanʼatkorning hali arxaika shartli uslubidan toʻla qutulmaganligini koʻrsatadi.

Ilk klassika davri meʼmorchilik kompozitsiyalarini boʻrtma tasvirlar bilan bezash sanʼati Olimpiyadagi Zevs ibodatxonasi boʻrtma tasvirlarida yuksak darajaga koʻtarildi. Ibodatxonaning metoplarida Geraklning qahramonligini aks ettiruvchi boʻrtma tasvirlar ishlangan.

Sharqiy frontonida gʻildirakli aravalarda musobaqalarning paydo boʻlishiga oid afsona, gʻarbiy frontonda esa xudo va qahramonlarning yovvoyi kentavrlar bilan jangi tasvirlangan.

Relyefda ishlangan odamlar obrazida xotirjamlik, oʻz kuchiga ishonch yaxshi koʻrsatilgan. Aksincha, kentavrlar holatlari — jahl, achchiqlanish va alamdanda oʻzlarini tuta bilmasliklari ularning yuzlari, xatti-harakatlarida ochib koʻrsatiladi. Kompozitsiyada jang tugallanmagan payti tasvirlangan boʻlsa ham, lekin uning insonlar foydasiga hal boʻlishi aniq. Obrazlarning xatti-harakati, oʻzlarini tuta bilishlari va xotirjamliklari shundan dalolat beradi. Asarning asosiy gʻoyasi inson aql-zakovatining tabiat ustidan gʻalabasini kuylashdir. Kompozitsiya markazida xotirjam, tik holda tasvirlangan nur va sanʼat xudosi Apollon qahramonlik, jasorat ramzi sifatida aks ettiriladi. Grek haykaltaroshligining xarakterli tomonlaridan biri shundaki, haykaltarosh oʻz mavzularini mifologiyadan olsa ham, lekin undagi fantastik, noreal tomon ikkinchi planga oʻta boshlaydi. Mifologik voqea va obrazlar orqali ijodkor insonning kuch-gʻayrati va qudrati, goʻzalligini ochib

ko'rsatadi. Bu o'rinda Afroditaning tug'ilishiga bag'ishlangan taxtga ishlangan relyeflar xarakterlidir.

Taxtning yon tomonida kiyimsiz holda nay chalib o'tirgan, ikkinchi tomonda harir matoga o'ralib o'tirgan holda, olovli idishga yoqimli is tarqatadigan giyoh, tashlayotgan qizlar tasvirlangan. Taxtning asosiy qismida esa dengiz ko'pigidan tug'ilayotgan Afrodita va uni asta ko'tarib olishayotgan parilar ko'rsatilgan. Afroditaning yuzi nihoyatda jonli chiqqan. Suvda ho'l bo'lgan libosning bo'kkan va og'irlashgan holati mahorat bilan ishlangan. Ilk klassika davri haykaltaroshligida katta yutuqlarga erishildi. Lekin hali grek haykaltaroshini shaxsning individual xislatlarini ko'rsatish qiziqtirmasdi. Bu ilk klassika realizmining chegaralanganligidir. Eramizdan avvalgi V asrning II yarmidan boshlab, Gretsiya siyosiy, iqtisodiy va madaniy ravnaqining oltin davrini boshidan kechirdi. San'atning hamma tur va janrlari rivojlanib, yuqori klassika davri kishilarining estetik ideal hayotidagi tushunchalarini mukammal badiiy obrazlarda ko'rsatdi.

YUQORI KLASSIKA DAVRI YUNON TASVIRIY SAN'AT VA ARXITEKTURASI (mil. av. 450–410-yy.)

Ma'ruza mazmuni:

Yuqori klassika davri. Yunon klassikasining eng rivoj topgan davri san'ati (eramizdan avvalgi V asr III choragi). Afinada demokratik quldorlik.

Haykaltaroshlik. Miron ijodi, uning asarlarining o'ziga xos tomonlari. Poliklet ijodi. Poliklet nazariyotchi sifatida. Fidiy. Uning ijodi, yaratgan asarlarining o'ziga xos tomonlari. Parfenon haykallari – metoplar, friz, frontonlar.

Eramizdan avvalgi V asrning II yarmi qadimgi grek san'atining alohida o'ziga xos gullagan davri bo'lib, bu davr «yuqori klassika» iborasi bilan qayd etiladi.

Yuqori klassika san'atida yetakchilikni Afina polisi o'ynab, bu polis o'sha davrda siyosiy-iqtisodiy jihatdan boshqa polislarga qaraganda rivojlangan, shuningdek, madaniyat va san'atda ham boshqa polislardan yuksalgan edi. Bu davr Afina san'ati boshqa



31-rasm. Akropol. Afina

polislar uchun namuna sifatida xizmat qilib, bu asosan, Afinaning siyosiy ta'sirida bo'lgan polislar uchun alohida ahamiyatli bo'ldi.

Yuqori klassika davrida Afina akropoli o'zining tugal ko'rinishini egalladi. Perikl tashabbusi bilan Afinaning ichki qal'asi – Akropol qayta tiklandi.

Bu qal'a Eron-Grek urushida vayron bo'lgan edi. Eramizdan avvalgi V asrning III choragida bu yerda oq marmardan yasalgan grek me'morchiligining nodir durdonalari bo'lgan Parfenon, katta darvozaxona – Propiley, qanotsiz g'alaba ma'budasi Nikega atab qurilgan ibodatxona (Niki Apteros) qad ko'tardi.

Bu binolar badiiy bezaklarga boy bo'lgan. Masalan, Propiley devorlari davlatning jangovor o'tmishini tasvirlovchi suratlar bilan bezatilgan, Akropolning ochiq maydonida Afina haykali o'rnatilgan. Afina akropoli Afina davlatining kuch-qudratini va ulug'ligini o'zida ifodalab, grek tarixida birinchi bor umumellin birligini namoyish etuvchi me'morchilik ansambli edi. Akropol tepaligining yon bag'irlarida qurilgan ibodatxona va tomoshaxonalar esa uni yanada mo'tabar, muqaddas dargoh darajasiga ko'targan. Grek klassikasi me'morchiligining beqiyos namunasi aql-zakovat va afinaliklar homiysi bo'lgan Afina ma'budasiga bag'ishlangan Parfenon ibodatxonasi hisoblanadi.

Yuqori klassika davri arxitekturasi

Bu davr me'morchiligi avvalgi davrga nisbatan beqiyos darajada rivojlandi. Endi nafaqat ibodatxona qurilishiga balki, eng avval grek polislarini qayta qurish ishlariga katta e'tibor berila boshladi.

Quldorlik polislarini qayta qurish va kengaytirish, ularda aniq muntazam tartibga solingan ko'chalar tizimini yaratish masalalari hal etildi. Shuningdek, vazifasi turlicha bo'lgan ijtimoiy va ma'muriy binolar ham keng o'rin egalladi.

Eramizdan avvalgi V asrning III choragi — me'morchilik san'ati insoniyat aql-u zakovatining tabiat ustidan g'alabasi sifatida namoyish etadi. Nafaqat shaharlarda, hatto chekka joylarda, dasht-u biyobonlarda ham, dengiz sohillarida ham jiddiy va puxta o'ylangan rejali qurilmalar qurilishi boshlandi. Bu davr me'morchiligida betartib, ahamiyatsiz joylar tartibga solinib, muntazam garmonik yechimga ega bo'lgan va atrof-landshaft bilan o'zaro bog'langan o'ziga xos me'moriy kompozitsiyalarni dunyoga keltirdilar. Afinadan 40 km chekkaroqda Sun'iyning baland tepaligida Attikaning sharqiy qismida er. av. 430-yilda — Dengiz xudosi *Poseydonga bag'ishlab ibodatxona qurildi*. U Elladaning faxriga aylandi.

Shu davr yetakchi me'morlari nafaqat alohida qurilmalar, balki, shaharsozlikka ham alohida e'tiborni qaratadilar. Perikl davrida ilk bor shaharning *muntazam tartibga solingan* (regulyarniy) loyihasi ishlab chiqildi. Bu yaxlit puxta o'ylangan rejaga asoslanadi. Masalan, Afinada Pirey harbiy va savdo porti kabi rejalashuv amalga oshdi. Pireyda boshqa qadimgi grek shaharlaridan farq qiluvchi katta ko'chalari bir xil kenglikka ega bo'lib, ular jiddiy ravishda parallel joylashgan. Uning burchaklarida qisqa va tor ko'chalar ko'ndalang kesishadi. Shaharning loyihalash ishlari er. av. 446-yilda miletlik me'mor *Gippodam* tomonidan ishlab chiqildi. Forslar tomonidan vayron qilingan Ioniya shaharlarini tiklashda yoki qayta qurishda bir maromda yoki tartibga solingan rejalashtirish masalasi ko'ndalang qo'yildi. Bu yerda me'morchilik tarixida birinchi marta — yaxlit rajalashuv amaliyoti qo'llanilib, Gippodam o'zining keyingi faoliyatida bu usulga butunlay amal qildi.

Loyihalashda, asosan, xuddi Pirey rejalashuvi kabi kvartallarga, ya'ni mavzelarga ajratish yo'lga qo'yilib, shu yerning joylik sharoiti va ob-havosi ham inobatga olindi. Yerning past-u balandligi va do'ngalaklari ham, shamolning qay tarafga esishi ham, shahardagi bosh umumjamo'a binolar ham hisobga olindi.

Afinada Perikl davrida eskicha nomuntazam loyihalashuv saqlanib qolingan bo'lsa-da, ammo shahar ko'plab yangi-yangi ajoyib qurilmalar bilan to'ldirila bordi. *Gimnaziyalar* — boy zodagonlar

bolalari uchun falsafa va adabiyotdan ta'lim beruvchi maktablar; *palestralar* – o'g'il bolalar uchun maxsus gimnastika zallari va hokazolar. Bunday umumjamo'a binolarining devorlari ba'zan mahobatli suratlar bilan ham bezatilgan. Perikl davriga xos eng ajoyib qurilmalardan biri – bu *Afina akropolidir*. U butun shahar uzra hukmronlik qiladi. Akropol forslar bilan olib borilgan urushlarda vayron bo'lgan bo'lib, undan faqat eski binolar qoldiqlari va singan haykal bo'laklari qolib, u ham Afina tepaliklarini yamashda asqotdi.

Er. av. V asrning III choragida bu yerda yangi qurilmalar qad ko'tarib, bular *Parfenon* ibodatxonasi, *Propileylar* va g'alaba ma'budasiga bag'ishlangan qanotsiz *Nike* ibodatxonasidir. Bu ansamblni yakunlovchi *Erexteyon* ibodatxonasi esa sal kechroq Peloponnes urushi arafasida qad ko'tardi.

Akropol tepaligida – afinaliklarning asosiy bosh ibodatxonasi bo'lmish – Parfenon joylashib, u Afina ma'budasiga bag'ishlab qurildi. Bu ibodatxonada afinaliklarning xazinasini va badiiy boyliklari ham saqlangan.

Propiley esa Akropolga kirish darvozasi vazifasini o'tab, uning binosida kutubxona va suratlar galereyasi – pinokoteka joylashgan.

Akropolning baland tepaligida butun polis ahli yig'ilib, unda Dionis xudosining hosildorlik bayramini o'tkazishgan, har xil diniy teatrlashgan sahnalar uyushtirilib, chiqishlar qilingan. Akropolning yassi ketma-ket balandlikdagi joylashgan qoyalari o'z o'rnida undagi qurilmalarni ko'z-ko'z qilishda zinopoya vazifasini o'taydi.

Me'morchilik bilan manzara uyg'unligi grek san'atining xarakterli belgisidir. U yuqori klassika san'atida o'zining davomiy rivojini topdi. Grek me'morlari o'zlarining ibodatxonalarini yoki boshqa qurilmalarni qurishda ajoyib joylarni tanlay bilganlar. Ibodatxonalar baland tepalikda yoki tog' yon bag'irlarida yoki bo'lmasa ikki tog' oralig'ida qad ko'targan.

Akropolning Perikl davridagi loyihalash va qurilish yuqorida qayd etilgandek, puxta o'ylangan yaxlit loyihalashga asoslanib, qisqa muddat ichida mashhur haykaltarosh Fidiy boshchiligida amalga oshdi. Agar Erexteyonni hisobga olmaganda u ham er. av. 406-yilda yakunlangan. Akropolning butun asosiy qurilmalari

er. av. 449-yildan to 421-yilga qadar qurib bitkazildi. Qayta qurilgan Akropol Afinaning nafaqat harbiy dengiz kuchining qudratini yoki grek quldorlik demokratiyasining g'oya va qarashlarini namoyish etgan, balki grek tarixida ilk bor umumellin jamiyatining g'oyasi va qarashlarini o'zida aks ettirgan. Perikl davridagi Akropol ansambli tantanavor sokin ulug'vorligi va ajoyib chiroyi bilan kishini maftun etadi. Akropolning loyihasi to'g'risida umumjamo'a bayramlarida aks ettirilgan tantanavor bayramona harakat va jarayonlar orqali bilish mumkin.

Katta Panafina bayramida afinalik qizlar Grek polisi nomidan Afina ma'budasiga sovg'a-salom va boshqa narsalar keltirganidagi g'aroyib voqealar hamda chiqishlar akropolning *g'arb* tomonidan boshlanadi. Yo'l esa yuqori tomon, ya'ni akropolning tantanavor kirish qismi – Propiley tomon boshlanadi. Propiley me'mor *Mnesikl tomonidan 437–432-yilda qurilgan.*

Shahar tomon qaragan doriy orderli Propileyning ikki tamoni-dagi qanot singari qurilgan binolar o'lchami ikki xil. Chap tamondagisi kattaroq. O'ng tamonidagi kamchilik esa tog' qoyasiga singdirilgan kichkina Nika ibodatxonasi hisobiga to'ldirilgan. To'liq nomi «Nika Apteros» ibodatxonasining, tarjimasiz Nika (Nikaning qanotsiz ma'buda timsolida ko'rsatilishining sababi, u hech qachon Afinani tark etmasin yoki uchib ketmasin degan ma'noda). Bu hajm jihatdan ixchamgina, pishiq qurilgan bino *me'mor Kallikrat* tomonidan qurilgan. Nika Apteros Akropolda boshqa qurilmalardan pastroqda joylashib, u kirish qismida turli harakat va jarayonlarni kutib olgan. Ibodatxona me'moriy makondan keskin ajralib, uning har ikki chekkasidagi bir tekis ioniy ustunlari amfiprostil usulida qurilib, qurilmaga joziba baxsh etadi.

Propiley hamda Nike Apteros ibodatxonasi joylashuvida Akropolning past-baland do'ngalaklaridan ustalik bilan foydalanilgan. Propileyning ikkinchi doriy ustuni bilan bezalgan qanoti yanada yuqoriroq joylashib, turli xil voqealar o'tayotganda xuddi ularni yanada yuqori tomon chorlaydi. Propileyga kirishdagi ichki makon ioniy kollanadallari bilan bezatilgan. Akropolni qurishda, asosan, ikki xil – ioniy va doriy orderlaridan unumli foydalanilgan.

Akropolning maydonida Propiley, Parfenon va Erexteyonning oralig'ida balandligi 7 metr keladigan *Afina Pramaxos* (Jangchi Afina) bronzali haykali qad ko'tarib turadi. U er. av. V asr o'r-talarida haykaltarosh Fidiy tomonidan ishlanib, yangi ansamblga qadar ham bor bo'lgan.

Akropolning asosiy binosi Parfenon esa Propileydan qiyaroqda joylashgan.



*32-rasm. Iktin va Kallikrat. Parfenon ibodatxonasi.
Umumiy ko'rinish. Er. av. 447–438-yillar*

Bayramona chiqishlar Parfenonning shimoliy kolonnadasi tomon siljib, uning asosiy sharqiy fasadiga boshlaydi. Parfenonning bahaybat binosi atrofdagi Erexteyonga o'xshash kichik qurilmalarga salobat baxsh etadi.

Eramizdan avvalgi 447–438-yillarda me'morlar Iktin va Kallikrat tomonidan qurilgan bu ibodatxona afinaliklarning xazinasini saqlash uchun xizmat qilgan. Parfenon ibodatxonasining bezak va haykallari esa davrning buyuk haykaltaroshi, Periklning yaqin safdoshi *Fidiy* rahbarligida (mil. av. 432-yilgacha) bajarilgan. Parfenon akropoldagi eng baland binodir. Bino uchun, asosan,

doriy uslubida ishlangan peripter qabul qilingan, lekin unga qisman ion orderining elementlari kiritilgan. Parfenon uzunasiga 17 ta ustunni old va orqa taraflarida 8 tadan ustunni tashkil qiladi. Binoning o'lchami — 31x70 metrni egallaydi. Ustunlarining balandligi — 10,5 metrni tashkil qiladi. Parfenon nafaqat grek klassika me'morchiligining eng yetuk va tugal qurilmasi, balki butun insoniyatning nodir me'moriy yodgorligi sifatida ham alohida o'rin egallaydi. Bu mahobatli me'moriy qurilma Akropol uzra qad ko'tarar ekan, faqat Parfenon emas, balki Akropolning o'zi butun atrof tabiat uzra shahar ustidan hukmronlik qiladi. Parfenon Pendilikon tog'idan keltirilgan marmardan qurilgan. Marmar bo'laklari quruq holda yotqizilgan.

Parfenon kolonnadalari o'tgan doriy nusxadagi ibodatxonalarga qaraganda zich terilmay, balki toshlarning orasi bo'shroq terilgan. Antablementi esa ancha yengil, shu sabab ustunlari to'sinlarini bemalol ko'taradi. Undagi «kurvatura» — antablement va stilobatning bo'y barobar chizig'i qing'ir yoki sust, u qadar ko'zga tashlanmaydi. Shuningdek, ichki qismidagi egilgan yoki og'ib turgan ustunlari har qanday qup-quriq geometrik ko'rinishga barham berib, shu bilan birga, qurilmaning me'moriy kompozitsiyasiga ham birmuncha joziba baxsh etadi. Bunday geometrik aniqlikdan chekinish, albatta, hisob-kitobi puxta o'ylanganidan dalolat beradi.

Tarzning markaziy qismi fronton bilan bezatilgan. Kolonna va antablementi katta kuch bilan og'irlik tushayotganini yaqqol sezdirib turadi. Parfenonni qurishda ishlatilgan qurilish ashyolari bo'yash uchun qulay bo'lib, uning tashqi qiyofasidagi ba'zi konstruktiv detallarni bo'rttirib ko'rsatishda qulaydir. Uning rang-barang fonida metop va frontonida — haykaltaroshlik guruhlar ham ajralib ko'zga tashlanadi. Shunday qilib, ko'ndalang bo'y cho'zgan antablementi va metoplari — qizil rangda; trigliflar va uzunasiga antablementdagi bo'y cho'zgan bo'laklar — ko'k rangda; nozik jilvali yaltiroq tilla ranglar esa unga yanada tantanavorlik va fayz baxsh etadi.

Asosan, doriy orderidan tashkil topgan Parfenon ioniy orderining ba'zi elementlarini ham o'zida mujassamlashtiradi. Bu esa

klassika davriga xos intilishning belgisidir. Akropol yaratuvchilari doriy va ioniy orderi an'analarini uyg'unlashtirishga harakat qilganlar. Bunga yaqqol misol tariqasida *ioniycha zaforning*, ya'ni frizning qo'llanilishidir. Ioniycha zafor naosning tashqi tomonida peripterning doriy kolonnadasi uzra gir aylangan. Parfenonning ichki qismidagi zal naos ortidagi zal – to'rtta ioniy orderi bilan bezatilgan.

Parfenon qarshisidagi Erexteyon ibodatxonasi me'mor *Mnesikl* tomonidan eramizdan avvalgi IV asrda qurilgan bo'lib, unda ion orderi ishlatilgan. Ibodatxona kichik peshayvonining ustunlari o'rnida peshayvon tomini ko'tarib turgan qizlar haykali – kariatidalar ishlatilgan.



33-rasm. Erexteyon

Haykaltaroshlik. Bu davrga kelib, haykaltaroshlik yuksak kamolot davriga qadam qo'ydi. Haykaltaroshlar endilikda odam qomati va yuz tuzilishini to'g'ri tasvirlabgina qolmasdan, o'z asarlarida murakkab harakatlarni ham ifodalashga, kompozitsiya yechimini hayotiy bo'lishiga alohida e'tibor bera boshladilar. Shunday masala bilan shug'ullangan yirik haykaltaroshlardan biri Miron hisoblanadi. Uning mashhur asarlaridan biri «Diskobol» (Disk otuvchi) haykalida jismoniy go'zal, ma'naviy kuchli ideal inson obrazi yaratilgan.

Haykaltarosh disk otuvchi obrazi orqali o'zini boshqara oladigan, «har qanday holda o'zini tuta biladigan» odam qiyofasini gavdalantirib, greklarning ideal inson to'g'risidagi tushunchasini ifodaladi. O'z-o'zini tuta bilish, hissiyotini ushlay bilish, har bir narsaga xotirjam, aql bilan yondashish grek klassikasi dunyoqarashining xarakterli tomonini belgilaydi. Ana shu g'oya Miron ijodining bosh yo'nalishidir. Shu xususda san'atkorning «Afina va Marsiy» deb nomlangan kompozitsiyasi ham xarakterlidir.



34-rasm. Miron. Disk otuvchi (diskobol).

Er. av. V asr o'rtalari.

Rim ko'chirmasi.

Rim. Term muzeyi

Afsonalarga ko'ra, nayni yaratgan Afina ma'budasi uni chalganda yuzlari burishib, badbashara bo'lib ketganini ko'rib, *nimfalar* qattiq qahqaha ko'tarib yuboribdi. Buni sezgan Afina achchiqlanib nayni uloqtirib yuboribdi. Yovvoyi kuchlar ma'budi Marsiy Afinaning la'natlagan nayini olmoqchi bo'libdi, lekin Afinaning darg'azab bo'lganligi va qarq'ishlaridan cho'chib, yana orqaga qaytibdi. Ana shu holat haykaltarosh tomonidan kompozitsiyada aks ettirilgan. Tasvirlangan xarakterlar, ularning xatti-harakati bir-biriga qarama-qarshi. Ulug'vor, xotirjam Afina o'z xatti-harakatini boshqara olmaydigan, beo'xshov Marsiyga o'xshamaydi. Uning g'azabi nafrat bilan burilib turgan qomati va biroz cho'chchaygan labidan bilinadi, xolos. Agar Miron o'z asarlarida kuchli va keskin harakatni tasvirlash va bu bilan inson ma'naviy go'zalligini ifodalashga intilgan bo'lsa, shu davrning buyuk haykaltaroshi, Peloponnes maktabining vakili *Poliklet* esa aksincha, xotirjam, tinch holatda turgan inson qiyofasida uning ichki ma'naviy olamini ochishga intiladi. Poliklet nazariya bilan ham shug'ullangan. Uning «Kanon» deb nomlangan risolasida ideal shaxs nisbatlari, simmetriya qonunlari to'g'risida fikr yuritiladi. Shu kanon asosida yaratilgan «Dorifor» («Nayzabardor») asari

uning shu davrdagi izlanishlarini namoyish etadi. Bu asarda harakat va osoyishtalik bir-biri bilan uyg'unlashib ketgan. Qo'lida nayza ushlagan holda yengil, shoshilmay odimlab kelayotgan kishi tasvirlangan. Uning kuchli yelka, qorin va oyoq mushaklari jismoniy baquvvatligini ifodalaydi. Bu haykal greklarning ideal inson go'zalligini tarannum etuvchi asar sifatida talqin qilish namunasi bo'lib qoldi. Bu haykaldan ko'chirilgan namunalar qadimgi Elladaning juda ko'p shahar maydonlariga o'rnatilgan va odamlar taqlid qilishi uchun ideal bo'lgan. Uning asarlari xarakteri, mazmun va pafosi shu davr yozuvchisi Lukinning: «Biz hammadan ko'proq fuqarolarning ma'naviy go'zal va jismoniy baquvvat bo'lishiga harakat qilamiz: bunday odamlar tinch hayot vaqtida birga yaxshi yashaydilar va urush paytida davlatni yaxshi himoya qiladilar va uning erkinligi, baxtini muhofaza qiladilar», – degan fikrlariga to'la monandir.

Genial yunon haykaltaroshi *Fidiy* o'z asarlarida greklarning jasurligi, eronliklar ustidan erishgan g'alabasini aks ettiruvchi haykallar ishlagan. Uning ijodida Afina demokratik quldorlik jamoasi kishilarining yuksak estetik ideali o'zining to'liq badiiy ifodasini topgan. Qadimgi yozuvchilarning fikriga ko'ra, uning ilk asarlari oltin va fil suyagidan ishlangan. V asrning 70-yillarida afinaliklar buyurtmasiga ko'ra, Fidiy Marafon jangini ulug'lovchi ko'p figurali kompozitsiyani ishlagan. Eramizdan avvalgi 460-yillarda Apollonning katta bronza haykalini, eramizdan avvalgi 460–450-yillarda esa mashhur jangchi ayol Afina haykalini yaratdi. Lemnos oroli uchun ham Apollon haykalini ishladi. Perikl topshirig'iga binoan, eramizdan avvalgi 447–439-yillar mobaynida Afina akropolini qayta tiklash va bezashda rahbarlik qildi. Parfenon ibodatxonasining haykaltaroshlik asarlari ansambli jahon san'atining nodir durdonasi hisoblanadi. Bu asarlar o'zining beqiyos badiiy yaxlitligi va mantiqiy tugalligi bilan xarakterlanadi. Parfenon relyeflarida afinaliklarning jasorati o'zining badiiy ifodasini topdi. Uning sharqiy frontonida Afina ma'budasining tug'ilayotgan payti, g'arbiy frontonida Poseydonning Attikaga (Afina polisi Attika viloyatida bo'lgan) kim homiy bo'lishi to'g'risida munozara qilayotgani tasvirlangan. Metoplarda ham miflardan olingan voqealar

aks ettirilgan. Sharqiy friz metoplarida xudo va gigantlar kurashi, shimoliy tomon metoplarida Troyaning vayron bo'lishi, g'arbiy tomonida esa greklarning amazonkalar bilan jangi tasvirlangan. Lekin bu kompozitsiyalarning asosiy mazmuni va g'oyasi davr bilan, uning ruhi bilan bog'liq bo'lib, greklarning eronliklar ustidan erishgan g'alabasini poetik talqin etishga, insonning tabiat kuchlari ustidan g'alabasini tarannum etishga qaratilgan.

Fidiy bir qancha monumental dumaloq haykallar muallifi hamdir. Uning akropoldagi oltin va fil suyagidan ishlagan Afina haykallari, Olimpiyadagi Zevs haykali, ayniqsa mashhurdir.

SO'NGGI KLASSIKA DAVRIDA TASVIRIY SAN'AT VA ARXITEKTURA

Ma'ruza mazmuni:

So'nggi klassika davri. Yunon klassikasining so'nggi davrdagi san'ati (eramizdan avvalgi V asr oxiri — eramizdan avvalgi IV asr). Polislarning inqirozga yuz tutishi. Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarning san'atga ta'siri. Bu davr me'morchiligi va uning o'ziga xos tomonlari. Yaratilgan yetuk me'morchilik yodgorliklari, ularning badiiy va konstruktiv tuzilishi (Lisikrat yodgorligi, Galikarnaz mavzaleyi, Epidavrdagi teatr binosi).

Tasviriy san'at. San'atda realistik izlanishlarning murakkablashishi. Insondagi turli ruhiy holatlarni ochib berish. Rang-tasvirda realistik izlanishlar. Haykaltaroshlikning bu davrda tutgan o'rni. Bu davrning yetuk haykaltaroshlari, ular ijodining o'ziga xos tomonlari. Skopass ijodi. Praksitel ijodi. Uning asarlarining o'ziga xos tomonlari. Yetuk asarlar. Yunonistonning Makedoniyaga tobe bo'lishi. Bu davrdagi ijtimoiy ideal. Lisipp ijodi. Uning mashhur asarlari — Apoksimen, Aleksandr Makedonskiy portret haykallari. Leoxar ijodi. Uning Belveder Apoloni.

Eramizdan avvalgi V asr so'ngiga kelib, quldorlik demokratiyasi inqirozga yuz tuta boshladi. Arzon qo'l mehnatining ko'payishi erkin grajdanlar-dehqon va hunarmandlarning ahvolini og'irlashtira boshladi. Ular arzon qo'l mehnati bilan raqobatda bo'la olmas edilar. Mulkiy tengsizlik keskinlashdi, sotsial konflikt kuchaydi. Afina va Peloponnes orasida boshlangan o'zaro urush bu inqirozni yanada kuchaytiradi. Makedoniyalik Aleksandr bu

inqirozdan foydalanib, grek polislarini o'z davlatiga qo'shib oldi, shu bilan klassika davri o'zining umrini tugatdi. Polislarining inqirozga yuz tutishi san'atda ham yuksak ideallarning yo'q bo'lishiga, inson kuchi va go'zalligiga bo'lgan ishonchning yo'qolishiga sabab bo'la boshladi. Endilikda shaxsiy manfaat ijtimoiy manfaatdan ustun kela boshladi. Albatta, bu davrda inson qiyofasini tasvirlash, uning go'zalligini kuylash san'atda bosh mavzu bo'lib qoldi, lekin san'atkor endilikda murakkab inson qiyofasini, uning ichki olamini yoritishga ko'proq e'tibor bera boshladi. Insondagi ikkilanish, cho'chish hollarini ko'rsatishga intilish paydo bo'ldi. Me'morchilikda ham o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ibadatxonalar qurilishi kamaydi, aksincha, katta tomoshohohlar, ijtimoiy binolar yaratildi. Epidavrdagi teatr shu o'rinda e'tiborga loyiq.

Tepalik yon bag'riga ishlangan bu teatr bir vaqtning o'zida bir necha ming tomoshabinni sig'dira olgan. Uning bizning davrgacha yetib kelgan qoldiqlari hamon kishilarni hayratlantiradi. Bu davrda qurilgan binolar, asosan, boy zodogonlarning buyurtmasi va didi asosida ishlangan. Shunday yodgorliklardan Galikarnasdagi afinalik boy Mavsola maqbarasi, Lisikrat tomonidan o'rnatilgan me'morchilik kompozitsiyasini ko'rish mumkin.



35-rasm. Bosra shahridagi teatr

Galikarnasdagi boy, san'at homiysi Mavsolaning maqbarasi bezakka boy va me'moriy kompozitsion yechimining o'ziga xosligi bilan xarakterlansa, Lisikratning yodgorligi o'zining bejirim yechimi, shu bilan birga, ulug'vorligi va monumentalligi bilan o'z davri yodgorliklari ichida ajralib turadi.

So'nggi klassika davri haykaltaroshligida realistik tomonlarining kuchayishi bilan xarakterlanadi. Haykaltaroshlar o'z qobiliyati, dunyoqarashi va imkoniyatlaridan kelib chiqib, inson ma'naviy olamining turli qirralarini yoritib boshlaydilar. Bu xususiyat so'nggi klassika davrining buyuk haykaltaroshlari *Skopas, Praksitel, Lissipp* va boshqa qator ijodkorlar asarlarida ko'rinadi.

Davr ziddiyatlari, san'atda sodir bo'layotgan o'zgarishlar Skopas ijodida o'z aksini topdi. U yuqori klassika an'analarini davom ettirib, monumental, qahramonlik ruhi bilan sug'orilgan haykaltaroshlik kompozitsiyalarini ishladi, lekin asarlarida yuqori klassikaga xos xotirjamlik, ulug'vorlik, vazminlik emas, balki serg'ayrat, kuch-quvvatga to'la ichki his-hayajonini yashira olmaydigan, kurash ruhi bilan to'lib-toshgan kishilarning ko'rinishi, ma'naviy ichki dunyosi ochib ko'rsatiladi. Skopasning mashhur asarlaridan biri «Menada» (*Vakxanka*, Dionisning umr yo'ldoshi) haykalidir. Unda raqs dunyosiga cho'mgan, maftun bo'lgan Menada holati tasvirlanadi.

Menadaning berilib raqsga tushayotgan holati orqaga tashlangan bosh harakati, spiralsimon burilgan gavda orqali ochib berilgan. Obrazning har tomonlama idrok etilishining hisobga olinishi ham Skopas ijodini avvalgi davr san'atidan farqlaydi. Haykaltarosh odamlarning jismoniy va ruhiy azoblanishlarini juda ishonarli tasvirlaydi. Shu xususda, Tegaydagi ibodatxona uchun ishlangan «Yarador bo'lgan jangchi» haykali xarakterlidir.

Keskin burilgan bosh, yuqoriga qaragan ko'z, pastga tushgan qosh va



36-rasm. Skopas. Menada

azobdan ingrayotgandek qilib tasvirlangan lab jangchining ruhiy azobini ifodalashga xizmat qilgan. Ijodkorning bizgacha o‘z originalida yetib kelgan Gelkarnas maqbarasi bo‘rtma tasvirlari ham mashhurdir. Bu maqbara relyeflarini Skopas haykaltaroshlar Timofey, Leoxar va Briaksislar bilan hamkorlikda ishlagan. Greklarning amazonkalar bilan olib borgan janglariga bag‘ishlangan bu kompozitsiyada odamlarning ma’naviy qiyofasidagi nozik o‘zgarishlar — qo‘rqinch, vajoxat, nido san’atkorlar tomonidan yuksak mahorat bilan aks ettirilgan.

Skopas zamondoshi **Praksitel** insonning jismoniy go‘zalligini tasvirlashda mashhur bo‘lgan. U grek haykaltaroshlari ichida birinchi bo‘lib ideal ayol qomatini ishq-muhabbat va go‘zallik ma’budasi Afrodita obrazida aks ettirdi. Afroditaning suvga tushishga tayyorlanib, yonidagi turgan vaza ustiga kiyimlarini tashlamoqchi bo‘lib turgan payti Praksitel asarida tasvirlangan. Grek plastikasida kiyimsiz holda tasvirlangan birinchi ayol haykalida ma’buda obrazi orqali, eng avvalo, yosh va sog‘lom ayol qomati, uning plastik go‘zalligi tarannum etiladi. Asar o‘zining hayotiyiligi, tanlangan nisbatlarning o‘zaro uyg‘unligi va shakllarning o‘zaro garmonik yechimda olinishi bilan katta taassurot qoldiradi. Afrodita haykali Knid oroli sohiliga o‘rnatilgan bo‘lib, shuning uchun ham «Knid Afroditasi» deyiladi.

Praksitel zamondoshlari bu haykalga yuqori baho berib, uni ziyorat qilish uchun odamlar uzoq-uzoqlardan Knid oroliga kelganliklari haqida yozishgan. «Knid Afroditasi» san’atkorlarni ham maftun etgan. Unga taqlid qiluvchilar ko‘plab Afrodita haykallarini yaratganlar. Lekin ularning haykallari beg‘ubor tuyg‘ular uyg‘otuvchi asar darajasiga ko‘tarilmagan. Praksitelning bizgacha o‘z aslida yetib kelgan yagona asari «Dionisni ko‘tarib turgan Germes» haykalidir.




37-rasm. **Praksitel.**
Knid Afroditasi

Afsonalarga ko‘ra, Zevs yangi tug‘ilgan o‘g‘li Dionisni o‘rmonda yashovchi nimfalarga tarbiyaga berishni Germesga topshirgan. Charchagan Germes yo‘lda to‘nkaga tayangan

holda hordiq chiqarish uchun to'xtagan. Kompozitsiyaga shu sujet asos qilib olingan. Asarda yuqori klassikaga xos bo'lgan jasurlik, jiddiylik yoki salobatni ko'rmaymiz (Miron yoki Poliklet asarlarini eslang), aksincha, obraz o'zining nafis, shoirona talqin etilishi bilan xarakterlanadi. Haykaltaroshni Germesning kelishgan, kuch-quvvatga to'la baland bo'yli qomati, yoshlik nafasati, harakatidagi plastik go'zallik qiziqtiradi. Praksitel marmarda juda ko'p ishlagan. Marmardagi nur-soya o'yinlarining emotsional kuchi, fakturasi orqali inson gavdasini, terisining tiniq va duxoba kabi mayinligini hamda insondagi istara va hayotiylikni ochishga intilgan. Praksitelning «Saurokton Apolloni» haykali mifologik mavzuda ishlangan bo'lsa ham, unda realistik tomon kuchli. Praksitel mayda plastikada ham ijod qilgan. Uning terrakotalarida ham poetik ruh yaxshi saqlangan.

Agar Skopas va Praksitel ijodida hali yuqori klassika an'analari o'ziga xos yo'nalishda davom etgan bo'lsa, eramizdan avvalgi IV asr III choragining so'ngida bu aloqa va bog'lanishlar susaya beradi. Ellinizmga o'tish davrida san'atda turli badiiy yo'nalishlar paydo bo'ldi. Bu yangi xususiyatlarni idealistik yo'nalishning vakili **Leoxar** va realistik yo'nalishning vakili **Lisipp** ijodida ko'rish mumkin. Haykaltarosh Leoxarning Belveder Apolloni (taxminan er. av. 340-yillar) mashhur asarlardan hisoblanadi. Yuqori mahorat bilan ishlangan bu haykaldagi obraz o'ta beparvoligi va birmuncha sovuqqonligi bilan ajralib turadi.

Grek klassikasi bilan ellinistik davr chegarasida yashab ijod etgan buyuk haykaltaroshlardan biri **Lisipp** hisoblanadi. U makedoniyalik Aleksandr davri mafkurasining targ'ibotchisidir. Lisipp o'z ijodida jismoniy baquvvat va irodasi kuchli shaxslarni e'zozlaydi va ularni ko'proq charchagan va dam olish paytida tasvirleydi. Uning mashhur asarlaridan biri Apoksiomen haykalida shu xarakter namoyon bo'ladi. Sportchining bo'lib o'tgan musobaqadan keyin hayajonli damlarni eslash, shu bilan birga, jismoniy charchash holati



38-rasm.
Lisipp maktabi.
Yevripid.
Rim nusxasi

ochib berilgan. Bu holat atletning xorg'in yuzi, terda yopishgan soch va turishdagi bo'shanglik orqali ishonarli talqin etilgan. Uning «Dam olayotgan Germes» asarida ham xudolar xabarchisi bo'lgan Germesning xordiq paytidagi holati, yuzidagi mimik holat, qo'l va gavda harakati orqali ochiladi.



39-rasm. Lisipp.
Aleksandr
Makedonskiy

Lisipp portret janrida ham samarali mehnat qildi. Uning «Aleksandr Makedonskiy» portretida irodali, jasur shaxsning iztirob chekish payti aks ettiriladi. Lisipp nazariya bilan ham shug'ullangan. U ham Poliklet singari ideal inson nisbatlarini topishga harakat qilgan, u ideal inson obrazini baland bo'yli, serg'ayrat hamda harakatda ko'rgan va shunday tasvirlagan. So'nggi klassika davrining oxirlariga kelib, haykaltaroshlik san'atida realistik jarayonlar kuchaydi, tanqidiy realizm elementlari yanada ortdi.

Bu xususiyat Lisipp shogirdlari ijodida muhim o'rinni egalladi. Shunday qilib, klassikaning so'nggi davrida san'atkorlar konkret voqelikka ko'p e'tibor berib, shaxsning individual xislatlarini to'laqonli ochishga intilib borishlari bilan asta-sekin klassika davridagi, umumlashma obrazlar yaratish masalasi ikkinchi planga o'ta boshladi, san'atning tarbiyaviy tomoni ham inqirozga yuz tuta boshladi.

Rassomlik, amaliy san'at. Klassika davri rassomligi namunalari bizgacha yetib kelmagan. Biz qadimgi mualliflarning (Pavsanii, Apollodor, Pliniy) yozib qoldirgan manbalari hamda kulolchilik buyumlarining yuzasiga ishlangan suratlar orqali shu davr rassomlik san'ati haqida tassavvurga ega bo'lamiz.

Italiya, Bolgariya, Makedoniya hamda Sharqiy Yevropaning janubiy tomonlari (Qora dengiz sohillari)da keyingi paytlarda o'tkazilgan arxeologik qazilmalar natijasida topilgan devorlarga ishlangan surat va mozaika grek san'ati mavzusi, xarakteri to'g'risida ma'lumot beradi. Bu suratlarda ko'proq mifologiyadan olingan voqealar aks ettirilgan bo'lib, afsonaviy qahramonlarning

mo'jizalari, jasoratlari kuylangan. Devoriy suratlar «alfresko» uslubida ishlangan.

Klassika davrida realistik tamoyillarning kuchayishi natijasida vazaga surat solish san'ati ham mukammallashib bordi. Asosan, vazaga qizil figurali rasmlar ishlash klassika davrida yetakchi rol o'ynadi. Vazaga solingan suratlar tematikasida mifologiyadan olingan sujetlar ko'proq bo'lsa ham, lekin zamonaviy masalalarni yoritish san'atkorlarning diqqat markazida bo'lgan. Shunday rassomlar ichida Polignot, Apelles nomi mashhurdir. Polignot tarixiy va mifologik mavzularda juda ko'p suratlar ishlagan. Klassika davrida amaliy san'at rivojlanishda davom etdi. Vazalar shaklining rang-barangligi ortdi. Ularning yuzasiga rasmlar solish bilan birga, turli bo'rtma tasvirlar ham tushira boshladilar. Rang berishda ham erkinlik sezila boshladi. Xromatik ranglar imkoniyatidan keng foydalanila boshlandi. Kumush, bronzadan turli idishlar ishlandi. Oltin suvi yuritilgan buyumlar maishiy hayotda keng qo'llanila boshlandi.

So'nggi klassika shu yutuqlarga yakun yasadi, asta-sekin vazaga gul solish san'ati inqirozga yuz tuta boshladi. Undagi individual o'ziga xoslik, fazilatlar yo'qola bordi. San'at hunarmandlik darajasiga tusha bordi. Bu, so'zsiz, umumellin ijtimoiy-siyosiy, madaniy inqirozi natijasi edi.

Seminar savollari:

1. Yunon klassika san'atining o'ziga xos xususiyatlari va uning keyingi jahon san'atiga ko'rsatgan ta'siri.
2. Pestumdagi Gera ibodatxonasi, Olimpiyadagi Zevs ibodatxonasi ilk klassika davri namunalari sifatida.
3. Olimpiyadagi Zevs ibodatxonasi bo'rtma tasvirlari kompozitsiyalari.
4. Egina orollaridagi Afina, Afayi ibodatxonasi frontonlariga ishlangan haykallar.
5. Afina Akropoli me'morchilik inshootlari tahlili.
6. Miron ijodi, uning asarlari tahlili.
7. Poliklet ijodi. Poliklet tasviriy san'at nazariyotchisi sifatida.
8. Fidiy ijodi. Yaratgan asarlarining o'ziga xos tomonlari. Parfenon haykallari – metopa, friz, frontonlar.
9. Lisipp klassika davrining oxirgi haykaltaroshi sifatida.
10. So'nggi klassika davri arxitekturasi uslubiy jihatlardagi o'zgarishlar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR

1. İlk klassika davri Qadimgi Yunoniston arxitekturasi va tasviriy san'ati.
 2. Ривкин Б.И. Античное искусство. – М.: 1972. С. 105–128.
 3. Колпинский Ю.Д. Искусство Эгейского мира и Древней Греции. – М.: 1970. С. 50–55.
 4. Соколов П.И. Искусство Древней Греции. – М.: 1980. С. 84–108.
 5. Акимова Л.И. Искусство Древней Греции. Классика. СПб.: 2007. С. 7–122.
 6. Колпинский Ю.Д. Великое наследие античной Эллады и его значение для современности. – М.: 1988. С. 87–98.
 7. Всеобщая история архитектуры в 12 томах. Том 2. Древняя Греция и Древний Рим. – М.: 1973.
 8. Delfdagi Apollon va Olimpdagi Zevs maqbaralarida ibodatxonalar arxitekturasi.
 9. Акимова Л.И. Искусство Древней Греции. Геометрика. Архаика. СПб.: 2007. С. 235–243 (святилище Аполлона в Дельфах).
 10. Акимова Л.И. Искусство Древней Греции. Классика. – СПб.: 2007. С. 51–71 (Святилище Зевса в Олимпии).
 11. Колпинский Ю.Д. Великое наследие античной Эллады и его значение для современности. – М.: 1988. С. 89–90. (Святилище Зевса в Олимпии).
 12. Соколов Г.И. Дельфы. – М.: 1972.
 13. Соколов Г.И. Олимпия. – М.: 1980.
 14. Afīnadagi akropol majmuasi: badiiy va g'oyaviy yechimi, asosiy qurilmalari, haykaltaroshligi.
 15. Всеобщая история архитектуры в 12 томах. Том 2. Древняя Греция и Древний Рим. М, 1973.
 16. Акимова Л.И. Искусство Древней Греции. Классика. – СПб.: 2007. С. 160–209.
 17. Брунов Н.И. Памятники Афинского Акрополя. Парфенон и Эрехтейон. – М.: 1973.
 18. Колпинский Ю.Д. Великое наследие античной Эллады и его значение для современности. – М.: 1988. С. 102–113.
 19. Колпинский Ю.Д. Искусство Эгейского мира и Древней Греции. – М.: 1970. С. 59–66.
 20. Ривкин Б.И. Античное искусство. – М.: 1972. С. 136–176.
 21. Соколов Г.И. Искусство Древней Греции. – М.: 1980. С. 141–156.
- Qadimgi Yunoniston yuqori klassika davri haykaltaroshligi.**
1. Акимова Л.И. Искусство Древней Греции. Классика. – СПб.: 2007. С. 98–102, 220–238.▷
 2. Колпинский Ю.Д. Великое наследие античной Эллады и его значение для современности. – М.: 1988. С. 98–102.

3. Колпинский Ю.Д. Искусство Эгейского мира и Древней Греции. — М.: 1970. С. 55–59.

4. Ривкин Б.И. Античное искусство. — М.: 1972. С. 128–136.

5. Соколов Г.И. Искусство Древней Греции. — М.: 1980. С. 108–119, 137–41.

6. Чубова А.П., Конькова Г.И., Давыдова Л.И. Античные мастера. Скульпторы и живописцы. — Л.: 1986.

Qadimgi yunon arxaika va klassika davri mahobatli va dastgohli rang-tasviri.

1. Колпинский Ю.Д. Искусство Эгейского мира и Древней Греции. — М.: 1970. С. 47–50 (живопись архаики), 68–70 (живопись классики), 86–87 (живопись поздней классики).

2. Колпинский Ю.Д. Великое наследие античной Эллады и его значение для современности. — М.: 1988. С. 83–86 (живопись архаики), 121–128 (живопись высокой классики), 144–145 (живопись поздней классики).

3. Неверов О.Я. Галерея истории древней живописи. Серия: «Архитектурные образы Нового Эрмитажа». — СПб.: 2002.

4. Чубова А.П., Иванова А.П. Античная живопись. — М.: 1966. С. 21–33 (живопись VI в. до н. э.), 34–44 (живопись первой половины V в. до н. э.), 45–53 (живопись второй половины V — начала IV в. до н. э.), 54–60 (живопись IV в. до Александра Македонского), 61–71 (живопись времен Александра и диадохов), 72–79 (живопись эпохи эллинизма).

5. Afinadan tashqari yuqori klassika davri arxitekturasi hamda so'nggi klassika davri yunon arxitekturasi.

6. Акимова Л.И. Искусство Древней Греции. Классика. — СПб.: 2007. С. 210–219 (высокая классика помимо Акрополя), 299–320 (поздняя классика).

7. Колпинский Ю.Д. Великое наследие античной Эллады и его значение для современности. — М.: 1988. С. 113–115 (высокая классика помимо Акрополя), 130–136 (поздняя классика).

8. Колпинский Ю.Д. Искусство Эгейского мира и Древней Греции. — М.: 1970. С. 67–68 (высокая классика помимо Акрополя), 74–79 (поздняя классика).

9. Соколов Г.И. Искусство Древней Греции. — М.: 1980. С. 156–164 (высокая классика помимо Акрополя), 183–188 (поздняя классика).

So'nggi klassika davri Qadimgi Yunoniston haykaltaroshligi.

1. Акимова Л.И. Искусство Древней Греции. Классика. — СПб.: 2007. С. 330–370.

2. Колпинский Ю.Д. Великое наследие античной Эллады и его значение для современности. — М.: 1988. С. 136–144.

3. Колпинский Ю.Д. Искусство Эгейского мира и Древней Греции. — М.: 1970. С. 79–86.

4. Ривкин Б.И. Античное искусство. — М.: 1972. С. 177–196.

5. Соколов Г.И. Искусство Древней Греции. — М.: 1980. С. 164–176, 189–222.
6. Чубова А.П., Конькова Г.И., Давыдова Л.И. Античные мастера. Скульпторы и живописцы. — Л.: 1986.
Arxaika va klassika davri qadimgi yunon keramikasi.
7. Акимова Л.И. Искусство Древней Греции. Геометрика. Архаика. — СПб.: 2007. С. 97–125, 138–206.
8. Акимова Л.И. Искусство Древней Греции. Классика. — СПб.: 2007. С. 18–50, 130–159, 238–247, 264–298.
9. Блаватский В.Д. История античной расписной керамики. — М.: 1953.
10. Букина А.Г. Круговращенье колеса гончарного: ранние греческие расписные вазы. — СПб.: 2005.
11. Горбунова К.С., Передольская А.А. Мастера греческих расписных ваз. — Л.: 1961.
12. Горбунова К.С. Чернофигурные аттические вазы в Эрмитаже. — Л.: 1983.
13. Колпинский Ю.Д. Великое наследие античной Эллады и его значение для современности. — М.: 1988. С. 76–83 (архаика), 115–121 (ранняя и высокая классика), 145–146 (поздняя классика).
14. Колпинский Ю.Д. Искусство Эгейского мира и Древней Греции. — М.: 1970. С. 42–47, 70–74.
15. Передольская А.А. Краснофигурные аттические вазы в Эрмитаже. — Л.: 1967.
16. Ривкин Б.И. Античное искусство. — М.: 1972. С. 85–104.
17. Соколов Г.И. Искусство Древней Греции. — М.: 1980. С. 68–83, 119–137, 176–183.

♦ 15-mavzu.

ELLINIZM DAVRI SAN'ATI

Antik madaniyat ta'siridagi xalqlar san'ati. Arxitektura va tasviriy san'atda lokal xususiyatlar

Ma'ruza mazmuni:

Aleksandr Makedonskiy davlatining parchalanib ketishi. Ellinistik davlatlarning vujudga kelishi (Ellinistik Misr, Pergam, Rodos, Parfiya va boshqalar). Ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlar, yangi shaharlarning barpo etilishi.

Ellinizm davrida me'morchilik, tasviriy san'at va amaliy san'at. San'at va madaniyatda yunon va mahalliy Sharq madaniyati va san'ati elementlarining chatishib ketishi.

San'at mavzusining kengayishi, portret, manzara, hayotiy-maishiy janrning rivojlanishi. Shu bilan birga, san'atda inson qiymatining susayishi. San'atda maktab va yo'nalishlar rang-barangligi.

Ellinizm davrida Yunoniston san'ati. *Me'morchilik, tasviriy san'at, amaliy san'at borasida yaratilgan yodgorliklar (Nika haykali, Milos Afroditasi).*

Ellinistik Misr san'ati. Yodgorliklar. *Shahar qurilishi. Dekorativ haykaltaroshlik. Nil haykali. G'oz bilan o'ynayotgan bola, keksa baliqchi haykallari. Amaliy san'at yodgorliklari.*

Rodos maktabi san'atining namunalari. *(Rodos Kolossi, Farnoz buqasi, Laokoon). Ularning o'ziga xos tomonlari.*

Ellinizm davri Shimoliy Qora dengiz sohillarida yashagan xalqlar san'ati. *Yunon shahar-kolonnialarida me'morchilik, tasviriy va amaliy san'at.*

Eramizdan avvalgi 336-yili Makedoniya podshohi Aleksandr (Aleksandr Makedonskiy) ellin davlatlarini bosib oladi. O'z yurishlarini Sharqqa qaratdi. Ko'p o'tmay, O'rta Osiyo va Hindiston yerlarini ham zabt etib, Afmaning shimoliy-sharqiy va Bolqon yarimorolidan tortib, Hindiston yerlarigacha bo'lgan katta maydonning hukmdoriga aylandi.

Lekin Aleksandr davlati siyosiy jihatdan mustahkam emas edi. Uning vafotidan keyin bu davlat tezda parchalanib, uning o'rnida bir qator davlat va podsholiklar — Misr, Pergam, Grek-Baktriya, Parfiya, Salavkiylar, Makedoniya davlatlari vujudga keldi. Bu davlatlar keyinchalik ellinistik davlatlar deb atala boshladi (XIX asrda nemis tarixchisi I. Dreyzen bu iborani birinchi bor ishlatgan). Aleksandr Makedonskiy istilosidan tortib, eramizdan avvalgi 30-yillargacha, ya'ni so'nggi ellinistik davlat — Misrning Rim tomonidan bosib olinishiga qadar bo'lgan davri esa ellinizm davri deb yuritildi.

Ellinizm davri qadimgi grek va qadimgi sharq sotsial-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarining qo'shilib ketish va bir-biriga ta'sir ko'rsatish davridir. Bu davr san'ati va madaniyatida ham an'analar qo'shilib bordi. Ellinizm davri hukmronlari o'zlarining saltanatlarini muhtasham binolar, ajoyib san'at namunalari bilan boyitishga harakat qildilar. Yangi-yangi shaharlar paydo bo'ldi. Ular serhashamlilik va ulug'vorlikda badavlat Afinani ham orqada qoldirib ketdi. Pergam va ayniqsa, ellinistik dunyoqarashning madaniy

markazi bo'lgan Aleksandriya (Iskandariya) shunday shaharlardan bo'ldi. San'at va san'atkorlarga bo'lgan talab ortdi. San'atning yangi tur va janrlari maydonga keldi. San'atda sotsial motivlarni, insonning lirik-intim hayotini tasvirlashga intilish kuchaydi. Park-bog' san'ati bilan bog'liq bo'lgan dekorativ haykaltaroshlik san'ati keng tarqaldi. Oddiy hayotni ifodalovchi loydan ishlangan mayda haykalchalar, ko'p figurali haykaltaroshlik kompozitsiyalar yaratildi. Shu bilan birga, bu davrning o'ziga xos tomonlari — polislar uchun ideal bo'lgan umumlashma inson obrazi o'rnini yagona shaxsni ulug'lovchi, uning ichki kechinmalarini ifodalovchi, egoizm, xudbinlikni, hukmdorlikni ideallashtiruvchi asarlarni yaratish yetakchi o'rinni egallay boshladi. Kundalik turmush ikerchikirlari, mayda detallarning naturalistik aniqligiga intilish ortdi.

Davr xarakteri va ruhi me'morchilik va monumental san'atda o'zining yorqin ifodasini topdi. Haykaltaroshlik san'ati namunalaridan esa, me'morchilik ansamblining ajralmas qismi sifatida keng foydalanildi. Agar qadimgi Gretsiyada ibodatxona shahar markazi rolini o'ynagan bo'lsa, endilikda katta ma'muriy bino oldidagi maydon yoki savdo uchun mo'ljallangan maydonlarga ahamiyat berila boshladi.

Ellinizm davri san'atida jonlanish uning tematik kengayishida, janrlarning paydo bo'lishida hamda Sharq va G'arb san'ati sintezidagina emas, balki san'at maktablarining bir-biridan farq qilishida, badiiy yo'nalishlarining rang-barangligida ham seziladi. Bu yo'nalish va maktablarda grek san'ati an'analari o'z ifodasini topgan va rivojlangan.

Jumladan, grek san'ati an'alarining ta'siri Sharqiy ellinistik davlatlarda — Salavkiylar imperiyasi, Pergam, ellinistik Misr, Rodos orolidagi savdo markazlarida hamda Gretsiyada seziladi.

Ellinizm davrida badiiy maktablar orasida farq sezilarli bo'ldi. Bu davrda Gretsiya, jumladan, Attika Aleksandr Makedonskiy davlatining parchalanishidan keyin ham badiiy-madaniy markaz sifatida o'z kuchini saqlab qoldi va shu yerda klassika an'analari antik davrning oxirigacha davom etdi. Eramizdan avvalgi IV asr oxiri va III asrgacha yashab ijod etgan haykaltaroshlar o'z ijodlarida Praksitel, Lisipp va qisman Skopas an'alariga tayandilar, uni

rivojlantirdilar. Ellinistik Gretsiyaning monumental haykaltaroshligi ichida davrning nodir yodgorligi «Samofrakiyali Nike» haykali alohida o‘rinni egallaydi. U davrning nodir yodgorligidir.

Samofrakiya oroli uchun ishlangan bu haykal g‘alaba ma‘budasi Nikega bag‘ishlangan. Nikening qanotlarini keng yoyib turgan payti tasvirlangan. Haykal birmuncha uringan va shikastlangan holda bizning davrgacha yetib kelgan. Shunga qaramasdan, u o‘zining hayotiyiligi, to‘laqonliligi bilan kishini hayratlantiradi. Nikening jismoniy kelishgan, sog‘lom, durkun qomati shaffof libos ichidan ko‘rinib, o‘zidan nur taratayotgandek tuyuladi.

Ellinistik Gretsiyaning yana bir nodir yodgorligi Milos oroli uchun ishlangan Afrodita haykalidir. «Milos Afroditasi» deb nom olgan bu asar haykaltarosh Aleksandr tomonidan eramizdan avvalgi 120-yillarda ishlangan. Bu asarda Afrodita bir qo‘lida Milosning ramzi bo‘lgan olma, bir qo‘li bilan tushib ketayotgan libosni ushlab turgan holda tasvirlangan deb faraz qilinadi. Bu haykalda klassika an‘analari, Praksitel uslubi seziladi. Haykaltarosh marmar yuzasini yuksak talant va mahorat bilan ishlab, jismoniy go‘zal, tarang, shu bilan birga, baxmaldek mayin ayol qomatini ko‘rsata olgan. Marmarning emotsional imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanganligi asarning poetik tomonini oshirib yuborgan. Marmardagi yorug‘soya o‘yinlarining mayinligi, o‘zidan tushayotgan nurni qaytarishi – ayol qomati, umuman, sog‘lom inson qomatining go‘zalligini ochishga xizmat qilgan. Afroditaning yuzidagi xotirjamlik, jamolining go‘zalligi va shoirona ruh bilan sug‘orilganligi uchun asar nafis san‘at namunasi darajasiga ko‘tarilgan. Ellinizm davrida portret san‘ati katta yutuqlarga erishdi. Klassika davri portret san‘atiga xos fazilatlar, umumlashma ideal obraz yaratish borasidagi prinsiplar bu davrda tasvirlanuvchining individual xislatlarini chuqurroq ochish, ma‘naviy qiyofasini ishonarli talqin etish tamoyillari bilan almashdi, bu xususiyat ellinistik Gretsiya san‘atida seziladi. (Masalan, Seneka portreti, er. av. II asrlar.)

Pergam badiiy maktabi asarlarida, aksincha, dramatism kuchli bo‘lib, ko‘proq Skopas an‘analari ta‘siri seziladi. Bu maktabning nodir yodgorligi Pergam akropolidagi «Zevs mehrobi»ning ish-

langan ma'budalarning gigantlar bilan olib borgan jangini aks ettiruvchi friz hisoblanadi.

Bizgacha birmuncha yaxshi yetib kelgan bu kompozitsiya, umuman, jahon san'atining shoh asarlaridandir. Mehrob Pergam podshosining gal qabilalari ustidan erishgan g'alabasiga bag'ishlangan. Friz ko'proq gorelyef tarzida bajarilgan, lekin ayrim obrazlar dumaloq haykaltaroshlikka ham o'tib ketadi.

Uzunligi 120 metr, balandligi esa 2,3 metr bo'lgan bu frizda Olimp ma'budalarining ularga qarshi isyon ko'targan gigantlar bilan olib borgan ayovsiz kurashi va qasos olishlari haqida hikoya qilinadi. Afsonalarga ko'ra, yer xudosi Geyaning o'g'illari – gigantlar Olimp xudolariga qarshi isyon ko'taradilar, lekin ular bilan bo'lgan shiddatli jangda yengiladilar.

Pergam mehrobi frizida ana shu voqea o'z ifodasini topgan. Jang qizg'in. Ma'budlar va gigantlar bu jangda qo'shib ketishgan bo'lib, yagona kompozitsiyani tashkil etadilar. Shu bilan birga, ma'budlarning g'alabasi ayon.

Asarda dahshat, vajohat va azoblanish, qo'rqish, kuchli g'azab va nafrat yuksak badiiy mahorat bilan ishlangan. Pergamda ifodali va dramatik boy dumaloq haykallar ham yaratildi.

Ularda haykaltarosh mag'lubiyatga uchragan gal qabilasi odamlarining bo'ysunmas va mardonavor xislatlarni, o'limga tik boqib mag'rur jon berayotgan holatlarini juda jonli tasvirlay olgan. «O'zi va qaylig'ini o'ldirayotgan gal», «O'layotgan gal» haykallari diqqatga sazovordir. Haykallar klassik san'at an'alarida ishonarli talqin etilgan.

Ellinistik Misr. Ellinistik Misr Ptolemeylar podsholigi davrida gullab-yashnadi, qudratli davlatga aylandi. Uning poytaxti Aleksandriya esa ellinistik dunyoning yirik madaniy-siyosiy markazi, yirik port shahri bo'ldi.

Ellinistik Misrning oq marmardan ishlangan hashamatli binolari dunyoga mashhur bo'lgan. Yetti mo'jizaning biri deb hisoblangan 120 metrli Faros mayog'i (mash'ali), Aleksandriyaning haykaltaroshlik bilan bezatilgan park-bog'lari ham olamga mashhur bo'lgan. Ellinistik Misr badiiy maktabida yuqori klassika an'analari (ko'proq Praksitel) sezilarlidir.

Tematikasida hayotiy-maishiy hamda intim-lirik mavzu yetakchi o'rinni egallaydi.

Bu janrda ishlangan kompozitsiyalarda ko'proq oddiy xalq hayotidan olingan voqealar tasvirlanadi. Qariyalar, bolalar obrazi ko'proq uchraydi. «Keksa baliqchi», «G'oz bilan o'ynayotgan bola» «Afrodita» haykali ko'p ishlangan.

Ellinistik Misr san'atida allegorik talqin etilgan haykallar ham mavjud. «Nil» kompozitsiyasi, tosh o'ymakorligining namunasi bo'rtma tasviri mashhur. «Gonzaga komediyasi»da podsho Ptolemey va malika Arsinoyaning boshlari yon tomondan tasvirlangan. Ellinistik Misrda rassomlik ham rivojlangan. Adabiy manbalarda Apelles, Antifil kabi rassomlar samarali ijod qilganliklari to'g'risida gapiriladi.

Rodos maktabi. So'nggi ellinistik davr san'ati haqidagi taassurotni Rodos maktabi beradi. Bu maktab vakillari ko'proq Lisipp



40-rasm. Laokoon va uning o'g'illari



41-rasm. Pegamdagi Zevs mehrobi. Berlin muzeyi

ijodiga murojaat qiladi. Baquvvat atletlar, jangchilar va jang manzaralarini ko'proq tasvirlaydi. Rodos haykaltaroshligiga xos bo'lgan yana bir xususiyat ko'p figurali kompozitsiyalarga, kuchli, har xil dahshatli sujetlarga murojaat qilishda ko'rinadi. «Farnez buqasi», «Laokoon va uning o'g'illari» deb nomlangan kompozitsiyalar shunday asarlardandir.

Lekin Rodos haykaltaroshi o'z qahramonlarining ichki dunyosini ochishga intilmaydi, balki tashqi qiyofada uning o'zgarishini ko'rsatish bilan chegaralanib qoladi. Natijada, yasamalilik va sun'iylik ko'zga tashlana boshlaydi. Rodosli haykaltaroshlar Agesandr, Afinodor va Polidor tomonidan eramizdan avvalgi 40-yillarda yaratilgan «*Laokoon va uning o'g'illari*» kompozitsiyasida kohin Laokoon va ikki o'g'lining azob-uqubatli o'limini mumkin qadar keskinroq tasvirlashga harakat qilingan. Lekin klassika davridagidek yuksak g'oya bu yerda chegaralangan, xolos. Bu asar yana bir bor ellinizm davri so'ngida san'atda ideologik kuchning susayib borganini ko'rsatadi va ijtimoiy hayotda sodir bo'lgan chuqur inqirozni ifoda etadi.

Seminar savollari:

1. *Ellinizm davri qadimgi yunon va qadimgi Sharq sotsial-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarining qo'shilib ketishi.*
2. *Ellinizm davri arxitektura, tasviriy va amaliy san'ati.*
3. *San'atda maktab va yo'nalishlarning rang-barangligi. Ellinizm davrida Yunoniston san'ati.*
4. *Rodos maktabi namunalari. Uning o'ziga xos tomonlari. Yunon shahar koloniyalarida arxitektura, tasviriy va amaliy san'at.*

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR

1. Ellinizm davri Qadimgi Yunoniston arxitektura va tasviriy san'ati (Bolqon, Peloponnes, Kichik va Old Osiyo, Misr hududlari).
2. Всеобщая история архитектуры в 12 томах. Том 2. Древняя Греция и Древний Рим. — М.: 1973.
3. Ривкин Б.И. Античное искусство. — М.: 1972. С. 198–217.
4. Соколов Г.И. Искусство Древней Греции. — М.: 1980. С. 223–255.
5. Чубова А.П., Иванова А.П. Античная живопись. — М.: 1966. С. 72–79 (ellinizm davri rang-tasviri).

QADIMGI ITALIYA SAN'ATI

◆ 16-mavzu.

ETRUSKLAR SAN'ATI RIM DAVRIGA MUQADDIMA SIFATIDA

Ma'ruza mazmuni:

Italiya tarixi haqida qisqacha ma'lumot. Uning geografik o'rni va davriy chegarasi. Etruriyaning geografik o'rni, uning tarixiga oid qisqa ma'lumot. Me'morchilik, tasviriy va amaliy-dekorativ san'at. Uning o'ziga xos tomonlari, xarakterli namunalari (Vey germesi, Vey Appoloni, Kapitoliyadagi ona bo'ri haykali, notiq Avliyo Metell haykali va boshqalar).

Antik madaniyatning so'nggi o'chog'i Italiyadir. Bu yerda eramizdan avvalgi III–II minginchi yillarda shaharlar mavjud bo'lgan. Me'morchilik qoldiqlari, temirdan, bronzadan yasalgan mehnat qurollari, zeb-u ziynat buyumlari shundan dalolat beradi. Italiyada bir qancha qabilalar yashagan. Shulardan biri italyan qabilalari bo'lib, ular yashagan yerlarni (hozirgi Rim atrofi) Italiya deb ataganlar. Keyinchalik butun Apenin oroli Italiya deb yuritila boshlagan. Italiya tuprog'ida maydonga kelgan Rim davlati esa jahon madaniyatining ravnaqiga katta hissa qo'shdi.

Eramizdan avvalgi VII asrdan to yangi eraning V asriga qadar bo'lgan o'n ikki asr mobaynida italiyaliklar san'ati va badiiy madaniyati o'zining gullagan davrini boshidan kechirdi. Qadimgi dunyoning yirik davlatlaridan hisoblangan Rim imperiyasi paytida katta hajmdagi me'morchilik ansamblari vujudga keldi, me'morchilikning yangi tiplari paydo bo'ldi. Italiyaliklar qadimgi Gretsiya san'ati va madaniyatiga zo'r hurmat bilan qaradilar. Uni ijodiy o'zlashtirdilar, nazariyasini yangi ilmiy bilimlar bilan boyitdilar. Realistik portret, tarixiy mavzudagi relyef yaratish, *mozaika*, amaliy san'at borasida novatorlik namunalari ko'rsatdilar.

Qadimgi Italiya xalqlari ichida etrusklar bo'lgan. Ular eramizdan avvalgi VIII–VI asrlarda Italiyaning o'rta va g'arbiy-janubiy qismini egallaganlar. Etrusklar qurilish san'atida katta muvaffaqiyatlarga erishdilar. Ular toshlardan katta-katta imoratlar solganlar, birinchi bo'lib toshdan gumbaz va arkalar ishlaganlar.

Etruriya shaharlari (Sere, Tarkvini, Veyi, Klezium) baland, qalin, mustahkam devorlar bilan oʻralgan. Keng yoʻllar, mustahkam koʻprik va kanallar qurilgan. Etrusk meʼmorchiligida sinch imkoniyatidan keng foydalanilgan. Binoning devorlari supacha ustiga oʻrnatilgan. Etrusk meʼmorchiligida ham ibodatxona qurilishiga eʼtibor berilgan. Ibodatxonalar peshtoqli boʻlib, u birmuncha chuqur. Binoni badiiy bezashda rangli relyeflar — loydan ishlanib pishirilgan terrakotalar ishlatilgan. Tomlari dekorativ haykallar — *akroteriylar* bilan bezatilgan. Amaliy-dekorativ sanʼat, monumental rang-tasvir va haykaltaroshlik sanʼati ham bu yerda ravnaq topgan. Etruskliklarning sanʼatida sopol astadon keng tarqalgan boʻlib, ularning qopqogʻida jangchi yoki odam boshi haykali ishlangan.


Sarkofaglar ham haykaltaroshlik asarlari bilan bezatilgan. Ularning qopqogʻiga koʻpincha marhumning yotgan holdagi tasviri ishlangan.

Etrusk haykaltaroshlaridan biri Vulka hisoblanadi. U Rimga Kapitoliydagi Yupiter ibodatxonasini bezashga taklif etilgan. Vulka Veyidagi Apollon ibodatxonasining dekorativ haykallarini ham ishlagan. Apollon (Veyi Apolloni deb yuritiladi) sanʼatkor ijodining oʻziga xos tomonini xarakterlaydi.

Unda sanʼat va nur maʼbudi boʻlgan Apollonning shaxdam qadamlar bilan odimlab ketayotgan vaqti tasvirlangan. Shaffof, yengil libos ostidan uning rivojlangan muskuli va kuchli qomati koʻrinib turibdi.

Etrusklar bronzadan haykal yasashda yuksak sanʼat egasi boʻlganlar. Antik dunyoning zoʻr animalistlari boʻlgan etrusk haykaltaroshlari bronzadan turli hayvon va antiqa-xayoliy (fantastik) jonivorlar haykallarini zoʻr mahorat bilan ishlashgan. Etrusk haykaltaroshligining nodir namunasi Kapitoliydagi «*Ona boʻri*» haykalidir.

Haykaltarosh boʻridagi ehtiyotkorlikni (bu uning tik ishlangan quloq, oldinga mustahkam tirab oʻlgan oyoqlari va tomoshabin tomon burilgan boshi, bir nuqtaga tikilgan koʻzlari orqali ochilgan) unga xos yaxshilikni real va ishonarli talqin eta olgan. Shu bilan birga, haykalda shartli dekorativ uslub taʼsiri borligini koʻrish



42-rasm. Kapitoliydagi
«Ona bo‘ri» haykali

mumkin. Bo‘rining bo‘yni va yelkasidagi junini jingalak qilib ishlashda shartlilik seziladi. Etrusk monumental rang-tasvir san‘ati ravnaqi sag‘ana devorlariga ishlangan suratlarda o‘z ifodasini topgan. Bu suratlarda etrusklar hayotiga oid voqealar, mifologiyadan olingan sujetlar tasvirlangan. Amaliy-dekorativ san‘at, ayniqsa, zargarlik san‘ati yuksak bo‘lgan.

Etrusk zargarlarining ayol zeb-u ziynatlari, oltindan ishlangan turli xil uy buyumlari qadimgi grek va rimliklar tomonidan yuksak qadrlangan.

Etruriya jamiyatining eng gullagan davri eramizdan avvalgi VII–VI asrlarga to‘g‘ri keladi. Eramizdan avvalgi VI asrdan boshlab, etrusk san‘atiga Italiyaning janubidagi grek koloniyalari san‘atining ta’siri sezila boshladi. Etrusklar grek alifbosi, teatr va mifologiyasini qabul qildilar. Greklar singari ular ham yuzasiga barelyeflar tushirilgan oltin tangalar chiqara boshladilar. Qora va qizil figurali vazalar etrusklar xonadonidan keng o‘rin egallay boshladi.

Eramizdan avvalgi VI asrdan boshlab, Etruriyaning qudrati susaya bordi. Mavjud bo‘lgan shahar va davlatlar orasidagi ittifoq buzila boshladi. Kelt qabilalari, keyinroq greklar hujumi natijasida Etruriya inqirozga yuz tutib, italyanlar bilan qo‘shilib ketdi.

Seminar savollari:

1. *Antik madaniyatning so‘nggi o‘chog‘i Italiyaning keyingi jahon san‘ati rivojiga ko‘rsatgan ta’siri.*

2. *Rim imperiyasining vujudga kelishi. Iqtisodiy-siyosiy shart-sharoitlar.*
3. *Etrusk xalqlarining arxitekturasi o'ziga xos xususiyatlari va yutuqlari.*
4. *Etrusk haykaltaroshi Vilka ijodining xarakterli jihatlari.*
5. *Etrusk mahobatli rang-tasviridagi obrazlar badiiy yechimi va uning keyingi Rim san'ati rivojiga ta'siri.*
6. *Etrusk xalqlari san'atida yunonlar madaniyati ta'siri.*

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR

1. Всеобщая история архитектуры в 12 томах. Том 2. Древняя Греция и Древний Рим. — М.: 1973.
2. Колпинский Ю.Д., Брутова Н.И. Искусство Этрусков и Древнего Рима. — М.:1982. С. 14—54.
3. Ривкин Б.И. Античное искусство. — М.: 1972. С. 221—236.
4. Соколов Г.И. Искусство Древнего Рима. — М.: 1971. С. 10—37.
5. Соколов Г.И. Искусство этрусков. — М.: 1990.
6. Чубова А.П., Иванова А.П. Античная живопись. — М.: 1966. С. 80—94 (живопись этрусков).

♦ 17-mavzu.

QADIMGI RIM SAN'ATI

Arxitektura va tasviriy san'at: umumiy tavsif, asosiy davrlari va rivojlanish xususiyatlari. Arxitektura: maktablar, uslublar.

Ma'ruza mazmuni:

Rim tarixiga oid qisqa ma'lumotlar. Rim tarixi va san'atidagi davriy bosqichlar. Rim san'atini o'rganish manbalari.

Arxitektura. Qadimgi me'moriy yodgorliklar. Fortuna Virilis ibodatxonasi. Qurilish texnikasining yutuqlari. Akveduk va yo'llar. Shahar planirovkasi. Imperator davrida Rim forumlari. Neron davri me'morchiligi. «Oltin uy». Flaviyevlar amfiteatri (kolizey).

Rim ibodatxonalari va ularning o'ziga xos tomonlari. Me'mor Appolodor Damashqiy va uning qurgan me'morchilik inshootlari. Pateon ibodatxonasi. Zafar arklari.

Rim provinsiyalarida me'morchilik.

Rimning so'nggi davrida me'morchilik. Karakalla termasi. Diokletian termasi va saroyi. Maksensiya bazilikasi.

Qadimgi Rim san'ati Apenin yarimorollaridagi ko'pgina xalqlar, jumladan, etrusklar, keyinroq Rim bosib olgan yerlardagi boshqa xalqlar san'ati ta'sirida rivoj topdi. Uning ravnaqiga, ayniqsa, grek san'ati kuchli ta'sir o'tkazdi. Lekin rimliklar o'zga xalqlar san'atini o'zlashtirib, o'rganib, uni ijodiy boyitdilar, shu san'at an'alarini rivojlantirib, uning yangi tur va janrlarini ham vujudga keltirdilar.

Rimdagi tarixiy sharoit, ijtimoiy tuzum xarakteri san'atning g'oyaviy yo'nalishini belgilashda muhim rol o'ynadi. Rim san'atida me'morchilik yetakchi o'rinni egalladi. Unda davlatning kuch-qudrati tarannum etildi. Rimliklar ko'pchilikka mo'ljallangan muhtasham binolar qurdilar. Bunday xarakterdagi binolar bu davr uchun yangilik bo'ldi. Me'morchilikda rimliklarning aql-zakovati yaqqol namoyon bo'ldi. Bu me'morchilik etrusk va yunon, qisman qadimgi Sharq me'morchiligi san'ati an'alariga tayangan holda rivojlangan. Uni yangi uslublar bilan boyitdilar. Ayniqsa, rimliklar tomonidan betonning ixtiro etilishi va ustun-to'sin sistemasiga yangi konstruksiyalar kiritilishi, ark, qubba va egri ravoqning erkin va keng qo'llanilishi faqat Rim me'morchiligidagina emas, balki jahon me'morchilik san'atida ham haqiqiy inqilob bo'ldi. Bu sistema katta fazoviy kenglikni yopa oladigan, xona ichida esa katta fazoviy kenglikni yaratish imkoniyatini beradigan me'morchilik kompozitsiyalarini vujudga keltirdi.


Rim san'atidagi o'ziga xoslik tasviriy san'atda, ayniqsa, uning portret janrida yaqqol namoyon bo'ldi. Bu yerda juda erta dastgoh san'ati rivoj topdi. Hikoyanavis bo'rtma tasvir san'ati ham rimliklar san'atining o'ziga xos tomonini belgilaydi.

Qadimgi Rim tarixi eramizdan avvalgi VI asrdan boshlanib, yangi eraning V asrigacha bo'lgan davrini o'z ichiga oladi. Eramizdan avvalgi VI asrga kelib, Rim aristokratik quldorlik respublikasiga aylandi. U Apenin yarimorolini zabt etib, O'rta yer havzasida o'z hukmdorligini o'rnatgach, eramizdan avvalgi II asr o'rtalariga kelib, shu yerdagi yirik davlatga aylandi. Bosib olingan yerlardan boyliklarning Rimga olib kelinishi uning ravnaqida muhim rol o'ynadi, shu bilan birga, inqirozini ham tezlashtirdi. Mulkiy tengsizlik oshdi, ekspluatatsiyaning kuchayishi esa omma orasida norozilikni keltirib chiqardi. Ayniqsa, qullar

qo'zg'oloni (bular ichida Spartak qo'zg'oloni mashhur) respublika davrining inqirozga yuz tuta boshlaganini bildirdi. Uning o'rnini Rim imperatorlik davri egalladi. Bu davr eramizdan avvalgi I asr oxiridan yangi eraning 476-yiligacha davom etdi.

Me'morchilik. Rim me'morchiligining o'ziga xos tomonlari, uning asosiy tiplari Rim Respublikasi davridayoq namoyon bo'ldi. Doimiy urush va qirg'in, fuqaro urushlari mantiqan aniq topilgan monumental me'morchilik kompozitsiyalarida o'z ifodasini topdi. Eramizdan avvalgi VIII asrda ishlangan mudofaa devorlari, mamlakatning turli qismlarini tutashtiruvchi tosh to'shalgan keng yo'llarning sodda va jiddiy ko'rinishlarida davr ruhi va qurish san'ati xarakteri ko'rinadi. Jumladan, mashhur Appiy yo'li eramizdan avvalgi 312-yili qurilgan. Bu yo'ldan Rim legionlari jangga borishgan. Shu davrda mustahkam ko'prik va osma suv quvurlari (akveduklar) qurilgan. Ular shaharga o'ziga xos siluet baxsh etgan.

Rimliklar qadimgi Gretsiyaga va boshqa ellinistik davlatlar ustidan hukmron bo'la borgan sari serhasham binolar ko'paya bordi. Eramizdan avvalgi III–I asrlarda qurilgan ibodatxona, villa, saroy, qasr va boshqa binolar o'zining bezakka boyligi, jimjimadorligi va



43-rasm. Rim akveduklari

nafisligi bilan xarakterlidir. Rimliklar grek me'morchiligining order tizimiga qiziqib qaradilar, uni o'z faoliyatlarida keng qo'llay boshlaydilar. Lekin Rim me'mori uchun ustun va antabliment ko'proq dekorativ funksiyani bajaradigan elementga aylandi. Ular binoga serhashamlilik va jimjimadorlik kiritish uchun foydalanila boshlandi. Korinf orderi esa sevimli orderga aylanib qoldi. Bundan tashqari, rimliklar etrusklardan toskan orderini oldilar. Bu order o'z ko'rinishi jihatidan doriy orderiga o'xshasa ham, lekin undan tagkursisi borligi va metop bo'lgan friz va kannelurlarining yo'qligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, korinf va ion orderi chatishmasi bo'lgan yangi orderlar Rim me'morchiligida keng ishlatildi.

Rim imperiyasining birinchi imperatori Oktavian Avgust hukmronlik qilgan yillar (er. av. 27-yil — yangi eraning 14-yillari) san'at va madaniyatning haqiqiy rivojlangan bosqichi bo'ldi. Rim davlatining «oltin asri» hisoblangan bu davrda nazariyotchi me'mor *Vitruviy*, tarixchi *Tit Livii*, shoirlardan *Vergiliy* va *Gorasiolar* yashab ijod etdilar. Me'morchilik rivojlandi, shahar qurilishi avj oldi. Ijtimoiy va ma'muriy binolar ko'plab qurildi. Ayniqsa, Rimda qurilish jiddiy bo'ldi. Tarixchilar bu davrning qurilishini ta'riflab, «Avgust Rimni g'ishtdan qurilgan holda olib, uni marmarda qoldirdi», — deb yozgan edilar. Haqiqatan ham, bu davr hashamatli binolari, nafis kolonnalari, arkali va gumbazli binolari, favvora va hovuzlar yashil tabiat qo'ynida alohida tovlanib, uni yanada ko'rkam va fayzli ko'rsatar edi. Bizgacha vayronalarda yetib kelgan binolarning qoldiqlari hanuzgacha o'zining salobati va ulug'vorligi bilan kishini hayratlantiradi.

Rim me'morchiligida I asrning oxiri va II asr boshlarida eng katta me'morchilik komplekslari yaratildi, ko'p qavatli binolar vujudga keldi va shahar qiyofasini belgiladi. Yuliyev, Flaviyev, Sever kabi imperatorlar davrida qurilgan g'oyatda katta saroylar, zafar ustun va darvoza (arka)lari shu davr ideologiyasini badiiy ifodalovchi yodgorlik sifatida xarakterlidir. Shunday me'morchilik kompozitsiyalaridan biri 81-yilda qurilgan Tit me'morial zafar arkasidir.


Keyinroq Septima, Sever, Troyan va Konstantinlarga atab shunday zafar arklari qurilgan.



44-rasm. Tit zafar arkasi

Qadimgi Rimning eng katta binolaridan biri Kolizey amfi-teatridir. Uni rimliklar kolossej, ya'ni katta, ulug' deb atashgan. 75–80-yillarda qurilgan bu bino (Kolizey) planda gigant oval shaklida bo'lib, uning asosi 188x156 m, devorlarning balandligi 48,5 m ga yaqin. Gladiatorlar jangi uchun mo'ljallangan bu qurilmaga bir vaqtning o'zida 55 ming tomoshabin kira olgan.

Rim me'morchiligining yana muhim yodgorligi «ma'budlar qasri» — Panteon hisoblanadi. Me'mor Apollodor Damashqiy tomonidan 118–125-yillarda qurilgan bu bino antik dunyoning eng katta gumbazli binosi bo'lib, unda Rim me'morchiligining



45-rasm. Rim kollizeyi

novatorlik xususiyati yaqqol ko'zga tashlanadi. Binoning tashqi ko'rinishi sodda, uning old tomonini qizil granitdan ishlangan korinf ustunli peshtoq bezab turadi. Bu ustunlar yaxlit monolit — qizil toshdan yo'nib ishlangan. Interier bezatilishiga alohida e'tibor berilgan, poliga marmar yotqizilgan.

Devori esa ikki yarusli bo'lib, birinchi yarusidagi chuqur tokchalarga




46-rasm. Panteon. Rim

ma'budlar haykali qo'yilgan, ikkinchi yarus esa rangli marmardan ishlangan pilastrlar bilan bo'lib chiqilgan. Binoning tepa qismi badiiy yechimi ham diqqatga sazovor. Gumbaz osti yuzasidan to'rtburchak shaklidagi chuqurchalar — *kessonlar* yuqoriga qarab kichrayib boradi. Bu, o'z navbatida, fazoviy kenglik taassurotini oshirishga xizmat qiladi. Tomoshabin nazarida gumbaz osti kengligi katta va cheksiz bo'lib tuyuladi. Kessonlar ichiga o'rnatilgan bron-zadan ishlanib oltin suvi yuritilgan rozetkalar esa bu serhashamlilikni yanada oshirib, xonaga afsonaviy fayz kiritadi.

Gumbazning yuqori qismida qoldirilgan diametri 9 m bo'lgan «panteon ko'zi» deb nom olgan darcha xonani yoritish bilan birga, kenglik taassurotini yanada oshirib, xona ichiga tantanavorliklik baxsh etadi va hashamatlilikni yanada bo'rttiradi.

Rim me'morchiligida paydo bo'lgan yangi tiplardan biri *termlar* (suv saroylari)dir. Iliq va sovuq suvli hovuzlar, gimnastika zallari, oromgohlar, kutubxona bo'lgan. 2–3 ming kishiga mo'ljallangan bunday suv saroylari bezagiga alohida e'tibor berilgan. Mozaika va devoriy suratlar, haykal va amaliy san'at buyumlari saroy




47-rasm. Panteon. Qirgim

goʻzalligiga goʻzallik qoʻshgan. Imperator Karakalla davridagi term (211–216-yillarda qurilgan), ayniqsa, katta va hashamatli boʻlgan. 11 gektar yerni egallagan bu saroy dam olish, koʻngil ochish uchun ham moʻljallangan.

Rim meʼmorchiligining soʻnggi muhim yodgorligi Rim *forumidagi* Maksensiya *bazilikasidir*. 306–312-yillarda *karkas* konstruksiyasida qurilgan bu bino antik davrning eng katta fuqaro meʼmorchiligidir. Turli siyosiy yigʻilishlar oʻtkazish, savdo-sotiq ishlarini olib borish uchun moʻljallangan bu bino interyeri uch nefli.


Shaharning markaziy maydonlari – forumlari, ayniqsa, goʻzal boʻlgan. Italiyaning asosiy yoʻllari forumdan boshlangan, shahar-



48-rasm. Bazilika

ning asosiy ko'chalari shu forumga borib taqalgan. Uning markazida haykallar, dekorativ ustunlar o'rnatilgan.

Imperator Troyan forumi juda hashamatli bo'lgan. Me'mor Apollodor tomonidan 109–113-yillarda qurilgan bu forum maydoni 116x95 m bo'lib, uning o'rtasidagi 27 metrli Troyan ustuniga uning daklarga qarshi olib borgan kurashini aks ettiruvchi bo'rtma tasvir yuqoriga o'ralib chiquvchi burama *friz*da ishlangan. Ustun tepasiga imperatorning bronza haykali o'rnatilgan. Bu haykal XVI asrda olinib, o'rniga apostol Pyotr haykali o'rnatilgan. Ustun *pedestaliga* Troyan vafotidan keyin uning xoki solingan urna joylashtirilgan.



49-rasm. Rim forumi. Tarh

Rim provinsiyalarida me'morchilik. Qulchilikning avj olishi, savdo-sotiqning kuchayishi Rim provinsiyalarida ham madaniy jonlanishni keltirib chiqardi. U yerlarda ham yangi madaniy markazlar, shaharlar vujudga kela boshladi. Bu shaharlar qurilishi Rim me'morchiligiga xos bo'lgan aniq loyihada qad ko'tardi.

Bizgacha yaxshi saqlangan shaharlardan biri Timgad hisoblanadi. Troyan buyrug'i bilan barpo etilgan bu shahar maydoni kvadratga yaqin bo'lib, markaziy forum atrofi ustunlar bilan o'ralgan, teatr, kutubxona va shahar hammomlari joylashgan. Shaharning asosiy ko'chalaridan biri oxirida esa Troyan zafar arkasi qurilgan. Boylarning villalari shahar chekkasida bo'lgan. Timgad Rim imperatorligi davridagi shahar qurilish san'atini ko'rsatuvchi yorqin misoldir.

Seminar savollari:

1. *Qadimgi Rim arxitekturaviy inshootlar asosiy turlari.*
2. *Qadimgi Rim respublika va imperiya davrida turar joy me'morchiligi.*
3. *Respublika va imperiya davri Qadimgi Rim maqbaralari.*
4. *Respublika va imperiya davri Qadimgi Rim tomosha inshootlari.*
5. *Respublika va imperiya davri Qadimgi Rim forumlari.*
6. *Respublika va imperiya davri Qadimgi Rim termalari.*

◆ **18-mavzu.**

QADIMGI RIM TASVIRIY SAN'ATI

Badiiy maktablar, markazlar

Ma'ruza mazmuni:

Tasviriy san'at. Haykaltaroshlik san'atining o'ziga xos tomonlari. Portret (Sisirom, Vitaliya, Lusiya Vera, Filipp Aravatyanin portretlari). Dokumental haykaltaroshlik (Avgust haykali, Otda o'tirgan Mark Avreliya haykali). Relyef va uning o'ziga xos tomonlari. Rim rang-tasvir san'ati. Pompey devoriy suratlari.

Rim mozaikasi va amaliy san'at. Rim san'ati va madaniyatining ahamiyati.

Tasviriy san'at. Haykaltaroshlik. Rim tasviriy san'atidan bizgacha ko'pgina haykaltaroshlik namunalari (relyef, portret, tematik kompozitsiyalar) saqlanib qolgan. Rimliklarning portret

san'atidagi yutuqlari, ayniqsa, kattadir. Respublika davrida realistik portret rivojlandi va antik dunyo san'atida yetakchi o'rinni egalladi. Bunga, birinchidan, Rim mansabdor shaxslarining o'z portret va haykallarini ijtimoiy joylarga qo'yish imtiyozini sabab bo'lsa, ikkinchidan, «ko'mish marosimi bilan bog'liq omil mavjud edi. Boy aristokratlarning mehmonxonalarida (qabulxonalarida) shu uy xo'jayini ajdodlarining portreti, haykallarini saqlaganlar va shundan g'ururlanganlar. Bunday haykal-portretlar toshdan ishlangan bo'lib, ko'mish marosimi vaqtida marhumning tobuti ortidan ko'tarib olib borilgan. Bu portretlar marhumning o'ziga juda o'xshatilgan bo'lib, dokumental aniqligi bilan xarakterlangan va bunday portretlar, asosan, marhum yuzidan olingan niqob-qolip asosida ishlangan.

Badiiy jihatdan bo'sh bo'lgan bu portretlarni rimliklarning o'zlari grek san'atkorlarining asarlaridan ustun qo'yganlar. Bu portretlar keyingi Rim realistik portretining rivojlanishida muhim rol o'ynadi.

Eramizdan avvalgi III–I asrlarda Rim ma'naviy hayotidagi o'zgarishlaridan biri, bu tasvirlanuvchi shaxsning individual xislatlari va ma'naviy dunyosiga qiziqishning oshishi bo'ldi.

Natijada, Rim Respublikasi davrida mavjud bo'lgan portretchilik san'atidagi yo'nalish — tasvirlanuvchining faqat tashqi qiyofasini dokumental aniqlikda aks ettiruvchi portretlar bilan bir qatorda, ikkinchi yo'nalish — tashqi ko'rinishni aniq tasvirlash, grek plastikasiga xos bo'lgan xususiyat — umumlashma obrazni yaratish, uni birmuncha ideallashtirish va ma'naviy dunyosini ochib berishga intilish tendensiyasi sezilarli bo'ldi.

Rim imperatorligi davrida hukmronlar va ularning kuch-qudratini ifodalash san'atkorlarning bosh vazifasi bo'lib qoldi. Ular o'z asarlarida imperatorlarni o'ziga o'xshatish bilan bir qatorda, uni ongli ravishda ideallashtirishga intila boshladilar. Eradan avvalgi V–IV asr grek san'ati namunalarini taqlid uchun asosiy manba bo'lib qoldi. Grek klassikasidagi ulug'vorlik va tantanavorlik pafosi, xarakterdagi vazminlik, sipolik, tanlangan nisbatlar va aniq, sodda shakllar Rim san'atkorlarini o'ziga jalb eta bordi. Oktavian Avgust haykalida shu intilishlar o'z ifodasini topdi.

Haykalda u sarkarda va davlat arbobi sifatida tasvirlanadi. Magʻrur, ulugʻvor turishi, qoʻl harakatining ifodali olinishi butun kompozitsiyaga monumentallik baxsh etgan. Qoʻlidagi nayza-choʻqmori ramziy xarakterga ega boʻlib, uning hukmdorligini belgilaydi. Avgust pansir-temir niqobga oʻralgan. Niqob yuzasi boʻrtma tasvir bilan bezatilgan. Avgustning oʻng oyogʻida Veneraning oʻgʻli Amur tasvirlangan, bu bilan sanʼatkor goʻyo Avgustlar oilasi, ajdodlari shu muqaddas xudolar avlodidan ekanligini koʻrsatmoqchi boʻladi. Haykalda yuz koʻrinishi Avgustning oʻziga oʻxshatilgan, lekin haykaltarosh obrazni ideallashtirib, uning koʻrinishiga mardlik, jasurlik va sof vijdonlilik baxsh etadi. Shunday qilib, u Rimning ideal fuqarosi obrazini yaratadi. Lekin tarixchilarning yozishicha, Avgust oʻta ayyor va qattiqqoʻl siyosatchi boʻlgan. Haykaltarosh shu obrazni ideallashtirishda qanday uslubdan foydalangan? Dastlab Avgust qomati uchun tanlangan nisbat va jismoniy baquvvatlilik (Avgust jismonan birmuncha zaif va kasalmand boʻlgan) uni ideal shaxs darajasiga koʻtarishga xizmat qilgan. Rivojlangan, jismoniy kuchli yalangʻoch qoʻl va oyoqlarining muskullari koʻrinishida uning jismoniy sogʻlom va greklar yaratgan ideal atletik obrazi paydo boʻlgan. Chap qoʻliga tashlangan plash obraz monumentalligini oshirish bilan birga, uning dekorativ tomonini boyitgan, kompozitsiyadagi nur-soya mosligini kuchaytirgan. Natijada, haykal yanada koʻrkam va ulugʻvor koʻrinadi. Obraz xarakterini ulugʻvor va jasur qilib koʻrsatishda xatti-harakatdan, ayniqsa, qoʻl harakatidan oʻrinli foydalanilgan. Oldinga koʻtarilgan oʻng qoʻli uni oʻz legionlariga buyruq berayotgandek qilib koʻrsatishga xizmat qilgan.

Tanqidiy realizmning kuchayishi. Flaviyevlar sulolasi davrida haykaltaroshlikda tanqidiy realizm yetakchi oʻrinni egallay boshladi. Haykaltarosh tashqi effekt va dabdabalikka, eʼtibor bergan holda, yaratilgan obrazning yuz qismini toʻliq va haqiqiy ochib tashlashga harakat qiladi. Tasvirlanuvchidagi manmanlik, kaltafahmlik, qattiqqoʻllik roʻyi-rost koʻrsatiladi. Bu xususda Neron portreti xarakterlidir. Sanʼatkor detallarni oʻz oʻrniga qoʻyib, obraz xarakterini ochadi. Tor peshona, ogʻir va birmuncha sirli qarashi orqali qattiqqoʻl, mustabid, maqtanchoq, oʻzi toʻgʻrisida yuksak fikrda

bo'lgan, o'zini tuta olmaydigan shaxs qiyofasi gavdalanadi. Antoninlar davrida portret san'atida jiddiylik o'rnini nafislik, charchagan holatni ochishga intilish, mushohadali shaxslar tasvirini ishlashga intilish hollari seziladi. Bu davr portretlaridagi odamlar birmuncha insonparvar, lekin cho'chiganroq, g'amgin holda goho kulib, goho xayolga cho'mgan holatda tasvirlanadi. Chunonchi, «Suriyalik qiz» haykalidagi yengil lirik kayfiyat, qarashi va turishidagi g'amginlik haykaltarosh tomonidan ustalik bilan tasvirlangan.

Imperatorlik davrining so'nggida yaratilgan portretlarda kelajakka umidsizlik bilan boqish, insonni tabiat oldida oqiz qilib ko'rsatishga intilish seziladi. Yerdagi hayot, uning go'zalligiga nafrat bilan qarash, narigi dunyo farog'ati to'g'risida o'ylash, taqdirga tan berish kayfiyatlarini ko'rsatish bu davr san'atida yetakchi o'rinni egallay boshladi.

Shunday qilib, asta-sekin antik an'analari bilan aloqa uzildi. Rim imperatorligining so'nggi davri san'atida o'rta asrchilikkalarga xos bo'lgan xususiyatlar endilikda ko'proq ko'zga ko'rina boshladi.

Rassomlik va amaliy san'at. Rimning gullagan shaharlari Pompey va Gerkulanumdagi boy, zodagonlarning uylari devorlariga ishlangan suratlar Rim rassomligi haqida ma'lumot beradi.

Devoriy suratlarda qadimgi grek ustalari ishlagan nusxalardan ko'chirmalar, turli naqsh, gul va girlyandalar tasviri ham keng uchraydi. Bu uylarning pollari mozaika bilan bezatilgan. Ularda sayyor aktorlar, dengiz osti manzaralari, urushayotgan xo'roz va shunga o'xshash voqealar tasvirlangan. Shunday mozaikalardan biri Favna uyidagi Aleksandr Makedonskiyning Eron shohi Doro bilan qilayotgan jangi tasviridir. Rim dastgoh rang-tasviri to'g'risida ma'lumotlar kam saqlangan. Shuning uchun undagi taraqqiyot bosqichini to'liq kuzatish qiyin. Faqat bu haqda I–III asrlarda ishlangan Fayum portretlari tasavvur bera oladi. Bu portretlarning nomi Rim imperiyasining sharqiy provinsiyasi bo'lgan Misrdagi El-Fayum vohasidagi nekropoldan topilgani uchun shunday deb ataladi. Fayum portretlari ellin-rim san'ati ta'sirida rivojlandi. Lekin bu yerda u ko'proq qadimgi Misr portret san'ati an'alarini davom ettirdi. Portret tasvirlanuvchi hayot vaqtida taxta yoki xolstga ishlangan bo'lib, u o'lgandan keyin marhumning jasadi

bilan qabrga qo'yilgan. Bu portretlar kompozitsiyasi tabiiy bo'lib, unda, asosan, bosh va yelkaning bir qismi va ko'p hollarda bosh biroz yon tomonga qaragan holda tasvirlangan. Fayum portretlari o'zining realistik xarakteri bilan ajralib turadi. Tasvirlanuvchining yoshi, xarakteri, o'ziga xos individual xislatlari san'atkor tomonidan mahororat bilan talqin etilgan. Fayum portretlarida tasvirlangan odamlar bir-birlariga o'xshamaydi. Portretlar galereyasida goh xushchaqchaq, goh g'amgin, goh irodali, goh kuchsiz, goh xudbin shaxslar qiyofasi namoyon bo'ladi. Keksa rimlik (I asrning II yarmi) va «Yosh ayol», «Oltin chambarli yigit» portretlari shu jihatdan diqqatga sazovordir.

II asrdan boshlab, Fayum portretidagi realizm asta so'na boshladi. Uning o'rnini sxematik, quruq portretlar egallay boshladi. Voqelikni tekis talqin etish, frontal kompozitsiyada chegaralangan ranglardan foydalanish kuchaya bordi. Bular, albatta, davrning ma'naviy, iqtisodiy va siyosiy dunyosidagi o'zgarishlar natijasi edi. Bundan tashqari, antik dunyoda yangi din – xristian dinining keng yoyila boshlashi ham bu inqirozning sababi bo'ldi.

Xristian dini antik dunyoqarash va estetikasiga qarama-qarshi o'laroq, yerdagi lazzatlardan, jismoniy go'zallikdan zavqlanishni gunoh deb targ'ib etdi va shu bilan birga, asta-sekin o'rta asr san'atining yo'nalishiga yo'l ochdi.

IV–VII asrlarda Rimning *varvar*lar tomonidan talanishi san'atning ravnaqini to'xtatib qo'ydi. Rim san'ati antik dunyo san'ati taraqqiyotiga yakun yasadi. Rimning qulashi bilan antik dunyo san'ati tarixi ham tugallandi. Lekin bu yerda boshlangan an'analar O'rta asr san'atida davom etdi. Uyg'onish davri kishilari bu san'atdan zavqlandi, ilhomlandi. Bu san'at an'analari XVII–XIX asrlarda ham ko'pchilikni o'ziga tortdi. Rim san'ati hozirgi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Yuksak professional mahorat, nozik did va aniq g'oyaviy yo'nalishda yaratilgan qadimgi Rim ustalarining nodir asarlari bu kunda ham san'atkorlar uchun taqlid maktabi bo'lib qolmoqda. O'zbekiston davlat san'at muzeyida ham rim haykaltaroshlik san'ati namunalaridan olingan ko'chirma nusxalar mavjud, masalan, O'zbekiston Davlat muzeyidagi Rimlik haykali.

Seminar savollari:

1. *Respublika davri Rim haykaltaroshlik portretlari: shakllanish xususiyatlari, rivoji.*
2. *Troyan davri Rim arxitektura va tasviriy san'ati.*
3. *Yuliy-Klavdiylar davri Rim arxitektura va tasviriy san'ati.*
4. *Severlar davri Rim arxitektura va tasviriy san'ati.*
5. *Adrian davri Rim arxitektura va tasviriy san'ati*
6. *Flaviylar davri Rim arxitektura va tasviriy san'ati.*
7. *Avgust davri Rim arxitektura va tasviriy san'ati.*
8. *Antonin Piy, Mark Avreliy, Kommod davri Rim arxitektura va tasviriy san'ati.*

Referat uchun mavzular:

1. *Qadimgi Yunoniston dumaloq haykaltaroshlik san'ati rivojida o'ziga xos xususiyatlar (gomer davri, arxaika, klassika, ellinizm).*
2. *Yunon ibodatxonalari frontonidagi kompozitsiyalar (arxaika, klassika).*
3. *Rim triumfal arkalari. Rivojlanish tarixi, asosiy yodgorliklar (mil. av. I – milodiy IV asrlar).*
4. *Yunoniston va Rim haykaltaroshlik portretlari. Qiyosiy tahlil.*
5. *Qadimgi Yunoniston dumaloq haykaltaroshlik san'atida inson obrazi (arxaika, klassika, ellinizm).*
6. *Qadimgi Yunoniston ibodatxonalarida bezak xususiyatlari: fronton, frizlar (arxaika, klassika, ellinizm).*
7. *Rim va Yunon teatrlar arxitekturasi: qiyosiy tahlil.*
8. *Rim haykaltaroshlik portretlari rivojlanish bosqichlarining o'ziga xos jihatlari.*
9. *Rim respublika va imperiya davri forumlar arxitekturasi.*
10. *Rim tantanali inshootlari. Tarixi, bezak xususiyatlari (arka, ustunlar).*
11. *Yunoniston doriy inshootlari: konstruktiv va badiiy xususiyatlar.*
12. *Yunoniston ioniy inshootlari: konstruktiv va badiiy xususiyatlar.*
13. *Qadimgi Yunon keramikasi: rivojlanish tarixidagi davrlari, muhim markazlari, ustalari.*
14. *Rim mozaikasi: muhim markazlari, rivojidagi davrlar.*
15. *Yunon moxobatli rang-tasviri: klassika va ellinizm rassomlari.*
16. *Rim mahobatli rang-tasviri.*
17. *Afina Akropol ansambli.*
18. *Palmiradagi arxitektura kompleksi.*
19. *Pompey arxitektura va rang-tasviri.*
20. *Rim termalari.*
21. *Yunon va Rim shaharsozligi: qiyosiy tavsif.*
22. *Yunon va Rim maqbaralari: qiyosiy tavsif.*
23. *Yunon va Rim arxitekturasi: order tizimida o'ziga xoslik.*

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR

1. Respublika davri Rim arxitekturasi: asosiy xususiyatlari, rivojlanish davrlari, qurilmalar turi.

2. Всеобщая история архитектуры в 12 томах. Том 2. Древняя Греция и Древний Рим. — М.: 1973.

3. Всеобщая история искусств в 6 томах. Том 1. — М.: 1961.

4. Витрувий. Десять книг об архитектуре. Пер. Ф.А. Петровского. — М.: 1936.

5. Джунтоли С. Искусство и история Помпеи. Рус. издание. — М.: 2006.

6. Колпинский Ю.Д., Бритова Н.Н. Искусство Этрусков и Древнего Рима. — М.: 1982. С. 55–68.

7. Кривченко В.И. Помпеи. Геркуланум. Стабии. — М.: 1981.

8. Михайловский И.Б. Архитектурные формы античности. — М.: 2006.

9. Ривкин Б.И. Античное искусство. — М.: 1972. С. 237–250.

10. Соколов Г.И. Искусство Древнего Рима. — М.: 1971. С. 38–61.

Respublika davri Rim san'ati (haykaltaroshlik, rang-tasvir, amaliy bezak san'ati).

1. Всеобщая история искусств в 6 томах. Том 1. — М.: 1961.

2. Бритова Н.Н., Лосева Н.М., Сидорова Н.А. Римский скульптурный портрет. — М.: 1975.

3. Джунтоли С. Искусство и история Помпеи. Русское издание. — М.: 2006.

4. Колпинский Ю.Д., Бритова Н.Н. Искусство Этрусков и Древнего Рима. — М.: 1982. С. 68–75.

5. Кривченко В.И. Помпеи. Геркуланум. Стабии. — М.: 1981.

6. Ривкин Б.И. Античное искусство. — М.: 1972. С. 250–254.

7. Соколов Г.И. Искусство Древнего Рима. — М.: 1971. С. 61–90.

8. Чубова А.П., Иванова А.П. Античная живопись. — М.: 1966. С. 95–106 (живопись эпохи республики).

Imperiya davri Rim arxitektura va tasviriy san'ati.

1. Oktavian Avgust davri. Arxitektura va tasviriy san'at.

2. Всеобщая история архитектуры в 12 томах. Том 2. Древняя Греция и Древний Рим. — М.: 1973.

3. Всеобщая история искусств в 6 томах. Том 1. — М.: 1961.

4. Колпинский Ю.Д., Бритова Н.Н. Искусство Этрусков и Древнего Рима. — М.: 1982. С. 75–88.

5. Ривкин Б.И. Античное искусство. — М.: 1972. С. 255–258.

6. Соколов Г.И. Искусство Древнего Рима. — М.: 1971. С. 91–124.

7. Федорова Е.В. Императорский Рим в лицах. — М.: 2002.

8. Чубова А.П., Иванова А.П. Античная живопись. — М.: 1966. С. 107–115 (живопись первой половины I в. н. э.)

Yuliy-Klavdiyalar sulolasi hukmronlik davri Rim imperiyasi arxitektura va tasviriy san'ati.

1. Всеобщая история архитектуры в 12 томах. Том 2. Древняя Греция и Древний Рим. — М.: 1973.

2. Всеобщая история искусств в 6 томах. Том 1. — М.: 1961.

3. *Колпинский Ю.Д., Бритова Н.Н.* Искусство Этрусков и Древнего Рима. М., 1982. С. 75–88.

4. *Соколов Г.И.* Искусство Древнего Рима. — М.: 1971. С. 125–128.

5. *Федорова Е.В.* Императорский Рим в лицах. — М.: 2002.

6. *Чубова А.П., Иванова А.П.* Античная живопись. — М.: 1966. С. 107–115 (живопись первой половины I в. н. э.)

7. Флавийлар сулоласи хукумронлик даври рим империяси архитектура ва тасвирий санъати.

8. Всеобщая история архитектуры в 12 томах. Том 2. Древняя Греция и Древний Рим. — М.: 1973.

9. Всеобщая история искусств в 6 томах. Том 1. — М.: 1961.

10. *Колпинский Ю.Д., Бритова Н.Н.* Искусство Этрусков и Древнего Рима. — М.: 1982. С. 75–88.

11. *Ривкин Б.И.* Античное искусство. — М.: 1972. С. 258–268.

12. *Соколов Г.И.* Искусство Древнего Рима. — М.: 1971. С. 128–156.

13. *Чубова А.П., Иванова А.П.* Античная живопись. — М.: 1966. С. 116–123 (живопись Нерона Флавиев).

14. Imperator Troyan hukmronlik davri Rim imperiyasi arxitektura va tasviriy san'ati.

15. Всеобщая история архитектуры в 12 томах. Том 2. Древняя Греция и Древний Рим. — М.: 1973.

16. Всеобщая история искусств в 6 томах. Том 1. — М.: 1961.

17. *Колпинский Ю.Д., Бритова Н.Н.* Искусство Этрусков и Древнего Рима. — М.: 1982. С. 88–98.

18. *Ривкин Б.И.* Античное искусство. — М.: 1972. С. 279–286.

19. *Соколов Г.И.* Искусство Древнего Рима. — М.: 1971. С. 157–174.

20. *Чубова А.П., Иванова А.П.* Античная живопись. — М.: 1966. С. 124–136 (живопись II— М.: V вв. н. э.).

21. Imperator Adrian hukmronlik davri Rim imperiyasi arxitektura va tasviriy san'ati.

22. Всеобщая история архитектуры в 12 томах. Том 2. Древняя Греция и Древний Рим. — М.: 1973.

23. Всеобщая история искусств в 6 томах. Том 1. — М.: 1961.

24. *Колпинский Ю.Д., Бритова Н.Н.* Искусство Этрусков и Древнего Рима. — М.: 1982. С. 88– М.: 98.

25. Ривкин Б.И. Античное искусство. — М.: 1972. С. 286. — М.: 290.
26. Соколов Г.И. Искусство Древнего Рима. — М.: 1971. С. 175. — М.: 186.

Imperatorlar Antoniy Piy, Mark Avreliy, Komod hukmronlik davri Rim imperiyasi arxitektura va tasviriy san'ati.

1. Всеобщая история архитектуры в 12 томах. Том 2. Древняя Греция и Древний Рим. — М.: 1973.
2. Всеобщая история искусств в 6 томах. Том 1. — М.: 1961.
3. Колпинский Ю.Д., Бритова Н.Н. Искусство Этрусков и Древнего Рима. — М.: 1982. С. 88–98.
4. Соколов Г.И. Искусство Древнего Рима. — М.: 1971. С. 187–204.
5. Чубова А.П., Иванова А.П. Античная живопись. — М.: 1966. С. 124–136 (живопись II–V вв. н. э.).

Milodiy III–IV asrlar Rim imperiyasi arxitektura va tasviriy san'ati. Umumiy tavsif, rivojidadagi asosiy bosqichlar.

1. Всеобщая история архитектуры в 12 томах. Том 2. Древняя Греция и Древний Рим. М, 1973.
2. Всеобщая история искусств в 6 томах. Том 1. — М.: 1961.
3. Колпинский Ю.Д., Бритова Н.Н. Искусство Этрусков и Древнего Рима. — М.: 1982. С. 103–112.
4. Ривкин Б.И. Античное искусство. — М.: 1972. С. 312–326.
5. Римский скульптурный портрет III в. и художественная культура того времени. — М.: 1983.
6. Соколов Г.И. Искусство Древнего Рима. — М.: 1971. С. 205–222.
7. Чубова А.П., Иванова А.П. Античная живопись. — М.: 1966. С. 124–136 (живопись II–V вв. н. э.).

Rimga tobe bo'lgan davlatlar arxitektura va tasviriy san'ati: G'arbiy va Sharqiy Yevropa.

1. Всеобщая история архитектуры в 12 томах. Том 2. Древняя Греция и Древний Рим. — М.: 1973.
2. Всеобщая история искусств в 6 томах. Том 1. — М.: 1961.
3. Колпинский Ю.Д., Бритова Н.Н. Искусство Этрусков и Древнего Рима. — М.: 1982. С. 99–102.
4. Чубова А.П., Иванова А.П. Античная живопись. — М.: 1966. С. 157–166 (живопись и мозаика западных провинций — Галлия, Германия, Британия, Придунайские провинции).
5. Чубова А.П. Искусство Европы I–IV веков. — М.: 1970.
6. Rimga tobe bo'lgan davlatlar arxitektura va tasviriy san'ati: O'rta yer dengizi sharqiy sohillari va Afrika.

7. Всеобщая история архитектуры в 12 томах. Том 2. Древняя Греция и Древний Рим. — М.: 1973.
8. Всеобщая история искусств в 6 томах. Том 1. — М.: 1961.
9. *Колпинский Ю.Д., Бротова Н.Н.* Искусство Этрусков и Древнего Рима. — М.: 1982. С. 99–102.
10. *Чубова А.П., Иванова А.П.* Античная живопись. — М.: 1966. С. 137–156 (живопись Сирии, Египта, Северной Африки).
11. *Чубова А.П., Касперавичюс М.М., Саверкина И.И., Сидорова Н.А.* Искусство Восточного Средиземноморья I–IV веков. — М.: 1985.
12. *Чубова А.П., Сидорова Н.А.* Искусство римской Африки. — М.: 1979.

♦ *19-mavzu.*

O‘RTA ASRLAR SAN‘ATI

Ma‘ruza mazmuni:

O‘rta asrlar san‘ati. O‘rta asrlarda Sharq va G‘arb san‘ati umumiy xarakteri. Sharq va G‘arbda o‘rta asrlar tarixining davriy chegarasi, rivojlanishidagi asosiy bosqichlar. Asosiy dinlarning (xristian, islom, buddizm) o‘rta asrlar san‘ati shakl va mazmuniga ta‘sir. O‘rta asrlar san‘atining avvalgi quldorlik tuzumi (Antik davri) san‘atidan farqi, uning progressiv tomonlari.

Yer yuzida feodalizm tuzumining paydo bo‘lishidan tortib, uning rivojlanishi va nihoyat, uning inqirozidan keyingi tuzumga o‘rnini bo‘shatib bergungacha bo‘lgan davrdagi san‘atni, odatda, o‘rta asrlar san‘ati deyiladi. Bu san‘at turli mamlakatlarda turli vaqtda boshlangan va davom etgan. Jumladan, Yevropada u Buyuk Konstantin podsholik qilgan davrdan (IV asr) boshlanadi. Uning dastlabki inqirozi esa XIII–XIV asrlardagi Italiyada shahar-davlatlarning vujudga kelishi bilan tezlashdi. Yevropadagi ayrim mamlakatlarda feodalizm VII–III asrlar va undan kech ham boshlanib, XVII asrning so‘ngigacha davom etgan (masalan, Vizantiya, Qadimgi Rus).

Aksincha, Sharq mamlakatlarida (masalan, Xitoy, Hindistonda) o‘rta asrchilik birmuncha erta boshlangan. Lekin uning inqirozi cho‘zilib ketib, XIX asrgacha va undan keyinroq ham davom etgan.

O'rta asrlar insoniyat kamolotining muhim davrini ifodalaydi. Bu davr keyingi jahon xalqlari iqtisodiy va milliy madaniyatining rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi, uning taraqqiyotini tezlashtirishda o'zining kuchli hissasini qo'shdi. O'rta asr san'ati o'z xarakteri jihatidan ommaviy san'at bo'lib, uning yaratuvchisi esa xalqdir. Gap shundaki, o'rta asrlarda san'at keng xalq ommasiga qaratildi. Quldorlik davrida jamiyatning ma'naviy va fuqarolik huquqlaridan mahrum bo'lgan qul o'rta asrlarda huquqsiz va xo'jayiniga qaram bo'lib qolgani holda jamiyat a'zosi deb tan olindi. Krepostnoyning o'z xususiy xo'jaligiga ega bo'lishi, ishlab chiqarish vositalari bilan ish ko'rishi, qo'shimcha mahsulotning bir ulushini o'zida qoldirishi mumkinligi ishlab chiqarishni rivojlantirishdan manfaatdorligini oshirdi, ommaning ongi o'zgara boshladi. Quldorlik tuzumining inqirozga yuz tuta boshlagan davrida paydo bo'lgan tenglik tushunchasi bu davrga kelib, yanada baralla jarangladi. Natijada, o'rta asr dehqonlari yagona jamoa sifatida, shaharlarda esa shahar kommunasi atrofida birlashib, feodallarga qarshi chiqa boshladilar. Bu, o'z navbatida, feodalizmga nisbatan progressiv bo'lgan kapitalistik tuzumning elementlarini shakllantira bordi.

Feodalizmning paydo bo'lishi u bilan bog'liq bo'lgan mahalliy ishlab chiqarish kuchlarining yuzaga kelishini, yirik shahar va qishloqlardan uzoqdagi joylarga ham madaniyat yutuqlarining kirib kelishini ta'minladi. Madaniyatning keng omma orasiga singish davri boshlandi. Omma ham shu madaniyatni yaratuvchi kuchga aylandi. Shu davrdan boshlab, milliy, o'ziga xos san'at shakllana bordi, juda ko'p mahalliy maktablar paydo bo'la boshladi. Xalq san'ati, amaliy-dekorativ san'at rivojlandi, san'atda sintez masalalari ham ravnaq topa bordi. Ikkinchi tomondan, o'rta asrlarda din feodallar ustidan hukmron va shu bilan birga, ularning hi-moyachisi bo'lib qoldi. Ommani hukmron sinfga tobe qiluvchi qurolga aylandi. Shu maqsadda din targ'ibotchilari san'at im-koniyatlaridan o'z faoliyatlarida foydalandilar va davrning asosiy buyurtmachisiga aylanib, uning o'ziga xos tomonini belgilashda muhim rol o'ynadilar. Buni xristian dini tarqalgan yerlarda cherkovlar, islom dini mamlakatlarida masjidlar, buddizm mavjud

bo'lgan joylarda budda va uning hayoti bilan bog'liq bo'lgan ziyoratgohlar, ibodatxonalar paydo bo'lishi, ularning konstruktiv tuzilishi, xarakteri, badiiy bezatilishida ko'rish mumkin. Albatta, o'rta asrlar san'atida faqat din mafkurasidan boshqa mafkura yo'q deyish noto'g'ri bo'lardi. Hayot go'zalligini tarannum etuvchi, tabiat latofatini aks ettiruvchi asarlar ham yo'q emas. Xalq fantaziyasi bilan yaratilgan ertak va dostonlarda, tasvir va haykallarda ularning oliyanoblik, insoniylik, ma'naviy poklik to'g'risidagi tushunchalari, o'y-xayollari, orzu-istaklari o'z ifodasini topgan.

O'rta asrlar san'ati haqida fikr yuritganda, uning badiiy tili to'g'risida ham gapirish kerak bo'ladi. Chunki o'rta asr rassomi uchun faqat voqelikni o'ziga o'xshatish emas, balki shu ishlagan tasviri orqali biror-bir fikrni bayon etish, his-tuyg'uni ifodalash muhimdir. Shu maqsadda u voqelik tasvirini ishlaganda uning deformatsiyasiga yo'l qo'yishdan ham cho'chimaydi (endi uning uchun jismoniy go'zallik yo'q), xayoliy, ramziy obrazlardan, turli belgi va allegoriyalardan ham foydalanadi. Natijada, uning asarlaridan havo siqib chiqariladi. Perspektiv tasvir o'rnini shartli, dekorativ plandagi kompozitsiyalar egallaydi. Jismoniy go'zal, manaviy barkamol inson obrazi (antika klassikasi ideali) iztirob chekayotgan, jismoniy zaif, tabiat oldida ojiz inson qiyofasi bilan almashadi. Antikaning shakl realizmi borasida erishgan yutuqlari o'rniga, endilikda mazmun realizmi inson his-tuyg'ularini ifodalash realizmi bilan almashdi. Bunda o'rta asrlar san'atining ham yutug'i, ham chekinishi seziladi. Bundan tashqari, o'rta asrlar rassomi birinchi bo'lib, onalik mehrining, tabiatining murakkab va ziddiyatli ko'rinishini ta'sirchan ifoda eta oldi.

O'rta asrlar san'atida me'morchilik yetakchi o'rinni egalladi. Bizgacha mahalliy o'rta asrlar me'morchilik san'atining juda ko'p nodir yodgorliklari saqlanib qolgan. Buyodgorliklar, ayniqsa, monumental me'morchilik san'ati o'rta asrlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotini o'rganishda muhim o'rinni egallaydi. Ular davrning diniy, falsafiy qarashlarini aks ettiribgina qolmay, inson aql-zakovatining qudratini ulug'laydi.

Bu davrda qurilgan Yevropadagi ibodatxonalar, musulmon sharqidagi hashamatli masjidlar, buddizm yodgorliklari o'rta asr

tafakkurining mahsuli, insoniyat tarixining haykali sifatida hanuzgacha kishilar qalbini to'ldirantiradi. Buyuk inson aql-zakovati qudratiga ta'zim etishga da'vat etadi.

Seminar savollari:

1. *O'рта asr tushunchasi va Yevropa san'atini davrlashtirish.*
2. *O'рта asrlar Yevropa san'atining o'ziga xos xususiyatlari.*
3. *O'рта asrlarda tasviriy san'atning umumiy xarakteri.*
4. *O'рта asrlar san'atining avvalgi antik davr san'atidan farqi, uning progressiv tomonlari.*

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR

O'рта asrlar. Yevropa

1. Всеобщая история искусств /ред. коллегия/. В 6 ти томах. /т.2 книга 1.2 /— М.: «Искусство», 1960.
2. Всеобщая история архитектуры /ред. коллегия/. В 12 ти томах/ Т.2. — М.: 1970.
3. История искусства зарубежных стран /средние века, возрождение, //под редак. Ц.Г. Нессельштраус/. — М.: 1982.
4. *Арган Дж.К.* История итальянского искусства. — М.: 1990. т.1.
5. *Бицилли П.М.* Элементы средневековой культуры. — СПб.: 1995.
6. *Гуревич А.Я.* Категория средневековой культуры. — М.: 1984.
7. *Гуревич А.Я.* Средневековый мир. Культура безмолвствующего большинства. — М.: 1990.
8. *Данилова И.Е.* От средних веков к Возрождению. — М.: 1975.
9. *Даркевич В.П.* Путиами средневековых мастеров. — М.: 1972.
10. *Нессельштраус Ц.Г.* Искусство раннего средневековья. — СПб.: «Азбука» 2000. — 384с.,ил./МРДИ/.
11. *Тяжелов В.Н.* Искусство средних веков. — М.: 1968.
12. *Тяжелов В.Н., Сопотинский О.И.* Искусство средних веков. — М.: 1975.
13. *Эко У.* Эволюция средневековой эстетики. — СПб.: Азбука-классика, 2004.

◆ **20-mavzu.**

VIZANTIYA SAN'ATI

Ma'ruza mazmuni:

Vizantiya madaniyati va san'atining jahon hazinasiga qo'shgan hissasi. VI–VII asr me'morchiligi. Konstantinopoldagi avliyo Sofiya ibodatxonasi. Monumental rang-tasvir san'ati.

IX–XII asrlar Vizantiya san'ati. Konstantinopoldagi fuqarolik inshootlari. Konstantinopoldagi avliyo Sofiya dafni, Sitsiliyadagi Chefalu ibodatxonasi devorlariga ishlangan mahobatli mozaika.

XIII–XV asrlar san'ati. Mahobatli rang-tasvir. Ikona san'ati, miniatura. Vizantiya me'morchilik an'alarining Usmoniy Turkiya me'morchiligiga ta'siri.

O'rta asrning muhim madaniyat o'choqlaridan biri Vizantiya davlatidir. Sharqiy Rim imperiyasi o'rnida 395-yili vujudga kelgan bu davlat 1453-yilgacha hukmronlik qildi.

Varvarlar hujumidan birmuncha chetda bo'lgan bu davlat uzoq vaqt antik hayot va madaniyat an'alarini saqlagan holda, asta-sekinlik bilan yangi tuzum-feodalizmga o'ta boshladi. Bu yerda antik san'at an'analari e'zozlandi va davom ettirildi. Shu bilan birga, bu an'alar mustahkamlanib borayotgan feodalizm g'oyalari, xristian dini g'oyalari bilan boyitildi.

Vizantiya san'atida ideal obrazga bo'lgan munosabat o'z qiymatini saqlab qoldi. Inson qiyofasi xristian xudosi va avliyolar obrazida o'z ifodasini topdi. Vizantiyada ilohiy kuch — Iso obrazi mavhum shaxs emas, balki real inson qiyofasida tasavvur qilinadi. Shuning uchun ham u antik dunyo bilan bog'lanadi. Lekin vizantiyalik rassom uchun tashqi qiyofa emas, balki ichki his-tuyg'u, ma'naviy-axloqiy mazmun yetakchi o'rinni egallaydi. Iso obrazida shu ichki mazmuni ochish uning asosiy maqsadini belgilaydi.

Vizantiya san'atining o'ziga xos tomonlari IV asrda uning maydoniga xristian dinining kirib kela boshlagan davridan shakllana bordi. Bu xususiyat Vizantiyaning dastlabki gullagan davri — VI–VII asrlarda yaqqol namoyon bo'ldi.

Konstantinopol bu davrda katta Vizantiya imperiyasining faqat siyosiy markazi emas, balki madaniy o'chog'iga ham aylandi. «Ikkinchi Rim» deb nom olgan bu shaharda mahobatli qurilish san'ati rivojlandi. Bu yerda hashamatli monastir va ibodatxonalar majmuasini yaratish yetakchi o'rini egalladi. Bu ansambl tiplari rang-barang. Ayniqsa, Vizantiya uchun antik ijtimoiy ma'muriy binolarini qurish san'ati an'analari asosida qurilgan markaziy gumbazli va cho'ziq bazilika tipidagi ibodatxonalar qurilishi xarakterlidir. Bu binolarda ichki interyerning fazoviy kengligi xristian ibodati talabi asosida yechilgandir. Bu binolar tashqi

ko‘rinishidan sodda, vazmin, lekin ichki kenglik nihoyatda nafis va serhashamdir. Shu maqsadda me‘mor interyer uchun yorqin, serjilo marmar, oltin va shunga o‘xshash qimmatbaho materiallardan keng foydalangan. Xona ichida nur va soyaning mo‘lligi unga alohida sirli va sehrli kuch baxsh etgan. Ilk Vizantiya ibodatxonasining namunasi – Ravennadagi uch nefli Sant Apollonare Nuovobazilikasida shu xususiyat o‘z ifodasini topgan.

Cho‘ziq-bazilika tipida ishlangan bu ibodatxonaning markaziy keng nefi tepadagi darchalardan tushayotgan nurlar hisobiga yanada tantanavorlik kashf etadi. Yon neflar ustunlarning ritmini yanada oshiradi. Asosiy diqqatni diniy marosimlar o‘tkaziladigan maydonga yo‘naltiradi. Ravennadagi markaziy qubbali San Vitale-cherkovining (521–547) ichki qismi – devor va pollari rangga boy mozaika bilan bezatilgan, rangli marmar bilan pardozlangan.

Vizantiya me‘morchiligi uslubi grek va Rim me‘morchiligi an‘analarining mahalliy an‘analar bilan uyg‘unlashishidan vujudga keldi. Jumladan, Konstantinopoldagi Sofiya ibodatxonasi o‘z konstruktiv tuzilishi jihatidan Panteon ibodatxonasi konstruksiyasiga o‘xshab ketadi, lekin bu o‘xshashlik birmuncha yashirangan holda talqin etilishi bilan xarakterlanadi.


Vizantiyaliklar grek-rim arka-gumbaz tizimidan ham o‘z maqsadlarini ifodalash uchun foydalanganlar. Vizantiya me‘morchiligida xona kengligiga alohida e‘tibor berilishini ta’kidlash lozim. Interyer azosi aktiv, ta’sirchan, hayajonli. Xona ichining kengligi, cheksiz va ulug‘vor bo‘lib tuyulishi, serhashamligi bilan kishiga psixologik ta’sir o‘tkazishga qaratilgan.

Vizantiya san’atida rang-tasvir yetakchi o‘rinni egallaydi. Bu yerda birinchi bor haykaltaroshlik o‘zining yetakchiligini yo‘qotdi. Shu yerdan antik mavzudan yangi xristian mavzusiga o‘tish amalga oshirila boshlandi. Iso obrazining ikonagrafik tasviri, apostollar, Bibi Maryam va avliyolar tasviri ikonografiyasi yaratilib, boshqa yerlarga tarqatildi. Vizantiya rang-tasvirining nodir namunasi – XII asr I yarmida konstantinopollik usta tomonidan ishlangan «Vladimir Bibi Maryami» ikonasi hisoblanadi.


Vizantiya san’ati va madaniyati jahon xalqlari san’ati va madaniyatining rivojlanishiga katta ta’sir o‘tkazdi. Jumladan, bu



1-rasm. Avliyo Sofiya ibodatxonasi



2-rasm. Avliyo Sofiya ibodatxonasi. Interyer



**3-rasm. Avliyo Sofiya
ibodatxonasi. Aksonometriya**



**4-rasm. Vladimir Bibi
Maryami. XII asr I yarmi**

madaniyat janubiy slavyanlarga o'z-
ta'sirini ko'rsatdi, Rus san'ati va ma-
daniyati taraqqiyotida muhim rol
o'ynadi.

Vizantiya me'morchiligi, ikona
ishlash san'ati, amaliy san'at namu-
nalari ko'pgina xalq san'atkorlari
uchun namuna maktabi vazifasini
o'tadi.

Seminar savollari.

1. *Vizantiya imperiyasining paydo bo'lishi va san'atning o'ziga xos xususiyatlari.*
2. *V–VII asrlarda Vizantiya me'morchilik san'ati.*
3. *V–VII asrlarda Vizantiya tasviriy san'ati: mozaika va miniatura.*

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR

1. Vizantiya san'ati
2. *Банк А.В. Культура и искусство Византии IV–XV вв. — М.: 1975.*
3. *Даркевич В.П. Светское искусство Византии. — М.: 1975.*
4. *Лазарев В.Н. Византийская живопись. — М.: 1971.*
5. *Лазарев В.Н. История византийской живописи, т. 1-2. — М.: 1947–1948.*

G'ARBIY YEVROPA DAVLATLARI

♦ 21-mavzu.

VARVARLAR VA FRANKLAR DAVRI SAN'ATI

Ma'ruza mazmuni

O'rta asrlarda Yevropa xalqlari san'ati. «Varvar» qirolligi va franklar imperiyasi davri san'ati. Rim imperiyasining qulashi, quldorlik tuzumning yemirilishi. Erkin dehqonlar tomonidan feodal tuzumidan oldin tashkil etilgan jamiyatlar. Xristian dinining tarqalishi. Merovinglar me'morchiligi, tasviriy san'ati, amaliy san'at. Buyuk Karl imperiyasining parchalinishi yangi mustaqil davlatning vujudga kelishi.

III asrda quldorchilik tuzumi inqirozga uchraydi. Buning inqirozga yuz tutishiga qullarning qo'zg'olonlari va varvarlarning tez-tez qilib turgan hujumlari qattiq ta'sir qildi. G'arbiy Yevropada feodalizm tuzumi rivojlana bordi. Rim imperiyasining qulashi bilan bu jarayon yanada tezlashdi. G'arbiy Yevropada mayda feodalliklarning tashkil topishi san'at va madaniyatga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Varvarlar va antik san'at an'alarining o'zaro ta'sirida Yevropa o'rta asr san'ati boshlandi. Gap shundaki, varvar qabilalari (franklar, vestgot, ostgot, anglosaks, vandallar va h.k.) o'ziga xos boy madaniyatga ega edi. Bu an'analar keyinchalik grek-rim an'analari bilan qo'shib rivojlandi. Lekin o'zining xarakterli tomonini saqlab qolgani holda, Old Osiyo, Gretsiya, Rim badiiy madaniyati ta'sirida boyib bordi va nihoyat, u bilan birlashdi. Bu san'at, o'z navbatida, ularning san'atiga ham ta'sir qildi. Bu ta'sir forma dinamikasi va ekspressiyasida, kompozitsion tuzilishi va naqqoshlikda namoyon bo'ldi. G'arbiy Yevropaning ko'pgina xalqlari ibtidoiy tuzumdan so'ng quldorlik tuzumini boshidan kechirmay turib, feodal tuzumga o'tishi muhim bo'ldi. «Varvarlar» san'atida ibtidoiy tuzumga xos folklor tushunchalar, tasavvurlar mavjud edi. Ular Rim imperiyasini istilo etib va talon-toroj qilib, u yerda endi shakllanib kelayotgan feodal munosabatlarga duch keldilar, Rim xristian dini ta'sirida qoldilar. Natijada, V–VIII asrlarda ibtidoiy jamoa tuzumi qoldiqlaridan qutulish davrini

boshidan kechira boshladi. Varvarlar siyosiy g'alabaga erishganlari sari, Rimda xristian dini, cherkovlarning roli orta boshladi. Din kishilar psixologiyasi, ruhiy olamiga ta'sir etishning muhim vositasi bo'la boshladi.

G'arbiy Yevropa o'rta asrlar san'ati o'zida ijtimoiy tuzum o'zgarishini ifodaladi va varvarlar san'atining ko'p an'alarini qabul qildi. Vizantiya san'ati o'z xarakteri jihatidan birmuncha aristokratik xususiyatga ega edi. Vizantiyalik san'atkor o'z idealini hamma narsaga qodir, garmonik rivojlangan, hukmdor Iso obrazida ko'rsa, varvarlar esa Isoni oddiy duradgor o'g'li, dushmanlar tomonidan butga mixlangan va og'ir azob-uqubatga duchor bo'lgan obraz qiyofasida tasavvur qiladi. Bibi Maryam koinot onasi, mag'rur ayol emas, balki insonlar g'amida yashaydigan, qayg'uradigan inson qiyofasida gavdalanadi.

Vizantiya san'ati o'z xarakteri jihatidan obraz barkamolligiga intilsa, varvarlar esa ba'zan majruh, mayib, jismoniy hunuk obrazlarni tasvirlashdan ham cho'chimaydi. Bu bilan varvarlar san'atkori san'atning estetik imkoniyatlarini yanada kengaytirdi.

G'arbiy Yevropa san'atkori antik an'analarga qarama-qarshi holda jismonan kam rivojlangan, ba'zida majruh, xo'rlangan inson obrazlarida ham ma'naviy oliyanoblikni ko'ra oladi.



5-rasm. Qirol Teodorix maqbarasi

X asrdan XIII asrgacha G'arbiy Yevropada varvarlar san'atining an'analari muhim o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham bu davr varvarlar san'ati davri deb, Merovinglar sulolasi hukmronlik qilganligi uchun ba'zan merovinglar san'ati davri deb ham ataladi (bu ibora ko'proq Fransiya san'atiga nisbatan qo'llaniladi).

Ilk varvar me'morchiligiga oid yodgorliklar kam saqlangan. Shuning uchun bu san'at haqidagi ma'lumotlarni adabiy manbalardan olamiz. Ma'lumotlarga ko'ra, binolar yog'ochlardan qurilgan bo'lib, o'ymakorlik bilan bezatilgan.

Xristian dini qabul qilinishi bilan bu yerda ham bazilika tipidagi binolar qurilishi rivojlana borgan. Qurilishda tosh va g'ishtlardan foydalanila boshlangan. Shunday dastlabki yodgorlik Ravennadagi qirol Teodorix maqbarasi edi.


526–530-yillarda qurilgan bu maqbara ko'rinishi jihatdan birmuncha qo'pol bo'lsa-da, salobatli va vazminligi bilan yaxshi taassurot qoldiradi.

Varvarlar madaniyatida ornamental-dekorativ san'at keng o'rinni egalladi. Uning ta'siri rassomchilik (kitob miniaturasi), haykaltaroshlikda ham seziladi. Asarni naqqosh kompozitsiyasidagi chiziq plastikasi, massa ritmi va jimjimadorligiga o'xshatib ishlaydilar. Bu xususiyat buyumlarni stillashtirishni taqazo etadi. Natijada, hatto odam tasviri ham tomoshabin ko'z o'ngida naqsh elementi sifatida namoyon bo'ladi. Yevropa miniatura maktabi bo'lgan Niderlandiyada ishlangan suratlarida ham shu xususiyat yaqqol ko'rinadi. O'ymakorlik va amaliy bezak san'ati Skandinaviyada rivojlandi. Uy buyumlari, mehnat va jang qurollari ham serjil va o'yma naqshlar bilan bezatildi.

VIII asrning so'ngi choragi, IX asrning I yarmida Buyuk Karl, o'rta asrda birinchi kuchli imperiyani barpo etadi.

Bu imperiya davridagi san'at «korolinglar» san'ati deb nomlanadi. Uning gullagan davri IX asrning I yarmi va o'rtalariga to'g'ri keladi.

Korolinglar davri san'ati antika an'analarini o'zlashtirish, merovinglar va normandlar san'ati hamda sharq xalqlari, birinchi galda, Suriya san'atidan ta'sirlanish va taqlid qilish natijasida kamol topdi. Bu xususiyat me'morchilik, tasviriy va amaliy san'atda o'z ifodasini topdi. Buyuk Karlning Aaxendagi VIII asrda qurilgan kapellasi o'z xarakteri jihatidan shu yerda qurilgan San Vitalliy cherkovini eslatadi. Lekin ko'rinish jihatidan unga nisbatan



6-rasm. Buyuk Karlning Aaxendagi kapellasi

qo'pol va salobatli. Korolinglar davrida markaziy qubbali cherkovlar qurilishi keng yoyildi. Yuqorida nomlari aytilgan cherkovlar shu tipga mansubdir.

Yozuv manbalariga ko'ra, korolinglar davrida saroy, cherkov va monastirlar devori al-fresko va mozaika texnikasidagi suratlar bilan bezatilgan. Saqlanib qolgan ayrim bino devorining suratlari bu ma'lumotlarni to'ldirib, bu suratlarda Sharq va ilk xristian davri san'ati ta'siri borligini ko'rsatadi. Bu suratlarda voqelik real shakllarda, yorqin bo'yoqlarda ishlangan. Ayniqsa, ko'k va oltinrang ko'p ishlatilgan. Korolinglar davri rassomligi, uning xarakteri va mazmuni to'g'risida kitoblarga ishlangan miniaturalar ko'pgina ma'lumotlar beradi. Guashda ishlangan bu suratlar din ideologiyasi bilan bog'liq bo'lib, kompozitsiyasi va koloritining dekorativligi bilan ajralib turadi. Kumush va oltindan buyumlar ishlash borasida ham jiddiy yutuqlar qo'lga kiritilgan. Bronzadan ishlangan haykal mavjudligi bu davrda quyish san'ati rivojlanganligidan dalolat beradi. Yog'ochdan ishlanib, uning yuzasi yupqa mis plastinkasi bilan qoplangan haykallar ham diqqatga sazovor bo'lib, korolinglar davrida bu sohada ham yuksaklikka erishilgan.

Seminar savollari:

1. *Varvarlar san'atining vujudga kelishi va xristian diniga ta'siri.*
2. *Merovinglar sulolasi hukmronlik davrida san'atga bo'lgan e'tibor.*
3. *Korolinglar davri san'ati antika an'analarini o'zlashtirishi.*

♦ 22-mavzu.

ROMAN DAVRI SAN'ATI

Tasviriy san'at va arxitektura

Ma'ruza mazmuni:

«Roman» iborasining kelib chiqishi. G'arbiy Yevropadagi Roman san'ati va me'morchiligining asosiy xususiyatlari. Me'morchilikning yetakchiligi. Uning tiplari va konstruktiv tuzilishi. Tasviriy san'atda sodir bo'lgan tendensiyalar. Fransiya san'ati. Roman san'atining rivojlanishida Fransiyaning roli. Me'morchilik. Devoriy rang-tasvir san'ati. Miniatura. Amaliy san'at. Germaniya san'ati.

Me'morchilik. Tasviriy san'at. Amaliy san'at. Italiya san'ati. Me'morchilik.

Buyuk Karl imperiyasi uzoqqa choʻzilmadi. Uning inqirozi imperator hayot vaqtida boshlandi. Vafotidan soʻng uning oʻgʻil va nabiralari orasidagi nizoning kuchayishi mamlakat osoyishtaligini buzdi. Atrofdan koʻchmanchilar hujumi ham xalq boshiga ogʻir kulfatlar keltirdi. Bu davrdan boshlab, sanʼat taraqqiyoti ham susaydi. Ilgari qurilgan binolar xarobaga aylana bordi. Nodir sanʼat yodgorliklari talandi yoki yoʻq boʻlib ketdi. Faqat X asr oxirlaridan boshlab, Yevropada hayot izga tusha boshladi. Koʻpgina yerlarda feodal munosabatlar shakllanib boʻldi. Sanʼat taraqqiyoti yangi bosqichga koʻtarila boshladi. X–XII asrlarni oʻz ichiga olgan bu taraqqiyot bosqichi roman davri deb yuritiladi. Bu davr Yevropa ijtimoiy hayotida cherkovning roli katta edi. Ayniqsa, Fransiya, Angliya, Germaniya, Ispaniyada yirik qurilish va u bilan bogʻliq boʻlgan sanʼat turlari cherkov buyurtmasi bilan yaratildi. Roman davrida meʼmorchilik yetakchi oʻrinni egalladi. Roman uslubidagi bino birmuncha past, koʻrinishi jiddiy va ogʻir. Uning devorlari ham qalin va mustahkam (chunki dushman xujumi paytida yashirinish mumkin), eshik, darvoza va derazalari ensiz. FunkSIONAL va dekorativ maqsadda qoʻllanilgan ustunlar hamda gʻalva yogʻon. Roman meʼmorchiligiga xos boʻlgan bu xususiyatlar uning oʻziga xos koʻrinishi, xarakteri va kishiga beradigan psixologik taʼsirini belgilaydi. Roman davri meʼmorchiligining yana bir xususiyati uning ichki devorlarida tekis yuzaning serobligidir. Bu xususiyat esa monumental rang-tasvirning rivojlanishiga imkoniyat yaratdi. XI asrda bu sanʼat oʻzining gullagan davrini boshidan kechirdi. Vitraj ham meʼmorchilikning ajralmas qismiga aylandi. Bu davrda haykaltaroshlik meʼmorchilik bilan bogʻliq holda rivojlandi. Bino-ning peshtoq, ustun va kapitellari, devordagi maxsus tokchalar haykaltaroshlik sanʼati bilan bezatildi. Miniatura va mayda haykaltaroshlik ham meʼmorchilik taʼsirida boʻldi. Roman meʼmorchiligi uslubining fuqaro qurilishiga taʼsiri katta boʻldi. Roman meʼmorchiligi korolinglar davri yutuqlariga tayangan holda rivojlangan boʻlsa ham, lekin uning koʻrinishiga mahalliy sharoit oʻrniga qarab antika, Vizantiya hamda arab mamlakatlari sanʼatining taʼsiri boʻldi. Feodal tarqoqlik esa roman meʼmorchiligida juda koʻp mahalliy maktablarning yuzaga kelishi va musobaqasiga sabab

bo'ldi. Bu maktablar qanchalik rang-barang bo'lmasin, ularning asosida yagona tamoyillar borligini inkor etib bo'lmaydi. Bu hol plan va konstruksiyada, dekorativ shakllar xarakterida ko'rinadi. Bu davr binolari toshdan yaratilgan bo'lib, qurilishda bazilika tipi asosiy o'rinni egalladi. Lekin bazilika avvalgi davrlardagidan farq qilib, ko'proq ikki transeptli hamda binoning cherkov xizmatkorlari, ruhoniylar uchun ajratilgan sharqiy qismi (xor) kengaytirilgan, qo'shimcha xona va yerto'lalar qurilgandir. Roman me'morchiligining o'ziga xos tomoni tomining egri ravoq (gumbaz) tarzida yopilishi va darchalarining joylashtirilishidadir. Bu qurish texnikasi mukammallashib borishi bilan keng o'rinni egallab bordi.

Me'morchilikda qo'llanilgan ustunlar va uning kapitellari har xil. Roman san'atining rivojlangan davrida esa kapitellari va ustunlar o'ziga xos haykaltaroshlik ko'rinishiga o'xshab bordi.


Bu asrga kelib, feodal turadigan alohida o'ziga xos uy tipi qasr paydo bo'ldi. Odatda, qasrning katta hovlisi, uning o'rta qismida pishiq va baland minorasimon bino (donjon) qurilgan bo'lib, u bir necha qavatli, feodal yashaydigan ko'p xonalardan tashkil topgan. O'sha asr shahar qurilishi ham feodal qo'rg'oniga o'xshash bo'lgan. Shahar atrofi qalin devor bilan o'rab chiqilgan. Qurilgan binolar bezagi kam va sodda bo'lgan. Roman tasviriy san'ati ham o'ziga xos va konkretidir. Bu davr san'atida yetakchi o'rinni haykaltaroshlik, birinchi galda bo'rtma tasvirlar (barelyef va gorelyef) egallaydi. U bevosita me'morchilik elementi sifatida qaralgani holda tomoshabinga katta mazmunni yetkazadi. Ilk roman davrida (V asr) haykallar me'morchilik formalariga qo'shib ishlandi (masalan, kapitellari, ustun va h.k.) XII asrga kelib esa u mustaqillik kashf eta bordi hamda me'morchilik ansambli bezagining ma'lum tizimiga aylandi.

Roman tasviriy san'atining o'ziga xos tomonlaridan biri — bu asar g'oyasini tomoshabinga yetkazishdir. Shu maqsaddan kelib chiqib, san'atkor voqelikni real shakllarda, aniq nisbatda, fazoviy kenglikda tasvirlashga e'tibor bermaydi. Odam kiyimlari esa gavda xarakteriga mos emas va ritm go'zalligi qonuniga bo'ysindirilgan. Odamlar tasvirida anatomik noaniqlik, nisbatlar buzilganligi, hajm ko'rsatilmaganligi ko'zga tashlangan holda, ularning xatti-harakati,

imo-ishorasi, yuzdagi mimik o'zgarishlarning ifodali va hayotiy bo'lishiga ahamiyat beradi. Bular, o'z navbatida, yaratilgan asarlar kompozitsiyasining dinamik harakatchan bo'lishiga, shakllar ekspressiyasining oshishiga xizmat qiladi. Bu davr ijodkorlarining mavzusi din bilan bog'liq. Rassom turli ramziy obrazlarga murojaat qiladi. G'ayri tabiiy ko'rinishlar, fantastik hayvonlar uni o'ziga tortadi.

Fransiya feodalizmining klassik vatanidir. O'rta asr san'atining gullagan davri G'arbiy Yevropada yetakchi o'rinni egalladi. Fransuz san'atida roman uslubining o'ziga xos tomonlari yaqqol namoyon bo'ldi. O'zining dekorativ bezatilishi va konstruktiv tuzilishi jihatidan rang-barang bo'lgan fransuz me'morchiligi Yevropa qurilishi san'atida muhim o'rinni egalladi. Bu yerda yaratilgan me'morchilik tiplari Yevropaning ko'pgina shaharlarida taqlid uchun namuna bo'lib qoldi. Puatedagi Notr Damla Grant (XI–XII asr) ibodatxonasi roman stiliga xos xususiyatlarni namoyon qiladi.

Bu bino ko'rinish jihatidan birmuncha past, tosh devorlari qalin va salobatli qilib ishlangan. Shu devorlarda qoldirilgan kichik,



7-rasm. Puatedagi
(Fransiya) Notr Damla
Grant ibodatxonasi.
Grafik tasvir


tor darchalar uning qalinligini yanada boʻrttirib, vazminligini oshiradi. Bu ibodatxona uch nefdan iborat. Oʻrtadagi nef ikki yon tomondagi nefdan biroz baland, u yerdagi kichik darchalardan ichkariga nur tushib turadi. Bino devorlari haykaltaroshlik asarlari, turli meʼmoriy dekorativ elementlari bilan bezatilgan. Binoning pastki yarusi tepadagiga nisbatan katta boʻlib, asosan, oʻyma naqsh va boʻrtma tasvirlar bilan bezatilgan. Ikkinchi, uchinchi yarusda tokchalar boʻlib, ularning ichiga haykallar oʻrnatilgan. Qoʻllanilgan yarim kolonna, yarim aylana shaklidagi arka binoning jiddiy koʻrinishiga latofat kiritgan. Meʼmorchilik yodgorligi shu davr siyosiy vaziyatini aks ettiradi. Burgundiya qurilgan ibodatxonalarda meʼmorchilik formalarini oʻzgartirishga intilish seziladi. Bu xususiyat, ayniqsa, Klyunidagi cherkovda yaqqol koʻzga tashlanadi. Bu cherkov XI asr oxirlarida bunyod etilgan, oʻsha davrda Yevropadagi eng katta ibodatxonalardan biri boʻlgan.

XIX asr boshlarida buzilib ketgan bu bino prinsiplari koʻpgina cherkovlar uchun asos qilib olindi. Besh nefli bu ibodatxona tashqi elementlarining ritmikasi, hajmlarining tugal koʻrinishi hamda mayda boʻlaklarining yaxlit yuzaga monandligi va uygʻunligi bilan xarakterlanadi.

Germaniyada qurilgan roman uslubidagi binolar oʻzining kubsimon aniq shakllari hamda koʻrinishining ulugʻvorligi bilan xarakterlanadi. Ogʻir minoralarning seroblighi esa uning dinamik siluetda koʻrinishini taʼminlaydi. Tekis devor yuzasida gilizenlar (devordan biroz boʻrtib turgan ensiz tasmalar) bino dinamik koʻrinishining yanada ortishiga xizmat qiladi. Bu xususda Vormsdagi sobor xarakterlidir.

Italiya meʼmorchiligida stilistik birlik yoʻq. Bunga sabab, uning tarqoqligidir. Shuning uchun, uning ayrim oblastlarida Vizantiyaning taʼsiri boʻlsa, boshqa birida roman sanʼati anʼanalari seziladi. Ilgʻor Toskana va Lombardiya maktablarida mahalliy antika anʼanalari taʼsiri borligi koʻrinadi. Pizadagi meʼmorchilik ansambli bu xususda diqqatga sazovor.

Ansambldagi har bir bino mustaqil ahamiyatga ega. Ularning tashqi devorlari nafis arkadalar bilan qator yaruslarga ajratilgan. Bu hol bino koʻrinishiga yengillik va oʻziga xos latofat kiritgan.



8-rasm. Roman davri. Vorms (Germaniya)dagi sobor



9-rasm. Pizadagi me'morchilik ansambli



10-rasm. Roman sobori ichki ko‘rinishi

Natijada, hajm jihatdan juda katta Piza sobori ham yengil va jozibali bo‘lib ko‘rinadi. Ellips shaklidagi gumbaz esa uning garmonik tugal ko‘rinishini ta‘minlaydi.

Tasviriy san‘at. Roman me‘morchiligida devoriy surat va vitrajlar muhim o‘rin egallaydi. Rangdor suratlar devor va shiftlarni qoplagan. Bu suratlar, asosan, diniy mavzuga bag‘ishlangan.

Fransiyadagi San-Saven cherkoviga ishlangan suratlar ichida «Mixailning ajdaho bilan olishuvi» surati xarakterlidir. Asar kompozitsiyasining harakatda va yassi chiziqli ishlanishi fransuz-roman san‘atiga xos tomonlarni namoyon qiladi. Bayyoda ishlangan gilam uzunligi 70 m, eni 50 sm bo‘lib, uning yuzasidagi tasvirlar normandlarning Angliyani bosib olishiga bag‘ishlangan. Tarixiy voqeani aks ettiruvchi bu surat fransuz roman san‘atida hayotiy mavzular ham o‘z ifodasini topganligini ko‘rsatadi.

Haykaltaroshlik. Interyer va binoning tashqi tomonini bezashga bo‘lgan ishtiyoq monumental-dekorativ haykalta-

roshlikning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu san'at, ayniqsa, Fransiyada rivojlandi. Haykaltaroshlik mavzusi ko'p hollarda Iso va uning shogirdlariga bag'ishlangan. Shaharlarning o'sib borishi bilan haykaltaroshlikka ham hayotiy voqealar kirib kela boshladi. Hunarmand, dehqon, aktyorlar hayotiga bag'ishlangan kompozitsiyalar yaratila boshlanadi. Roman haykaltaroshligining rivojlangan davri XII asrga to'g'ri kelib, bu davrda shakl realizmi orta bordi, mazmun esa bevosita hayotiylik kashf etdi va chuqurlashdi.

Seminar savollari:

1. Roman asri san'atida me'morchilik yetakchi o'rinni egallashi.
2. Me'morchilikda qo'llanilgan ustunlar va ulardagi o'ziga xoslik.
3. Roman tasviriy san'atining o'ziga xos tomonlari.
4. Puatedagi Notr Dam la Grant ibodatxonasi roman stiliga xos xususiyatlari.
5. Interyer va binoning tashqi tomonini bezashga bo'lgan ishtiyoq monumental-dekorativ haykaltaroshlikning rivojlanishi.

◆ **23-mavzu.**

GOTIKA DAVRI SAN'ATI

Tasviriy san'at va arxitektura

Ma'ruza mazmuni:

G'arbiy Yevropadagi Gotika san'atining asosiy belgi va xususiyatlari. «Gotika» iborasining kelib chiqishi. Gotika me'morchilik konstruksiyasining o'ziga xos tomonlari.

Tasviriy san'at. Haykaltaroshlik san'atining arxitektura bilan aloqasi. Fransiya san'ati. Me'morchilikning muhim yodgorliklari. So'nggi fransuz gotikasi. Haykaltaroshlik taraqqiyotidagi asosiy bosqichlar.

XIV asrda haykaltaroshlikda portret san'ati. Rassomlik (vitraj, miniatura). Germaniya san'ati. Nemis gotikasining o'ziga xos tomonlari. Angliya san'ati va uning muhim yodgorliklari. Kenterberi sobori. Linkolndagi sobor. Angliya so'nggi gotikasi.

XII asrdan boshlab, feodalizm ijtimoiy-siyosiy tuzum ichida yangi ijtimoiy kuchlarning paydo bo'lishi va rivojlanib borishi klassik o'rta asr an'alarining inqiroziga sabab bo'ldi. Bu yangi


kuchlar shaharning keng taraqqiy etishi bilan bog'liq holda o'z kuchini oshirib bordi. Shaharlarda savdogarlar korporatsiyalari va hunarmandchilik sexlari rolining ortib borishi ijtimoiy tuzum xarakteriga ta'sir qila boshladi. Feodal hukmdorlarida ozodlikka, mustaqillikka erishishga intilish ortib bordi. Bu davrda din hamon hukmronlikda, cherkov esa san'atga o'z talabini qo'yayotgan bo'lsa ham, lekin shahardagi hunarmand va savdogarlarning bilimiga, hayotning yangi qirralarini ochishga intilishi orta bordi. Yevropa shaharlarida dastlabki fan markazlari — universitetlarning tashkil topishi esa, bu intilish ravnaqiga zamin yarata bordi. Materialistik dunyoqarashning dastlabki ko'rinishlari Averros va Ibn Sinolar ijodida ko'rina boshladi. Dunyoga tanqidiy munosabatda bo'lish jarayoni ortdi. Xalq ongining o'sib borishi esa jamiyat oldida tenglik, birodarlik masalalarning ijobiy hal etilishini talab qila boshladi.

San'at va madaniyat mazmuni, xarakteri ham jiddiy o'zgardi. Hayotiy mavzudagi asarlar yuzaga kela boshladi. Shahar hayotining kundalik turmushi, ishq-muhabbat mavzusidagi asarlar paydo bo'ldi. Bunday asarlarda ijodkorning hissiy kechinmalari, voqelikka bo'lgan munosabatlari o'z ifodasini topa boshladi. Ruhoniylarning ikki yuzlamachiligini fosh etuvchi teatr janrlari, maskaradlar yuzaga keldi. Bu davrda G'arbiy Yevropa madaniyatidan Vizantiya san'ati an'analari uzil-kesil chiqarib tashlandi. Davr ruhini o'zida ifodalovchi realistik shakl va mazmundagi asarlar, funksional tomoni orta boshlagan me'morchilik binolari yuzaga kela boshladi. San'atda asosiy uslub gotika uslubi hukmronlikni egallab oldi. Lekin shu bilan birga, bu vaqtlarda shahar madaniyati (XII—XIV asrlar gotikaning rivojlangan davri) feodal munosabatlarga to'liq qarshi chiqishga ojiz edi. Shuning uchun ham bu madaniyat vakillari davr sharoitiga moslashib ish tutishga majbur edi. Shu boisdan gotika davri san'atida va xarakteridan kelib chiqib, murakkab va qarama-qarshi fazilatlar kashf etdi. San'atda ratsionalistik tendensiyalar bilan bir qatorda, spiritualistik tasavvurlar mavjud edi. Yaratilgan asarlarda realistik elementlar bilan birga, diniy qarashlarni ko'klarga ko'tarish hollari sezilar edi. Xristian mifologiyasidagi obrazlar tasvirida, bir

tomondan, gumanistik g'oyalar o'z ifodasini topsa, ikkinchi tomondan esa insonning imkoniyatlarini mensimaydigan asarlar ham yuzaga kelar edi. Gotika uslubi XII asr o'rtalaridan boshlanib, XIII asrda o'zining eng gullagan davrini boshidan kechirdi. Bu uslub turli mamlakatlarda o'ziga xos ko'rinishga ega, lekin bu uning ichki tuzilishi va umumiy tomonini inkor etmaydi. Me'morchilik gotika uslubini belgilashda muhim o'rin egallaydi. Gotika uslubida qurilgan binolar roman uslubida qurilgan binolarga nisbatan ulug'vor, katta va serhasham. Ularda ishlatilgan me'morchilik shakllari yengil, yuqoriga intiluvchan va serjilva. Bu davr soborlarining funksional mazmuni ham o'zgardi. U shaharning ijtimoiy markaziga aylandi. Bu yerda toat-ibodatdan tashqari, shahar majlislari o'tkazilar, munozaralar uyushtirilar hamda universitet ma'ruzalari o'qilar edi. Endilikda sobor binosini qurishda faqat diniy g'oyalargina emas, balki ijtimoiy hayot ruhi, katta jamoa qudrati ham targ'ib etildi. Gotika soborlarining ilgariga


Roman konstruksiv xususiyatlari

1. Markaziy nef
2. Yon nef
3. Arka
4. Gumbaz



Gotika konstruktiv xususiyatlari

1. Markaziy nef
2. Yon nef
3. Nayzasimon arka
4. Arkbutan
5. Kontrfors




11-rasm. Roman va gotika konstruktiv xususiyatlari


intiluvchan shaklida esa davr kishilarining ozodlikka va yorug'likka intilishlarni o'z aksini topadi. Bunday taassurot berishda soborning minoralari muhim o'rinni egallaydi. U soborning yanada baland, yengil bo'lib ko'rinishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu minoralar funksional ahamiyatga ega bo'lgan, ya'ni ular shaharni kuzatib turish uchun hamda yong'in o'chiruvchilar uchun ham mo'ljallangan. Ba'zan minoraning uch qismi xo'roz tasviri bilan tugallanganligi ham shu mazmuni – ziyrak bo'lib turish lozimligini bildirgan. Yevropada feodalizm gullagan XII–XV asrlar san'atini «gotika san'ati» deb yuritiladi. «Gotika» iborasi ham shartli olingan. Uning lug'aviy ma'nosi italyancha «gotlarniki» degan mazmuni bildiradi. (Gotlar german qabilalaridan biri). Bu ibora uyg'onish davrida kiritilgan bo'lib, san'atda got qabilalari san'atining ta'siri kuchli bo'lganligini bildiradi. Gotika uslubi XII asrning II yarmida Fransiyada paydo bo'ldi va rivojlandi. XIII–XIV asrlarda esa G'arbiy Yevropada yetakchi me'morchilik uslubiga aylandi va ayrim mamlakatlarda bu uslub XV asrgacha davom etdi. Me'morchilikda gotika uslubining yaratilishi davr zakovati, texnika taraqqiyoti yutug'i asosida yuzaga keldi. Buning mohiyati roman me'morchiligida qo'llanilgan arka va egri ravoqlarning yangicha talqin etilishi va eng muhimi, binoning mustahkam sinchlar (karkaslar) tizimining nayzasimon arka, ichki ustun va kontrforslar asosida yechilishi edi. Me'mor mustahkam sinchlar tizimidan foydalanib, iloji boricha devor va ayniqsa, ravoqlardagi og'irlikni kamaytirishga harakat qildi. Shu maqsadda ravoqlardan tushadigan og'irlik taqsimiga e'tibor berdi. Asosiy nef birqa tor to'rtburchaklarga ajratilib, ularning har biri bir-biri bilan kesishgan nayzasimon arkalar bilan yopildi. Bu ravoqdan tushadigan va yon tomonga tortuvchi og'irlik kuchini kamaytirishga xizmat qildi. Nervyurdan foydalanish esa ravoq og'iriligini yanada kamayishini ta'minladi. Nervyurali ravoqlar mustahkam qilib ishlangan ustunlarga o'rnatildi. Bunday konstruksiyada devorlar o'z funksiyasini yuqotadi. Uning vazifasi sinchlar oralig'idagi bo'shliqni to'ldirish bilan chegaralanadi. Bunday ochiq qismlarni deraza, darchalar bilan to'ldirish mumkinligi ham bu uslubning imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Me'morchilikda sodir bo'lgan bu yangiliklar endilikda baland va keng hajmdagi binolarni ham qurish imkoniyatini yaratdi. Devorlarning tayanch funksiyasini bajarishdan qutulishi esa keng miqyosda darcha, deraza, peshtoq, galereya, ayvonlardan foydalanib, binoning ichki qismini nurga to'ldirish imkoniyatini berdi, qurilgan binolarning yengil va nafis bo'lib ko'rinishini ta'minladi. Gotika me'morchiligida nayzasimon arka muhim o'rinni egallaydi. Bu shakl eshik, deraza, ravoq va galereya, ayvon hamda peshayvonlarda qaytarilib, gotika me'morchiligida o'ziga xos qaytarilmas ruh va yengillik kiritadi. Arkalarning uchli bo'lib ko'rinishining o'ziyoq hamma narsani yuqoriga, falakka tortib chiqib ketmoqchidek tuyuladi. Bu xususiyatni gotika me'morchiligida keng ishlatilgan vertikal to'g'ri chiziqlar (kontrfors, nervyura) yanada oshiradi. Me'morchilik konstruksiyasida sodir bo'lgan bu o'zgarishlar binoning ichki va tashqi tomoni ko'rinishida ham o'z ifodasini topdi. Gotika interyerlari keng, bahavo, yorug'. Transept va asosiy nef orasidagi keskin chegaraning kamayishi ham bu xususiyatni yanada orttiradi. Soborning old tomoni gavjum, keng maydonga qaratib quriladi. Uning bezatilishiga esa alohida e'tibor beriladi. Haykaltaroshlik hamda me'morchilikning dekorativ elementlari bino old tomonining yanada serjilva va nafis bo'lib ko'rinishiga xizmat qiladi. XII–XV asrlarda gotika uslubini deyarli hamma Yevropa mamlakatlari o'z boshidan kechirdi. Lekin bu uslub mahalliy sharoit va davr talabidan kelib chiqib, o'ziga xos ko'rinish kashf etdi. Jumladan, gotikaning vatani hisoblangan Fransiyada bu uslubda ishlangan asarlar nisbatlarining to'g'riligi, me'yorida topilganligi, aniqligi, shakllarining nafisligi bilan xarakterlanadi. Parijdagi Bibi Maryam sobori (Notr Dam de Parij, 1163-yili boshlanib, ayrim qismlari 1314-yilda tugallangan) ilk gotikaga mansubdir.


Besh nefli, kichik transepli bazilika tipidagi bu binoning old tomonida ikki minora mavjud. U soborning baland va «falakka intilayotgandek» bo'lib ko'rinishiga xizmat qiladi. Peshtoq darcha, darvoza va eshiklar tepasiga ishlangan nayzasimon arkalar uning yengil va dinamik ko'rinishini ta'minlaydi. Reymsdagi sobor (XIII asrda boshlanib, XIV asrda tugallangan) gotikaning eng rivojlangan



12-rasm. Parijdagi Bibi Maryam sobori
(Notr Dam de Parij)



13-rasm. Reyms sobori.
Fransiya




14-rasm. Reyms sobori tarhi

davriga mansub. Uning uzunligi 150 m, minoralarining balandligi 80 m. Bu sobor o'z vaqtida xalq birligini tarannum etuvchi ramziy belgi sifatida qabul qilingan.

Bu binoda gotika san'ati o'zining klassik ko'rinishini namoyon qildi. Amendagi soborda gotikaga xos nisbatlar go'zalligi, umumiy ko'rinish yaxlitligi buzila boshlaydi. Dekorativ bezaklarning mo'ligi esa binoning konstruktiv aniqligiga salbiy ta'sir qilgan.

Germaniyada gotika uslubi fransuzlar ta'sirida rivojlandi. Lekin nemis gotikasida yaxlitlik yetishmaydi va unga xos bo'lgan drammatizm, ekspressiya roman me'morchiligi an'analari bilan qo'shib



15-rasm. Amen sobori. Fransiya



*16-rasm. Amen sobori
ichki ko‘rinishi*



17-rasm. Gotika sobori. Haykaltaroshlik

ketadi. Bundan tashqari, nemis gotikasida bir minorali soborlar ham keng uchraydi. Binolarning tashqi tomoni sodda, kam bezakli. Kelndagi sobor (1248–1880) Amen soboriga oʻxshatib qurilgan.

Italiya meʼmorchiligida gotika uslubi XIII asrning oxirida kirib kela boshladi. Lekin dastlabki paytlarda roman meʼmorchiligi prinsiplariga taʼsir qilmadi. XIV asrda gotika uslubi tamoyillari toʻliq koʻrina boshladi.

Ispaniya gotikasi musulmon meʼmorchiligi uslub va unsurlari bilan boyigan boʻlsa, Angliya gotikasi ogʻir, kompozitsiyada haddan ortiq detallar koʻpayib ketganligi va arxitektura bezagining moʻlligi bilan xarakterlanadi.

Tasviriy sanʼat. Gotika interyerlarining devorlarida yaxlit tekis yuzalarning kamligi monumental devoriy rang-tasvirning rivojlanmasligiga sabab boʻldi. Uning oʻrnini vitraj sanʼati egalladi. Gotika binolarining katta-katta derazalari vitraj kompozitsiyalari bilan bezatildi. Ularda diniy va dunyoviy mavzudagi voqealar rangli shishalarda oʻz ifodasini topdi. Gotika rassomchiligi miniatura

san'ati sifatida ham ko'zga ko'rinadi. Bu san'at ravnaqi XIII asrdan boshlanib, XV asrgacha davom etdi. Shu san'atda gotika tasviriy san'atidagi o'ziga xos tomonlar mavzuning kengayishi, dunyoviy mavzuda ko'plab asarlar yaratilishi bilan realistlik xususiyatlarning kuchayishi seziladi. Bu davr miniaturalarida dehqonlar hayotidan olingan voqealar, zodagonlarning ko'ngil ochish paytlarini tasvirlovchi rasmlar paydo bo'ldi. Real tabiat manzaralarini aks ettiruvchi suratlar (ayniqsa, oy va yil fasllariga bag'ishlangan allegorik miniaturalar) yaratildi. Bu davrda haykaltaroshlik hamon yetakchi san'at bo'lib qoldi va me'morchilik bilan uzviy bog'liq holda mustaqil san'at sifatida yuzaga chiqa boshladi, ko'p hollarda esa dumaloq haykal sifatida namoyon bo'ldi. (Roman haykaltaroshligi ko'proq relyef tarzida bo'lganini eslang). Bunday haykallar juda ko'p uchraydi. Masalan, Reymdagi soborda 2000 dan ortiq dumaloq haykal ishlatilgan. Bu davrga kelib, haykaltaroshlik mavzusi kengaydi. Iso, Bibi Maryam, apostollar hayotiga bag'ishlangan kompozitsiyalar bilan bir qatorda, hayotiy mavzularda, hatto mehnat mavzusida ham asarlar yaratila boshlandi.

Diniy mavzularda yaratilgan asarlarda ham insoniylik, oliyanoblik, hamdardlik kayfiyatlari o'z ifodasini topa bordi. Donatorlar (ibodatxonalar uchun ko'p mablag' sarflagan, unga zakot bergan shaxslar)ga atab yodgorliklar o'rnatish, haykallar qo'yish (masalan, ekkegart va uning qaylig'i Uta, Germaniya, XIII asr) odati paydo bo'lganligi ham san'atning targ'ibotchilik roli ortib borayotganligini ko'rsatadi.

Gotika amaliy-dekorativ san'ati ham bevosita davr ruhi va mazmuni bilan bog'liq. Jozibador, serjilva va nafis uy-anjom buyumlari, qurol-aslah va mebellarda davr xarakteri, kishilarning estetik qarashlari o'zining badiiy ifodasini topdi.

Seminar savollari:

- 1. Materialistik dunyoqarashning dastlabki ko'rinishlari vujudga kelishi.*
- 2. San'atda ratsionalistik tendensiyalar bilan bir qatorda, spiritualistik tasavvurlar mavjud bo'lishi.*
- 3. Gotika uslubining vujudga kelishi va rivojlanishi.*
- 4. Notr Dam de Parij soborining xarakterli jihatlari.*
- 5. Gotika uslubida vitraj san'atining keng qo'llanilishi.*

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Umumiy adabiyotlar

1. Всеобщая история искусств /ред. коллегия/. В бти томах. /т. 2 книга 1.2 / – М.: «Искусство», 1960.
2. Всеобщая история архитектуры /ред. коллегия/. В 12 ти томах/ Т., 2. – М.: 1970.
3. История искусства зарубежных стран /средние века, возрождение, //под редак. Ц.Г. Нессельштраус//. – М.: 1982.
4. *Арган Дж.К.* История итальянского искусства. – М.: 1990. т.1.
5. *Бицилли П.М.* Элементы средневековой культуры. – СПб.: 1995.
6. *Гуревич А.Я.* Категория средневековой культуры. – М.: 1984.
7. *Гуревич А.Я.* Средневековый мир. Культура безмолвствующего большинства. – М.: 1990.
8. *Данилова И.Е.* От средних веков к Возрождению. – М.: 1975.
9. *Даркевич В.П.* Путиами средневековых мастеров. – М.: 1972.
10. *Нессельштраус Ц.Г.* Искусство раннего средневековья. – СПб.: «Азбука», 2000. –384 с., ил. /МРДИ/.
11. *Тяжелов В.Н.* Искусство средних веков. – М.: 1968.
12. *Тяжелов В.Н., Сопоцинский О.И.* Искусство средних веков. – М.: 1975.
13. *Эко У.* Эволюция средневековой эстетики. – СПб.: Азбука-классика, 2004.
14. *Hisham Mortada.* Traditonal Islamic Principles of Built Environment. London-New York: 2007.

Vizantiya san'ati

1. *Банк А.В.* Культура и искусство Византии IV–XV вв. – М.: 1975.
 2. *Даркевич В.П.* Светское искусство Византии. – М.: 1975.
 3. *Лазарев В.Н.* Византийская живопись. – М.: 1971.
 4. *Лазарев В.Н.* История византийской живописи, т. 1-2. – М.: 1947–1948.
- ### *G'arbiy Yevropa*
1. *Ле Гофф Ж.* Цивилизация средневекового Запада. – М.: 1992.
 2. *Ляковская О.Ф.* Французская готика. – М.: 1973.
 3. *Муратова К.М.* Мастера французской готики 12–13 вв, – М.: «Искусство», 1988.
 4. *Нессельштраус Ц.Г.* Искусство Западной Европы в средние века. Л.: – М.: 1964.
 5. *Тяжелов В.Н.* Искусство средних веков в Западной и Центральной Европе. (Малая история искусств.) – М.: 1981.
 6. *Ювалова Е.* Немецкая скульптура 1200–1270. – М.: «Искусство», 1983.

♦ 24-mavzu.

O'RTA ASRLAR SHARQ SAN'ATI.
ARAB XALIFALIGI DAVRI

Ma'ruza mazmuni:

Arab davlatining vujudga kelish sabablari. Islom bayrog'i ostida. Xalifalik davri. Xalifalikni tashkil etadigan davlatlar. Islom arxitekturasi shakllanishi. Mavritan san'ati. Amaliy-bezak san'ati.

Arabiston yarimorolida madaniyat juda qadim zamonlarda vujudga keldi. Bu yerda eramizdan avvalgi 1000-yillardayoq boy quldorlik davlatlari mavjud bo'lgan. Arabiston aholisining ko'pchilik qismi chorvachilik bilan shug'ullangan. VII asrning boshlariga kelib, arab jamoasi ichida sodir bo'lgan ichki sinfiy tabaqalanish va siyosiy vaziyat Arab davlatining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Arab jamoasining siyosiy birlashishi VII asrning boshlarida yangi islom dini bayrog'i ostida bordi. Bu dinning asoschisi Muhammad (s.a.v.) bo'lib, uning davomchilari arabcha musulmlar (xudo bandalari) musulmonlar deb yuritila boshlandi.

Dastlabki davrlarda Muhammad (s.a.v.) va uning vorislari (xalifalari) turadigan joy Arabistondagi Madina va Makka bo'lgan. VII asrda arablar Falastin, Suriya, Mesopotamiya, Misr, Eron yerlarini bosib oldi. VIII asr boshlariga kelib esa arablar Pireney yarimorolidan tortib, Shimoliy Afrika, Kavkaz va o'rta Osiyo yerlarigacha qo'lga kiritib, Ispaniya yerlaridan to Hindistongacha cho'zilgan katta arab davlatini — xalifalikni tashkil etdilar. Lekin arab davlati siyosiy birlik jihatidan juda zaif edi. Shuning uchun IX–X asrlarda xalifalik qator feodal davlatlarga parchalanib ketdi. O'rta Osiyo, Kavkaz orti, Misr va Mag'rib esa arab davlati hukmdorligidan ozod bo'ldi. Yaqin sharqda sodir bo'lgan sotsial-tarixiy jarayon Shimoliy Afrika va Old Osiyoda yangi arab millatini, Suriya, Iroq, Misr, Tunis, Jazoir, Marokash kabi arab davlatlarini yuzaga keltirdi. Bu davlatlarning san'ati va madaniyati o'ziga xos yo'lda rivojlanib bordi. Shu bilan birga, bu mamlakatlar san'ati va madaniyatida mavjud o'xshashliklarni inkor etmaslik kerak. Bunga sabab, arab mamlakatlarida feodalizm taraqqiyotidagi yo'l va usullarning bir-biriga yaqinligidir.

Oʻrta asr arab sanʼati ravnaqiga islom dinining taʼsiri ham sezilarli boʻldi. Bu, ayniqsa, meʼmorchilik, amaliy-dekorativ sanʼatda yaqqol koʻrinadi. Xalifalik davrida fuqaro va din bilan bogʻliq boʻlgan binolar qurish avj oldi. Shu davrdagi shaharlar qator yangi tipdagi binolar bilan boyidi. Masjid va madrasalar, karvonsaroy va minoralar, tim va saroylar musulmonlar shahrining oʻziga xos tomonini belgilovchi muhim va ajralmas elementlarga aylandi. VII asrda masjid tipi yuzaga keldi. Bu masjid tashqi koʻrinishi jihatidan mustahkam minorali, atrofi gʻisht bilan oʻralgan qalʼa (qoʻrgʻon)ni eslatadi. Kompozitsiyasi asosi toʻrtburchak yoki kvadrat shaklidagi hovli boʻlib, uning atrofi esa ustunli ayvonlar bilan oʻralgan. Arab mamlakatlarida toʻrt ayvonli, markaziy qubbali masjidlar ham mavjud boʻlgan.

Oʻrta asr arab meʼmorchiligida madrasa, shifoxona, kutubxona binolari, maqbaralar qurish keng yoyilgan. Umaviylar sulolasi xalifaligi davrida (661–750) markazini Damashqqa koʻchiradi. Umaviylar davri meʼmorchiligining dastlabki qurilishi Damashqda 708-yili xalifa al-Valid tamonidan barpo etilgan **Katta masjid**dan boshlanadi. Masjid bozor rastalari bilan oʻralgan 385x305 m maydonga joylashtirilgan. Masjidning oʻzi 157,5x100 m maydonni egallaydi. Har bir burchagi toʻrtburchak tarhli minora bilan bogʻlangan.


Masjid hovlisi uch tomoni peshtoq bilan ajratilgan, toʻrtinchi janubiy tamoni eni 132 metrli, chuqurligi 37 metrli tarzga parallel qoʻyilgan uch qatorli arkali ibodatxonasi bilan tugallangan. Arab xalifaligi meʼmorchiligining dastlabki naʼmunasi hisoblanagan bu masjid qadimgi xristian bazilikasini qayta qurish hisobiga musulmon diniy binosiga aylantirilgan.

Masjid interyeri panel qismi marmar tosh bilan, yuqori qismlari mozaika bilan pardozlangan boʻlgan. Hozirgi kungacha bezak sanʼati qisman saqlanib qolgan.

Ilk arab meʼmorchiligining oʻziga xos tomoni, ayniqsa, Kohiradagi **Ibn Tulun** (876–879) masjidida namoyon boʻladi. Deyarli bir gektarga yaqin (92x92 m) kvadrat shaklidagi hovli nayzasimon arkli ayvonlar bilan oʻrab chiqilgan. Ayvon ustunlari mustahkam toʻrtburchak minorasimon shaklda ishlangan.



1-rasm. Damashqdagi Umaviylar masjidi




2-rasm. Umaviylar masjidi. Damashq. Tarh



3-rasm. Umaviylar masjidi ichki hovlisi



4-rasm. Qohiradagi Ibn Tulun masjidi. Umumiy koʻrinish




5-rasm. Ibn Tulun masjidi. Tarh


Masjit juda katta bo'lib, unda bir vaqtning o'zida mingdan ortiq odam namoz o'qiy olgan. Masjitning bezatilishi ham sodda va qat'iy. Uning devorlari, arka va karnizlari o'ymakorlik san'ati bilan pardoqlangan.

Arab xalifaligi va u parchalangandan keyin paydo bo'lgan qator davlatlar uchun islom mafkurasi asosiy o'rinni egalladi. Endilikda bu yerlarda qurilgan me'moriy inshootlarda shu mafkuraning ta'siri sezilarli bo'ldi. Yaqin va O'rta Sharqdagi musulmon davlatlari, jumladan, Iordaniya, Suriya, Misr arab Respublikasi, Mavritan Ispaniyasi va boshqa mamlakatlar me'morchilik va tasviriy san'at yo'nalishida shuni ko'rish mumkin. Yangi mafkura va san'at yo'nalishlari mahalliy an'analar bilan boyib, musulmon sharqining o'ziga xos madaniyatini shakllantirdi.

Mavritan san'ati. VII–VIII asrlarda Shimoliy Afrikadagi qator davlatlar – Tunis, Jazoir, Marokash va Janubiy Ispaniya arab xalifaligi tarkibiga kirdi. Bu mamlakatlar san'ati mavritan san'ati degan nom bilan yuritila boshlandi. Antik davrda mavrlar (grekcha – qora) deb Afrikaning shimoli-g'arbiy qismidagi Mavritaniya davlatining tub aholisi tushunilar edi. 711-yili arab berber jangchilari Pireney yarimorolini bosib olganlaridan keyin bu yer aholisi



6-rasm. Sulton Hasan masjid – madrasasi Qohira (1356–1362)



7-rasm. Sulton Hasan masjidi mehrobi

ham, Shimoliy Afrikadan kelgan boshqa musulmonlar ham mavrlar deb yuritila boshlangan.


Mavritan Ispaniyasi Damashq xalifaligining provinsiyasiga aylandi. X asrga kelib, Ispaniya xalifalik unvoniga sazovor bo'ldi. Shu davrdan boshlab, Ispaniya Yevropadagi eng gullagan mamlakatlardan biriga aylandi, Yevropa va Osiyodagi ko'zga ko'ringan madaniyat o'choqlaridan biri sifatida tanildi. Mavritan Ispaniyasining badiiy ijoddagi yutuqlari she'riyat, musiqa, ayniqsa, me'morchilik va u bilan bog'liq bo'lgan bezak san'atda yaqqol namoyon bo'ldi¹. Mavritan Ispaniyasi me'morchiligining nodir yodgorligi uning poytaxti Kordovodagi 785-yil asos solingan Uma-viylar masjidi bo'lib, X asrgacha u bir necha bor qayta qurildi va nihoyat, o'zining tugal ko'rinishiga ega bo'ldi. Bu an'anaviy, ustunli masjidning alohida ko'rinishidir. Uning tarhi to'rtburchak (180x130 m) shaklida bo'lib, hovli uchun juda kichik maydon qoldirilgan. Qolgan maydonning hammasi juda katta ustunli zalga aylantirilgan. 800 ta ustun shu zalning tepa qismini ko'tarib turadi va masjid ichini qator neflarga (19 nef) ajratadi.

XII asr oxirlaridan boshlab, ispanlar arablarni janubga qarab siqib boradi. Faqat Granada amirligi 1492-yilgacha arablarning Ispaniyadagi yagona tayanch yeri sifatida saqlanib qoladi. Granada amirligining muhim me'morchilik majmuasi Al Hamra (al-Hamra – arabcha «qizil») saroyi hisoblanadi.


Bu saroyning asosiy qismi XIV asrda qurib tugallangan. Saroy baland tepalikka qurilgan bo'lib, uning atrofi qizil rangdagi mustahkam devor bilan o'ralgan. Saroyning xonalari, asosan, ikki ochiq hovli atrofida joylashtirilgan. Lekin tarhi erkin, qat'i simmetriyaga e'tibor berilmagan. Saroy interyerlari juda serhasham va jozibali qilib bezatilgan. Stalaktitlar uning ichki ko'rinishlariga alohida joziba kiritgan. Pardo uchun ishlatilgan turli xildagi marmar va toshlar, bo'yalgan alibastr, sirli kulolchilik buyumlari bu serhashamlik va jozibani yanada oshiradi.

Tasviriy va amaliy bezak san'ati. Arab realistik san'ati rassomlik va haykalchiligi din ta'sirida bo'ldi. Din ularning rivojlanishiga

¹ *Hisham Mortada*. Traditional Islamic Principles of Built Environment. London-New York 2007.p. 17.



**8-rasm. Umaviylar katta masjidi. Umumiy ko'rinish.
Kordova, Ispaniya**




**9-rasm. Umaviylar katta masjidi.
Ichki hovlidagi devor qismi**




10-rasm. Umaviylar masjidi ichki ko'rinishi



*11-rasm. Granadadagi (Ispaniya) Al-Hamra saroyi.
Umumiy ko'rinish*



12-rasm. Al-Hamra saroyi. Sherlar hovlisi



*13-rasm. Granadadagi
(Ispaniya) Al-Hamra saroyi.
Umumiy ko'rinish*

yoʻl qoʻymadi. Realistik sanʼatning monumental formalari deyarli yaratilmadi. Qoʻlyozmalar uchun ishlangan miniaturalarda, dekorativ relyeflarda hamda amaliy sanʼatda real voqelik, uning jonli obrazlari keng uchraydi. Bunga sabab, albatta, hukmdor sinf orasida diniy qarashlar bir xil emasligidir. Arab tasviriy sanʼatida oʻrta asrlar sanʼatiga xos xususiyatlar mavjud. Voqelik shartli, baʼzan ramziy shakllarda ifodalanadi. Lekin bu tasvirlarning poetik tili oʻtkir va taʼsirchandır. Oʻrta asr arab sanʼatiga xos boʻlgan fazilat uning yorqin dekorativligidadir. Bu xususiyat obraz tuzilishining asosini tashkil etadi. Obrazlarning joylashishi, yorqin ranglarning nisbat va ritmikasi, ishlatilgan chiziqlarning musiqa-viyiligi va nafisligi uning xarakterli tomonini belgilashda muhim rol oʻynaydi. Arab sanʼatida naqsh (ornament) alohida oʻrinni egalladi. Real borliq shu sirli, chigal boʻlib koʻringan naqsh tasviri bilan aralashib ketgandek tuyuladi. Uning mazmunini oshiradi. Bu sanʼatda xalqning hayot mazmuni va mohiyati toʻgʻrisidagi dunyoqarashi va tushunchalari oʻz ifodasini topdi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR

1. Всеобщая история искусств /ред. коллегия/. В 6 томах. — М.: «Искусство», 1960.
2. Т.2. кн.2. Искусство средних веков. Искусство Аравии, Сирии, Палестины и Ирака. С. 9–53.
3. Всеобщая история архитектуры /ред. коллегия/. В 12 томах. — М.: 1970. Т. 8. Глава 1. Архитектура арабских стран. С. 15–109.
4. Аскарлов Ш.Ж. Архитектура Тимуридов. — Т.: 2009.

♦ 25-mavzu.

ОʻRTA ASRLAR ERON VA AFGʻONISTON SANʼATI.

Архитектура, tasviriy va amaliy sanʼat


Eron sanʼati

Oʻrta Osiyo va Eron Oʻrta asr madaniyatining muhim markazlari sifatida. Feodalizm davrida Oʻrta Sharq mamlakatlari xalqlari sanʼati. Meʼmorchilikda yangi jihatlar. Oʻrta Osiyo, Kavkaz orti va Eronning antik davri sanʼati anʼanalariga tayangan holda rivojlandi.


VII–VIII asrlarda bu mamlakat yerlarining arablar tomonidan, keyinroq XI asrda turklar, XIII asrda mo'g'ullar tomonidan bosib olinishi bu yerdagi xalqlar san'atiga, uning taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Buni arablar istilo qilgan yerlarda islom dini tarqalishi va shu din bilan bog'liq holda diniy me'morchilik binolarining paydo bo'lishi va rivojlanishida ko'rish mumkin. Dastlabki shunday diniy binolar bevosita arab me'morchiligi an'anasida qurildi. Ustunli masjidlar shular jumlasidandir. Lekin tezda arab xalifaligiga kirgan mamlakatlar me'morchiligida o'ziga xos ko'rinish paydo bo'la boshladi, arab me'morchiligi an'analari ijodiy o'rganilgan holda mahalliy me'morchilik an'analari bilan boyidi, me'morchilikning yangi turi paydo bo'ldi. To'rt ayvonli binolar qurilishi bu davrda keng tarqaldi. Bu tipdagi binolar diniy me'morchilikda (masjid, madrasa) hamda fuqaro me'morchiligida (saroy, karvonsaroy) keng foydalanildi. To'rt ayvonli binolar, odatda, katta to'rtburchak shaklida qurilgan bo'lib, uning o'rtasi hovli, to'rt tomoni esa hovliga qaratib qurilgan nayzasimon arkali ayvon bilan o'rab chiqilgan. Masjidning old tomonida katta peshtoq va minoralar mavjud. Bulardan tashqari, bu asrlarda peshtoqli-qubbali binolar ham ko'plab qurildi. XV asrgacha qurilgan binolarning ko'pgina qismi, asosan, pishiq g'isht va turli xildagi terrakota plitalari bilan bezatilgan. Keyingi asrlardan boshlab sirli sopol plitalar, geometrik hamda o'simliklar dunyosi elementlaridan tuzilgan naqshlar bilan bezash keng tarqaldi¹.

Eronda feodalizm V–VI asrlardan boshlandi. Bu davr (VII asrgacha bulgan davr) san'ati quldorlik davri san'ati an'analari bilan bog'liq. VII asrda arablarning eronga kirib kelishi bu yerdagi feodal madaniyat taraqqiyotini birmuncha sustlashtirdi. Arab me'morchiligi ta'sirida yangi me'morchilik tiplari-masjid, madrasa, minora, maqbaralar paydo bo'ldi, ayniqsa masjidlar qurilishi keng rivojlandi. Qurilishda g'isht va stuk(loy va gipsdan tayyorlangan maxsus qattiq qotishma) bezaklardan foydalanila boshlandi. Uchli arkalar shu davrda qurilgan binolarning alohida belgisiga aylana boshladi. Bu davrda amaliy-dekorativ san'at va miniatura borasida


¹ *Hisham Mortada*. Traditional Islamic Principles of Built Environment. London-New York 2007.p. 17.



14-rasm. Shayx Lutfillo masjidi. Isfoxon. Eron



15-rasm. Shayx Lutfillo masjidi. Interyer



16-rasm. Gavharshodbegin masjidi. Mashhad. Eron



17-rasm. Rizo Abbosiy. Miniatura

sezilarli yutuqlar qo‘lga kiritildi. Bu davrda qurilgan binolar ichida to‘rt ayvonli masjidlar alohida o‘rin egallab, Isfaxon va boshqa shaharlarda ko‘plab qurilgan. Eronda saqlanib qolgan ko‘pgina maqbaralar davrning hurmatli kishilariga atab qurilgan.


Ular bir necha ko‘rinishda, ya‘ni minorasimon, kubsimon yoki ko‘pqirrali prizmasimon shaklda bo‘lib, tepa qismi esa yarim sfera shaklidagi gumbaz yoki chodirasimon shakl bilan tugallangan.

Ba‘zi maqbaralar peshtoq-gumbaz tipida bo‘lgan. Eronning ko‘pgina shahar va qishloqlarida minorasimon maqbaralar keng tarqalgan. Xurosondagi Kobus maqbarasi shunday tipda ishlangan (1006–1007) yodgorliklardan hisoblanadi.

XIII–XIV asrlarda Tabrizda shakllangan miniatura maktabi Uzoq Sharq rassomligi asosida vujudga keldi. Bu davrda yaratilgan miniatura asarlarida odam jussasi(figurasi) va hayvonlar tasvirini yirik, shakllar chegara chiziq bilan aylantirib chiqish hamda obrazlarning mongoloid tipida ishlanishi bilan xarakterlanadi.

Tasvirlarda Xitoy motivlari (ajdaho, finiks, lotos) uchraydi. Masalan, Rashiddinning «Jomiy at tavarix» (1306–1314), Firdavsiyning «Shohnoma», (XIV asrning 30–40 yillari) asari bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

XVI–XVII asrlar safaviylar davrida katta qurilish ishlari olib borildi, katta shahar majmualari barpo etildi (Isfaxon), park-bog‘ san‘atida muvaffaqiyatga erishildi. Kitobot, hattotlik va miniatura borasida shu davrda katta yutuqlar qo‘lga kiritildi, qator miniatura



18-rasm. Qandakorlik. Eron

maktablari (tabriz, isfaxon, mashhad, kazvin) o'z rivojini boshidan kechirdi.

Tabriz miniatura maktabining rivojlangan davri XVI asrlarga to'g'ri kelib, u davrning yirik musavvirlari Sulton Muhammad, Mirza Ali, Og'a Miroq Mir Sayid Ali nomi bilan bog'liq. XVI–XVII asr boshlari Tabriz maktabi rivojida shu davrda yashab ijod qilgan Sodiq bek Afshar ham sezilarli ta'sir o'tkazdi. Bu maktabning o'ziga xos xususiyatlari tasvir va bezak san'atining uyg'unligida, tasvirda ishlatilgan manzara ko'rinishlarining asar g'oyaviy plastik yechimi muhim o'rin tutishi hamda yorqin rang tizimi va uning ritmik ohangdorligida ko'rinadi.

Afg'oniston san'ati

Arxitektura, tasviriy va amaliy san'at

Bu yerda ham feodalizmning paydo bo'lishi IV–VI asrlarga to'g'ri keladi. Ilk feodalizm asridan bizgacha juda ko'pgina yodgorliklar saqlanib kelgan. Bular ichida buddizm bilan bog'liq bo'lgan haykal va haykalchalar alohida o'rinni egallaydi. Bu yerda asrning boshlarida buddizmning yoyilishi Budda va shogirdlarining odamga o'xshash tasvirining keng tarqalishiga sabab bo'ldi.

Buddizm bilan bog'liq bo'lgan stupa, g'or ichiga ishlangan ibodatxonalar Hindistonning Shimoliy rayonlaridan Afg'onistonga ham kirib keldi. U yerlardan esa O'rta Sharq va Uzoq Sharqqa qarab tarqaldi. Afg'oniston maydonida Budda bilan bog'liq bo'lgan ikki mingdan ortiq g'or ichiga ishlangan ibodatxonalar eraning I–V asrlarida yaratilgan. Bamian daryosi vohasi atrofidagi g'or ichiga ishlangan ibodatxona kompleksi mashhurdir.

Ular ancha betartib qurilgan, ko'pchiligi katta Budda haykallari atrofida to'dalashadi. Tashqi tomondan bu ibodatxonalar ko'rimsiz. Lekin ularning ichki bezagiga alohida e'tibor berilgan. G'ordagi ibodatxonalarning xonalari dumaloq, to'rtburchak, kvadrat, ko'pburchakli, tomlari ham tekis. Shunday g'ordagi ibodatxonalardan birining kvadrat shaklidagi xonasi shiftiga yog'och bilan yopilgan ko'rinish o'yib ishlangan. Ba'zi g'or ibodatxonalarda tokchalar mavjud bo'lib, unga o'tirgan holatdagi Budda haykali

qo'yilgan, devorlari esa suratlar bilan bezatilgan va Budda, uning shogirdlari hamda hayotiy voqealar tasviri ishlangan.

Budda haykali, asosan, ikki holatda — turgan holatda, butun bo'yi basti bilan yoki chordona qurib o'tirgan holatda ishlangan.

Fundukiston (Qobuldan shimoliy-g'arbda) monastirida ham devoriy surat va haykaltaroshlik asarlari saqlanib qolgan. Bu monastir bezagida so'g'd monumental-dekorativ san'atiga o'xshashlik bor.


Arablarning Afg'oniston yerlarini bosib olishlari natijasida uning qadimiy san'at va madaniyatiga katta zarar yetdi. Qadimgi din bilan bog'liq bo'lgan ibodatxona va tasviriy san'at asarlari vayron qilindi. Uning san'ati, madaniyati xarakterida shu davr O'rta Sharqining umumiy madaniyatiga hos fazilatlar shakllana boshlandi. Islom dini bilan bog'liq bo'lgan masjid, minoralar qurildi. Hukmdorlarning serhasham maqbaralari qurilishiga e'tibor berildi. Qurilishda pishiq g'isht, sirli koshinlar ishlatilishi esa davr me'morchiligiga o'zgacha fayz kiritdi. X asrdan XIII asr boshlariga



19-rasm. Bamian (Afg'oniston) katta Budda haykali

qadar Afgʻoniston goh somoniylar, goh gʻaznaviylar keyinchalik saljuqiy va nihoyat, guridiylar davlati tarkibida boʻldi. Gʻaznaviylar davrida bu yerda koʻplab hashamatli binolar, masjid va madrasalar, karvonsaroy, hammom va bozorlar qurildi. Ayniqsa, juma masjidi qurilishiga alohida eʼtibor berildi. Uning badiiy bezatilishiga esa eng yaxshi ustalar va quruvchilar jalb qilindi. Qandahor yaqinidagi XI–XII asrlarda qurilgan masjid xarobalari hozir ham oʻzining ulugʻvorligi, sernaqsh va nafisligi bilan kishini hayratlantiradi. Afgʻoniston meʼmorchiligida minoralar qurilishi keng oʻrin egalladi. Dumaloq, baʼzan qirrali qilib pishiq gʻishtdan qurilgan minoralarning yuzasi sirli koshin va pishiq gʻishtlardan ishlangan naqsh va yozuvlar bilan bezatilgan.

Balx vodiysidagi Davlatobodda qurilgan minoraning boy bezagi, asosan, pishiq gʻishtlarning kombinatsiyasi hisobiga qurilgan. Minoralarning ayrimlari esa tayyor oʻyma sirli koshinlar bilan




20-rasm. Masʼud Gʻaznaviy minorasi. Gʻazna, Afgʻoniston

pardoqlangan. Bu davrda madrasalar, maqbaralar qurilishi ham kengaydi, shoh va zodagonlarning saroylari serhasham qilib ishlandi. Devorlarni bezatishda boʻrtma tasvirlardan, oʻymakorlik sanʼatidan ham foydalanildi.

Afgʻoniston sanʼatida rassomlik va haykaltaroshlik butun feodalizm davrida mavjud boʻldi. Ilk feodalizm davrida koʻproq, Budda hayoti va faoliyati bilan bogʻliq boʻlgan tasviriy sanʼat asarlari yaratilgan boʻlsa, afgʻon yerlariga arablarning kirib kelishi natijasida islom dini bilan bogʻliq boʻlgan sanʼat tarqaldi. **Buddizm** dini bilan bogʻliq boʻlgan koʻplab yodgorliklar barbod qilindi.

Lekin islom dini jonli narsalar rasmini chizish va haykalini ishlashni man etgani bilan, zodagonlar va xonlarning saroy, qasrlari devoriy surat va boʻrtma tasvirlar bilan bezatildi. Albatta, bu hol keng miqyosda yoyilmagan boʻlsa ham, ayrim saroylar qoldiqlarida shu sanʼat namunalarining topilishi fikrimizning dalilidir. Bu xususda gʻaznaviylar saroyi devoridagi surat va boʻrtma tasvirlar diqqatga sazovordir.



21-rasm. Jom minorasi qismi. Afgʻoniston


Bu tasvirlarda raqsga tushayotgan raqqosalarning boʻrtma tasviri, sultonlar hayotiga bagʻishlangan mavzuli kompozitsiyalar mavjud. Lashkari — Bozordagi Gʻaznaviylar saroyi ustuniga ishlangan devoriy rasm parchalari shu davr badiiy hayotidan dalolat beradi.

Afgʻonistonda Oʻrta asrlar amaliy-dekorativ sanʼati, yogʻoch oʻymakorligi, gilam toʻqish va metallni qayta ishlash sanʼati borasida ham katta yutuqlarga erishildi.

XII asr amaliy sanʼatining yodgorligi bronzadan yasalgan qozon boʻlib, uning tashqi sathi ajoyib boʻrtma naqsh va tasvirlar bilan bezatilgan.

Afgʻon amaliy sanʼati bevosita xalq hayoti bilan bogʻliqdir. Bu sanʼatda uning oʻtmish anʼanalari davom ettirildi. Turli shakl va bezakli sopol buyumlar oʻzining boy fantaziyasi, badiiy yechimining oʻziga xosligi bilan xarakterlanadi.

Afgʻoniston sanʼati va madaniyatining yangi taraqqiyot bosqichi temuriylar davriga toʻgʻri keladi. Temur imperiyasi tarkibida boʻlgan hozirgi Afgʻoniston yerlarining katta qismi Temurning oʻgʻli Shoh-



22-rasm. Jome masjidi. Hirot, Afgʻoniston

ruhga berildi. Temur vafotidan keyin esa Oʻrta Osiyoning asosiy hukmdorlaridan boʻlib qolgan Shohruh davrida Hirot uning madaniy va siyosiy markaziga aylandi va XVI asrgacha oʻzining mavqeyini saqlab qoldi.

Shu yerda buyuk oʻzbek mutafakkiri Alisher Navoiyning koʻp yillik hayoti oʻtdi. Sharqning buyuk musavviri Kamoliddin Behzod yashab ijod qildi. Temuriylar davrida madrasa, masjid va maqbaralar, ajoyib minoralar qad koʻtardi.

Park-bogʻ sanʼatining ilmiy qonuni yaratildi. Fuqoro meʼmorchiligi qurilishi avj oldi. Oʻz otasidan oʻrnak olgan Shohruh Hirot shahri koʻchalarini qayta qurib chiqish va tartibga solish masalasi bilan shugʻullandi. Shaharda karvonsaroy, hammom va boshqa ijtimoiy binolar qad koʻtardi.

Gavharshodbegim maqbarasi shu davr yodgorliklaridan boʻlib, u oʻz qurilishi jihatidan Temur maqbarasini eslatadi. Meʼmor Qavmiddin tomonidan ishlangan bu maqbara 1432-yili bitkazilgan.

Oʻsha davrda Hirot tashqarida ham bir qator yirik meʼmorchilik yodgorligi yaratildi. Shular ichida Balxdagi masjid oʻzining originalligi bilan ajralib turadi. Din targʻibotchisi shayx Abu Nasr Porsga atab qurilgan bu peshtoq-gumbazli masjid ishlanish uslubi va meʼmorchilik hajmlarining ishlatilishi hisobiga oʻziga xos koʻrinish kasb etgan.

Binoning baland nayzasimon arklil peshtoqi, unga yopishgan arqonsimon yarim ustunlari binoning koʻrinishiga salobat kiritgan. Abu Nasr maqbarasi bilan bir vaqtda qurilgan Balxdagi mozori Sharif ziyoratgohi ham oʻzining sirli koshin va naqshlari bilan kishi koʻziga quvonch baxsh etadi.

XVIII asr meʼmorchiligi ichida Afgʻoniston davlatining asoschisi Ahmad shoh Durraga atab qurilgan maqbara ajralib turadi. Anʼanaviy sharq musulmon meʼmorchiligi uslubida qurilgan peshtoq-gumbazli bu maqbara ham boy bezakka ega. Temuriylar davrida Hirot kitob bezash, musavvirlik, hattotlik sanʼatining yetuk markaziga aylandi. Shohruh hukmronlik qilgan bu davrda Hirot eng yaxshi hattot, miniatura ustalari, lavvoh va muzahhiblar ijod qilib, Oʻrta Sharq madaniyatining shuhratini olamga tarqatdilar.

Kamoliddin Behzod ijodiy faoliyatining asosiy qismi shu yerda oʻtdi. Uning shogirdi Qosim Ali ham shu yerda ijod qildi. U portretchi sifatida koʻpchilikka tanildi. Navoiy, Saʼdiy, Jomiy doshtonlarini ajoyib miniaturalar bilan bezatdi.

♦ *26-mavzu.*

**OʻRTA ASRLARDA HINDISTON, XITOIY SANʼATI
ARXITEKTURA, TASVIRIY VA AMALIY SANʼAT**

Hindiston sanʼati

Ilk feodalizm davri. VI asrda Gupta sulolasi hokimiyati koʻchmanchi qabilalar tazyiqida halokatga uchradi. Uning shimoliy tomonlarining anchagina qismini eftalitlar oʻz yerlariga qoʻshib oldilar. Qolgan qismi esa qator knyazliklarga ajralib ketdi. Hindistonda feodalizm rivojlanib bordi. Shu davrga kelib, Hindistonga tashqi hujumlar ham kamaydi va Hindiston iqtisodiy rivojlanish, tashqi mamlakatlar bilan savdo-sotiq ishlarini olib borish imkoniyatiga ega boʻldi. Bu davrga kelib braxman dini buddizmni siqib chiqardi. Agar buddaviylikda sanʼatni koʻtarinki ruhda odamlar, qahramonlarni goʻzal tabiat qoʻynida tasvirlasalar, endilikda Vishnu va Shiva qiyofalari va ularga atab qurilgan ibodatxonalar yetakchi oʻrinni egallay boshladi. Ularga atab katta meʼmoriy majmualar barpo etila boshlandi. Qurilish ishlarida ham oʻzgarishlar sezilarli boʻldi. Chaytya va vixara(monastir yotoqxonasi) xonalari kengaydi, bezak ishlarida esa haykaltaroshlik yetakchi oʻringa chiqib oldi va deyarli meʼmorchilik bilan uygʻunlashib ketdi.

Hindistonda oʻrta asrchilik uzoq davom etdi. Gupta davrida rivojlanaboshlagan bu ijtimoiy tuzum XVIII asrgacha davom etdi. Shu davrni ikkiga – VII–XII asrlarni ilk davr va XIII–XVIII asrlarni rivojlangan davriga kiritiladi. Ilk davr VII asr meʼmorchiligi, asosan, Madoras yaqinidagi Maxabalipurama (Mamalapurama) shaharchasida toʻplangan. Bu yodgorliklar kompleksi katta qoyalarni yoʻnish asosida yaratilgan hamda gʻorga ishlangan

ibodatxonalardan, qoya sathida ishlangan «Gangning pastga tushishi» boʻrtma tasviridan tashkil topgan.

Qoyaga yoʻnib ishlangan ibodatxona – rathlar balandligi 14 m dan, gʻor ichiga ishlangan ibodatxonalarining eni va uzunligi esa 8 m dan oshmaydi. Koʻp hollarda qoyaga yoʻnib ishlangan ibodatxonalarining ichki xonasi yoʻq. Ularning tashqi shakllarida oʻsha davrda mavjud boʻlgan ibodatxonalar shakli qaytariladi.

VIII asr meʼmorchiligida haykaltaroshlik sanʼati muhim oʻrinni egallaydi. Bu xususiyat turdagi Kaylasanʼat ibodatxonasida yaqqol seziladi. Yaxlit qoyani yoʻnib yaratilgan bu ibodatxonaning uzunligi 60 m, balandligi 70 m boʻlib, ramziy xarakterga ega, goʻyo u Shiva yashagan muqaddas togʻ ramziy koʻrinishini bildiradi.

Ibodatxona devorlari boʻrtma tasvirlar (barelyef va gorelyef) bilan qoplangan. Unda Shiva va uning yoʻldoshi Parvati hayotiga bagʻishlangan voqealar, braxmanizm bilan bogʻliq lavhalar tasvirlangan.

Ibodatxonaning ichki xonalari hajm jihatdan uncha katta boʻlmay, ularni bezashda ham haykaltaroshlik sanʼati yetakchi oʻrinni egallaydi. Devoriy rassomlik sanʼati ikkinchi darajali rol oʻynagan.

VIII asrga kelib, ibodatxonalarining, asosan, ikki tipi odat tusiga kirdi. Bulardan birinchisi, shimoliy Hindiston yerlarida qurilgan boʻlib, bu tipdagi ibodatxonalarining tepa tomani uchi biroz qayrilgan baland minorali, ikkinchisi esa zinali, piramida shakldagi ibodatxonalar boʻlib, ular koʻproq janubiy Hindiston yerlarida keng tarqaldi. Bxubanesvaredagi Lingardja ibodatxonasi hamda Kadjuraxodagi Kandarya Maxadeo ibodatxonasi shu davr hind meʼmorchiligining birinchi tipiga misoldir.

Bxubanesvaredagi ibodatxona minorasi mayin egilgan vertikal chiziqlar bilan boʻlib chiqilgan, shakli nilufar mevasini eslatadi. Ibodatxonaning qolgan qurilmalari shu asosiy minora shaklini kichik hajmlarda qaytaradi va butun kompozitsiya dinamikasini oshiradi.

Ibodatxona kompleksi 140x160 m maydon oʻrtasida joylashgan boʻlib, uning atrofi devor bilan ajratilib chiqilgan. Ibodatxona toʻrt boʻlimdan iborat, ular asosiy oʻq boʻyicha sharqdan gʻarbga




23-rasm. Kaylasan'at ibodatxonasi. Hindiston

qarab joylashadi. Balandligi 40 m dan ortiq ibodatxona minorasi kompozitsiyaning badiiy tugal bo'lishiga xizmat qiladi.

Tanjordagi Shivaning katta ibodatxonasi janubiy Hindiston o'rta asr me'morchiligining nodir yodgorligi hisoblanadi. Katta maydon o'rtasiga o'rnatilgan me'morchilik ansambli kompozitsiyasining markaziy qismi 63 metrli minora bilan tugallanadi. Minora uchta katta hajmdan tashkil topgan bo'lib, pastdagi hajm kvadrat, undan keyin kesik piramida va dumaloq gumbaz uning kompozitsiyasini tashkil etadi. Bu hajmlar dekorativ bezakka boy, lekin ular minoraning yaxlit va ulug'vor bo'lib ko'rinishiga xalaqit bermaydi.

Tasviriy san'at. Hind haykaltaroshligi g'or va qoyalarga ibodatxonalar ishlash san'ati bilan chambarchas bog'liq. Yaratilgan haykaltaroshlik asarlarida (relyef, dumaloq haykal) umuman, shartlilik yetakchilik qiladi.

Hayotiy voqealar afsonaviy voqealar bilan aralashib kelsa ham, ayrim obrazlar hayotiy, his-tuyg'ularga boy va to'laqonliligi bilan katta taassurot qoldiradi. Bu o'rinda uch yuzli Shiva haykali



24-rasm. Kaylasanat ibodatxonasi. Ichki koʻrinish




25-rasm. Tanjordagi Shivaning katta ibodatxonasi

(VIII asr) diqqatga sazovor. Katta uchboshli Shiva byusti (balandligi 6 m) o'zining fantastik ko'rinishi bilan kishini hayajonlantiradi.

Unda Shivaning uch karomati – markaziy qismda Shiva – yaratuvchi, o'ng tomonda Shiva homiy chap tomonda esa Shiva – borliqni yo'q qiluvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

«Gangning pastga tushishi» bo'rtma tasviri hind san'atining nodir yodgorligidir. Unda monumental shakllarda xalq san'atiga yaqin bo'lgan realistik xislatlar yaqqol namoyon bo'ladi. Balandligi 9 m, kengligi 27 metr bo'lgan yuzada ishlangan bu bo'rtma tasvirda muqaddas Gang suvining pastga tushishi va unga tomon intilayotgan jonzot aks ettirilgan.

Obrazlar ko'p hollarda nihoyatda umumlashma va yaxlit shakllarda ishlangan bo'lishiga qaramay, kompozitsiya hayotiy va xatti-harakatga to'la. Ayrim obrazlar yechimining ifodali va to'laqonliligi esa asar ta'sir kuchini yanada oshiradi. Hind haykaltaroshligida



26-rasm. Uch yuzli Shiva haykali (VIII asr)

realizmning o'ziga xos tomoni ayollarga bag'ishlangan asarlarda, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'ladi.


«Xat yozayotgan ayol», «Koptok o'ynayotgan ayol» kabi haykaltaroshlik asarlarida mago'zalnaviy va jismoniy go'zallik qo'shilib, ajoyib tugal, katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan san'at namunasi vujudga kelgan.

Boburiylar davri


XIII asrdan boshlab, Hindiston siyosiy va madaniy hayotida muhim davr boshlandi. Mamlakat siyosiy munosabatlarning yangi davriga qadam qo'ydi. Hind yerlarining turkiylar tomonidan bosib olinishi, musulmon feodallarining hukmronligi Hindistonda yirik markazlashgan davlatlarning yuzaga kelishiga olib keldi. Bobur va uning vorislari hukmronlik qilgan Hindiston XVI–XVII asrlarda o'zining eng gullagan davrini boshidan kechirdi. Musulmonlar bilan kirib kelgan yangi Islom dini davlat diniga aylandi. Uning ta'siri esa me'morchilik va tasviriy san'atda o'z ifodasini topdi. Shimoliy Hindistonda O'rta Sharq me'morchiligi an'analari asosida yaratilgan masjid, minora, maqbaralar yuzaga kela boshladi. Me'morchilikda keng ishlatilgan haykaltaroshlik san'ati o'rnini o'yma va chizma naqshlar egalladi, jonli narsalar tasvirini ishlash kamaydi. Shunga qaramay, hind san'ati an'analari o'z umrini yangi davrda ham davom ettirdi. XIII asrda Dehlida qurilgan «Quvvatul islom» masjidi minorasi bunga misoldir¹.

Hind ustalari yangi davr me'morchiligi kompozitsiyasini qadimgi hind san'ati an'analari bilan boyitdilar. Bu xususiyat minoraning ochiq ayvonchalar bilan bir necha qavatga ajratilishida, minora yuzasining burma qilib bezatilishida va nur-soya o'yinining boyligida seziladi. Bu minora o'z prototiplaridan keskin ajralib turadi. Hind ibodatxonalari tipi o'rniga musulmon masjidlari qurildi. Islom dini bilan bog'liq bo'lgan hind masjidlari ham tarh, ham tuzilish jihatidan sodda va ratsionaldir.

Hisham Mortada. Traditional Islamic Principles of Built Environment. London-New York 2007.p. 17.



27-rasm. «Quvvatul islom» masjidi minorasi Dehli, XIII asr



28-rasm. «Quvvatul islom» masjidi minorasi qismi

Uch tomoni ustunli ayvonchalar, to'rtinchi tomoni ustunli nomozgoh bo'lib uning g'arb tomonida mehrob joylashgan. Hindistonda qurilgan dastlabki masjidlar badiiy jihatdan sodda bo'lgan.

Boburiylar hukmronlik qilgan XVI–XVII asrlarda hind san'ati va madaniyati yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Keyinchalik markazlashgan boburiylar davlatida yangi shaharlar (Agra, Fatexpur-Sikri) vujudga keldi. Mustahkam devorlar bilan o'ralgan masjid, maqbara, saroy va bog'lari bo'lgan katta qal'alar yaratildi. Bu davrda hind o'rta asr me'morchiligi o'zining so'nggi taraqqiyot bosqichini boshidan kechirdi.

Boburning nabirasi Akbar hukmronlik qilgan davrda (1556–1605) qurilish yanada rivojlandi. U Agra shahri qurilishiga, ayniqsa, katta e'tibor berdi. Zamondoshlarining fikriga ko'ra, bu shahar o'sha davrda dunyodagi eng go'zal shaharlardan biri bo'lgan. XVII asr me'morchiligida serhashamlikka intilish kuchaydi, oq marmar quruvchilarning sevimli materiali bo'lib qoldi.

Shohjahonning buyrug'i bilan uning marhuma rafiqasi xotirasiga qurilgan Agradagi Tojmahal masjid-maqbarasi (1632–1650) oq marmardan qurilgan muhim yodgorlik, hind san'atining nodir durdonasi hisoblanadi.

Bu binoni qurishda Hindiston, Turkiya, Eron, O'rta Osiyo va Afg'oniston ustalari qatnashgan. Keng va ko'rkam gumbaz atrofiga qurilgan to'rt minora Tojmahalga tugallik va ko'rkamlik baxsh etadi. Uni yengil, go'yo yuqoriga, fazoga intilayotgandek qilib ko'rsatishga xizmat qiladi. Binodagi arka va ustunlar bu yengillikni yanada oshiradi. Tojmahalning aksi uning qarshisidagi hovuz suvida tovlanib, butun majmua jozibasini yanada kuchaytiradi. Dehlida Shohjahon davrida qurilgan Jome masjidi ham oq marmardan ishlangan, minoralari esa qizil marmar bilan pardozlangan.

Agradagi Itimad ul-Daul, Akbarshoh maqbaralari, Fatexpur-Sikridagi baland darvoza, Dehlidagi Jome masjidi (1644–1658-yy.) ham hind va musulmon me'morchiligi uyg'unligida barpo etilgan.

Fuqaro me'morchiligi ichida Dehlidagi «Qizil Fort» qo'rg'oni mashhurdir.

Tasviriy san'at. Bu davrga kelib g'orga ishlangan ibodatxonalarining kamayishi va to'xtashi monumental devoriy rassomlik san'atining ham unutilishiga sabab bo'ldi. Endilikda O'rta asr hind san'atida rassomlik kitoblar uchun miniaturalar ishlashda namoyon bo'ldi.


Dastlabki hind miniaturalari kitoblarga ishlangan illustrasiyalar shaklida paydo bo'ldi. Ilk o'rta asr hind miniatura san'ati namunalari Gudjeratada saqlanib qolgan. Gudjerata maktabi (XIII–XV asrlar) miniaturalarida voqelikni shartli va yassi, yorqin bo'yoqlarda ishlash tendensiyasi seziladi. Uning o'ziga xos tomoni odam tasvirini ishlashda ham ko'rinadi. Gudjerata maktabi rassomlari tomonidan odam tasviri ko'p holda yon tomondan, ko'z esa old tomonga qaratilib ishlanadi.

Miniatura san'ati taraqqiyotining yangi bosqichi boburiylar davri bilan bog'liq. Ko'pgina O'rta Sharq miniaturachilari Hindistonga taklif qilindi. Bular ichida Samarqand, Tabrizdan kelgan miniaturachilar o'z ijodlari bilan hind miniatura san'atining ravnaqiga katta ta'sir o'tkazdilar.


Boburiylar davri miniatura san'atining dastlabki davri bevosita O'rta Sharq miniatura san'ati ta'sirida shakllangan bo'lsa ham, lekin uning o'ziga xos tomonlari mavjudligini inkor etib bo'lmaydi. Bu xususiyat hind miniaturachilarining tasvirida fazoviy kenglikni ko'rsatish, borliqni hajmli qilib tasvirlashga intilishlari seziladi. Bu davr miniatura maktabining xarakterli tomonlari, ayniqsa, Akbarshoh hayotini aks ettiruvchi suratlarda yaqqol ko'rinadi.

Boburiylar davri miniatura san'atida asta-sekin portret san'ati keng yoyila boshlagani ham shu davr rassomlik san'ati realistik an'analarning kengayib, Yevropa realistik san'ati ta'siri kuchayib borayotganligidan dalolat beradi.

Bu xususiyat Hind miniatura san'atining keyingi bosqichi Jahongir podshohlik qilgan davrda (1605–1627) yanada rivojlandi, portret san'ati esa yanada kamol topdi. Shu davrdan boshlab, hayotiy maishiy janrda, ishq-muhabbat mavzusida ko'pgina suratlar ishlandi. Tabiat, turli qush, hasharot va hayvonlar tasviri rassomlarni o'ziga jalb etdi.



29-rasm. Agradagi Tojmahal masjid-maqbarasi (1632–1650)



30-rasm. Tojmahal. Tarh, tarz, qirgim

Oʻrta asr hind miniaturasi haqida gapirilganda Rajput miniatura maktabi ustida toʻxtalmay boʻlmaydi. Bu maktab boburiylar miniatura maktabi taʼsirida boʻlsa ham, ularda shartlilik saqlanib qoldi. Shakllarning tekis yuzada talqini, yorqin rang tizimi, chiziqning ritmik koʻrinishi uning asarlariga oʻziga xos joziba kiritadi va uni qadimgi hind devoriy rassomligiga yaqinlashtiradi.

Rajput knyazligida (Rojiston va Markaziy Hindiston) XVI–XIX asrlarda mavjud boʻlgan bu maktab sanʼatida Krishna bilan bogʻliq diniy mifologik sujetlar keng oʻrinni egallaydi.

Oʻrta asr amaliy-bezak sanʼati boy va rang-barang. Turli zar-garlik, yogʻoch, suyak oʻymakorligi borasidagi ajoyib namunalar hind xalqining yuksak did va boy fantaziyasidan dalolat beradi. Oʻrta asr hind sanʼati, deyarli ming yildan ortiq vaqt davom etdi. Shu davrda yaratilgan sanʼat yodgorliklarining nodir namunalari insoniyat tafakkuri va aql-zakovatiga, did-farosatiga oʻrnatilgan haykaldir.

OʻRTA ASRLAR XITOIY SANʼATI

Arxitektura, tasviriy va amaliy sanʼat

Oʻrta asr sanʼati taraqqiyotining dastlabki bosqichi ilk feodalizm davriga toʻgʻri keladi. Bu yerda feodal munosabatlar yangi eraning I asrlaridan boshlanib IV–VI asrlarda mustahkamlanib, XIX asr-gacha davom etdi. Xitoy sanʼat va madaniyatining dastlabki yuksaklikka erishishi IV–VI asrlarga toʻgʻri keladi. IV asrdan boshlab, buddizmning Xitoyga kirib kelishi ham, bevosita meʼmorchilik va haykaltaroshlik sanʼati turlarining kengayishi yangi janrlarning paydo boʻlishiga sabab boʻldi. Gʻorlarga monastirlar ishlash, yogʻochdan hashamatli ibodatxonalar qurish, buddizm avliyolari va tojilarga atab, oʻz xarakteri va mazmuni jihatdan hind stupalariga oʻxshash pagoda (ibodatxona)lar qurish keng yoyila boshladi (Yungan, Mayszishan, Syanfodun, Lunmin monastir va ibodatxonalari).

Ilk feodalizm asrida (IV–VI asrlar) devoriy rang-tasvir va shoyiga rasm ishlash sanʼati ham muhim oʻrinni egalladi, ayniqsa,

dunyoviy rassomlik san'ati boshqa san'atlarga nisbatan o'zining yetuklik davrini boshidan kechirdi. Shoyi va qog'ozga rasm solish rivoj topdi. Ularda hayotiy mavzulardan tabiat manzaralari fonida aks ettiruvchi rasmlar paydo bo'ldi.

Gu Kaychji shunday rasmlar ishlagan rassomlardan biri hisoblanadi. Uning asarlari ko'chirmalarda yetib kelgan. Shu davrda san'atshunoslikka oid dastlabki risolalar ham paydo bo'ldi. Se Xu (V asr)ning «Rassomlikning olti qonuni» risolasi san'atga oid to'plangan tajribalarni o'zida mujassamlashtirdi. Kulolchilik san'atida ham katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Turli ko'za va xumlar shakli badiiy bezatilishi jihatidan avvalgi davrlarga nisbatan nafislashib bordi va asta-sekin chinni (farfor) buyumlar yasashga o'tish jarayoni sezila boshladi. Xitoy o'rta asr san'ati va madaniyatining eng gullagan davri rivojlangan feodalizm asri (VII–XIII asrlar)ga to'g'ri keladi.

Bu davrga kelib, Xitoyda o'rta asrning eng katta davlatlari Tan (618–907) va Sun imperiyasi (960–1279) paydo bo'ldi. Bu davlatlar o'zga mamlakatlar bilan savdo va madaniy aloqani kuchaytirdilar. Shaharlar rivojlanib, savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniyat markazlariga aylandi. Bu davrga kelib, xitoyliklar jahon ahamiyatiga ega bo'lgan ixtirolar qildilar, ya'ni kompas, porox, gazeta kabilarni yaratdilar.


Bu davr san'ati o'z xarakteri jihatidan dunyoviy bo'lib, ular ichida dastgoh rassomlik esa yetakchi o'rinni egalladi. San'atdagi muhim o'zgarishlar bu davrda yangi tur va janrlarning yuzaga kelishidagina emas, balki eng muhimi, inson ma'naviy dunyosiga bo'lgan qiziqishning yuksakligida, uning gumanistik zaminida yaqqol seziladi.

Me'morchilik. VII–XIII asrlar Xitoy me'morchiligi taraqqiyoti davrning umumiy sotsial-iqtisodiy shart-sharoiti bilan bog'liqdir. Tan imperiyasi vaqtida yaratilgan me'morchilik yodgorliklari o'zining aniq garmoniyasi, tantanavor me'morchilik shakllari, klassik soddaligi, vazmin, xotirjam ko'rinishi bilan xarakterlanadi. Shahar qurilishi ham aniq loyihaga ega bo'lib, umumiy ko'rinishi jihatidan tevarak-atrofi zovur va qalin devorlar bilan o'ralgan qo'rg'onni eslatadi. Shahar esa qator kvartal (fani)larga ajratilib,

ular devorlar bilan o'ralgan. «Berk shahar» deb nom olgan imperator saroyi ansambli ham minora va darvozasi bo'lgan pishiq devor bilan o'rab chiqilgan. Tan asrida pagodalar qurilishi ham keng yoyilib, ular g'isht va toshlardan qurilgan. Shunday pagodalardan eng mashhuri g'ishtdan qurilgan Dayanta pagodasidir.

Bu pagoda 652-yilda qurila boshlangan, 704-yili esa 2 qavati qo'shimcha qurilgan. Pagodaning umumiy balandligi 60 m, tag asosi esa kvadrat shaklida bo'lib, uning tomonlari 25 m. dan. U tepaga tomon torayib boradi. Pagoda yetti yarusga ajratilib, uning uch tomoni kichik stupa bilan tugallanadi. Har bir yarus g'isht karnizlar bilan ajratilib, devor yuzasi plastrlar bilan bo'lib chiqilgan. Yuqoriga qarab kichrayib boruvchi yetti darcha binoning ko'rinishini yanada monumental, mustahkam va yuqoriga intiluvchi qilib ko'rsatadi.

Sun davrida ham qator pagodalar qurildi. Ular endilikda faqat yog'och, g'isht yoki toshdangina emas, balki temirdan ham qurilib, ularning shakllari ham o'zgardi.



31-rasm. Bronza idish. Usta Bo-Ge. Shu sulolasi davri (221–263)

Endilikda pagodalar ko‘proq olti, sakkiz qirrali qilib qurila boshlandi. Bundan tashqari, mayda detallarga e‘tibor berish, haykal, naqsh va relyeflar bilan bezatishga e‘tibor ortdi. Ular endilikda me‘morchilik kompozitsiyasidan ko‘ra, ko‘proq haykaltaroshlik yodgorligiga o‘xshab bordi. Tan asri pagodalariga xos vazminlik, soddalik va ulug‘vorlik yo‘qola bordi.


Tasviriy san‘at. Haykaltaroshlik. Tan va Sun asri yutuqlari, ayniqsa, rassomlik san‘atida kamolotga erishdi. Unda insonning tabiat go‘zalligiga bo‘lgan cheksiz muhabbati o‘z ifodasini topdi. Bu davrda maishiy janrda shahar hayotiga bag‘ishlangan rassomlik asarlari yuzaga keldi.

Xitoy san‘atida «Gul va qushlar» janri ham muhim o‘rinni egallaydi. Parada, yelpig‘ich va shunga o‘xshash turmushda ishlatiladigan buyumlar yuzasiga qush, o‘simliklar, hashorotlarning tasvirlari ishlandi. Tan asrida devoriy rassomlik san‘ati ham muhim o‘rinni egalladi.

Budda monastirlar, saroylar devoriy suratlar bilan bezatildi. Dunxuan yaqinidagi Syanfodun ibodatxonasiga ishlangan suratlar bu davr devoriy rassomligi to‘g‘risida tasavvur beradi.




32-rasm. Xitoy tasviriy san‘ati. Tan sulolasi davri (618–907)



33-rasm. «Berk shahar» Xitoy imperatorlar saroyi


Bu suratlarda diniy mavzularda ishlangan kompozitsiyalardan tashqari, oddiy hayotni tasvirlovchi maishiy janrdagi kompozitsiyalar ham keng uchraydi.

Tan asri rassomchiligining yutuqlari manzara janrida yaqqol namoyon boʻladi. Bu davrda koʻpgina manzarachi rassomlar yashab ijod etgan. Ularning asarlari koʻp hollarda boʻyiga oʻralgan matolarga ishlangan. Kompozitsiyani bunday boʻyiga ishlash dunyoning cheksiz va ulugʻvor ekanini koʻrsatishga imkon bergan. Rassomlar



34-rasm. Berk shahar interyeri

asarlarida baland, serviqor tog' cho'qqilarini, sukunat ichiga cho'mgan o'rmon, g'orlarni tasvirlaydilar. Ularning tantanavor, sirli ko'rinishlari kishilarni tabiat, hayot to'g'risida fikr yuritishga davat etadi. Manzara san'atining ravnaqi Sun asrida yangi tamoyillar bilan boyidi, mazmunan yanada chuqurlashdi. Sun davri manzarachi rassomlaridan biri Go Si (1020–1090) o'tmish manzara san'ati yutuqlarini chuqur o'zlashtirib, uning hayotiy mazmunini yanada boyitdi. U o'z risolalarida voqelikning tasviri



35-rasm. Berk shahar. Tarx

real bo'lishi kerakligini uqtirdi va tabiatni chuqur o'rganish asosida asar yaratishni talab qildi. Tabiat go'zalligi esa uning doimiy yangilanib borishida ekanligini ta'kidladi. Tabiat sirlarini chuqur o'rganish, o'tmish an'alarini yaxshi bilish asosidagina rassom o'z uslub va san'atini yaratishi mumkinligini ko'rsatdi.

Go Si «Kuz tumani» asarida chiziqlar ritmi va havo perspektivasi imkoniyatlaridan foydalanib, tuman ichra cho'kkan cheksiz va ulug'vor tabiat obrazini yaratadi. Go Si qora bo'yoq-tush imkoniyatlaridan o'rinli foydalanadi. Birinchi planning to'q bo'yoqlarda aniq qilib ishlanishi (daraxt va kulbalar), orqa planning yengil belgilab chiqilishi tabiat cheksizligi va ulug'vorligini ko'rsatishga xizmat qiladi. Ijodkor tomonidan his etilgan kuz fasliga xos munglilik va sukunat tuman paytidagi biroz nam havo tasvirida aks ettirilgan.

Sun asrining mashhur rassomlaridan biri Ma Yuan (1190--1224) manzara asarlarning muallifidir. Uning manzaralari sodda, hayajonli. U o'z asarlarida sanoqli obraz, predmetlardan foydalanadi. Lekin chiziq va shakllarning emotsional imkoniyatidan unumli foydalanish hisobiga o'z asarlarining tugal va ta'sirchan bo'lishiga erishadi. Asarlari esa mungli va xavotirlanish kayfiyati bilan «sug'orilgan». «Qishki ko'ldagi baliqchi» asari Ma Yuan ijodiga xos tomonlarni namoyon qiladi.

Rassom qayiqdagi tanho baliqchini tasvirlaydi. Ko'lining qirg'oqlari ko'rinmaydi. Ular yengil tuman ichida yo'qolgan. Faqat baliqchi silueti shu suv to'lqinlarida tebranadi, atrofini o'rab olgan chiziqlar shu harakatni kuchaytirib kompozitsiya dinamikasini oshiradi. Rassomning «Tog'dagi yomg'irli kun», «Oydin kecha» asarlari ham o'zining shoirona yechimi bilan esda qoladi.

Ma Yuan zamondoshi Sya Guy (1190--1225) an'anaviy manzara san'ati namunalari davom ettirib, uni yanada chuqurlashtirdi. Inson va tabiat orasidagi bog'liqlikni Ma Yuanga nisbatan yaxshiroq ko'rsatishga harakat qildi. Insonning tabiat bilan kurashiga bag'ishlangan kompozitsiyalarni ishladi.

Sun asrida maishiy janr ham rivojlandi. Shahar hayotiga bag'ishlangan lavhalar — xalq sayillari, zodagonlar hayotidan

olingan syujetlarda ko'plab asarlar yaratildi. «Gullar va qushlar» janri ham Sun asrida rivojlandi.

Mo'gul bosqinchilari Xitoyga bostirib kirib, uning madaniy hayotiga qattiq zarba berdi. Lekin mo'g'ullarga qarshi bo'lgan norozilik XIII asrning 40-yillarida monax Gju Yuan Chjan rahbarligidagi xalq qo'zg'olonida o'z aksini topdi va mo'g'ullar uzii-kesil Xitoydan uloqtirib tashlandi. San'at va madaniyat yana o'zining ravnaq yo'liga qadam qo'ydi.

XII–XIII asrlar san'atiga xos yuksaklik davri kishilarning orzusiga aylanib qoldi. Rassomlar ijodida individual xususiyatlar yo'qola boshladi. O'tmish an'alariga taqlid qilish, ko'chirish ijodda passivlikni keltirib chiqardi.

Lekin mo'g'ullar istibdodi tugagach, me'morchilikda birmuncha jonlanish sezildi. Ajoyib saroy va ibodatxonalar yuzaga keldi. Yangi shaharlar barpo bo'ldi. O'tmish Xitoy me'morchilik an'analari yangi davr mazmuni bilan boyidi.

Pekindagi «Berk shahar» deb nom olgan imperator saroyi Xitoy me'morchilik san'atining muhim nodir yodgorligi hisoblanadi.

Qator me'morchilik komplekslaridan tashkil topgan bu saroy katta maydonni egallagan. Zinalar, yo'llar, suhbat qurish uchun mo'ljallab qurilgan shiyponlar maysa va daraxtlarga boy tabiat qo'ynida uning ajralmas qismiga aylangan. Binolar o'yma va rang naqshlari bilan bezatilgan. Pekin ibodatxonalari ham katta komplekslardan iborat bo'lgan.

Ko'mish marosimi bilan bog'liq bo'lgan me'morchilik kompleksi ichida Min sulolasi (1368–1644) maqbaralari majmuyi alohida o'rinni egallaydi. Ibodatxona, minora, yer osti uy va saroylari ko'mish marosimi bilan bog'liq bo'lgan me'morchilik kompleksini tashkil etadi. Unga boradigan yo'l chekkasiga esa hayvon va odamlarning haykallari qatori ishlangan. Me'morchilikda jimjimadorlik va serhashamlikka intilishning ortishi avvalgi davr Xitoy me'morchiligiga xos sipolik, soddalik va ulug'vorlikning yo'qolib borishiga olib keldi. Qurilgan binolarda bezakka e'tibor berish uning emotsional kuchini so'ndira boshladi.

Rassomlik san'atida shoyiga gul ishlash an'anaviy uslubda, avvalgi davr uslublarini qaytarish hisobiga bordi. Shu o'rinda



36-rasm. Go Si. Erta bahor. 1072-y. Gugun, Taybey

«Amaldor xotini xizmatkor bilan» (XVI asr) asari e'tiborli. XIX asrda Xitoyda o'rta asr me'morchiligining so'nggi namunalari yuzaga keldi.

Amaliy bezak san'ati. O'rta asr Xitoy amaliy san'ati ham mashhurdir. Chinni buyumlar, tosh, yog'och va suyak o'ymakorligi borasidagi bu davr yutuqlari qaytarilmasdir.

Inkrustatsiya uslubida ishlangan mebel, kashtachilik va to'qimachilik san'ati namunalari tashqi bozorlarda yuksak qadrlandi.

Xitoy san'ati Sharqdagi ko'p xalqlar va elatlar san'ati va madaniyati bilan yaqin aloqada bo'ldi, ulardan ta'sirlandi. Shu bilan birga, ularga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Qadimiy boy an'anaga ega bo'lgan Xitoy san'ati o'ziga nisbatan yangi shakllanayotgan davlatlar san'atining shakllanishida muhim rol o'ynadi. Yaponiya, Koreya, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari san'atkorlari qadimiy Xitoy san'ati an'analaridan ozuqa oldi.

◆ 27-mavzu.

O'RTA ASRLAR TURKIYA SAN'ATI

XI asrda saljuq turklari (O'rta Osiyodagi ko'chmanchi turkiy qabila) Kichik Osiyoning kattagina qismini bosib olib, mustaqil feodal davlatini tashkil etdilar. Unga saljuq sulolasi vakillari rahbarlik qildilar. XIII asrga kelib, O'rta Yer dengizi havzasi hamda Qora dengiz sohillarini ham egallab, qudratli davlatlardan biriga aylandi.

Shu siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot davrida san'at va madaniyat jiddiy rivojlandi, shahar qurilishi kengaydi. Savdo-sotiqning o'sishi hunarmandchilik, amaliy-dekorativ san'at ravnaqiga ham ta'sir o'tkazdi. Kulolchilik, gilam to'qish, metalldan badiiy buyumlar yasash sohasida yutuqlar qo'lga kiritildi. Bu san'atlar mahalliy an'analar asosida hamda Kichik Osiyodagi yaqin qo'shni mamlakatlar, ayniqsa, Kavkaz orti, Eron, Iroq ta'sirida shakllandi. Mo'g'ul galalarining istibdodi Turkiya yerlarini mustaqillikka ega bo'lmagan qator feodal yerlariga parchalanishiga sabab bo'ldi.

Lekin XIV asr boshlarida katta bo'lmagan knyazlik asta-sekin o'z yerlarini kengaytirib, tezda Usmon imperiyasi deb nom olgan davlatga aylandi.

Shu davrda turk san'ati va madaniyati ham o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ydi, me'morchilik, tasviriy va amaliy san'atda muhim nodir asarlar yaratildi.

Bu san'atlarning shakllanishida saljuq davri san'ati an'analari muhim rol o'ynadi. Shu bilan birga, Vizantiya san'ati ham bu davr san'atiga, uning xarakteriga sezilarli ta'sir o'tkazdi. Bu

ta'sir turklarning Konstantinopolni bosib olganlaridan keyin boshlandi.

Turk me'morlari binolarning shaklan aniqligi, nisbatlarining bejirimligi va qubbali binolar qurish ishi bilan katta muvaffaqiyatga erishdilar.

Arka qirralari, dekorativ tokchalarga, ravoqlarni bezab turgan muqarnaslar (stalaktitlar) qurilgan binolarning nihoyatda jimjimador bo'lishiga xizmat qilgan. Handasiy va islomiy naqshlar relyeflar, epigraf yozuvlar bilan uyg'unlashib murakkab, chuqur mazmunli falsafiy mazmun hosil qilgan.


Bino bezagida devorlar rangiga ham alohida e'tibor beriladi. Me'morchilik ravnaqi dekorativ san'at tarmoqlarining rivojlanishiga ta'sir qildi, yog'och o'ymakorligi borasida yuksak cho'qqiga erishildi. Saljuq davrida rassomlik ham mavjud bo'lib, u Vizantiya, Armaniston, qisman Eron miniaturasi ta'sirida shakllandi. Usmoniylar davri me'morchiligining dastlabki bosqichida bevosita saljuq me'morchiligi an'analari rivojlantirilgan bo'lsa ham, keyinroq Konstantinopol yerlarini bosib olgandan keyin, Vizantiya san'ati an'analari keng o'rin egallay boshladi. Turk me'morlari Vizantiya ibodatxonalarini qurish tamoyillarini qabul qilib, uning ko'rinishiga yangi badiiy mazmun kiritdilar.

Bu davr turk me'morchiligida katta gumbazli binolar qurish. binoning ichki fazoviy kengligiga alohida e'tibor berish kuchaydi.

Usmoniylarni Vizantiyada qurgan birinchi katta arxitekturasi XVII asr boshida sulton Ahmed I davrida quriladi. Shu paytgacha Istambuldagi eng katta jomemasjid moslashtirilgan Avliyo Sofiya edi. Sulton Ahmed buyrug'iga binoan yangi bino Vizantiya me'morchilik durdonasi bilan tenglasha oladigan bo'lishi kerak edi. Masjid 7 yilda qurilib, 1916-yil qurilish ishlari to'la bitkazildi. Masjid 6 minorali bo'lib, klassik ko'rinishdagi 4 ta burchakli minora, qolgan 2 minora esa ichki sahnga o'rnatilgan va hovliga qaratilgan.

Sulton Ahmed masjidi hozirda ham Turkiya masjidlari orasida eng kattasi hisoblanadi. Masjid arxitekturasi Avliyo Sofiya ibodatxonasini eslatsa ham turk me'morchilik an'analari bilan to'ldirilgan. Saroyning tashqi hovlisidan unumli foydalanib, turk

me'morchiligiga xos favvora va manzarali daraxtlar bilan boyitilgan. Masjidda koshinkorlik keng qo'llanilgan. Uning ikkinchi nomi «Ko'k masjid». Obida turk mashhur me'mori Xo'ja Sinon shogirdi Mehmet Og'a tamonidan loyihalashtirilgan va qurilgan.




37-rasm. Sulton Boyazid II masjidi. Istanbul. Qirqim


Turk tasviriy san'ati, asosan, miniatura ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu san'at bevosita Ozarbayjon va Eron san'ati ta'sirida rivojlandi. Turk miniatura san'ati taraqqiyoti XVI asrga to'g'ri keladi. Bu davrda qator yetuk miniaturachilar yashab, ijod etdi. «Sulton Sulaymon tarixi»ga ishlangan miniaturlarda turk miniatura san'atiga xos fazilat – voqelikni shoshiimay bayon etishga va kompozitsiyani birmuncha perspektiv planda yechishga intilish hollari seziladi.

Albatta, bu miniaturlarda Ozarbayjon, Eron miniaturachilariga xos nafislik yetishmasa ham, lekin yaxlit badiiy obraz yaratishda o'ziga xoslik ko'rinadi.


Turkiya amaliy san'ati bilan shuhrat qozondi. Kulolchilik, to'qimachilik, gilam to'qish, metall dan qurol-aslaha, uy anjomlari yasash borasida erishilgan yutuqlar alohida o'rin egallaydi.



*38-rasm. Sulton Boyazid
II masjidi. Tarh*



*39-rasm. Sulton Ahmed masjidi (Ko'k masjid).
Me'mor Mehmet og'a. Istambul*



40-rasm. Dubulga. Turkiya XVI oxiri – XVII asrlar

Oʻrta asr turk sanʼati Yaqin Sharq badiiy hayotida muhim rol oʻynadi. Turk sanʼatkorlari yaratgan sanʼat namunalarining qoʻshni mamlakatlarga taʼsiri kuchli boʻldi. Keyinchalik turk sanʼatkorlari yaratgan saroy va masjidlar tipida arab mamlakatlarida, Bolqon yarimoroli va Qrimda koʻplab binolar qurildi.

**O'RTA ASRLAR SAN'ATI TARIXIGA OID
ADABIYOTLAR RO'YXATI**

UMUMIY ADABIYOTLAR

1. Всеобщая история искусств /ред. коллегия/. В 6 ти томах. /т. 2 книга 1.2./ – М.: «Искусство», 1960.
2. Всеобщая история архитектуры /ред. коллегия/. В 12 ти томах/ Т. 2. – М.: 1970.
3. История искусства зарубежных стран /средние века, возрождение,/ /под редак. Ц.Г.Нессельштраус//. – М.: 1982.
4. *Арган Дж.К.* История итальянского искусства. – М.: 1990. т.1.
5. *Бицилли П.М.* Элементы средневековой культуры. – СПб.: 1995.
6. *Гуревич А.Я.* Категория средневековой культуры. – М.: 1984.
7. *Гуревич А.Я.* Средневековый мир. Культура безмолвствующего большинства. – М.: 1990.
8. *Данилова И.Е.* От средних веков к Возрождению. – М.: 1975.
9. *Даркевич В.П.* Путиями средневековых мастеров. – М.: 1972.
10. *Нессельштраус Ц.Г.* Искусство раннего средневековья. – СПб.: «Азбука», 2000. – 384с., ил./МРДИ/.
11. *Тяжелов В.Н.* Искусство средних веков. – М.: 1968.
12. *Тяжелов В.Н., Соловцовский О.И.* Искусство средних веков. – М.: 1975.
13. *Эко У.* Эволюция средневековой эстетики. – СПб.: «Азбука-классика», 2004.
14. *Ҳишам Мортада.* Традиционал Исламис Принциплес оф Буилт энвиронмент. Лондон-New Йорк 2007.

Vizantiya san'ati

1. *Банк А.В.* Культура и искусство Византии IV–XV вв. – М.: 1975.
2. *Даркевич В.П.* Светское искусство Византии. – М.: 1975.
3. *Лазарев В.Н.* Византийская живопись. – М.: 1971.
4. *Лазарев В.Н.* История византийской живописи, т. 1–2. – М.: 1947–1948.

G'arbiy Yevropa san'ati

1. *Ле Гофф Ж.* Цивилизация средневекового Запада. – М.: 1992.
2. *Ляковская О.Ф.* Французская готика. – М.: 1973.
3. *Муратова К. М.* Мастера французской готики 12–13 вв, – М.: «Искусство», 1988.
4. *Нессельштраус Ц.Г.* Искусство Западной Европы в средние века. Л. – М.: 1964.
5. *Тяжелов В.Н.* Искусство средних веков в Западной и Центральной Европе. (Малая история искусств.) – М.: 1981.
6. *Ювалова Е.* Немецкая скульптура 1200–1270. – М.: Искусство, 1983.

MUNDARIJA

UMUMJAHON SAN'ATI TARIXI. TASVIRIY SAN'AT VA ARHITEKTURA

(*Ibtido, Qadimgi davr, O'rta asrlar*)

1-mavzu. San'at tur va janrlari. Arxitektura soha va turlari.....3

I qism

IBTIDOIY JAMOA DAVRI BADIY MADANIYATI

2-mavzu. Ibtido davri. Taraqqiyot bosqichlari, san'atdagi xususiyatlar.....20

3-mavzu. Dastlabki ishlab chiqarish davri, uning san'atdagi ifodasi.....26

II qism

QADIMGI DAVR

4-mavzu. Qadimgi Sharq san'ati. Umumiy ta'rif.....37

QADIMGI MISR SAN'ATI

Qadimgi Misr tasviriy san'at va arxitekturasi: davrlari, yodgorliklar tipologiyasi, funksional va badiiy jihatlari

5-mavzu. Qadimgi Misrning Sululalargacha bo'lgan davrdagi
tasviriy san'at va arxitekturasi.....40

Sululalargacha bo'lgan davrda Misr arxitektura va tasviriy san'ati.....43

Qadimgi podshohlik davri Misr arxitekturasi va tasviriy san'ati.....46

6-mavzu. O'rta podshohlik davri arxitektura va tasviriy san'ati.....53

7-mavzu. Yangi podshohlik davri Qadimgi Misr tasviriy san'at
va arxitekturasi.....57

Amarna davri.....60

So'nggi podshohlik davri64

8-mavzu. Mesopotamiya /Old Osiyo/ san'ati.....66

Qadimgi Mesopotamiya san'ati.....68

Shumer va Akkad san'ati.....69

Ossuriya san'ati73

Urartu davlati san'ati. Yangi-Bobil podshohligi san'ati.....76

9-mavzu. Qadimgi Eron san'ati.....78

10-mavzu. Qadimgi Hindiston san'ati.....83

11-mavzu. Qadimgi Xitoy san'ati.....90

III qism

ANTIK DAVR SAN'ATI

12-mavzu. Krit-Miken san'ati (Egey san'ati).....100

Mikena davri. Arxitektura va tasviriy san'at.....110

QADIMGI YUNONISTON SAN'ATI

13-mavzu. Gomer va Arxaika davri. Tasviriy san'at va arxitektura...	122
Arxaika davri Gretsiya tasviriy san'at va arxitekturasi.....	124
14-mavzu. Klassika davrlarida Qadimgi Yunoniston tasviriy san'at va arxitekturasi	139
Ilk klassika davri. Tasviriy san'at va arxitektura.....	139

YUQORI KLASSIKA DAVRI YUNON TASVIRIY SAN'AT VA ARXITEKTURASI

(mil. av. 450–410-yy.)

Yuqori klassika davri arxitekturasi.....	154
So'nggi klassika davrida tasviriy san'at va arxitektura.....	163
15-mavzu. Ellinizm davri san'ati.....	172
Antik madaniyat ta'siridagi xalqlar san'ati. Arxitektura va tasviriy san'atda lokal xususiyatlar.....	172

QADIMGI ITALIYA SAN'ATI

16-mavzu. Etrusklar san'ati Rim davriga muqaddima sifatida.....	179
17-mavzu. Qadimgi Rim san'ati.....	182
Arxitektura va tasviriy san'at: umumiy tavsif, asosiy davrlari va rivojlanish xususiyatlari. Arxitektura: maktablar, uslublar.....	182
18-mavzu. Qadimgi Rim tasviriy san'ati.....	190
Badiiy maktablar, markazlar.....	190
19-mavzu. O'rta asrlar san'ati.....	199
20-mavzu. Vizantiya san'ati.....	202

G'ARBIY YEVROPA DAVLATLARI

21-mavzu. Varvarlar va franklar davri san'ati.....	207
22-mavzu. Roman davri san'ati.....	210
Tasviriy san'at va arxitektura.....	210
23-mavzu. Gotika davri san'ati.....	217
Tasviriy san'at va arxitektura.....	217
24-mavzu. O'rta asrlar Sharq san'ati. Arab Xalifaligi davri.....	227
25-mavzu. O'rta asrlar Eron va Afg'oniston san'ati.....	237
Arxitektura, tasviriy va amaliy san'at.....	237
Eron san'ati.....	238
Afg'oniston san'ati.....	242
26-mavzu. O'rta asrlar Hindiston, Xitoy san'ati Arxitektura, tasviriy va amaliy san'at.....	248
Hindiston san'ati.....	248
Boburiylar davri.....	253

O'RTA ASRLAR XITOIY SAN'ATI

Arxitektura, tasviriy va amaliy san'at.....	258
27-mavzu. O'rta asrlar Turkiya san'ati.....	268

**SHUHRAT NIGMATOVICH
ABDULLAYEV**

ARXITEKTURA TARIXI

I QISM

**Umumjahon san'ati:
Ibtido, Qadimgi davr, O'rta asrlar**

*Muharrir Dildora Abduraimova
Badiiy muharrir Maftuna Vaxxobova
Texnik muharrir Yelena Tolochko
Musahhah Dildora Abduraimova
Sahifalovchi Gulchehra Azizova*

Litsenziya raqami AI № 163. 09.11.2009. Bosishga 2018-yil 12-oktabrda ruxsat etildi. Bichimi 60×84¹/₁₆. Ofset qog'oz. Times TAD garnituras. Shartli bosma tabog'i 16,04. Nashr tabog'i 17,25. Shartnoma № 100–2018. Adadi 200 nusxada. Buyurtma № 55.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi tezkor matbaa bo'limida chop etildi. 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (371) 244–10–45. Faks: (371) 244–58–55.



*Cho'lpon nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi*

ISBN 978-9943-5380-3-0



9 789943 538030